

UMUMIY PEDAGOGIKA

O'QUY DO'LLANMA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**AXRAROVA B., SADIKOVA SH.,
SODIKOV U., ALLAYAROVA S., SHODMONOV SH.**

UMUMIY PEDAGOGIKA

O'QUV QO'LLANMA

Barcha ta'lim yo'nalishlari uchun

B 27244



Toshkent

“MUMTOZ SO‘Z”

2020

UO'K: 37.013(075)

KBK 74.00

U-52

Umumiy pedagogika: o'quv qullanma / Z.Axrarova va boshq.
– Тошкент : MUMTOZ SO'Z, 2020. - 332 б.

Masul muharrir: A.D.Askarov - pedagogika fanlari bo'yicha PhD, dotsent

Taqrizchilar: M.E.Xaydarov - pedagogika fanlari doktori, professor
X.J.Xudayqulov - pedagogika fanlari doktori

O'quv qo'llanma nopedagogik oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi bakalavrlarga mo'ljallangan bo'lib, amaldagi na'munaviy dastur asosida tayyorlangan. Unda O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari, tarbiya nazariyasi, didaktika, elektron pedagogika, ta'lim menejmenti, ta'lim muassasasini boshqarishning umumiy asoslari hamda pedagogik mahoratga oid mavzular o'z ifodasini topgan.

«Umumiy pedagogika» o'quv kursida taqdim qilinayotgan o'quv materiallari oliy ta'lim tizimida bakalavrlarga quyilayotgan hamda ular tomonidan bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lishi uchun kuzda tutilgan davlat talablari asosida yoritilgan.

Oquv qo'llanma P3-20170929789 sonli "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarining ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida nashrga tayyorlangan.

O'quv qo'llanma Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Kengashining 2020 yil 28 oktyabrdagi 3-son yig'ilishida nashga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9943-6085-0-4

© Z.Axrarova va boshq., 2020

© MUMTOZ SO'Z, 2020

MUNDARIJA

I. KIRISH	4
II. MASHG'ULOT MATERIALLARI	7
1-mavzu: Pedagogikaning predmeti va ilmiy-tadqiqot metodlari.....	7
2-mavzu: Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari.....	11
3-mavzu: Antik davrdan VII asrgacha va sharq uyg'onish davrida tarbiya, ilm-fan va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.....	31
4-mavzu: XIV asrdan XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan davrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.....	50
5-mavzu: Iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim tizimi.....	76
6-mavzu: Tarbiya jarayoni mohiyati va prinsiplari.....	96
7-mavzu: Tarbiya metodlari va vositalari.....	109
8-mavzu: Tarbiya turlari va vazifalari.....	119
9-mavzu: O'quvchilar jamoasi – pedagogik asosiy shakli, oila tarbiyasi.....	156
10-mavzu: Didaktika ta'lim nazariyasi sifaidda. Ta'lim mazmuni, davlat ta'lim standartlari.....	170
11-mavzu: Ta'limni tashkiliy shakllari.....	206
12-mavzu: Ta'lim metodlari va vositalari.....	223
13-mavzu: Pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari.....	243
14-mavzu: Ta'limda innovatsion metodlar.....	260
15-mavzu: Pedagogik mahorat va uning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni. Pedagogik texnika va o'qituvchi mahoratini takomillashtirish.....	276
16-mavzu: Korreksion pedagogika asoslari.....	288
17-mavzu: Ta'lim tizimini boshqarishning mohiyati.....	302
III. MUSTAQIL TA'LIM MATERIALLARI	316
IV. GLOSSARIY	320
V. ADABIYOTLAR RO'YXATI	331

KIRISH

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo'lib ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish – ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun - qoidalarni muttasil izlaganlar. Bu esa pedagogika fanini maydonga kelishiga sabab bo'lgan. Chunki, insonni ma'rifatli va manaviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligida analga oshiriladi.

Pedagogika tarbiya haqidagi fandır. Pedagogika – grekcha so'z bo'lib "paydogogos" – bola yetaklovchi ma'nosini anglatadi. Insonlarning ma'rifiy va ma'naviy barkamollikka munosabatlarini o'zgarib borishi natijasida pedagogika (bolani to'g'ri hayotga boshlash san'ati) fani xalq orasida o'z mavqeiga ega bo'ldi. Shu tariqa insonni tarbiyalovchi fan sifatida pedagogika dunyoviy fanlar tizimi qatoridan alohida o'rin egalladi. Uning bosh masalasi tarbiyadir.

Tarbiyadagi keng mano talim, rivojlanish, malumot bilan bo'langan holda barkamol insonni voyaga yetkazishni o'zida mujassamlashtiradi.

Insonni tarbiyasi haqidagi o'oyalar, qoidalar, qonunlar dastlab qissalarda, pandnomalarda, yozma yodgorliklarda, xalq oo'zaki ijodida asoslab berilgan bo'lsa, keyinchalik mustaqil fan tarzida o'z mavqeini mustahkamlaydi.

Zotan, ota-bobolarimiz azal-azaldan bola tarbiyasiga alohida e'tibor qaratganlar. Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, Beruniy, Az-Zamaxshariy, Navoiy, Bobur, Ogahiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'ipon singari uluo' olimu adiblar, fozilu fuzolalar ta'lim-tarbiya borasida ko'p asarlar bitganlar. Sharq pedagogikasining asoschilari hisoblanmish Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub"i, Kaykovusning "Qobusnoma"si, Voiz Koshfiyning "Futuvvanomai Sultoniy" asari kabilar bunga dalildir. Tarixdan ma'lumki, bir vaqtlar Sharq pedagogikasi gullab-yashnagan. Olmon olimi Xerler "Sharq Yevropaning muallimidir" deganda ana shu rivojlanish davrini ko'zda tutgandir, ehtimol.

Bugun respublikamizdagi barcha oliy o'quv yurtlarida pedagogika fanini kiritilishi, ya'ni har qanday kasb-ixtissoslik egasi pedagogika asoslaridan xabardor bo'lishini ta'minlash zamirida inson kamoloti yotadi.

Qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning milliy

modelidagi bosh muddaosi komil inson tarbiyasi, mustaqil fikrlovchi ijodkor shaxsni tarbiyalash masalalaridir. Bu vazifani esa pedagogika asoslaridan xabarsiz kishi meyoriga yetkazishi amrimaholdir.

Ushbu ma'noda bo'lajak o'qituvchilar oldiga qo'yiladigan yangi pedagogik tafakkurni shakllantirish vazifasi bugungi pedagogika fanining mohiyatini tashkil etadi shuningdek, jamiyat oldiga ko'ndalang turgan milliy maktab modelini yaratish milliy ta'lim tizimini uning mazmunini jahon tajribasi mezonlariga mos davlat standartlari asosida yaratish vazifasini hal etish o'zbek pedagogikasi fanining ham oldiga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasidagi pedagogik oliy o'quv yurtlarida o'rganiladigan pedagogika fani o'qituvchilik kasbiga tayyorlash tizimida alohida o'rin tutadi va ixtisosga yo'naltiruvchi fan hisoblanadi.

Mazkur o'quv fani o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini, urf-odat va an'analari, xalq pedagogikasi aqidalariga asoslanib, bo'lajak o'qituvchini milliy mustaqillik sharoitida yosh avlodni tarbiyalash, shaxsini kamol toptirish, e'tiqod va maslaklarini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy yuksaltirish jarayoniga olib kiradi.

Ma'rifat darg'asi Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida pedagogika faniga quyidagicha ta'rif bergan edi:

"Pedagogiya - ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir. Ilmi axloqning asosi tarbiya bolaning salomatligi, saodati uchun uni yaxshi tarbiya qilmoq, tanini pok tutmoq, unga yaxshi xulqlarni o'rgatmoq, yomon xulqlardan saqlab o'stirmoqdir". Pedagogika komil insonni tarbiyalashda hayotiy tajribalarga suyangan holda yuksak ma'niviyatni, milliy mafkurani shakllantiruvchi, qonun - qoida va metodlarni o'rganuvchi hodisalar doirasidagi fandır.

Pedagogika fani ijtimoiy fanlar tizimiga kirib, o'zining nazariy, ilmiy va amaliy asoslariga ega.

Pedagogikaning nazariy asoslari: Pedagogika fanining nazariy asoslari inson kamolotiga qaratilgan. xalq yaratgan boy tajriba, ilmiy tadqiqotga doir nazariy va metodik manbalarga O'rta Osiyo va jahon ma'rifatparvar, mutafakkir olimlarning asarlariga suyangan holda komil insonni tarbiyalash, o'qitishning qoida va umumiy qonuniyatlariga asoslanadi.

Pedagogikaning milliy asoslari: Pedagogikaning milliy asosi ta'lim masalalarini har bir millatning milliy merosi bilan umumbashariy,

umuminsoniy qadriyatlarni boʻlagan holda amalga oshirishdir. Har bir millatning oʻziga xos meros va qadriyatlariga suyangan holda tarbiyashunoslik masalalarining milliy asosda yosh avlodga yetkazish mazmuni, shakli, metod va tamoyillarini milliyashtirishdir.

Bir soʻz bilan aytganda, bugungi pedagogika fani Haqli ravishda tabiatni oliy mahsuli-insonning maʼnaviy-maʼrifiy shakllanishi uning shaxs sifatida rivojlanishi va mustaqil fikr yurituvchi komii inson boʻlib yetishishi yoʻlidagi qonuniyatlarini oʻrgatuvchi fan sifatida jamiyatda oʻz oʻrnini topishi lozim.

Bu esa insoniyat oʻzligini anglashga yangicha yondoshish faqat uning oʻziga, jamiyatga, tabiatga munosabatlarida emas, balki uning faoliyatida ilmiy-amaliy, islohiy oʻzgarishlar sodir etib, yangicha fikrlash asoslarini egallashga zamin yaratadi. Har qanday mutaxassis oʻzligini anglashi fuqaro maʼnaviy-intellektual yetuk shaxs boʻlib yetishishi uchun pedagogika asoslaridan yetarli xabardor boʻlishi shart.

1-MAVZU: PEDAGOGIKANING PREDMETI VA ILMIY-TADQIQOT METODLARI

Reja:

1. Pedagogikaning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari.
2. Pedagogika fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
3. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari.
4. Pedagogika fanlar tizimi.
5. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

Tayanch iboralar:

Pedagogika, didaktika, tarbiya nazariyasi, ijtimoiy tarbiya, bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish, shakllanish, shaxs, tarbiya, ta'lim, ilmiy tadqiqot metodlari, suhbat, kuzatish, eksperiment-tajriba, anketa-so'rovnoma, test, matematika-kibernetika.

1. Pedagogikaning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari.

Pedagogika (yunoncha "peydo" - bola, "goges" yetaklayman) ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, shaxsni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat mazmuni, ta'lim, ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, shakllari, metodlari, vositalari, yagona ijtimoiy maqsad asosida yosh avlodni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi. A.Avloniy tushunchani "bola tarbiyasining fani" ("pedagogiya") deb ataydi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati, uni o'qitish va tarbiyalashga e'tiborni qaratadi. Shu bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi Pedagogika fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi, yunoncha "didaktikos"- "o'rgatuvchi", "didasko"- "o'rganuvchi") – ta'limning nazariy jihatlari, ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'quvchi va o'qituvchi faoliyati, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi.

Ta'lim umumiy va maxsus ta'lim kabi turlarga ajratiladi. Pedagogika fanining muhim tarkibiy qismlaridan yana biri – bu tarbiya nazariyasi sanaladi. Tarbiya nazariyasi bevosita tarbiya jarayonini o'rganadi.

Tarbiya nazariyasi - pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Ijtimoiy tarbiya aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi.

Ijtimoiy tarbiya va uning bosqichlari. Insoniyatning yashash uchun kurashish va turli tabiiy ofatlardan himoyalaniish yo'lida olib borgan harakatlari tarbiya g'oyalariining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Ijtimoiy tarbiya g'oyalari asrlar davomida shakllanib kelgan bo'lib, kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining har bir bosqichida yangi mazmun bilan boyib borgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlarning guruh-guruh bo'lib hayot kechirishi sababli bolalarga tirikchilik o'tkazish yo'lidagi faoliyat (o'simlik mevalari, ildizlarini terish, hayvonlarni ovlash)ni tashkil etish borasidagi tajribalarni o'rgatish guruh a'zolari tomonidan birdek amalga oshirilgan. Bilimlar, aksariyat hollarda, mehnat va o'yin jarayonlarida o'zlashtirilgan. Mehnat faoliyatini tashkil etish jinsiy xarakterga ega bo'lganligi bois o'g'il va qiz bolalarni tarbiyalashda o'ziga xos jihlatlar ko'zga tashlangan.

Oila, xususiy mulk va davlatning paydo bo'lishi ijtimoiy tarbiya mazmunida ham tub o'zgarishlarning sodir etilishi, quldorlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Aynan mana shu davrdan tarbiya jamiyatning ijtimoiy talab va ehtiyojlari asosida yo'lga qo'yila boshladi. Erkin fuqarolarni tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni va vositalari borasidagi fikrlar Demokrit, Platon va Aristotellarning asarlarida muhim o'rin egallagan. Mutafakkirlarning asarlarida ushbu fikrlar mustaqil pedagogik nazariya sifatida emas. balki falsafiy qarashlar yoki jamiyatni tashkil etish loyihasining muhim komponenti tarzida bayon etilgan. Ushbu davrda tabiiy-ijtimoiy fanlar tizimi shakllanishi uchun boshlang'ich asoslar qo'yildi.

Quldorlik tuzumida erkin bo'lmagan kishilar (qullar)ning haq-huquqlari cheklanganligi bois tarbiya tizimi faqatgina quldorlar, ularning farzandlari uchun xizmat qilgan.

Feodal tuzumda pedagogik g'oyalar feodallar manfaatini ifoda eta boshladi. Mazkur davr pedagogik jarayonni tashkil etishda diniy g'oyalar yetakchi o'rin egallashi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy hayotda diniy muassasalar (G'arbda cherkov, Sharqda esa machitlar)ning roli osha borib,

bolalarni o'qitish va tarbiyalash ishlari asosan shu maskanlarda tashkil etildi. Garchi dunyoviy g'oyalarni ilgari surish, ilmiy nazariyalarni yaratish va targ'ib etishning din peshvolari tomonidan qoralanishi kabi holatlar ham ko'zga tashlangan bo'lsa-da, ammo savdo-iqtisodiy aloqalar ko'lamining kengayishi, tabiiy ofatlarga qarshi keskin chora ko'rish ehtiyoji ilmiy bilimlarni rivojlantirish hayotiy zaruriyat ekanligini isbotladi.

Savdo, hunarmandchilik va manufaktura negizida rivojlanib borayotgan ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish yo'lidagi amaliy harakatlar bu boradagi muvaffaqiyat murakkab texnikani boshqara oladigan shaxsni shakllantirish evaziga hal etilishi tasdiqladi. Bu davrda ilg'or, progressiv pedagogik g'oyalar ilgari surildi.

Aynan shu davrda pedagogika fani asoslari muayyan tizimga solindi va ilmiy jihatdan asoslandi. Shaxsga ta'lim berish, uni tarbiyalashga oid qarashlar yanada boyitildi; ta'lim tizimiga ilm-fan, texnika yangiliklarini tadbiq etish, o'qitishni yangi tizim (izchil, uzluksiz, asoslangan) asosida tashkil etish kabi g'oyalar ilgari surildi.

Sobiq Sho'ro davrida pedagogika fani mazmunan ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlari asosida boyib, ta'lim muassasalari tizimi shakllantirildi, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish nazariyasi asoslandi. Biroq, mazkur nazariya g'oyalarini amaliyotga tadbiq etishning puxta asoslangan mexanizmi yaratilmadi.


O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida "ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish" davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Asosiy e'tibor yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qaratildi.

Demak, pedagogika fani mavjud sharoitda barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat istiqbollari, bu boradagi muammolar va ularni hal etish yo'llarini o'rganadi.

2. Pedagogika fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish orqali jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Fanning maqsadi va vazifalarini belgilashda ijtimoiy munosabatlar, davlat va jamiyat qurilishi, uuning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida pedagogika fani yuksak ma'naviy-axloqiy

sifatlarga ega yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, ta'lim va tarbiya nazariyasini milliy istiqlol g'oyasi asosida ijodiy rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda quyidagi vazifalar bajariladi:



Pedagogika fanining vazifalari

3. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari (kategoriyalar matnda qoraytirilib ko'rsatilgan) quyidagilar hisoblanadi:

Shaxs psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Ta'lim o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini rivojlantirish tapkni6 toptirish jarayoni.

Bilim shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ma'lumot ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarbiya topgan dunyoqarash majmui.

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

4. Pedagogika fanlari tizimi. Shaxs kamolotini ta'minlash, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o'rganiladi.

Pedagogika nazariyasi – ta'lim yoshidagi bolalar, o'smirlar va o'spirinlarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi.

Pedagogika tarixi – ta'lim-tarbiyaga oid pedagogik fikrlarning rivojlanish, taraqqiy etish tarixini, shaxsni o'qitish va uni tarbiyalashning tarixiy shakllarini, shuningdek, asrlar davomida pedagogik jarayonda qo'llanilib kelingan metod va vositalarni o'rganadi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy

jihattan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi – boshlang'ich sinflar o'quvchilarini tarbiyalash, ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik, fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Korreksion (maxsus) pedagogika – rivojlanishida turli psixologik va fiziologik nuqsonlari bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi. Korreksion pedagogika tarkibiga turli sohalar kiradi. Ya'ni:

Surdopedagogika va surdopsixologiya – eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Oligofrenopedagogika va oligofrenopsixologiya – aqli zaif bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Tiflopedagogika va tiflopsixologiya – ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Logopediya va nutqiy buzilishlar psixologiyasi – nutqi, motorli-harakatlanish doirasida murakkab nuqsonlar bo'lgan bolalar (ko'r, soqov va kar bolalar)ni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Metodika xususiy fanlarni o'qitish xususiyatlarini o'rganadi.

Pedagogik mahorat – bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi.

Pedagogik texnologiya – ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammoiarini o'rganadi.

Ijtimoiy pedagogika – shaxsni ijtimoiylashtirish jarayoniga salbiy ta'sir etuvchi omillarni, ularni bartaraf etish yo'llarini, ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslar toifalariga ko'rsatiladigan ijtimoiy-pedagogik yordam mohiyatini, turlari, shakl, metod va vositalarini o'rganadi.

Kasbiy pedagogika – ta'lim oluvchilarga muayyan kasb yoki hunar yo'nalishida maxsus bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish, kasbiy faoliyatni malakali tashkil etish, kasbiy mahoratni takomillashtirish masalalarini o'rganadi.

Ta'lim menejmenti – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish, istiqbolni belgilash masalalarini o'rganadi.

Qiyosiy pedagogika – turli xalqlarning shaxsni tarbiyalashga oid

pedagogik qarashlari, ta'lim-tarbiya tizimi, pedagogik ta'limotlarning mohiyati, shuningdek, jahon ta'limiga xos bo'lgan samarali shakl, metod, vosita va innovatsion yondashuvlarni qiyosiy-genetik jihatdan o'rganadi.

Konfliktologiya – ta'lim jarayonida yuzaga keladigan pedagogik muammolar, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyatlar mohiyati, ularni samarali bartaraf etish yo'llarini o'rganadi.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi.

1. Falsafa – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

2. Iqtisodiyot nazariyasi – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarni anglashga xizmat qiladi.

3. Sotsiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

4. Etika (axloqshunoslik) – shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.

5. Estetika – shaxs tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

6. Fiziologiya – o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni beradi.

7. Gigiyena – o'quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi.

8. Psixologiya – shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-

irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

9. Tarix – pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g'oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo'naltiriladi.

10. Madaniyatshunoslik – o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

11. Tibbiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

12. Ma'naviyat asoslari – jamiyat, inson va ma'naviyat o'rtasidagi munosabatlarni, ma'naviyatning jamiyat taraqqiyoti, inson ongini rivojlanishidagi roli, fuqarolarni ma'naviy tarbiyalash omillarini o'rganadi.

5. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari. Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni, natijalari hisobiga ta'minlanadi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida sodir bo'lish sabablarini aniqlash, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etishni taqozo etadi. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlar shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, obyekt va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik va aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega jarayon.

Zamonaviy sharoitda pedagogik yo'nalishda tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

Pedagogik tahlil. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Suhbat metodi pedagogik kuzatish chog'ida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, vaziyatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon

beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida o'quvchilarning imkoniyatlari to'la namoyon bo'lishga erishish muhim.

Anketa (fransuzcha "tekshirish") metodi yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Bu metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Savollarga javoblar, odatda, yozma ravishda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi: 1) ochiq turdagi savollar (erkin, batafsil javob berish uchun imkon yaratadigan savollar); 2) yopiq turdagi savollar ("ha", "yo'q", "qisman" yoki "ijobiy", "qoniqarli", "salbiy" va hokazo tarzda javob variantlarini tanlashga imkon beradigan savollar).

Intervyu respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim muassasalarida uzluksiz ta'limni tashkil etishga oid hujjatlar talablarining bajarilish holatini o'rganish, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Test metodi respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat bo'ladi: 1) ochiq turdagi savollar (batafsil javob berish imkonini beradigan savollar); 2) yopiq turdagi savollar ("ha" yoki "yo'q", "ijobiy" yoki "salbiy" tarzda javoblarga asoslanadigan savollar); 3) to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar (to'g'ri deb topilgan javob varianti belgilanadi).

Boialar ijodini o'rganish metodi o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, ma'lum fan sohalari bo'yicha BKM darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning

ijodiy ishlari – kundalik, insho, yozma ish, referat va hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metod ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Pedagogik kuzatish. Uni qo'llash jarayonida ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba- avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik tajriba (“eksperiment” lotincha – “tajriba qilib ko'rish”) metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarining amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi va ularning samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Pedagogik tajribaning quyidagi turlari mavjud:

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiy xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Matematik statistika tajriba-sinov ishlari, shuningdek, umumiy holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo'liyaniladi. Muammo holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ayni vaqtda pedagogik yo'nalishda tadqiqotlar olib borishda Styudent, Kivirlyag, Rokich, V.Bespalko va V.Grechixin metodlaridan keng foydalanilmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. “Pedagogika” tushunchasi qanday mazmunni anglatadi?
2. Didaktika (ta'lim nazariyasi) nima?
3. Tarbiya nazariyasi nimalarni o'rganadi?
4. Pedagogika fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari mohiyatini yoriting.
6. Qanday fanlar pedagogik fanlar tizimiga kiradi?
7. Pedagogik tadqiqotlarni olib borishda qanday metodlar qo'llaniladi?

2-MAVZU: SHAXS RIVOJLANISHINING UMUMIY QONUNIYATLARI

Reja:

1. Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha.
2. Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar.
3. Shaxs rivojlanishida faoliyatning o'рни.
4. Shaxs rivojlanishida yosh va individual xususiyatlari.
5. Shaxsning ijtimoiylashuvi.

Tayanch iboralar:

Shaxs, rivojlanish, ta'sir qiluvchi omillar, "Individ", "shaxs", "individuallik", individual xususiyatlar, shaxs ijtimoiylashuvi, shaxsning ijtimoiy faolligi, qobiliyati.

1. **Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha.** Pedagogikada "shaxs" va "shaxsning rivojlanishi" tushunchalari ham tayanch tushunchalardan biri sanaladi.

Shaxs psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va duyoqarashga ega bo'lgan ijtimoiy mavjudot

Individ (lotincha "individuum" so'zidan olingan bo'lib, "bo'linmas", "vagona" ma'nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil etuvchi biologik mavjudot

Go'dak tug'ilganidan ma'lum yoshga qadar, ya'ni borliqni eng oddiy tarzda ang'aguniga qadar individ sanaladi. Bu davrda ham bola atrofdagi turli kishilar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi, istaklarini xatti-harakatlari, ovozi yordamida ifodalashga intiladi. Biroq, uning bu harakatlari ongli tarzda emas, balki shartli reflekslar yordamida tashkil etiladi. Demak, biologik mavjudot sanaladigan individ shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini anglashi, shuningdek, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

Har bir shaxs o'zgalardan farq qiladi. Shaxsni o'zgalardan farqlovchi jihatlari individuallik sanaladi. Individuallik shaxsning o'ziga xos xususiyatlarning aks etishi sanaladi.



Shaxsning individual xususiyatlari shaxsning yo'nalganligi, qiziqishlari, xarakteri, uni boshqalardan ajratib turadigan aqliy kamoloti va faoliyatining o'ziga xos, barqaror, muhim xususiyatlari

Tarbiya jarayonini tashkil etishda bola shaxsini puxta o'rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo'lish va uning individual xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

Individual yondashuv o'quvchining aqliy qobiliyati, bilishga bo'lgan qiziqishi va iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega. Bolaning harakatlari uning ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ongli ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Bu ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi.

Individning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishida irsiyat, ijtimoiy muhit va tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Ular ta'siridagina individ shaxs sifatida rivojlanib boradi. Rivojlanishning o'zi nima?

Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi

Rivojlanish manbai qarama-qarashliklar o'rtasidagi kurash sanaladi. Bela shaxsining rivojlanishi shaxs ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik biologik mavjudot hamdir.

Shaxsning rivojlanishi individning fiziologik, ruhiy va intellektual o'sishini ta'minlovchi faoliyat, xatti-harakatlarning miqdor va sifat jihatdan o'zgarishini ifodalovchi jarayon

Shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik (tabiiy) va ijtimoiy qonuniyatlar birdek ta'sir etadi, shu bois ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Shaxsning rivojlanishiga uning faoliyati, hayot

tarzi, yoshi, bilimi, turmush tajribasi, hatto fojiali vaziyatlar, turli kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson hayoti davomida doimo o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Zero, rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shu sababli shaxsga xos fazilatlarini to'g'ri va obyektiv baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar va shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan tarbiya jarayonida uning shaxs rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsata olishi uchun ta'lim oluvchining o'sishi va rivojlanishiga xos xususiyatlardan xabardor bo'lish va inobatga olish maqsadga muvofiq. Binobarin, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

2. Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar. Pedagogika, psixologiya va falsafa fanlarida individning shaxs sifatida rivojlanishiga irsiyat (biologik omillar), muhit (ijtimoiy omillar) hamda tarbiya kabi omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etadi.

Insonning shaxs sifatida rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi yoki biologik (tabiiy) omillar yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir?

O'z davrida ulug' mutafakkir Abu Rayhon Beruniy ilk bor ilgari inson kamolatida uch narsa – irsiyat, muhit hamda tarbiya muhim rol o'ynaydi degan qarashni ilgari surgan bo'lsa, Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma xususiyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari shaxs rivojlanishini ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, ruhiy rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar. Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs

sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.


Shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa shaxsni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Shaxs ma'lum **ijtimoiy tuzum mahsulidir**.

Faylasuflar **shaxsni tabiatning bir bo'lagi** deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g'oyani ifodalaydi. Jamiyat taraqqiyoti **shaxs rivojlanishi** uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Demak, shaxs va jamiyat o'rtasida uzviy aloqa mavjud.

Shunday qilib, shaxsning jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit va inson o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi; inson ularga faol ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi.

Shaxs rivojlanishini ta'minlashda ijtimoiy muhit tomonidan ko'rsatiladigan ta'siri tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. YA'ni: 1) tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi; 2) tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi; 3) tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin; 4) tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Shaxsning shakllanishida quyidagi omillarning ta'sir katta:



Shaxsni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar

Demak, tarbiya bilan rivojlanish o'zaro aloqador bo'lib, shaxsning rivojlanishida tarbiya doimiy va uzluksiz xarakter kasb etadi. Bola shaxsning rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

3. Shaxs rivojlanishida faoliyatnig o'zini. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi. Faoliyat o'zi nima?

Faoliyat ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etish yo'lida shaxs tomonidan amalga oshirilayotgan kundalik va kasbiy xatti-harakatlarning muayyan shakli

Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi.

Shaxsni shakllantirishda faoliyat samaradorligiga erishish uchun mazkur jarayonini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish talab etiladi.

Faoliyat faol va sust (passiv) bo'lishi mumkin. O'smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o'z inkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o'zini shaxs sifatida ko'rsata olishi unda o'z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko'zga tashlanadi.

Ta'lim jarayonida faollik o'quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o'z qobiliyatini namoyon etishga yo'llaydi. Bilishga bo'lgan faollik o'quvchining intellektual rivojlanishini ta'minlaydi.

Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatning ham turlarini kengaytiradi. Shunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlicha bo'ladi. Ta'lim muassasasida hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o'zgarib turishi kerak.

Shaxsning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli

kechmaydi. Zero, ta'lim oluvchi shaxsida kuzatiladigan kamchilik va xatti-harakatlarida ko'zga tashlanadigan barcha kamchiliklarning asosiy sababi faoliyatning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham shaxs faoliyati uning rivojlanishi natijasi sanaladi. Shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish (shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi) orqali faoliyatni rivojlantirish muhim sanaladi.

O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlari o'yin, o'qish va mehnatdan iborat bo'lib, faoliyatga kirishishning asosiy shakli muloqot sanaladi. Faoliyat yo'nalishlari shaxs o'quvchilar tomonidan o'zlarining qiziqish va ehtiyojlariga ko'ra tanlanadi. Ayni vaqtda ta'lim muassasalarida o'quvchilar bilish (o'quv fanlari asoslarini o'zlashtirish), ijtimoiy, sport, badiiy, texnik hamda hunarmandchilikka bo'lgan shaxsiy qiziqish va ehtiyojlariga ko'ra turli to'garak, klubfarga jalb etilgandirlar.

4. Shaxs rivojlanishining yosh va individual xususiyatlari. Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Zero, bola organizmining o'sishi, rivojlanishi hamda psixik taraqqiy etishi turli yosh davrlarida turlicha kechadi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, Konstantin Ushinskiy va Abdulla Avloniyalar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqitirib o'tganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda qiyin. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, anglash tezligi, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, tartibsiz ishlashi, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi, qobiliyati kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismaniy) va psixologik xususiyatlar


Ta'lim-tarbiya yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bu bola rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shaxs, shuningdek, individual, shaxsiy, o'ziga xos xususiyatlarga ham ega bo'ladi.

Shaxsning individual, shaxsiy xususiyatlari
uning yo'nalganligi, qiziqishlari, xarakteri, uni boshqalardan ajratib turadigan aqliy kamoloti hamda faoliyatining o'ziga xos, barqaror, muhim xususiyatlari

Shaxsning individual xususiyatlarini aniqlash uchun insonga xos temperamentning umumiy tiplari hamda bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish metodikalaridan xabardor bo'lish lozim. Temperament (lotinchadan "temperamentum" qismlarning bir-biriga munosabati) shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir. Turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari mavjud. Masalan, V sinf o'quvchisi bilan IX sinf o'quvchisini tenglashtirib bo'lmaydi.

Shaxsning rivojlanganlik darajasini belgilovchi holatlar. uning fiziologik, ruhiy va intellektual o'sishini ta'minlovchi faoliyat va xatti-harakatlarining miqdor va sifat jihatdan o'zgarishi

Шу сабабли педагогик-психологик нуқтаи назардан таълим олувчиларнинг yoshi ularning aqliy, axloqiy, jismoniy va ruhiy kamolotiga ko'ra quyidagi davrlarga bo'linadi:



Yosh davrlari

Go'daklik davrida bola bir qadar faol bo'ladi. Bu faollik qo'l-oyoqlarning shartli refleks asosida harakatlanib turishi bilan ifodalanadi. Harakatchanlik va faollik bolaning dastlabki chinqiriqlarida ham kuzatiladi. Bola tomonidan shartli reflekslar asosida tashkil etilayotgan harakatlar u besh-olti haftalik bo'lganda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu davrga kelib u o'z onasini taniydi, uning ovozi eshitganda tinchlanadi, boshqalarning ovozlari eshitganda

xushyor tortadi. Go'daklik davrida idrok va tasavvurlari tarkib topa boshlaydi. U ko'zga tashlanadigan barcha narsani ushlab ko'rishga, ozg'iga solishga, mazasini totishga intiladi. Besh-olti oylik bola o'tiradigan bo'ladi, so'ngra emaklab, tik yurishga ham harakat qiladi. Ba'zan bir yoshga, gohida ikki yoshga to'lganda mustaqil yura boshlaydi.

olti oydan so'ng "g'o'ldirab" so'zlashga intiladi, atrofdagilarning gaplarini tushuna boshlaydi, unda asta-sekin passiv nutq shakllanadi. 2 yoshga qadan: qo'ygach, faol nutqni o'zlashtiradi. Nutqning o'sistu bilan: bola borliqni anglay boshlaydi. Go'daklik davridayoq bolaning xatti-harakatlari, xulq-atvorida hissiy kechinmalar namoyon bo'la boshlaydi. Uning harakatida ovqatlanish, issiq yoki sovuqni sezish kabi hissiy ta'sirlar kuzatiladi

Maktabgacha ta'lim muassasasigacha bo'lgan davrda bolaning harakatchanligi, idroki va nutqi zo'r berib taraqqiy qiladi. Unda tafakkur yuzaga keladi. Uning tafakkuri dastlab "predmetli (obrazli) tafakkur" sanaladi, unga ko'ra bola o'zi idrok qilgan narsalar, shuningdek, atrofdagi narsalar haqida fikrlay oladi. Mazkur yosh davridagi tafakkur bolaning predmetlarga bo'lgan munosabatida ifodalanadi. Uning nuqti tafakkuri bilan uzluksiz holda o'sadi. Uch yoshda kundalik turmushda ishlatiladigan so'zlarni, nutqning oddiy grammatik shakllarini o'zlashtirib oladi.

Mazkur davrda sezgilar, atrofdagilarga munosabatni: ifodalovchi tuyg'ular ko'zga tashlana boshlaydi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning hissiyotga beriluvchanligi uning faolligida, harakatchanligida ko'rinadi. Bu yoshda bola o'ynay boshlaydi, uning o'yinlari asosan katta yoshdagi kishilar hamda o'zidan katta bolalarning harakatlariga taqlid qilishdan iborat bo'ladi. Uni o'yinning mazmunidan ko'ra o'ynalayotgan narsalar (qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar) ko'proq zavqlantiradi.

Bola ikki yoshga to'lib, uch yoshga o'lganda undagi ixtiyorsiz faollikni asta-sekin ixtiyoriy faollik egallay boshlaydi. Endilikda u kattalar tomonidan topshirilgan oddiy yumushlarni bajara oladi. Shu bilan birga unda ixtiyoriy diqqat ham o'sa boshlaydi. Aynan shu yoshda bolada "men"lik yuzaga keladi. U o'zini atrofdagi tengdoshlari bilan solishtiradi, ulardan o'zini ayrata boshlaydi. Bunday harakatlarni "mening o'zim", "men istayman", "men istamayman", "men o'zim bajaraman" yoki "men buni bajara olmayman" kabi so'zlar bilan ifodalaydi. Tevarak-atrofdagi narsalarga muayyan ta'sir ko'rsatish bilan birga ularga nisbatan o'z munosabatini bildiradi.

Maktabgacha ta'lim davrida bola bog'cha va oila muhitida o'ziga yarasha ijtimoiy munosabatlarda ishtirok eta boshlaydi. Kattalar va tengdoshlari bilan ko'proq so'zlashayotganligi sababli bolaning nutqi va tafakkuri o'sadi. O'zi ko'rgan, eshitgan voqea-hodisalar to'g'risida ancha batafsil hikoya qiladi.

Atrofdagilar bilan muloqot va munosabatda kirishayotganligi bolada xulq-atvor shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Buning natijasida unda ma'naviy-axloqiy hukmlar tarkib topadi. Bola endilikda atrofdagilarning xatti-harakatlari, boshqalarga nisbatan yondashuvlari asosida "yaxshi" va "yomon"ni farqlaydi. Bu yoshda bolalar "sen yaxshisan (yomonsan)" degan so'zlarning ma'nosini yaxshi anglaydilar.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bola faoliyatining asosiy turi o'yin sanaladi. U o'yin orqali tevarak-atrofnini, unda kechayotgan voqea-hodisalar mohiyatini bir qadar bilib oladi.

O'yinlar asosida maktabgacha ta'lim yoshi bolalarida ijodiy xayol, zehn, fahm-farosat, topqirlik kabi sifatlar tarbiyalanadi. Shu bilan birga o'yin yordamida ularning hissiyotlari shakllanadi: o'yin davomida bolalar o'zlarini tetik his qiladilar, erishilayotgan yutuq, muvaffaqiyatdan zavqlanadilar go'zallikni his qiladilar. Jamoa asosida o'ynaladigan o'yinlar orqali bolalarda o'rtoqlik va do'stlik hislari tarkib topadi. Rolli, muayyan qoidalariga muvofiq o'ynaladigan o'yinlar bolalarda kuzatuvchanlik qobiliyatini o'stiradi, xotirasini mustahkamlanishiga yordam beradi, intizomlilikni tarbiyalaydi.

Mazkur yoshi davrida bola o'z kuchi va egallagan ko'nikmalariga tayangan holda rasm chizadi, turli narsalarning loyiha (konstruksiya)larini, shuningdek, turli materiallardan, loydan, plastilindan buyumlar yasaydi. Olti-yetti yoshga to'lganda bolada o'qishga bo'lgan qiziqish, intilish yuzaga keladi. Maktab hayoti uning uchun qiziqarli, maroqli tuyuladi, o'qishga boradigan birinchi kunni intiqlik bilan kutadi.

Boshlang'ich ta'lim davrida o'yin faoliyatining o'rmini endi o'qish faoliyati egallaydi. O'qib-o'rganish mazkur davrda bolaning vazifasi, ijtimoiy burchi bo'lib qoladi. O'qish jarayonida u darsliklarini va o'quv qurollarini sarajom saqlash, o'z vatida o'rniidan turish, maktabga belgilangan vaqtda borish, uyga berilgan vazifalarni bajarishi kabilar yuzasidan ko'nikmalarni o'zlashtiradi. Ushbu jarayonda o'quvchi tobora mas'uliyatli bo'lib boradi. Ta'lim jarayonida beriladigan bilimlar bolaning saviyasini o'stiradi, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi, sezgilari va irodasining o'sishiga ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, bu davrda ham bolaning diqqati hali beqaror bo'ladi. Ta'limning dastlabki vaqtida qat'iy talablarning qo'yilishi tufayli endilikda u darsda o'qituvchini tinglay olishi, ko'rsatilayotgan narsalarni diqqat bilan qarashi, tengdoshlari so'zlayotganda e'tibor berishi, yozuv taxtasi yoki kitobdan ko'chirib olinayotgan matnga diqqatni qaratishi lozim. Shu asosida o'quvchida ixtiyoriy va barqaror diqqat o'sadi, kuzatuvchanlik qobiliyati rivojlanadi.

Boshlang'ich sinfda o'quvchi xotirasida ham o'zgarishlar ro'y beradi. O'quvchi birinchi sinfdan boshlab, ta'lim jarayonida o'quv materialining ko'p qismini ixtiyoriy ravishda eslab qoladi. Shu bilan birga o'z-o'zini doimo nazorat qilib borishi lozim. Buning natijasida o'quvchi xotirasi takomillashadi.

Bu yoshda o'quvchilarning ko'pchiligi o'quv materialini yodlab olishga intiladilar. Buning sababli birinchi va ikkinchi sinflarda o'quvchilarning "o'z so'zlari" kam bo'ladi, grammatik nutq hali takomillashmagan bo'ladi, shu sababli materialni yodiab olishga intiladilar.

Bilimlarni muntazam o'zlashtirish, yozma nutqni bir qadar bilib olish va ta'lim jarayonining o'zi o'quvchilar tafakkurini yanada o'stiradi. 7-8 yoshli bolalarda ham tafakkur hali konkret xarakterda bo'ladi. Ular o'zlari idrok etgan yoki tasavvur qilgan narsalar haqidagina fikr yuritadilar.

Ta'lim jarayonida birinchi sinfdan boshlab o'quvchilarda mantiqiy tafakkurning dastlabki ko'rinishlari shakllana boshlaydi. Ona tili va matematika fanlarini o'rganish ushbu tafakkur shaklini rivojlanishiga yordam beradi. Uchinchi va to'rtinchi sinflarda o'quvchilar ilmiy bilimlarga oid ayrim tushunchalarni ham o'zlashtirib oladilar. Masalan, orol, yarim orol, dengiz, ko'l, daryo, yong'ir, chaqmoq, tog', tekislik kabi geografik, qo'shish, ayrish, ko'paytirish, bo'lish kabi matematik, ot, sifat, fe'i kabi grammatik, davlat, davlat ramzlari, bayroq, gimn, gerb kabi ijtimoiy-huquqiy, sotish, sotib olish, miqdor, mahsulot kabi iqtisodiy tushunchalarni egallaydilar. Shunday bo'lsa-da, mazkur davrda o'quvchilar aniq misollarni, ya'ni idrok qilinadigan va tasavvur etiladigan narsalarni ko'rmasdan turib qandaydir ta'rif va ifodalarni o'zlashtira olmaydilar. Ularning ma'nosini tushunmaydilar. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'quvchilariga mavhum xarakterdagi biror qoidani tushuntirganda aniq hayotiy misollar yordamida bayon qilish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga mazkur davrda o'quvchilarning ruhiyatida hissiy kechinmalar yuz beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida biror fanga, darsga

nisbatan qiziqish yuzaga keladi. Ular ta'lim olishni burch ekanligini anglab yetadilar. Dars vaqtida o'quvchi faoliyatiga qo'yilgan yuqori baho o'quvchilarda ruhiy tetiklik, shodlikni, iftixor kabi ijobiy hissiy kechinmalarni tug'diradi. Ularda darslarni yaxshi o'zlashtirishga intilish yuzaga keladi. Yomon baho olganda esa o'zidan norozi bo'lish, pushaymon qilish kabi salbiy kechinmalar sodir bo'ladi. Ayrim o'quvchilar yomon bahoni tuzatishni, yaxshi o'qishni istaydilar, ammo ayrimlar yomon baho tufayli o'ziga ishonmay qoladi, umidsizlik va tushkunlikka tushadi. Bu esa o'qituvchidan xushyorlikni talab qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari jismonan nisbatan tekis o'sadilar, o'g'il va qiz bolalar tashqi ko'rinishidan bir-birlaridan kam farq qiladilar.

Bo'ylari o'rtacha 120 sm, og'irliklari 22 kg atrofida bo'ladi. Suyaklarda tog'aylik ustun, naysimon ilik suyaklari asosan eniga o'sadi, bo'g'inlar, ko'krak qafasi, umurtqa pog'anasi va tos suyaklar yaxshi qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Bu davrda o'quvchilarning muskul paylari va bo'g'inlar tez o'sishi tufayli ular serharakat bo'ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi, 12 yoshda miyaning og'irligi kattalarniki bilan tenglashsa-da, tuzilishi jihatidan farq qiladi. Yurak, qon aylanish tizimi va nafas organlari o'sishda davom etadi. O'pka yaxshi rivojlangan bo'lsa-da, biroq nafas yo'li va diafragma bo'sh rivojlangan mazkur yoshda o'quvchilar uzoq vaqt harakatsiz tirsalar nafas olish qiyinlashib, organizmning kislorod bilan ta'minlanishi yomonlashadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yuragi o'zidan kattalarnikiga nisbatan ikki marta ko'p qon chiqaradi. Shu sababli ularning yurak urushi tez, bir daqiqada 90-92 martani tashkil etadi. Qon tarkibida oq qon tanachalari ko'p. Shu sababli ularni asabiylashishdan saqlash lozim. Ular ko'proq harakat qilishlari, ochiq havoda bo'lishlari, yetarlicha uxlashlari va dam olishlari lozim. Stol atrofida, partada to'g'ri o'tirishlarga, o'rinda tekis yotishlarga e'tibor berish zarur.

Jismoniy o'sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o'rganishga qiziquvchan bo'ladi.

Bolalar qiziqishini qanoatlantiruvchi qiziqarli uchrashuv, sayr, tomosha va ekskursiyalarni tashkil etish zarur. Mazkur yosh davri o'quvchilariga emotsionallik xos, ularning fikrlashi obrazli bo'ladi, his-tuyg'ulari mazmuni o'zgaradi. Ular odamlar bilan aloqa qilishga qiziqadilar.

O'smirlik (12-15 yoshlar). O'smirlikning murakkabligi **anatomik-fiziologik va psixologik** xususiyatdagi kuchli o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bolaning o'sishi tezlashadi. Bu davr "**o'tish davri**" ham deb yuritiladi.

“O‘tish davri” hisoblangan o‘smirlik yoshi uchun xarakterli bo‘lgan xususiyat – bu **jinsiy yetilish va intensiv (tezkor) rivojlanishning kuzatilishi, mustaqillik hamda o‘zini namoyish qilishga intilishdir.** Ushbu yosh davrida kuzatiladigan jinsiy yetilish o‘smirning fe‘l-atvoriga ta‘sir etadi. Shu sababli o‘smirlar bilan ishlashda ularga nisbatan ehtiyotkorona yondashuv talab qilinadi.

O‘smir hayotida mehnat, o‘yin, sport va jamoat ishlari katta rol o‘ynaydi. Ba‘zilarining o‘zlashtirishi pasayadi, intizomi bo‘shashadi.

Zamonaviy o‘smir ruhiyatida aks etuvchi holatlar: 1. Intellektual rivojlanish – tafakkur qobiliyatini shakllantirish talab etiladi, bilishga qiziqish ortadi. Bu davrda to‘garaklar, studiya, seksiya, turli tadbirlar o‘tkazish katta ahamiyatga ega. Ularning kitob o‘qishga qiziqishi ortadi. 2. O‘z-o‘zini anglash, baholash, tarbiyalash shakllanadi. U o‘zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi.

Ammo yuqoridagilar bilan bir qatorda o‘smir xarakterida murakkab qarama-qarshiliklar ham mavjud bo‘ladi. Bu o‘smir faoliyati, xulqida yangi xislatlarning shakllanishida ko‘rinadi.

Lekin o‘smirlarning hammasida ham bilishga qiziqish darajasi yuqori emas. 38 foiz o‘smir hech qaysi o‘quv fanlarini o‘qishga qiziqmaydi. Boshqalarining uchta yoki ikkita o‘quv fani, aksariyat holatlarda esa bitta o‘quv faniga qiziqishi aniqlangan. Kichik yoshdagi o‘smirlar qiziqishi o‘qituviga bog‘liq. Lekin ularning qiziqishlari, shuningdek, kitob o‘qishlari ham barqaror emas.

Turli to‘garaklarga 21 foiz o‘smir qatnashadi, qolganlari sport yoki musiqa bilan shug‘ullanadi. 40 foiz o‘quvchida sinfdan tashqari ishlarda qatnashishda ham barqarorlik yo‘q. Eng muhim qiziqish – teleko‘rsatuvlarga qaratilgan. Televizorni har kuni 88 foiz o‘smir tomosha qiladi.

O‘smirlar kunni o‘z ixtiyorlari bilan qanday o‘tkazadilar, degan savolga javob topish uchun o‘tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi: 85 foiz o‘smir vaqtini o‘z holicha o‘tkazadi, 70 foizi kino yoki televizor ko‘radi, 50 foizi sport bilan shug‘ullanadi, 45 foizi dam oladi. Shuningdek, yomon baho olmaslik uchun maktabga bordigan o‘smirlarning soni 15 foizni tashkil etadi.

O‘smirlarda **biror narsaga erishishga** nisbatan talab rivojlanadi. Ular tomonidan ijtimoiy talablarning bajarilishi asab tizimining rivojlanishiga ta‘sir etadi. Shuning uchun maktab hayoti “qiyin” vazifalarga to‘liq bo‘ladi.

Bu yoshda o'smirlar kattalar oldida o'zlarining erkinliklarini namoyish etishga harakat qiladilar. O'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan talab o'sadi. "Dangasa", "qo'pol", "bee'tibor", "qobiliyatsiz" degan kattalarning baholarini ular og'rinib qabul qiladilar.

O'smir yoshida o'g'il va qiz bolalar o'rtasida farq kuchayadi. VII sinfdan intellektual malakalar pasayadi. Shuning uchun bu davrda o'quvchilarning rivojlanishlariga katta e'tibor berish lozim. O'z-o'zini tarbiyalash natijasida o'g'il bolalar kuchli, erkin, e'tiborli, jasur; qizlar esa o'ta ko'nikuvchan, kamtar va jiddiy bo'la boshlaydilar. O'smirda o'z vaqtini rejalashtirishda yordam berish zarur. 13-14 yoshgacha o'smirda burch hissi, mas'uliyatni his etish, vazminlik paydo bo'la boshlaydi. Muhimi, o'smirda hurmat qilish, kamsitmaslik, katta bo'lib qolganligini tan olish zarur.

O'spirinlik (15-18 yoshlar). Bu davr o'spirinlar kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarning o'quvchilari sanaladilar. Mazkur davr o'spirinlarning ilk balog'atga yetgan davridir. Bu davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O'spirinlar hayotga kelajak nuqtai nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini o'rtirishga intilish kuchaya boradi, his-tuyg'ularida ham o'zgarish yuz beradi. O'z-o'zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda ular o'rtasida munozaralar o'tkazish yaxshi natija beradi. O'spirinlar o'z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o'spirinning barcha intilishlari ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Ularda o'quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi.

Bu yosh davri aqliy faoliyatning rivojlanish davri ham sanaladi. O'quvchilar o'z fikrlarini mustaqil ifodalab, shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. O'quvchilar o'zlarini kattalardek tutishga, o'ziga xosligini namoyon etishga va boshqalarning diqqatini o'ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o'z qarashlari nuqtai nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o'z qiziqishlari bilan o'lchaydilar. Shu bois ularga kattalarning beg'araz, to'g'ri yo'nalish berishlari muhim sanaladi.

Bu davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Shaxsning jamoadagi mavqei, jamoa a'zolari bilan muloqotga kirishishlari, turli sohalar bo'yicha munosabatni samarali tashkil etishlari yetuk shaxs bo'lib shakllanishlarida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bunda ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan

Respublika “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining ta’siri beqiyos. Zero, o’spirinlar mustaqil hayotga qadam qo’yayotgan bo’lib, bu jarayonning to’g’ri, samarali kechishi ularning faol fuqaro bo’lib shakllanishlari uchun poydevor yaratadi.

5. Shaxsning ijtimoiylashuvi. Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Binobarin, ta’lim jarayonida o’quvchilarga jamiyatda birga yashash bilan bog’liq bo’lgan holat va hodisalar o’rgatiladi. Bu jarayonda o’quvchi ijtimoiy munosabatlarga kirishadi, jamiyat a’zolari bilan o’zaro munosabatda bo’ladi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Har qanday jamiyatning rivojlanish jarayonida ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, ideallr, axloqiy meyorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqiladi. Ijtimoiylashuv davrida har bir jamiyat a’zosi mazkur qadriyat, ideal, meyor va qoidalarning mohiyatini anglaydi, ularga rioya qilish asosida faoliyat yuritadi.

Ijtimoiylashuv jarayoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan shaxsning xatti-harakatlari, xulq-atvori jamiyat talablariga mos kelishi, u bilan o’zaro uyg’unlasha olishi, salbiy ijtimoiy hodisalarga, individual rivojlanishiga to’sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba’zan aksi ham bo’ladi: to’liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba’zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko’rsatmaydigan odamlar ham mavjud.

Bu holat ko’p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o’qituvchilar hamda ota-onalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama-qarshilik insonparvarlik g’oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin.

Zero, O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunida ham ta’kidlab o’tilganidek, uzluksiz ta’limni tashkil etish, rivojlantirish hamda ta’limning ijtimoiylashuviga erishish dolzarb masaladir. Ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. “Individ”, “shaxs”, “individuallik” tushunchalarini sharhlang.
2. “Rivojlanish” va “shaxs rivojlanishi” tushunchalarini ta’riflang.
3. Shaxsning shakllanishiga qanday omillar ta’sir etadi?
4. Shaxs faoliyati haqida so’zlab bering.
5. O’quvchilarning yosh xususiyatlarini tavsiflang.

3-MAVZU: ANTIK DAVRDAN VII ASRGACHA VA SHARQ UYG'ONISH DAVRIDA TARBIYA, ILM-FAN VA PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTI

Reja:

1. Pedagogika tarixi fanining predmeti, vazifasi va metodologik asoslari.
2. Xalq og'zaki ijodida va qadimgi yozma manbalarda tarbiyaga oid masalalar.
3. Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta'lim-tarbiya masalalari.
4. Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta'lim-tarbiya.
5. Sharq uyg'onish davrida ilm-fan, pedagogik fikrlar taraqqiyoti.

Tayanch iboralar:

Pedagogika tarixi, sharq uyg'onish davrida ilm-fan, pedagogik fikrlar taraqqiyoti, eng qadimgi yozma yodgorliklar, Avesto O'rxun, Enasoy, xalq og'zaki ijodi, Sparta, Yunoniston, Islom ta'limoti.

1. Pedagogika tarixi fanining predmeti, vazifasi va metodologik asosi. Mustaqillik tufayli ko'hna Turkiston diyorida istiqomat kilib kelgan barcha xalqlar milliy kadriyatlarining kayta tiklanishi va rivojlanishiga muayassar bo'ldi.

Bizga malumki sobiq Sho'ro tuzumi davrida o'zbek xalqining madaniyati, maorifi, ijtimoiy manaviy, ma'rifiy sohadagi yutuqlari kamsitilib, asosan maorif va madaniyat g'arbda rivojlanib, keyinchalik sharqqa tasir etgan degan fikrlar singdirib kelingan edi.

Mustaqilligimiz sharofati shundaki, tarixni buzib ko'rsatishga chek qo'yildi. Turon zaminida yashagan xalqlarning ma'rifiy-madaniy qarashlari eng qadimgi davrdan yuksak ekanligi olimlarimiz tomonidan isbotlab berildi.

Ma'lumki, uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalklari o'zining ta'lim-tarbiyaga oid ulkan merosini yaratib, takomillashtirib, insoniyatning yuzlab avlodlarini insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, do'stlik, saxovat kabi umuminsoniy fazilatlarini ruxida tarbiyalab kelgan, xalqimiz yaratgan ma'rifiy fikr sarchashmalari qadim-qadimlarga borib taqaladi.

O'zbek xalqi tarixan ta'lim-tarbiya soxasida o'ziga xos dorilfunun

yaratgan. Hatto, hozirgi o'zbek xalqi yashab turgan zaminda zardushtiylik dini keng yoyilgan davrda ham pedagogik mafkura xukm surgan. Bu zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» ning bizgacha yetib kelgan ayrim sahifalarida o'z ifodasini topgan.

Biroq islomgacha davr tarbiyashunosligi, fan va madaniyati tarixini yoritish imkoni chegaralangan. Chunki, dastlab Iskandar boshchiligidagi yunon - makedon qo'shinlari, so'ngra Qutayba ibn Muslim rahbarligidagi arab istilochilari olib borgan talonchiliklar, vayronagarchiliklar tufayli o'sha davrga tegishli deyarli barcha asarlar, manbalar yo'qotib yuborilgan. Lekin islom va islomdan keyingi mavjud pedagogik qarashlarni, milliy ta'lim-tarbiyaga oid an'analarni, qadriyatlarini, xalq pedagogikasini ilmiy o'rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tadbiiq etish bugungi kunning muhim va dolzarb muammosidir.

Istiqlolga erishganimizga qadar biz tarbiya ishlarimizga Yevropa pedagogikasini asos qilib oldik va o'rgandik. Endigi vazifa Sharq pedagogikasi bilan G'arb pedagogikasining eng ilg'or an'analarini o'rganishga e'tiborni qaratishdan iboratdir. Chunki ilmu-fan avval Sharqda taraqqiy etgan.

Yuqoridagi fikrlarning o'zi madaniyat, ma'rifat Sharqdan Yevropaga tarqalgan deyishga asos bo'la oladi. Chunki, savodxonlik maktablarining, qadimiy yozuvlarning vujudga kelishi eng qadimgi manbalarda «Avesto», So'g'd, Baqtriya, Urxun-Yenisey, Xorazm va boshqa yozuvlar Turon zaminida yuzaga kelganligi, shu muqaddas zaminda yashayotgan xalqlarning eng qadimgi ajdodlari savodxon kishilar ekanligidan dalolat beradi. Xaqiqatdan ham shunday, o'zbek xalqining madaniy merosi ulkan bir dengiz. O'tmishimizda unutilgan shunday ulkan sarchashmalar borki, ularni puxta, atroflicha o'rganmoq birinchi galdagi vazifamizdir.

Bu esa qadimiy boy marifiy merosimizning qimmatli manbalarini bebaho xazinamizni yuzaga olib chiqish, uni hozirgi ilmiy pedagogik tafakkuri iste'moliga kiritishni taqozo etadi. VII - XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda madaniyat, ilm - fan beqiyos rivojlana bordi. Ayniqsa, aniq fanlarga qiziqish orta boshladi. O'sha tarixiy davrda al - Xorazmiy, Al - Forobiy, Al-Farg'oniy, Al - Beruniy, Ibn Sino, Az - Zamahshariy singari qomusiy olimlar dunyoga keldi. Ulug' mutafakkirlar inson ma'naviy va tafakkur dunyosini boyitishda insoniyat ongini, madaniy-ma'rifiy qarashlarni

o'stirishda o'z davrida va keyinchalik ham asosiy rol o'ynadilar, inson kamolotiga doir beqiyos ta'limotni yaratdilar. XV - XVI asrlarga kelib qadimiy Turkiston jahonga Qozizoda Rumiy, Ulug'bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Bobur, singari allomalarni voyaga yetkazdi. U davrda Markaziy Osiyo shaharlarida qator madaniy va ilmiy markazlar vujudga keldi.

Demak, Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek xalqi va uning madaniy - ma'rifiy taraqqiyoti asrlar davomida misli ko'rilmagan darajada rivojlangan. Qolaversa, uning axloq odobga oid qarashlari, pedagogika fanlari bo'yicha ta'limoti butun jahonga o'rnatilgan bo'larli mano va mazmun kasb etgan.

Oktabr to'ntarishidan keyin, yani 1917 yildan boshlab Turkiston mintaqasida Sho'ro xokimiyati o'rnatila boshlandi. Bu tuzum kommunistik mafkurani targ'ib va tashviq qildi.

Sho'ro xokimiyatining dastlabki yillarida Turkistonda yangi maktablar ochish va ularni mustahkamlash vazifalari ko'ndalang qilib qo'yiladi. Unda yoshlar ongiga mustabid xokimiyat g'oyalarini singdirish, shu ishlarni amalga oshiradigan pedagog xodimlar tayyorlashga etibor berildi. U ishlarni amalga oshirishda Rossiya xalq talimi yo'nalishi va tizimi yetakchilik qilgan. Tarixdan malumki, qaysi davlat yoki mamlakat hukmron bo'lsa, u tobe mamlakat va xalqqa o'z mafkurasini, madaniyatini, axloq-odob aqidalarini singdirishga harakat qilgan.

1924 yildan boshlab Turkistonning parchalanishi, milliy respublikalar tashkil etilishi oqibatida milliy madaniyat yo'li asta - sekin to'sila boshlandi. Asrlar osha amalda qo'llanib kelingan, qomusiy ilmlar bitilgan yozuv man etildi. Avval lotin keyin rus grafikasi asosiga qurilgan yozuvga o'tildi. Bu tadbir Markaziy Osiyo xalqlarining o'z madaniyati tarixini o'rganish imkoniyatidan mahrum qildi.

Maktablarda dunyo fanining rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan o'zbek fan va madaniyatining asoschilari, musulmon olamining ulug' zotlari emas, balki o'zbek xalqi kamolatiga aloqasi bo'lmagan shaxslar faoliyati o'rgatildi.

Musulmon dunyosining muqaddas kitobi Qur'oni Karim, Muhammad Alayhissalom xadislarni o'rganish taqib ostiga olindi. Natijada o'zbek xalqi milliy axloq - odobi va tarbiya ananalaridan mahrum bo'la boshladi.

Bu yo`qotish o`zbek fani, madaniyati va pedagogika fanlari rivojlanishiga salbiy ta`sirini ko`rsatdi.

1991 yilga kelib, O`zbekiston xalqi mustaqillikka erishgach, o`zining yangi milliy Qomusi asosida hamma sohada bo`lganidek fan va madaniyati, «Pedagogika tarixi»ga ham yangicha yondashish imkoniyati tug`ildi.

O`tmishda atoqli mutafakkirlar pedagogikaga doir muhim fikrlarni aytib qoldirganlar, bularni o`rganish pedagogik tafakkurning o`sishiga, pedagogik madaniyatning ortishiga imkon beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz o`rganmokchi bo`lgan pedagogika tarixi fanining maqsad va vazifalarini aniqlashimiz va buni ta`lim - tarbiya jarayonida amaliyot bilan bog`lab qo`llashimiz va takomillashtirishimiz lozimdir.

Demak, «Pedagogika tarixi» fani eng qadimgi zamonlardan tortib, to xozirgi kungacha bo`lgan turli tarixiy davrlardagi tarbiya, maktab va pedagogik nazariyalar taraqqiyotini milliy va umuminsoniy aqidalarga tayanib o`rganadi.

Zero, pedagogika tarixi fanini o`rganish o`qituvchining pedagogik mahoratini, madaniyatini oshiradi. Unga o`tmishdagi eng yaxshi tajribalarni hozirgi zamon maktablari ta`lim - tarbiya jarayoniga bog`lab tahlil etish imkoniyatini yaratib beradi. Bu fanni o`rganish o`qituvchining umumpedagogik bilim darajasini kengaytiradi, pedagogik merosga to`g`ri munosabatda bo`lishiga undaydi. Shuni ta`kidlash lozimki, biz pedagogika tarixini o`rganishimiz orqali jahon madaniyati, ta`lim - tarbiya, maorif muassasalari tizimini takomillashib borish jarayoni xaqidagi umumiy tasavvurga ega bo`lamiz. «Pedagogika tarixi» fani bo`lajak o`qituvchilarga bilim beribgina qolmay, ularda milliy iftihor va g`urur hissini ham tarbiyalaydi.

Pedagogika tarixi ijtimoiy fan bo`lib, tarixiy pedagogik hodisalarga davr talabi asosida yondoshadi, tarbiya nazariyasi va amaliyotini turli bosqichlarida xilma-xil bo`lganligini ochib beradi.

Pedagogika tarixi fani kuyidagi fanlar, ya`ni: pedagogika, psixologiya, madaniyat tarixi, O`zbekiston tarixi, jahon xalqlari tarixi, falsafa, etnografiya, arxeologiya, axloqshunoslik va boshqa bir qator fanlar bilan o`zviy aloqadadir.

Biz pedagogika tarixi fanini o`rganish va tahlil qilishimizda

kuyidagilarga asoslanamiz. Bular : qadimgi yozuvlar, bitiklar, qo'l yozma yodgorliklari, Sharq mutafakkirlarining ilmiy, ma'naviy merosi, xalq og'zaki ijodi, muqaddas kitoblari, pandnomalar, dasturlar, o'quv qo'llanmalari va darsliklar, xalq maorifi masalalariga oid materiallar, matbuot materiallari.

2. Xalq og'zaki ijodida va qadimgi yozma manbalarda tarbiyaga oid masalalar. Ma'lumki, kishilar va kishilik jamiyati vujudga kelishi jarayonida inson ham biologik jihatdan, ham inson sifatida takomillashib borgan. Dastlabki diniy e'tiqodlar, oddiy ixtirolarning takomillashib borishi, inson ongining shakllanib borishiga turtki bo'ldi. Bu jarayon ming-ming yillar davom etib, inson ongi shakllanishining asosi bo'lgan xulq-odob qoidalari tarkib topadi.

Eng qadimgi kishilarning dastlabki oddiy istaklari, orzu-umidlari, xislatlari qadimgi eposlarda, ulardagi afsonaviy obrazlar qiyofasida o'z ifodasini topgan. Ruxga sig'inish - onimizm, ajdodlar ruxiga sig'inish totemizm, sehrgarlik kabi diniy e'tiqodlar va marosimlar aks etgan afsonalar, rivoyatlarda eng qadimgi avlodlarimizning tafakkur dunyosi aks etgan. Ammo bu rivoyatlar, afsonalar massagetlar, saklar, xorazmiylar, sug'dlar, parfiyaliklar yashagan davrlarga borib taqaladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, eng qadimgi tarbiya xaqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo'lish namunasidir. Ma'naviy madaniyat yodgorliklari: Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi marosimlari, urf-odatlari, ijtimoiy-falsafiy, madaniy, adabiy-tarixiy voqealarini ifoda etuvchi komusiy yodgorlik namunasi bo'lmish «Avesto»; afsonaviy qaxramonlar tasvirlangan dostonlar ya'ni, «Alpomish», «Manas», «Shiroq», «To'maris», «Go'ro'g'li», «Murodxon», «Ravshan», shuningdek qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning «Tarix», Strabonning «Geografiya» asarlari, Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Urxun-Yenisey bitiklari va boshqa shu kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan va shular orqali bizgacha yetib kelgan. Bu yodgorliklar insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyat qay darajada katta rol o'ynaganligidan dalolat beradi. Xususan, tarbiya insonning aqliy va axloqiy jihatdan tarkib topa borishiga ta'sir etgan bo'lsa, insonning shakllana borishi ham, o'z navbatida, insoniyat jamiyatining tarkib topa borishiga yordam bergan. Xullas, insonning o'z-o'zini anglashi va jamiyat

taraqqiyoti bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan. Bu tarixiy jarayonni bilish, inson tafakkurining qadimgi davrlardan boshlab bosqichma-bosqich rivojlanishi va shu bilan birga insonning ham tobora shakllana borganligi haqida to'la tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Biz yuqorida keltirgan tarixiy, falsafiy, pedagogik adabiyotlarda tadqiqotchilar, unuman, eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o'rganishda uch asosiy manbaga tayanganligini ko'ramiz:

1. Xalq og'zaki ijodi materiallari.
2. Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi.
3. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ashyolar.

Ma'lumki, o'tmishda kishilar mehnat faoliyati jarayonida o'z ehtiyojlarini qondirgan va bu jarayon yosh avlodga mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilishga yordam bergan.

Tarixchilar va tarixchi-pedagoglarning ko'rsatishicha, kishilarning mehnat faoliyati yosh jihatidan uch guruhga bo'lingan:

- 1) bolalar va o'smirlar;
- 2) hayot va mehnatda to'la ishtirok etuvchilar;
- 3) keksalar.

Ibtidoiy jamiyat davrida bola o'zi uddalay oladigan faoliyatga bevosita qo'shilib, u hayot kechirish va mehnat qilishga o'rgangan. O'g'il bolalar erkaklar bilan bajariladigan ov qilish, qurol yasash kabi ishlarni bajarsa, qizlar ayollar mehnati bilan tanishar edi. Bola ma'lum tayyorgarlikdan so'ng sinovlardan o'tib, keyin amaliy faoliyatda ishtirok eta boshlaydi. Urug'chilik jamoasi bosqichida bolalar mehnati, kasb-hunarga intilish faollashib bordi. Tajribali kishilar bolalarni tarbiyalash bilan birga ularni yozishga ham o'rgata boshlaydilar. Asta-sekin tarbiya tizimiga harbiy vatanparvarlik tarbiyasining boshlang'ich turlari kirib kela boshlaydi. Jamiyat taraqqiyoti bilan birga bolalarga dalalarni o'lchash, suv toshqinlarining oldini olish, odamlarni davolash usullariga oid bilimlar berish ishlari avj oldi. Natijada maktablarga va yozuvga ehtiyoj sezila boshlaydi. Dastlab suratlashlik rivojlanib, piktografik xat paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik qo'shni mamlakatlardan kirib kelgan xarf bilan yozish usuli paydo bo'ladi va tez tarqala boshlaydi.

3. Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta'lim-tarbiya masalalari.
Tadqiqotchilar eramizdan oldingi birinchi ming yillik o'rtalarida oromiy

yozuvi, Aleksandr Makedonskiy istilosidan so'ng esa yunon yozuvi va shu bilan birga forsiy mixxat ham ma'lum vaqtlarda qo'llanib kelinganini ta'kidlaydilar.

Demak, o'sha davridayoq Xorazm, So'g'd, Kushan, Run (Urxun-Yenisey), uyg'ur va boshqa yozuvlar paydo bo'lgan va bu yuksalish ta'lim-tarbiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Chunki, inson ibtidoiy jamoa bo'lib yashash tarzini asta-sekin rivojlantirib borib, jahon madaniyatida katta kashfiyotlar yaratdi. Chunonchi, Xitoyda qog'ozning ixtiro etilishi, Xindistonda hisoblash o'nlik sistemasining paydo bo'lishi, Mesopotamiyada Yer kurrasini graduslarga, sutkani soat, daqiqa va soniyalarga bo'lishning joriy etilishi, Markaziy Osiyoda o'rta dengiz bilan Hindistonni bog'lovchi arxeologik topilmalari, tarixchilar, adabiyot va san'at namoyandalarining ijodiy merosi, san'at va adabiyot namunalari buning dalilidir.

Ibtidoiy jamiyat taraqqiyotining birinchi bosqichida, urug'chilik jamiyatidan oldingi jamiyatda, odamlar tabiatning tayyor mahsulotlarini istemol qilganlar, ovchilik bilan shug'ullanganlar. Yashash vositalarini topib qo'lga kiritish jarayoni unchalik murakkab bo'lmagan va ayni vaqtda ko'p mehnat talab qilgan. Jamoa bo'lib yashash, mehnat qilish va istemol qilish sharoitidagina yirik hayvonlarni ovlash, tabiat bilan kurashish mumkin bo'lar edi. Hamma narsa mushtarak edi, jamoa a'zolari o'rtasida ijtimoiy tafovutlar yo'q edi. Ibtidoiy jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar qon-qarindoshlik munosabatlariga asoslanar edi. Undagi mehnat va ijtimoiy (sotsial) vazifalarning taqsimlanishi tabiiy biologik negizga asoslanadi, buning natijasida erkaklar bilan ayollar o'rtasida mehnat taqsimoti mavjud edi, shuningdek, ijtimoiy jamoalar yosh jihatdan bo'linar edi.

Yangi tug'ilgan bola dastlab o'sib yetishayotgan kishilar guruhiga berilardi: uni shu jamoadagi keksayib qolgan kishilar boqardilar va o'stirardilar. Bola tegishli biologik yoshga to'lib, ba'zan bir ijtimoiy tajriba, mehnat qilishni o'rganib, hayotiy bilim va malakalarni egallaganidan keyin odam qatoriga kiritilib to'la qimmatli mehnatchilar guruhiga o'tar edi. Bir qancha zamonlardan so'ng bu guruhga o'tkazish chog'ida initsiatsiya «bag'ishlab» udumi bajariadigan bo'lib qoldi. Bu udumni bajarish chog'ida yoshlarning turmushga qanchalik tayyorlanganliklari: azob-uqubatlarga bardosh bera olishlari, botirlik va chidamlilik ko'rsata bilishlari sinab ko'rilar edi.

Yosh jihatdan bo'lingan bir guruh a'zolari bilan boshqa guruh a'zolari o'rtasidagi munosabatlar hech qayerda yozilmagan, lekin qat'iy bajariladigan odat hamda ananalar bilan tartibga solinib turar edi, bular tarkib topayotga ijtimoiy normalarni mustahkamlar edi.

Urug'chilik jamiyatidan oldingi jamiyatda tabiiy tanlanish va muhitga moslanishning biologik mexanizmlar xam odam taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir. Biroq, jamiyat rivojlanib borgan sari unda tarkib topayotgan ijtimoiy qonuniyatlar kattaroq rol o'ynay boshlaydi. asta-sekin ustunlik darajasiga ko'tariladi.

Ibtidoiy jamiyatda bola o'zining hayot faoliyati jarayonida, kattalarning ishlarida qatnashib, ular bilan kundalik muomalada bo'lib tarbiyalanar va ta'lim olar edi. Bola, keyinroq odat bo'lib qolganidek, hayotga hozirlanibgina qolmasdan, shu bilan birga, o'zi uddalay oladigan faoliyatga bevosita qo'shilib ham ketaveradi, kattalar bilan birga va ularning raxbarligida jamoa bo'lib mehnat qilishga va hayot kechirishga o'rganar edi. Mashaqqatii turmush kechirish va tabiat bilan kurash olib borish sharoitida odam faqat jamoa bo'lib yashashi va mehnat qilishi mumkin edi. Bunday jamiyatda hamma narsa jamoaniki bo'lardi. Bolalar ham butun urug' qo'lida, dastlab onalari qo'lida bo'lar, so'ngra otalar qo'lga o'tib kolardilar. Bolalar va o'smirlar mehnatda va kattalar bilan kundalik muloqatda turmush uchun zarur ko'nikmalar va mehnat malakalarini o'rganib olaveradilar, urf-odatlar bilan tanishaveradilar, ibtidoiy odamlar hayotida har doim bo'lib turadigan rasm-rusumlarni bajarishni o'rganadilar.

O'g'il bolalar katta yoshdagi erkaklar bilan birga ov qilish va baliq tutishda, qurol yasashda qatnashar, qizlar esa xotinlar raxbarligida ekin ekib, hosilni yig'ishtirib olish ishlarida qatnashar, ovqat pishirar, idish yasab, kiyim tikar edilar. Matriarxat taraqqiyotining oxirgi bosqichlarida yosh avlodning yashashi va tarbiyalanishi uchun o'g'il bolalar uchun alohida, qiz bolalar uchun alohida - birinchi muassasalar paydo bo'ddi. Mana shunday joylarda - yoshlar uylarida yoshlar urug' oqsoqolalarning raxbarligida yashashga, mehnatga, o'tkaziladigan «sinovlarga» tayyorlanar edilar. Asta sekin chorvachilik, dehqonchilik, hunar-kasblar paydo bo'la boshladi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanib, odamlarning mehnat tajribasi kengayib borganligi sababli tarbiya ham murakkablashdi, ko'p tomonlarna va rejali bo'lib qoldi. Bolalarga hayvonlarni boqish, dehqonchilik qilish, hunar-kasb

o'rgatiladigan bo'ldi. Birmuncha tashkiliy ravishda tarbiya qilish zarurati tug'ilishi bilan urug'chilik jamoasi yosh avlodni tarbiyalashni tajribaliroq kishilarga topshirib qo'yadigan bo'ldi. Ular bolalarga mehnat ko'nikmalari va malakalarini o'rgatish bilan bir qatorda paydo bo'lib qolayotgan diniy urf-odatlarining qoidalari, naqlar bilan ularni tanishtirar, yozishga o'rgatilar edi. Ertaklar, o'yinlar va raqslar, musiqa va ashula, xalqning butun og'zaki ijodi xarakterning muayyan belgilarini tarbiyalashda katta rol o'ynadi. Urug'chilik jamoasining yanada rivojlanib borishi natijasida harbiy tarbiyaning boshlang'ich turlari paydo bo'ldi: o'g'il bolalar o'q-yoy otishni, nayzadan foydalanishni, otda yurishni va shu kasblarni o'rganadigan bo'lib qoldilar. Odamlar yoshlariga qarab guruhlariga ajratiladigan bo'ldi, bunday guruhlarda o'zining aniq ichki tashkiloti, boshliqlar paydo bo'ldi, maxsus tayinlab ko'yilgan urug' oqsoqollari rahbarligida yigit va qizlarni urug'ning to'la huquqli a'zolari qatoriga qo'shish uchun tantanali sinovlar o'tkazish murakkablashdi. Boshlang'ich bilimlarni o'qib olishga, xat paydo bo'lgandan keyin esa yozuvga ham katta e'tibor beriladigan bo'lib qoldi. Yosh avlodni tarbiyalash urug' tomonidan ajratilgan alohida kishilarga topshirilganligi, tarbiya mazmunini hamda sinovlar dasturi kengayganligi va murakkablashganligi, mana shularning hammasi urug'chilik tuzumi sharoitida tarbiya ishi ijtimoiy faroliatning alohida shakli aylana boshlaganligidan dalolat beradi. Boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi, Markaziy Osiyoda ham mehnat taqsimoti oilaviy tarbiya orqali nasldan - naslga o'tib mustahkamlanib bordi. Jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi oddiy xalqdan ustun darajada turuvchi jangchilar va kohinlar guruhlari paydo bo'la boshladi. Kohinlar o'zlari o'rganib olgan boshlang'ich ilmiy bilimlarni oddiy kishilardan yashirib, bolalariga o'rgata bordilar va shu tariqa bunday bilimlar avloddan-avlodga o'tadigan bo'lib qoldi.

Markaziy Osiyoning ko'pgina joylarida qoyalarga o'yib yozilgan qadimiy suratlar saklanib kelmokda. Ibtidoiy jamiyatning surat solishga mohir bo'lgan kishilari bu suratlarda odamlarni va hayvonlarni, ov manzaralari va boshqa shu kabi manzaralarni tasvirlaganlar. Bunday suratlashlik rivojlana borib, bir kancha mamlakatlarda piktografik xatning paydo bo'lishiga imkon berdi, keyinroq iyerogliflar bilan yoziladigan xat va xarflar bilan yoziladigan xat mazkur piktografik xatlardan vrkudga keldi.

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida, ya'ni ibtidoiy jamoa

tuzumi davrida odamlar insonning kamoloti to'g'risidagi g'oyalarini juda ko'p rivoyatlardan foydalanib baxshilik yo'li orkali avloddan-avlodlarga yetkazganlar, mazkur rivoyatlarda, kishilarni tarbiyalash, axlokiy barkamollik shaxsning ma'naviy yuksakligi masalalari asosiy o'rin olgan.

Shuningdek ibtidoiy davrda insonlar tarbiyaning ta'sir kuchi orkali to'g'ri xayot kechirganligi, madaniyat va san'at sohasida xam misli ko'rilmagan kashfiyotlar yuzaga kelgani ma'lum. Yunon tarixchisi Gerodot (er. av. V asr) «Tarix» kitobida yozishicha... Markaziy Osiyoning ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitida xalklar asosan chorvachilik va dehkanchilik bilan shug'ullangan. Ularda nikoh munosabatlarining umumiy (tartibsiz) shakli hukmron bo'lgan. Oilaning guruhli shakllarida bolaning otasi noma'lum bo'lsa ham, lekin onasining kim ekanligi ma'lum bo'lgan va shu sababdan bolaning tarbiyasi ona zimmasiga yuklatilgan. Asta-sekin odamlarning ijtimoiy ong faoliyatining takomillashuvi, xususiy mulkning dastlabki kurtaklarining paydo bo'lishi yakka tartibdagi oilalarni vujudga keltirgan.

Yakka oila paydo bo'lgandan so'ng mehnat tarbiyaning eng asosiy quroliga aylangan. Qadimgi Eron qabilalarida mis va temirdan uy-ro'zg'or buyumlari yasala boshlangandi. Ana shu mehnat jarayonida bolalar ham ishtirok etardi. Ibtidoiy davrdagi tarbiya asosan oilada, jamoa va mehnat maskanlarida kishilar orttirgan tajribalarni bolalarga o'rgatishdan iborat bo'lardi. Bolalarga o'rgatiladigan kundalik mehnat malakalari ularni yashash uchun kurashishga tayyorlar, akl-idrokii, odobli bo'lib o'sishlariga xizmat kilardi. Ming yillar mobaynida moddiy ne'matlar yaratish uchun hamkorlikda qilingan mehnat kishilar o'rtasidagi axloq-odob munosabatlarining meyorini keltirib chikardi.

Eramizdan oldingi minginchi yillarning o'rtalarida eng qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qahramonlik mazmunidagi juda ko'p afsonalar rivoyatlar aytilgan bo'lib, ular zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» ga kiritilgan.

«Avesto»da insonning barkamol bo'lib yetishishida uning so'zi, fikri, ishi, birligiga katta e'tibor berilgan. Bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab undan keyin yaratilgan barcha ma'rifiy asarlarga asos bo'lgan desak xato qilmagan bo'lamiz.

Ma'lumotlarga ko'ra «Avesto» eramizdan avvalgi VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida yaratilgan bo'lib, u uzoq davrlar mahsuli sanaladi.

Davrlarning o'tishi bilan u qayta-qayta ishlanadi. Barcha manbalarda to'liq kitob xolida shakllanishini eramizdan avvalgi birinchi asrga to'g'ri keladi, deyiladi.

«Avesto»ning vatani Xorazm ekanligini olimlar ishonch bilan ta'kidlaydilar: Zardo'sht eramizdan oldin VI asrda yashagan. Xorazmda yashagan chorvadorlar oilasi spitama urug'idan bo'lgan. Otasi Paurushaspa, onasi Dugdova deb nomlanganlar, ular ot va tuya boqish bilan shug'ullanganlar. Zardo'sht ko'p xudolikka sig'inish, qurbonlik natijasida mollar qirilib ketayotganini hamda qabilalar o'rtasidagi nizolarni ko'rib, uning oldini olishni o'ylaydi va o'z ta'limotini targ'ib eta boshlaydi. Lekin qabila boshliqlariga uning ta'limoti yoqmaydi. Zardo'sht xudodan kelgan vahiy orqali ko'pxudolikka qarshi yakka xudolikni targ'ib etib chiqadi, kuchli xokimiyat o'rnatib, yer yuzida tinchlikni barqaror etish uchun kurashadi, yaxshilik va ezgulik xudosi Axura Mazdani himoya etadi.

«Avesto»da biz inson shaxsining takomiliga oid ma'rifiy fikrlarning ma'lum bir tizimini ko'ramiz. Xatto, «Avesto»ni dastlabki pedagogik asar desak ham xato qilmagan bo'lamiz va eng qadimgi davrlarda xalqimizning tabiiy, ilmiy, ma'rifiy fikrlariga oid qiziqarli materiallarga ega bo'lamiz. Shuningdek tadqiqotchilar ham uni diniy xarakterga ega bo'lishi bilan birga falsafa, siyosat, ta'lim-tarbiya, adabiyot masalalarini ham qamrab olgan asar sifatida va uning kelib chiqishi haqida muhim fikrlar bayon etadilar.

Xulosa qilib aytganda, «Avesto»da insonning barkamol bo'lib yetishishida uning so'zi, fikri, ishi birligiga katta e'tibor beriladi. Bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab undan keyin yaratilgan barcha ma'rifiy asarlarga asos bo'lgan desak xato qilmagan bo'lamiz. Zero, unda insonning inson sifatida ma'naviy va moddiy kamol topishi uchun zarur bo'lgan muayyan talablar o'z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida faqat Sharq xalqlarining emas, G'arbning ham muqaddas merosi bo'lib qoldi.

Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan va turk-runiy yozuvida bitilgan Urxun-Yenisey bitiklari ham VI-VIII asrlarda yozib qoldirilgan bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlar beradi.

Garchi Urxun-Yenisey yozma yodgorliklari bevosita ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlanmagan bo'lsa ham, ulardan o'sha davr axloqiy talablar yuzasidan ma'lum bir ma'lumot olish mumkin. Xususan, xoqonlar va a'plarning jangovor faoliyati, turmush tarzi, vatanparvarlik, birdamlik,

ittifoq bo'lib yashashga intilishi, mardlik, jasorat, samimiylik, insonparvarlik, ezgulik kabi insoniy xislatlari jamiyat har bir a'zosining axloqiy qiyofasini belgilovchi muhim fazilatlar sifatida ma'rifiy qadriyatlarimiz tarixida muhim ahamiyatga ega.

Eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklarda insonda eng qadrlanadigan xislat - jasurlik, mardlik, adolat, sadoqat, insoniylik, xushmuomalalik bo'lgan. Bu xislatlar o'z-o'zidan shakllanmagan. Tabiat va jamiyatdagi o'zgarishlar, ibtidoiy urug'chilik qabilachilik turmush tarzi buni taqozo etgan. Ikki katta kuch - yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi ayovsiz kurash insondagi bu xislatlarning bevosita shakllanishiga turtki bo'lgan.

Ma'lumki, o'tmishda kishilar mehnat faoliyati jarayonida o'z ehtiyojlarini qondirgan va bu jarayon yosh avlodga mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilishga yordam bergan. Eng kadimgi davrlarda ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni biz xalq og'zaki ijodi namunalari afsonalar, qahramonlik eposlari, qo'shiklar, maqol va iboralarda ham ko'ramiz.

Chunki, xalq donishmandligining ko'zgusi bo'lgan xalq og'zaki ijodida xalq pedagogikasiga xos bo'lgan tarbiya tajribalari umumlashgandir. Ayniqsa, Poliennig «Harbiy hiylalar» asarida keltarilgan Shiroq afsonasi, Gerodotning «Tarix» kitobidagi jasur To'maris xaqidagi afsonalar shular jumlasidandir. M.Qoshg'ariyning «Devonu lug'qtit turk» asarida esa ilm olishning kadri, bilimli, donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo'stlik hushxulklik mardlik va jasurlikni targ'ib etuvchi, o'z manfaatini ko'zlagan molparast, baxil, ochko'z, do'stiga va xalkiga xiyonat kabi salbiy tomonlarni qoralaydigan she'rlar ko'p uchraydi. Bunday she'rlar turkiy xalklar kadim-qadimlardan boshlab, inson shaxsini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor berganligini ko'rsatadi.

4. Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta'lim-tarbiya. Bizga ma'lumki, quldorlik formatsiyasi davrida Qadimiy sharq mamlakatlari orasida, ayniqsa Yunonistonda madaniyat, tarbiya, maktab va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta rivojlangan.

Yunoniston unchalik katta bo'lmagan quldorlik davlatlaridan iborat bo'lgan. Uning katta shaharlaridan biri Lakoniya (poytaxti Sparta) va Attika (poytaxti Afina) bo'lib, bu shaharlar madaniyat markazi hisoblangan.

Bu ikki shaharda tarbiyaning o'ziga xos tizimi vujudga keldiki, natijada

bu tarbiya tizimi «Sparta» va «Afina» usulidagi tarbiya deb yuritiladigan bo'ldi.

Lekin bu ikki shaharning iqtisodiy, siyosiy taraqqiyoti, madaniyat darajasi turlicha edi. Shuning uchun ular bir - biridan tubdan farq qilar edi. Ayni ikkala davlatda xam quldorlik tuzumi xukmronlik qilar edi. Shuning uchun ham bu davlatlarda ijtimoiy tarbiya tizimi quldorlarning bolalarini manfaatini ko'zlar edi.

Yunonistonda qullarni «gapiradigan ish quroli» deb hisoblar edilar. Qullar oddiy insoniy xuquqlardan ham mahrum edilar.

Spartada dehqonchilik yaxshi rivojlangan bo'lib, bu qullar mehnati evaziga asoslangan edi. Spartada qullar shafqatsiz ta'qib ostiga olinar edi. Shu sababli ular tez-tez qo'zg'olon ko'tarib turar edilar.

Yoshlarga axloqiy tarbiya berishda davlat rahbarlari maxsus suhbatlar o'tkazib, shu yo'l bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar edilar. Masalan: Vatan dushmanlari bilan kurashda ota-bobolar ko'rsatgan mardligi va jasurligi, qahramonlar haqida suhbatlar uyushtirishar, shuningdek bolalarni savol-javob jarayonida aniq, qisqa va lo'nda qilib javob berishga o'rgatib borilar edi.

Spartada 18-20 yoshga yetgandan keyin maxsus «Efeblar» (Efeblar qadimgi Yunonistonda balog'atga yetgan o'spirinlar) guruhiga o'kazilgan. Bu guruhda bolalarga harbiy ta'lim berilgan va ular harbiy xizmatni o'taganlar.

Spartada qizlar tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. O'g'il bolalar bilan kizlar birga qo'shib o'qitilgan. Ular ham harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan qurollantirib borilgan. Bundan maksad erkaklar urushga ketgan vaqtlarida kizlar, ayollar shaharni, uy-joyini qo'riqlash, qurollanib qo'riqchilik vazifasini o'tashi, qullarni itoatda saklashini ta'minlashi ko'zda tutilgan, ular hatto, jangda ham qatnashganlar.

Qadimiy Gretsiyaning ikkinchi shaharlaridan biri Afinada esa hayot, tartib, intizom, maktab tizimi, undagi ta'lim-tarbiya Spartanikidan butunlay farq qilar edi. Afinadagi iqtisodiy hayot Spartadagi singari cheklanib qo'yilgan emas edi. Qullar xususiy mulk hisoblanar edi. Bu yerda tibbiyot ilmi, matematika, tarix, san'at, me'morchilik, haykaltaroshlik taraqqiy etgan edi.

Tarbiya jarayonida akliy, axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya birga qo'shib

olib borilgan. Lekin bu tarbiyalarni mukammal egallash fakat feodallarining farzandlariga nasib etgan xolos.

Afinada tarbiya va maorif masalasi Spartaga nisbatan tubdan fark qilar edi. Bu yerda grammatist, polestra, gimnasiy, efeb, demos kabi maktab turlari mavjud edi.

Bolalar 7 yoshgacha oilada tarbiyalanganlar. 7 yoshdan o'g'il bolalar maktabga borishgan. Qizlar esa oilada ona ko'magida uy - ro'zg'or ishlariga o'rgatilgan. xotin-qizlar faqat uyda bo'lishgan. Afinada bolalar dastlab 7 yoshdan 13-14 yoshgacha «grammatist», (savod o'qitish ma'nosida), «kifarist» (grekcha musiqa o'qituvchisi ma'nosida) maktablarda tahsil olganlar. Bu maktablar xususiy bo'lib, haq to'lanar edi, Shuning uchun fuqarolarning bolalari bu maktablarda ta'lim ololmas edilar.

Bu maktablarda «ditaskol» deb atalgan o'qituvchilar mashg'ulot olib borar edilar. (men o'qitaman degan ma'nodagi «didasko» so'zidan, keyinroq «didaktika» ta'lim nazariyasi kelib chiqqan).

O'g'il bolalarni maktabga qullar yetaklab borishgan. Bunday qullar «pedagog» deb atalgan. Afinadagi grammatist maktabida o'qish, yozish va hhsoblash o'rgatilgan. O'qishda xarflarni hikoya qilib o'qitish usuli, so'ng qo'shib o'qish usulidan foydalanganlar. Yozuvni o'rgatishda mum surilgan yaltiroq taxtachalardan foydalanganlar. Ular ingichka cho'p yordamida, yozganlar. Sonlar barmoqlar, sopol toshlar, sanoq taxtasi yordami bilan hisoblangan. Kifarist - maktabida o'g'il bolalarga adabiy bilim berilar, estetik mazmundagi deklomatsiyalar o'rgatilar («Iliada va Odissey»dan parchalar o'qitilar) edi.

«Efeb» maktabida 18-20 yoshga qadar tahsil olganlar. Bu maktabda harbiy hizmatga tayyorlanar va o'zlarini siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirar edilar. Bu maktabda istehkomlar qurishni, harbiy aslahalarni ishlata bilishni, garnizonlarda xizmat qilishni, dengizchilik o'rgatilgan. Bundan tashqari «Demos» (xalq) maktabi ham mavjud edi. Afinada quldorlik jamiyati ichida tabaqalanishning tarbiya sohasiga o'tkazgan ta'siri shundan iborat bo'ladiki, mukammal tarbiya olish faqat badavlat quldorlarning bolalarigagina hos bo'lib qoldi. Aholining ko'pchiligi bolalarini maktablarda o'qita ololmaganligi sababli ularga kasb-hunar o'rgatar edilar. Ayrim hat savoddi kishilar bolalariga o'zlari hat savod o'rgatganlar. Bu usul ham davlat tomonidan qonunlashtirib qo'yilar edi.

Yunonistonda maktab va madaniyatning tez rivojlanishi pedagogika nazariyasining ham tug'ilishiga imkoniyat yaratdi.

Pedagogika nazariyasiga olim va faylasuflardan Suqrot, Platon, Arastu va Demokritlar asos soldilar. Ular o'z qarashlari bilan ta'lim-tarbiya rivojlanishiga juda katta hissa qo'shdilar. Suqrot er.av. (469-399y)da yashab ijod etgan. Suqrotning fikricha tarbiyadan kutilgan maqsad, buyumlar tabiatini o'rganish bo'lmay, balki kishining bilim olishi, axloqni kamol toptirishi bo'lmog'i lozim edi. Suqrot faylasuf bo'lishi bilan birga ajoyib notiq ham edi. U keng maydonlarda so'zga chiqib, axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o'tkazar, tinglovchilarni savol-javob yo'li bilan haqiqatni topishlariga undar edi. Suhbatning bu usuli «Suqrot usuli» deb atalgan. U pedagogika olamiga ana shunday savol-javob metodini ya'ni «Evristik» suhbat metodini yangi (savol berish va savolni to'ldirish) metodini olib kirdi. U tarbiyada axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya mezonini ishlab chiqdi. Lekin Suqrotning axloqiy qarashlarida tengsizlikni yaqqol sezish mumkin. Uning fikricha axloq faqat imtiyozli «mumtoz» largagina xos, «mumtoz» kishilar haqiqiy axloqning yagona egalari bo'lganliklari uchun hokimiyat ham ularning qo'llarida bo'lmog'i kerak deydi.

Platon er.av. (424-347) yillarda yashagan. U Suqrotning shogirdi bo'lib «obyektiv idealizm» nazariyasining asoschisidir. U tanadan tashqarida mavjud bo'lgan narsalar haqidagi nazariyani ilgari suradi.

Platon aristokratiyaning abadiy hukmronligi haqidagi nazariyani ilgari suradi. Uning fikricha ideal aristokratik davlat 3 xil ijtimoiy guruhlardan iborat bo'lishi, ya'ni bular: faylasuflar, jangchilar, hunarmandlar va dehqonlar guruhidan iborat bo'lishi lozim. Faylasuflar davlatni boshqaradilar, jangchilar ularni har qanday dushmandan himoya qiladilar, uchinchi gurux esa mehnat qilib, mo'l xosil yetishtirib faylasuflar va jangchilarni boqadilar degan fikrni ilgari suradi.

Tarbiya - deydi Platon davlat tomonidan tashkil etilmog'i, hukmron guruhlarning manfaatlarini ko'zlamog'i lozim. Platonning fikricha bolalar 3 yoshdan boshlab 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlab qo'yilgan tarbiyachilar rahbarligida tarbiyalanishini tavsiya etadi.

7 yoshdan 12 yoshacha esa davlat maktablarida taxsil olib, ularga o'qish, yozish, xisob, musiqa va ashula darslari o'rgatiladi.

12-16 yoshgacha bo'lgan bolalar jismoniy mashqlarni o'rgatadigan

«Palestra» maktabida, 18 yoshga qadar dunyoviy fanlarni o'qitadigan maktablarda, 18-20 yoshgacha esa «Efeb» maktablarida tahsil olib harbiy ta'lim o'rgatiladi.

Uning fikricha, «Efeb» maktabini tugatgandan so'ng qobiliyatli va iqtidori bo'lgan yigitlar falsafa ilmini o'rgatadigan uchinchi bosqich oliy ta'limni o'taydilar.

U insonni yoshlik yillarini 3 davrga, ya'ni: 0-7 yoshgacha; 7 - 14 yoshgacha; 14-21 yoshgacha bo'lgan davrlarga bo'ladi. U oilaviy tarbiyaga doir bir kancha tavsiyalar beradi. Uning fikricha, bolalar 7 yoshgacha oilada tarbiyalanadi, go'dakning yoshiga mos keladigan ovqatlar bilan boqish, turli harakatli mashklar orqali uni chiniqtirib borish kerak deydi. O'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab davlat maktablarida o'qishlari lozim deb uqtiradi. U jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya bir-biri bilan uzviy bog'langan deb hisoblaydi. U bolalarga boshlang'ich ta'lim berish vaqtida jismoniy mashqlar qilish bilan bir qatorda o'qish, yozish, grammatika, rasm va musiqani o'rgatish kerak deb ta'kidlaydi. O'smirlar maktabda jiddiy ma'lumot olishlari, ular: adabiyot, tarix, falsafa, matematika, astronomiya va boshqa fanlarni o'rganishlari lozim deydi.

5. Sharq uyg'onish davrida ilm-fan, pedagogik fikrlar taraqqiyoti. Arab halifaligida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, yagona Islom dinining tarkib topishi madaniy hayotga ham ta'sir etdi. IX asrda Sharq mamlakatlarida boshlangan va madaniy hayotda yuz bergan ko'tarinkilik ma'naviy hayotda ham o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi.

Buni biz xalifa Xorun ar-Rashid davrida (786-833), so'ng uning o'g'li al-Ma'mun davrida Bag'dodda «Baytul xikma» («Donishmandlik uyi»), hozirgi davrda Akademiya ma'nosida tashkil etilganidan ham bilsak bo'ladi. Mazkur Akademiya 813-833 yillarda yanada rivojlanagan. Akademiya qoshida rasadxona ham bo'lgan, yangi kutubxona qurilgan. Bag'doddagi mazkur ilm markazi, o'z navbatida Sharq va G'arbda ilm-fanning taraqqiy etishiga, ma'naviy hayotning rivojlanishiga ta'sir etgan, bu haqida mazkur «Baytul hikma» ning ilmiy ishlarga rahbarlik qilgan Al-Xorazmiy xalifa al-Ma'munning ilm-fan ravnaqiga qay darajada xomiylik qilganini «Al-jabr va al-muqobala hisobi xaqida» asarida shunday ta'riflagan: «Olloh Imom al-Ma'munga. Unga meros bo'lib qolgan xalifalik lavozimini in'om qilib, muruvvat etganligi, bu lavozim libosini kiydirib, uni bezaganligi va shu bilan

birga unda fanlarga muhabbat va olimlarni o'ziga yaqin tutishga intilish (hissiyotini) o'yg'otganligi menga jasorat ato qildi, (chunki u) ularning ustiga o'z xomiylik qanotini yozib, ularga noaniq bo'lgan narsalarni yoritishga va ular uchun mushkul bo'lgan narsalarni osonlashtirishga yordamlashadi».

Xorun Ar-Rashidning ikkinchi o'g'li Al-Ma'mun ilm-fanni juda qadrlagan. U IX asr boshlarida xalifalikning Xurosondagi noibi bo'lib turganda ham Movarounnaxr va Xurosondagi olimlarni to'plab, ularning ilmiy ijodiga sharoit yaratib bergan. Bular orasida Al-Xorazmiy, Al-Xuttaliy, Al-Javxariy, Al-Marvaziy kabi vatandosh olimlarning barchasini Bag'dodga chaqirib oladi va «Baytul xikma» - donishmandlik uyi («Ma'mun akademiyasi»)da arab olimlari bilan hamkorlikda ilm-fan ravnaq topadi.

X asrdan boshlab Movarounnaxr va Xurosonda mustaqil feodal davlatlari - Toxiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlarining paydo bo'lishi va xalifalik yemirilishi ham madaniy hayotning orqaga ketishiga emas, balki yanada ravnaq topishiga olib keldi.

Qadimgi Yunoniston olimlari Platon, Aristotel, Gippokrat, Galen, Evklid, Ptolomey, Arximed va boshqalarning asarlari, fors tilidan badiiy-didaktik asarlar «Kalila va Dimna», «Fors shohlari hayoti», hind tilidan «Hind dorilari va ularning nomlari», «Saorad», «Siddxanta», «Nabotiy dexqonchiligi to'g'risida kitob» va boshqa kitoblar tarjima qilindi.

Somoniylar davrida Rudakiy, Firdavsiy, Al-Xorazmiy, Al - Farg'oniyy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlar ijod etganlar.

X asrning ikkinchi yarmidan tashkil topgan Qoraxoniylar davlatida ba'zi xonlar o'z saroylarida kutubxonalar tashkil etdilar. Bu kutubxonalarda arab va hatto G'arbiy Yevropa olimlarining asarlari ham mavjud edi. Bu davrda turkiy til shakllanib bordi. Yusuf Hos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy kabi olimlar jahon ahamiyatiga ega bo'lgan asarlarini yaratdilar. XI asr boshida G'aznaviylar davlati, keyinroq Saljuqiylar. Xorazmshohlar davlati ham tashkil topdi. G'aznaviylar davrida ham ilmiy, ijtimoy fikrlar rivojlandi. Mahmud G'aznaviy o'z saroyiga juda katta madaniy boyliklarni to'playdi, olimlarni ilmiy ishga taklif etadi. Jumladan, Abu Rayhon Beruniyning mashhur «Hindiston» asari shu yerda yaratilgan edi.

XI asrda Xorazmda ilm-fan ayniqsa taraqqiy etdi. Xorazm shohi

Ma'mun o'z saroyiga eng zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan «Baytul xikmat»- Donishmandlar uyi tarixda «Ma'mun akademiyasi» deb nom qoldirgan. Bu akademiyaning rivoj topishida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, rivoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Saql al-Masixiy, tabib Abulxayr Hammor kabi olimlar ilmiy ijodlar bilan muhim rol o'ynadilar. Lekin toj-taxt uchun kurash natijasida bu ilm dargohi o'z faoliyatini to'xtatib, olimlar tarqalib ketadi.

Sharq uyg'onish davri madaniy rivojlanishida ilm-fan shartli ravishda uch yo'nalishda rivojlanganini ko'ramiz. Birinchi yo'nalish - matematika, tibbiyot yo'nalishidagi fanlar bo'lib, bularga matematika, astronomiya, kimyo, geografiya, geodeziya, minerologiya, tibbiyot, farmakologiya va boshqa shularga turdosh fanlar kiritilib, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniyalar matematikaga oid, Zakriyo ar-Roziy kimyo va tibbiyotga oid, Ibn Sino, Jurjoniylar tibbiyot va falsafa, Abu Rayhon Beruniy, Ulug'bek Ali Qushchilar astronomiya va tibbiyotga oid yirik asarlar yaratdilar.

Birinchi yo'nalish - ijtimoiy-falsafiy yo'nalish bo'lib, bunda falsafa, texnika, mantiq, fikh ruxshunoslik, notiqlik va boshqa sohalar bo'lib, bu sohada Al-Farobiy, Al-Kindiy, Ibn Rusht, Ibn Sino, Zahiriddin Bayxaqiy, Muhammad Narshaxiy va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Mazkur davrda ilmiy bilishga asoslanuvchi metod shakllandi. Natijada aqliy tarbiya olimlar diqqat markazida bo'ldi: Xorazmiy, Forobiylar bu metodni asoslab bergan buyuk mutafakkirlar bo'lsalar, ular bilan bir qatorda o'sha davrda yaratilgan barcha ta'limiy-axloqiy risolalarda ham aqliy tarbiyada zehnni tarbiyalash, aqliy kamolat yo'llari, bilimning asl mohiyatlarini yortishga harakat qildilar.

Mutafakkirlarning o'z ishlarida o'qitish va ta'lim-tarbiyaga e'tibori natijasida ta'limiy-axloqiy masalalarga qiziqish orta bordi. Aniq fanlarni o'qitishning uslubiy masalalariga ayniqsa e'tibor kuchaydi. Pedagogika sohasida inson va uning kamoloti bilan bog'liq muammo asosiy o'rin egallaydi. Ta'limiy - axloqiy asarlarda bir tomondan inson aqli, uning quvvati, ilm-fanni egallashi, hushxulq bo'lishi ifodalansa, ikkinchi tomondan bu ifodalar ta'limiy-axloqiy asarlarda o'zining badiiy ifodasini topadi.

Xulosa qilib aytganda, markazlashgan Arab xalifaligida ilm-fan taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va qadimgi ma'naviy yodgorliklar

Movarounnaxr va Xurosonda IX asrlarga kelib ma'naviy ko'tarilish, Sharq Renessansi - uyg'onish davrining boshlanishiga olib keldi- Butun Sharq bilan bir qatorda, Movarounnahr ham ilm-fan va ma'rifat sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar maydonga keldi-Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida ta'limiy-ahloqiy asarlar yaratishga ham katta e'tibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan g'oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahmiyatga ega bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogika tarixi fanini predmeti, maqsadi va vazifasi nimalardan iborat?
2. Pedagogika tarixi fanining metodologiyasi nimaga asoslanadi?
3. Qadimgi davlatlarda ta'lim-tarbiyaning paydo bo'lishi, qadimgi yozuvlar.
4. Xalq og'zaki ijodida ta'lim-tarbiya mazmuni, usuli va vositalari.
5. «Avesto»da ta'limiy-axloqiy masalalar xususidagi fikrlaringiz.
6. Urxun-Yenisey obidalarida ozodlik, erk, insonparvarlik hislatlarining ifodalanishi.
7. Qadimgi Yunoniston maktablari haqida gapirib bering.
8. Sharq uyg'onish davri allomalarining ta'limiy, tarbiyaviy asarlari va pedagogik fikrlar taraqqiyoti haqida hikoya qilib bering.

4-MAVZU: XIV ASRDAN XX ASRNING 90-YILLARIGACHA BO'LGAN DAVRDA TA'LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR

Reja:

1. XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.
2. XVII-XIX asrning birinchi yarmida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida ilm-fan va ta'lim-tarbiya.
3. G'arb uyg'onish davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti (Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenkolar).
4. Turkiston o'lkasida ilg'or pedagogik fikrlar. Yangi usul maktablarining paydo bo'lishi.
5. Turkistonda 1917 yildan XX asrning 70-80 yillarigacha O'zbekiston xalk ta'limi.

Tayanch iboralar:

Muvorounnahr, Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida ilm-fan va ta'lim-tarbiya, G'arb uyg'onish davri, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko maktablari, yangi usul maktablari, O'zbekiston xalk ta'limi.

1. XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. XIV asrning o'rtalarida Markaziy Osiyoda mayda feodal hokimlar o'rtasida nizo kuchaydi, iqtisodiy qiyinchiliklar yuz berdi. siyosatda qat'iyatsizlik avj oldi. Hokimlar o'rtasida nizolar kuchayishi natijasida mamlakat 10 ta mustaqil beklik va amirliklarga bo'linib ketdi. Beklar va amirlar o'rtasida o'zaro kurash kuchaydi, mamlakat urush va tolon-tarojlar iskanjasida qoldi.

Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnahrda yana fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnaq topa boshladi. Shuning uchun xam tarixda XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr o'rta Osiyoda Sharq uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi deyilishi bejiz emas. chunki, bu davrga kelib, Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, fan va madaniyat gurkirab rivojlandi.

Sohibqiron Amir Temur say'i harakati tufayli Samarqand shahri yangidan qayta tiklandi. Shaharda Ko'k saroy, Bibixonim masjidi,

Shohizinda maqbarasi, shahar atrofida Bog'i Chinor, Bog'i Shamol, Bog'i Dilkusho, Bog'i Bexisht, Bog'i Nav kabi bog' va saroylar barpo etildi.

Ko'xak - Zarafshon, Amudaryoga ko'priklar qurildi. Toshkent atrofida kanallar qazildi. Sirdaryodan Oxangarongacha bo'lgan kanallar shular jumlasidandir.

Markaziy Osiyoda rassomchilik, naqqoshlik, 6yezakli-badiiy buyumlar ishlab chiqarish yuqori darajaga ko'tarildi.

Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida - she'riyat, mantiq, falsafa, tarix, huquq, astronomiya, matematika, nafosat, tilshunoslik, lug'atshunoslik, musiqashunoslik, tarbiyashunoslik, me'morshunoslik, tijorat - tadbirkorlik, tarjimonlik, xattotlik, jo'g'rofiya va elshunoslik kabi boshqa o'nlab dunyoviy bilimlarni o'rganish, shu bilimlar asosida asarlar yaratish yo'lga qo'iildi.

Amir Temur xukmronligi davrida o'rnatilgan tinchlik mamlakatda madaniyat, ilm-fan, xalq og'zaki ijodi, adabiyot va san'atning rivojida, madrasalarda ta'lim-tarbiyaning yuqori saviyada bo'lishida muhim omil bo'ldi.

XV asrda Markaziy Osiyoda tarix fani keng rivoj topdi, til, mantiq, falsafa, tarbiyashunoslikka doir o'nlab asarlar yaratildi. Ayniqsa, Mir Sayd Sharif Jurjoniy, Xofizi Abro' Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir, Davlatshoh Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh, Sharofiddin Ali Yazdiy va shu kabi o'nlab olimu-fuzalolarning yaratgan asarlari jahon fanida katta o'rin egalladi. Sulton Husayn Boyqaro hukmronlik qilgan davrga kelib, olimlar va shoirlar Samarqanddan Hirotga ko'chib o'tdilar. Hirot ilmiy-madaniy markazga aylantirildi. Alisher Navoiy Hirotda fan, madaniyat, ilm va ma'rifatga homiylik qilishi natijasida bu yerda shoirlar, musavvirilar, xattotlar, olimu-fozillar yetishib chiqib, jahon ilmu fani olamida nom qozondilar.

Bu davrda bir qator ilm maskanlari barpo etildi, xususiy maktablar yuzaga keldi, muallim yollab bolalarni uyda o'qitish tadbirlari odat tusiga kirdi. Shahar va qishlolarda, ovullarda ochilgan maktablarda bolalarni o'qitish 6 yoshdan boshlandi. Aholi savodxonligini oshirish maqsadida ko'plab tadbirlar o'tkazildi. o'quvchilar maktablarda savod chiqarganlaridan so'ng Buxoro, Samarqand, Xuroson, G'ijduvon va boshqa shaharlardagi madrasalarga borib u yerda ham diniy, ham dunyoviy fanlardan bilim olar

edilar. Biz yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda, haqiqatdan ham XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va pedagogik fikrlar yuksak taraqqiyot darajasiga erishgan deb aytishimiz mumkin.

Amir Temur davlati qurilishi, harbiy san'ati ko'p asrlar davomida Sharq-G'arb davlatlariga o'rnak va andoza bo'ldi. Uning zamonida madaniyat, ilm-fan, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa she'riyat beqiyos rivoj topdi, xalqimizning ko'p an'analari takomillashdi. Amir Temurning madaniyat va din axillariga ko'rsatgan cheksiz mexr-muruvati ayniksa ibratlidir.

Muhammad Tarag'ay – Ulug'bek 1394-yiliing 22-martida Eronning g'arbidagi Sultoniya shahrida (bobosi Sahibqiron Amir Temurning harbiy yurishi paytida) tavallud topdi. U Shohrux Mirzoning to'ng'ich o'g'li bo'lib, unga Muhammad Tarag'ay deb ism berildi. Lekin uni bobosi alohida mehr bilan Ulug'bek deb atayvergani uchun uning asosiy ismi Ulug'bek bo'lib qoladi va u jahonga shu nom bilan shuhrat tarqatadi. Ulug'bekning bolalik yillari bobosi Temurning harbiy yurishlari davriga to'g'ri keladi. Ulug'bekning tarbiyasi bilan buvisi Saroymulkxonim shug'ullanib, sevimli nabirasiga o'qish-yozishni o'rgatgani, tarixiy mavzularda hikoya va rivoyatlar so'zlab bergani uning hayotida o'ziga xos maktab bo'ldi.

1405-1411-yillarda, o'sha davrning qonun-qoidalariga binoan amir shoh Malik yosh mirzoga otabegi bo'lib tayinlangan. Otabegi Ulug'bekka asosan harbiy va siyosiy tarbiyadan ilm o'rgatgan.

Ulug'bek yoshligidanoq ko'p kitoblarni mutolaa qilgan bo'lib, u ayniqsa, matematika, astronomiya ilmlariga juda qiziqadi. Fanga bo'lgan zo'r muhabbati, katta qobiliyati va mehnatsevarligi tufayligina Ulug'bek astronomiya maktabining asoschisi va rahbari sifatida ajoyib muvaffaqiyatlarga erisha oldi. Bu maktab butun dunyoda hamma tomonidan e'tirof etildi, shuhratga sazovor bo'ldi.

1411-yilda 17 yoshli Ulug'bek Mirzo Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlanishi Temuriylar xonadonida Ulug'bekning mavqei naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi. Ulug'bek hokim bo'lgach, bobosidan farqli o'laroq harbiy yurishlar bilan qiziqmadi. Aksincha, u o'rta asrlardagi boshqa hokimlardan o'zgacha yo'l tutdi, ko'proq ilm-fanga moyil edi.

Ulug'bek tashabbusi bilan o'lkada ilm-fan, adabiyot, san'at ahlari fanlarning yangi-yangi qirralarini ocha boshladilar. Ulug'bek o'z faoliyatida asosan falakiyotni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi, bu bilan birga, ko'plab iste'dodli shoirlar, ijodkorlarni to'plab, ular faoliyat ko'rsatishlari uchun sharoit yaratadi.

Ulug'bek 1424-yilda Samarqandda Obiraxmat suvi yonida G'iyosiddin Jamshid, Abduvali Birjoniy, Mansur Koshiy, Mirim Chalabiy va boshqa olimlar bilan birgalikda qurgan rasadxonasida sayyoralar sirini o'rganadi. Uning boshchiligida yuzdan ortiq olimlar ilmiy-tadqiqotlar olib boradi, falakiyot va matematika sohasida katta kashfiyotlar qilib jahonga mashxur bo'ldilar. Bu tadqiqotlar jahonga dong'i ketgan Samarqand rasadxonasida amalga oshiriladi. Natijada, Ulug'bek 1018 yuzduzning holati va harakatini aniqlaydi, falakiyotga doir bir necha asarlar yozadi. Bu asarlarning asosiy mazmunini "Ziji Ko'ragoniy" deb atalmish falakiyot jadvali tashkil etadi. Jadval jahon fani rivojiga muhim hissa bo'lib ko'shiladi.

Rasadxona negizida Samarqandda astronomiya maktabi vujudga keladi. Bu maktabda taniqli olimlar dars beradilar. Shunday qilib, Ulug'bekning falakiyot maktabi o'z davrining akademiyasi ("Dorul-ilm") bo'lgan va o'rta asrlar musulmon Sharqi falakiyotining rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Mirzo Ulug'bek xizmatlaridan yana biri shundaki, u avvalo yosh avlodning aqliy va ma'rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarni egallashga da'vat etdi, xar qanday johillik va bilimsizlikka qarshi kurashdi.

Ulug'bek axloqiy tarbiya xususida gapirar ekan, bu masalada insonlar orasidagi o'zaro munosabat, do'stlik va birodarlik alohida ahamiyat kasb etish kerakligini ta'kidlaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ilm va fanning, san'atning, umuman hayotning hamma sohalari bilan yaqindan qiziqkan. G'ayrat va tashabbus, sinchkovlik va iste'dod Boburni rivojlangan feodal davrning ulug' siymolaridan biriga aylantirdi. O'tkir zehnlil Bobur Mirzo 9 yoshida savodini chiqaradi, qur'onni yod oldi, she'rlar yozib uni sharhlay bildi. 10-12 yoshlarida harbiy san'at sirlarini, davlatni boshqarish usulini, jismoniy tarbiya mashqlarini mukammal darajada egalladi.

Boburning ta'lim nazariyasidagi yana bir muhim xususiyati, o'zi bilgan bilimlarni kelajak avlodga ilinishidir. Avlodim bilsin deb eliga o'rgatgisi keladi. Bu xol uni bashariyatga buyuk ma'naviy boyliklar qoldirishiga

muvaffaq qildi. Undan meros bo'lib qolgan lirik she'riy asarlar; "Boburnoma", "Muxtasar", "Mubayyin", "Volidiya" va boshqa asarlari jaxon fanida, ayniqsa xalq tarbiya qonunlarida alohida o'rin tutadi. "Boburnoma"da esa shu darajada ko'p va turli-tuman ma'lumotlar borki, ulardan hozirgi davrdagi mavjud fanlarning deyarli barcha sohalariga tegishli ma'lumotlarni olish mumkin. Shu jihatdan qaraganda, "Boburnoma" bolalar va yoshlar kitobxonligida katta ahamiyatga molikdir.

Umuman olganda Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosini o'rganish yoshlarda mehnatsevarlik, oliyjanoblik, fan, madaniyat, san'atga, ma'rifatga mehr uygotish hissini shakllantiradi.

Xulosa qilib shuni aytamizki, umuman XIV-XVI asrlarda Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti bilan tanishishdan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Amir Temur barpo etgan mustaqil markazlashgan davlatda u qo'llagan siyosat o'lkada ilm-fan, san'at, adabiyot, hunarmandchilik va yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Sohibqiron Amir Temur va Temuriy shahzodalar tomonidan ma'rifatga katta e'tibor berilishi natijasida shahar va kishloklarda, ovullarda bolalarni 6 yoshdan o'qitish keng joriy etildi, madrasa ta'limi isloh kilindi, qurilish inshootlari, me'moriy obidalar, bog'u-rog'lar, savdo shaxobchalari barpo etildi, "Buyuk ipak yo'li" jonlantirildi. Davlatni boshqarish, siyosat, huquqshunoslik, iqtisodiyot-tadbirkorlik mezonlari ishlab chiqildi. Boburning "Boburnoma" asari zoologiya, biologiya, astronomiya, etnografiya, tarix, tilshunoslik sohasidagi qimmatli yodgorlikdir.

2. XVII-XIX asrning birinchi yarmida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida ilm-fan va ta'lim-tarbiya. Movarounnahrda bir yuz ellik yil asrning birinchi yarmida hukumronlik qilgan temuriylar sulolasi inqirozga yuz tutib, uning xonliklarida ilm-fan va o'rniga Shayboniylar hukumronligi o'rnatildi. Lekin Shayboniyxon ham (1451-1510) kuchli markazlashgan davlat barpo qilishga qay darajada harakat qilgan bo'lsa ham, uning o'limidan so'ng o'zaro urushlar avj olib ketib, bu hududda uch xonlik, avvalo Buxoro va Xorazm, XVIII asr oxiriga kelib, Qo'qon xonligi paydo bo'ldi.

Xonliklar davrida boshqa davlatlar bilan aloqalar o'rnatildi. Jumladan, Hindiston Shoh Akbar, Sharqiy Yevropadan Ivan Grozniylar bilan do'stona aloqa o'rnatildi.

Buxoro xoni Abdullaxon 1001 ta rabot va sardobalar qurdirdi, madrasa, masjidlar, xonaqox va ko'priklar, suv omborlar va boshqa inshootlar qurildi. Bu davrda "Abdullanoma" nomli tarixiy kitob yozildi. Tibbiyot sohasida Sultonali Samarqandiyning "Dastur al-iloj", Muhammad Yusuf Mahxolning "Taxqiq al xumayyot", "Zubdat ul-qaxxolin" asarlari, Shayboniyxonning "Tavorixi guzidayi nusratnoma", Boburning "Boburnoma", Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye", Fazliddin Ibn Ro'zbekxonning "Mexmonnomai Buxoro" kabi asarlarida o'sha davrning ijtimoiy, siyosiy, tarixiy, adabiy, ma'rifiy hayoti o'z aksini topgan.

Bu davrda maktab va madrasalarda grammatika, xandasa, mantiq, qiroat, tafsir, shariat, hikmat, islom tarixi va aqidalariga oid ilmiy-nazariy bilimlar, ish yuritish, huquqshunoslik, savdo-sotiq ishlariga oid, meros va boyluk taqsimoti kabi dunyoviy hamda ilmiy bilimlar o'rgatilar edi. Shuningdek, barcha madrasalarda albatta fan sifatida "Qur'on", "Tafsir", "Odob-os-solixin", "Maslik ul-Mutakkin", "Sabod ul-ojizin", "Kimyoi saodat", "Hadislar" o'qitilar edi.

O'qish muddati 15-20 yilni tashkil etib, masjid yonidagi maktabda esa bolalar 7 yil alifbo, abjad, Qur'on, farzi ayn, Chor kitob, Xoja Xofiz, "Maslik ul-Mutakkin", Mirzo Bedildan savod o'rgatilar edi. O'zbek bolalari o'qiydigan maktablarda "Kitobi Fuzuliy", "Lison ut-tayr", "Devoni Alisher Navoiy", "Qissai devona Mashrab", So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" kitobi o'qitilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ayollar ta'limi ham rivojlana boshladi.

O'zbek diyorida otinlar maktabining yirik namoyondalaridan biri - Jahon otin Uvaysiy edi.

Jahon otin Uvaysiy (1789-90 Marg'ilon - 1850 y. Marg'ilon)-XIX asr Qo'qon madaniy muhitning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri yetuk shoira va maktabdor muallimalardandir. Jahon otin Uvaysiyning she'rlar va maktabdorlik xizmatlari xalq ommasi orasida keng yoyilgan.

Jahon otin yoshligidan boshlab onasidan savod o'rgangan, kichikligidayoq akasi ikkalasi Oxunjon hofizdan dutor, tanbur chalish, musiqa ilmining amaliy tomonlarini xam egallaydi. Otasidan esa arab, fors tillari va adabiyot sirlarini o'rganishga harakat qiladi.

Jahon otin Uvaysiy endi mustaqil ravishda Marg'ilon va uning atrofidagi qizlarni o'qita boshladi. Qizlarga xat-savod o'rgatadi. Ilmiy

musiqadan dars beradi. Uvaysiy qizlarga she'r yozishning uslublarini ham o'rgatadi. Muallimlik kasbiga Uvaysiy ixlos bilan qaraydi. Ilmga tashna qizlarga sidqidil bilan dars beradi. Bu xol uning g'azallarida ham o'z ifodasini topgandir:

Ma'lumki, qizlar maktabida talabalar zehni tarbiyalash, bilimlarni mustahkamlash, uzoq esda saqlab qolish, tafakkur qobiliyatini shakllantirishga ham katta e'tibor beriladi. Shu maqsadda chiston (topishmoq) larni yechish, sharhlar yozish, adabiy asarni sharhlash va izohlash kabilardan foydalanilgan. Bu usullar talabani rag'batlantirgan, uning o'qishga bo'lgan qiziqishini va qobiliyatini oshirgan.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida rus chorizmi O'rta Osiyoni zabt etdi va u yerda mustamlaka tartibini o'rnatdi. Chor hukumati mustamlakachilik siyosatini amalga oshirish bilan birga maorif matbuot, adabiyotni yuksaltirishga qarshi qaratilgan tadbirlar ko'rdi, ozodlik, erkinlik, shuningdek dunyoviy bilim g'oyalari bilan sug'orilgan taraqqiyparvarlik oqimiga qarshi kurashdi.

Mazkur davrda O'zbekiston hududida umuman, 400 dan ortiq, ya'ni Turkiston o'lkasida 313 ta, Buxoro amirligida 103 ta, Xivada 8 ta madrasalar ishlagan.

Har bir qishloqda esa masjid bo'lib, har bir masjid qoshida albatta maktab bo'lgan. Shaharning har bir mahallasida, har bir qishloqda maktab bo'lib, masjid domlasi bolalarni o'qitgan. Maktabda avval "xaftiyak", keyin "Qur'on" yodlanardi, so'ng "Chor kitob"ga tushilardi.

"Chor kitob" 4 bo'limdan iborat bo'lib, 1-bo'limda haq - xudoning nomlari tushuntirilardi, din qoidalari, tahorat, namoz bayon etiladi, ikkinchisi din-e'tiqodni anglash, uchinchi bo'limda kalomi nabi - rivoyatlar baxs etilgan. Bu kitob nazm va nasrda fors tilida yozilgan. Maktablarda Hofiz, Alisher Navoiy, Bedil, So'fi Olloyor ijodi o'rganilar edi.

Maktabni bitirgandan so'ng bir qism talabalar madrasaga kira olardilar.

Madrasa - O'rta Osiyoda IX asrda paydo bo'lgan oliy diniy maktab. Uning o'quv rejaları vaqt va sharoitga qarab o'zgarib turgan. Masalan XV asrning 30-40-yillarida - Samarqand va Hirot madrasalarida dunyoviy bilimlar: matematika, astronomiya, musiqa va hokazolar xam o'qitilgan. Madrasa uch bo'limdan iborat bo'lgan:

1-bo'limda musulmon diniy ilmlari bayon qilingan kitob-arab tili va

qonunchilik o'rgatilar edi. Bu bo'lim talabasi 9-10 yil o'qigan.

2-bo'limda qonunchilik, ilohiyot, mushkilot-mantiq, arab tili grammatikasi, notiqlik mahorati o'rgatilgan. Unda 7-8 yil o'qishgan.

3-bo'limda ilohiyot, qonunchilik, kalom o'qitilgan. Qonunchilik kursida geografiya va arifmetikadan ba'zi ma'lumotlar berilgan.

Madrasadan mudarrislar, mutavallilar, qozilar, imomlar yetishib chiqqan.

1900-yilda Turkiston o'lkasidagi 313 ta madrasada 7052 kishi o'qigan (Buxoro (103) va Xivadagi (8) madrasadan tashqari). Qur'on bilan birga shariat ham keng o'rganiladi. Shariat - diniy yuridik qonun bo'lib, shaxsiy oilaviy, huquq jinoiy va davlat huquqi o'rganilgan. O'sha davrda har bir hunar uchun 40 dan ortiq risola-nizom ishlab chiqargan. Bu hunar o'rganuvchilar uchun qonun edi.

3. G'arb uyg'onish davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti (Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenkolar). Barcha fanlarning toji deb - teologiya (din aqidalari) hisoblanar edi. O'rta asrlarda beriladigan ta'lim dasturi cherkov maktablari orqali amalga oshirilardi. Cherkov maktablarining asosiy turlari: prixod maktabi (ya'ni 1 cherkovga qarashli), monastir maktabi va bosh cherkov yoki yepiskop maktablaridan iborat edi.

Prixod maktablari boshlang'ich diniy maktablar bo'lib, unda o'g'il bolalar o'qir edi. Prixod maktablarida bolalar xristian dini asoslari va qoidalarini, diniy ashulalar aytishni, lotin tilida o'qish va yozishni o'rganadilar. Monastir maktablari monastir huzuridagi maktablar bo'lgani sababli shu nom bilan yuritiladi. "Monastir" maktablarida o'qitish vazifasi uchun maxsus monaxlar tayinlanardi. Monastir maktablarining quyida prixod maktabida o'qitiladigan fanlardan tashqari, yana yuqorida aytilgan "7 ta erkin san'at", ya'ni grammatika, ritorika, dialektika, arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqadan dars berilar edi.

Bosh cherkov yoki yepiskop maktablari markaziy diniy okrugdagi bosh cherkov (sobor)ga qarashli maktablar edi. Bunday okrugda din ishlari boshqarmasi joylashgan bo'lib, uning boshida yuqori lavozimli ruhoniy yepiskop turardi. Shuning uchun bu maktablarning bosh cherkov yoki yepiskop maktablari deyilardi. Bu turdagi diniy maktablarda ham faqat o'g'il bolalar o'qir edilar. Bosh cherkov maktablarida odatda yuqorida ko'rsatilgan 7 ta fanning hammasi o'qitilib, bu fanlardan tashqari eng oliy va

asosiy fan deb hisoblangan - teologiya (din aqidalari) ham o'qitilar edi.

Bu maktablarda qattiq intizom o'rnatilar edi. o'quvchilar qilgan har bir aybi uchun qattiq va shafqatsiz jazolanardilar. Bunday maktablarda odatda o'quvchilarga tan jazosi berilar edi (savlash, och qoldirish kabilar).

O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada xotin-qizlar, ayniqsa mehnatkashlarning xotin-qizlari yoppasiga deyarlik savodsiz edilar. Mulkdor feodal va aslzoda tabaqasiga mansub oilalarda tug'ilgan qiz bolalar odatda xotin - qizlar monastirlari ichida yoki maxsus murabbiylar va oilaga birkitilgan ruhoniylar qo'l ostidagi uylarda tarbiya olardilar.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ritsar tarbiyasi XII asrga kelib to'la tarkib topdi va rivojlandi. Ritsar tarbiyasining mazmuni ritsarlarga oid fazilatdan tashkil topdi. Bular quyidagilardan iborat: ot minib yurishni bilish, qilichbozlikni bilish, nayzabozlikni bilish, suza bilish, ov qila bilish, shashka (keyinchalik shaxmat) o'ynashni bilish, she'r to'qish va qo'shiq ayta bilish. Bu fazilatlardan birinchi o'rinda turgan uchtasi ritsarga berilmog'i zarur bo'lgan, harbiy tarbiyaga taalluqlidir; ritsar otliq askar, qilich va nayza esa o'sha zamon jangchisining asosiy quroli edi. Suzish va ov qilishni bilishi jismoniy chiniqish, chaqqonlik va bardoshlilikni o'stirish uchun talab qilinardi.

G'arbiy Yevropada XII-XIII asrlarda hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi shaharlarning o'sishiga va shahar madaniyatining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Shaharning asosiy aholisini tashkil qiluvchi hunarmand va savdogarlar o'z bolalariga amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim berishga manfaatdor edilar. O'sha vaqtda ishlab turgan cherkovga qarashli diniy maktablar bunday bilim bermas edilar. Shu sababli sexda birlashgan hunarmandlar va gildiyalarda birlashgan savdo ishlab turgan cherkovga qarashli diniy maktablar, sex maktablari va gildiya maktablari deyilar edi. Keyinroq borib sex va gildiya maktablari magistrat maktablariga, ya'ni shahar boshqarmasi xarajatidagi maktablarga aylandi. Bu maktablarning mudir va o'qituvchilari tegishli sex, gildiya va magistratura tomonidan tayinlanardilar va ular cherkovga qaram emas edilar. Bu maktablarda pul to'lab o'qilar edi.

Cherkovga qarashli diniy maktablarga nisbatan, bu maktablarda diniy rasmlar bilan bir qatorda amaliy ish uchun zarur bo'lgan xat savod va hisob malakalarini egallashga ko'proq etibor berilardi. Ba'zi maktablarda esa

grammatika, ritorika va geometriya o'qitilar edi.

Sex, gildiya va magistrat maktablarining vujudga kelishi - G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi maktab ishining taraqqiyotida katta yutuq edi.

Yevropada birinchi universitetlar XII asrning ikkinchi yarmida Italiyada (Bolonya shahrida), Angliyada (Oksford shahrida), Fransiyada (Parijda) tashkil kilindi. XIV - XV asrlarga kelib, universitetlar Yevropa mamlakatlarining hammasida ochilgan edi. O'rta asr universitetlari odatda to'rtta fakul'tetdan tuzilgan bo'lib, bular tayyorlov fakulteti, yuridik, meditsina va teologiya (din aqidalari) fakultetlaridan iborat edi. Tayyorlov fakulteti talabalari yukorida aytilgan triviumga, kvadrivium tarkibiga kirgan fanlarni o'qir edilar. Tayyorlov fakul'tetida o'qish muddati 6-7 yilgacha, asosiy fakultetlarda esa 5-6 yilgacha cho'zilar edi.

Buyuk Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy 1592-yil mart oyida Chexoslovakiyaning ugorskii Brod degan joyida tegirmonchi oilasida tug'iladi. Uning oilasi ruhoniy "Chex qardoshlari" jamoasiga tegishli bo'lib, o'zlarini Yan Tusning davomchisi deb hisoblar edilar. Yan Tus katolik cherkoviga qarshi chiqqanligi uchun uni gulxanda yoqib o'ldiradilar. Shuning uchun bu jamoa uning g'oyasini amalga oshirishni maqsad qilib oladi.

Masalan: 1631-yil "Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi", 1632-yilda "Buyuk didaktika", 1632-yilda maktabgacha tarbiya masalalariga bag'ishlab, "Ona maktabi", 1648-yilda "Xislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlarini" nomli asarlar, shuningdek Pan Sofiya, logika, fizika, lotin tili, grek tili kabi dasrliklar yozadi. Pan Sofiya darsligida u tabiat va jamiyat bilimlarining yig'indisini ifodalab beradi.

Komenskiy shuningdek o'zini pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi tushunchasini ilgari suradi. Masalan: Bog'bon daraxtlarini parvarish qiladi, uning o'sish xususiyatlarini hisobga oladi. O'qituvchi ham bolani tarbiyalash bilan undagi xususiyatni hisobga oladi. Bog'bon o'sish qonuniyatini hisobga olsa, o'qituvchi tarbiyalash qonuniyatiga bo'ysunadi, o'qitish jarayoni tabiatga o'xshab sekinlik bilan amalga oshadi deydi.

Komenskiy bolani yosh xususiyatlarini tabiiylik prinsipiga amal qilib davrlarga bo'ladi.

1. Tug'ilgandan 6 yoshgacha. Ona maktabi - bunda bolani mehnatga

o'rgatish, o'z-o'ziga xizmat qilishiga jalb etish kerak. Ona bolada axloqiy - tarbiyaning asoslarini to'g'rilik, xaqqoniylik, mehnatni sevish va hokazolarni vujudga keltiradi. Ona maktabi bog'cha yoshidagi bola tarbiyasini ko'zda tutadi.

2. 6-12 yoshgacha - xalq maktabi yoki ona tili maktabi. Bunda o'quvchi eslashi, so'zlashga o'rganishi, yozishi, boshlang'ich maktab ko'nikmasini hosil qilishi kerak bo'lib, buning uchun geometriya, geografiya, tabiat, fanlarini o'rganishi kerak bo'ladi.

3. 12-18 yoshgacha gimnaziya. Bunda bola tushunchasini, tafakkur qobiliyatini o'stirish kerak, klassik tillar, tabiyot bilimlari, axloq, xudogo'ylik fanlari o'qitilishi kerak.

4. 18-24 yoshgacha universitet, Akademiya. Bu o'quv yurtlari o'quvchining irodasi, kishi shaxsini bir butun o'stirishi kerak. Shunday qilib yuqoridagi biz ko'rib o'tgan to'rt maktab Komenskiyning qarashicha o'quvchilarni o'ylashga mehnat qilishga, masalalarni mustaqil yecha bilishga, so'zlashga, o'z fikrlarini to'g'ri ifoda qilishga va isbotlab berishga o'rgatishi kerak deydi.

Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida maktabda o'qitish tizimini amalga oshirishda quyidagi didaktik tamoyilga amal qilishni tavsiya etadi.

1. Onglilik va faollik tamoyili;
2. Ko'rsatmalilik tamoyili;
3. Izcillik va tizimlilik tamoyili;
4. Mashq qilish, bilim va malakalarini puxta egallash tamoyillari.

Komenskiyning yana katta xizmatlaridan biri sinf dars tizimini ishlab chiqqanligidir. U sinf darsligini ishlab chiqib, o'qituvchi butun sinf bilan jamoa bo'lib ish olib borishini, yani sinf dars tizimida o'qitishni tavsiya etadi. Dars vaqtida o'tgan darsni qaytarish yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish kerakligini ko'rsatadi. Darsni rejalashtirish va olib borish to'g'risida ko'rsatmalar beradi. o'qituvchi o'quvchilarning dars mashg'ulotlarida faol qatnashishlarini taminlashi, kuzatib borishi, sinfda intizom saqlanishi kerakligini aytadi.

U axloqiy tarbiya vazifalariga kantarlik, pokizalik, xushmuomalalik, kattalarni hurmat qilishni, mehnatsevarlik xislatlarini tarbiyalashni kiritadi. U axloqiy tarbiya vositalariga: ota - ona, o'qituvchi namunasi, o'rtoqlarini

namunasi, bolalarga yo'l yo'riq ko'rsatish, ular bilan suhbatlar o'tkazish, bolalarni yaxshi xulqqa o'rgatishda mashqlar o'tgazish, yalqovlik, intizomsizlikka qarshi kuzatishni kiritadi.

Uning darsliklari ko'p tillar, jumladan rus tiliga tarjima etiladi. Komenskiyning yozgan asarlari 150 yildan ortiq bashlang'ich talim uchun darslik sifatida xizmat qildi. Uning pedagogika sohasida yaratgan darsliklari hozirgacha o'z qimmatini yo'qotmay kelmoqda.

A.S.Makarenko rus pedagogikasida ta'lim-tarbiya izchilligini bayon qilib, bolalarda mustaqil fikrlashni hosil qilishga muhim ahamiyat berar edi. U mustaqil fikrlashni tarbiyalash ishidagi muhim qonuniyatni aniqladi: Kishi qancha yosh bo'lsa, unda mustaqil fikrlash shunchalik tez o'rtnashib qoladi va shunchalik tez barxam topadi, mustaqil fikrlash qanchalik eskirsa, ularni yo'qotish shunchalik qiyin bo'ladi. Makarenko bolalarda mustaqil fikrlashni tarbiyalashga doir bir qator maslaxatlarni ilgari surdi. U shunday degan edi. Mustaqil fikrlashni biror bir harakatni takrorlash bilan mustahkam o'rtnashib qoladi; mustaqil fikrlashning mustahkam o'rtnashib qolishida shoshish kerak emas, bir yo'la bir necha fikrlarni mustahkamlash - bir malakani ikkinchisi bilan yo'qotishdir; egallangan qimmatli fikrlashdan tez-tez foydalanish kerak. Makarenko tarbiyada hech bir narsa kattalar namunasidek kuchli ta'sir etmasligini, bunda tarbiyachilarning tez-tez almashinib turishi zararliligini isbotlab berdi.

Mashhur rus pedagogi, rus pedagogikasi va xalq maktablarining asoschisi, "rus o'qituvchilarining o'qituvchisi" Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy 1824-yilning 19-fevralida Tula shahrida tug'ildi.

Ushinskiy 9 yoshga qadar oilada tarbiyalanib, savod chiqardi. So'ngra Novgorod-Seversk gimnaziyasiga o'qishga kirib, uni 1840-yilda muvaffaqiyatli tamomladi. O'sha yili Moskva dorilfununining huquqshunoslik fakultetiga o'qishga kirdi va o'sha davrning mashhur professori Redkinning bevosita rahbarligi ostida talim oldi.

K.D.Ushinskiy-pedagoglik faoliyatini ilmiy-ijtimoiy ish bilan birga qo'shib olib bordi. 1848-yilda uning birinchi ilmiy ishi—"Kameral fanlarni o'qitish haqida" degan asari nashr kilindi. Bu asarda Ushinskiy oliy o'quv yurtlaridagi mavjud o'qitish tizimiga nisbatan tanqidiy ko'z bilan qaradi. Hukumat tomonidan erkinlik berilishini talab etdi. O'qitish tizimini yaxshilashga oid yirik uslubiy muammolarni o'rta qo'yib, ularni qanday

hal etish yo'llarini ko'rsatib berdi.

Ushinskiy 1857-yildan boshlab "Tarbiya jurnali" ("Jurnal dlya vospitaniya") da, so'ngra "Xalq maorifi jurnali"da juda ko'p sermazzmun maqolalar e'lon qildi. 1860-yilda u "Xalq maorifi jurnali"ning muharriri qilib tayinlandi. Ushinskiy 1861-yilda o'zining "Bolalar dunyosi" ("Detskiy mir") nomli o'qish kitobini nashr ettirdi. Bu kitob o'sha yilning o'zidayoq ikki marta chop etildi.

Ushinskiyning pedagogik farliyatiga soya soluvchi (1862-yil) imzosiz xat uni o'z ishini to'xtatishga majbur qildi. Bu xatda u go'yo siyosiy jihatdan ishonchsiz kishi deb. ayblangan edi. Buning oqibatida u chet ellardagi xotin-qizlar maorifining yo'lga qo'yilishini o'rganish va pedagogikadan darslik yozish uchun o'z vatanidan ketishga majbur bo'ldi. U xorijiy mamlakatlarda yurgan davrida o'zining butun kuch-g'ayratini ta'lim-tarbiyaga doir asarlar yozish va ularni chop ettirishga yo'naltirdi. Natijada, 1861-yilda uning I va II o'quv yillari uchun "Ona tili" darsligi nashr etildi va unga "Muallimlar uchun qo'llanma" degan uslubiy asari e'lon qilindi. 1870-yilda esa III o'quv yili uchun xam "Ona tili" darsligi bosilib chiqdi. Bundan tashqari, Ushinskiyning pedagogika sohasidagi asosiy nazariy asari hisoblangan "Kishi - tarbiya asoschisi sifatida" ("Pedagogik antropologiyadan tajriba") nomli asari ayrim jildlarga bo'linib nashr qilina boshlandi. 1867-yilda bu asarning 1-jildi, 1869-yilda 2-jildi bosilib chiqdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, K. D. Ushinskiy o'qituvchining mehnati va uning tarbiyalanuvchi shaxsga ta'sirini yuqori baholadi. Ushinskiy Rossiyada o'qituvchilar tayyorlash tizimini birinchi bor ishlab chiqdi.

4. Turkiston o'lkasida ilg'or pedagogik fikrlar. Yangi usul maktablarining paydo bo'lishi. XIX asrning 80-yillarida Turkistonda mahalliy aholi uchun rus maktablari ochila boshladi. Asta-sekin rus-tuzem maktablari ham tashkil etila boshlandi. V.P.Nalivkin mazkur maktablarning ilk tashkilotchisi va birinchi o'qituvchilardan edi. Shuningdek rus ziyolilaridan tashqari mahalliy aholidan ham o'qituvchilar yetishib chiqib, maktab va madrasalarda o'quv rejaları isloh qilina boshlandi.

Rus-tuzem maktablari o'quvchilari uchun o'zbek tilida chiqarilgan birinchi darslik "Ustozi avval" Rasulxoji Said Azizov tomonidan yozildi. Bundan tashqari mahalliy millat bolalari gimnaziyalarga jalb etildi, lekin gimnaziyalardagi mahalliy o'g'il-qizlar 2-3 %ni tashkil etar edi. 1879-yil

Toshkentda o'qituvchilar seminariyasi ochildi.

Chorizm mahalliy aholining ruslashishiga to'siq bo'ladigan har qanday ilg'or narsani ta'qiqladi. Ahmad Donish, Furqat, Muqimiy kabi ilg'or kishilar Markaziy Osiyoning madaniy, xo'jalik jihatdan rivojlanishi uchun faol kurash olib bordilar. Axmad Donish Buxoro amiri elchisi, kotib va o'rinbosari sifatida bir necha bor Rossiyaga safar qilib, bu davrda Sharq va G'arb madaniyatlarini chuqur o'rgandi. U o'z vaqtida vataniga qaytib keigach, davlat boshqarmasi va maktab ta'limida islohotlar qilishga urindi. Uning "Bolalarga hunar va mashg'ulotlarning foydasi haqida nasixat" kitobida ("Navodirul vaqoye") pedagogikaga oid fikrlar bayon etilgan. Bunda bolalarning:

- bilim va hunar egallashi;
- bilimni ongli suratda bilib olishi;
- axloqiy tarbiya vazifalari;
- ota-onalarning bolalarga zulm o'tkazishi, erkinlik, mustaqillik bermasligiga qarshi chiqdi;

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Musulmon maktablarini isloh qilish harakati boshlanib ketdi. Bu harakat jadidizm (arabcha "jadid" so'zidan olingan bo'lib "yangi" degan ma'noni bildiradi). Ularning maktablari "Yangi usul maktablari" deyilardi. Bu maktablarda bolalar partalarda o'tirar edi, sinf doskasi, dars jadvali tartibi berildi.

Ta'lim mazmuni ham o'zgardi, tabiiy fanlar joriy kilindi, ona tilida darslik va qo'llanmalar yaratildi, zamonaviy o'qitish metodlari qo'llana boshlandi.

Kattalar uchun rus kursini o'qitish maktablari o'tgan asrning 80-yillarining boshlarida Toshkentda ikkita, Qo'qonda bitta ochildi.

Rus - tuzem va yangi maktablari keyinchalik O'zbekistonda sobiq sovet maktablarini tashkil etishga zamin bo'ldi. Masalan, Toshkentdagi Navoiy nomidagi II bosqich 6-yillik birinchi o'zbek maktabi, rus - tubjoy maktabi, Narimonov nomidagi Toshkent shahar pedagogika texnikumi tashkil etildi.

Shuningdek, asrimiz boshida Toshkentda hunar maktabi, gidrotexnika maktabi bor edi. Bu maktablar keyinchalik hunar-texnika maktablariga asos bo'ldilar.

Yangi usul maktabini "rushdiya" deb atashardi. Bunday maktablar, Toshkent, Qo'qon, Samarkand, To'qmoqda bittadan bor edi. Qolganlarini

“ibtidoiya” deyilardi. Unda bolalar 4 yil o‘qitilar edi. Toshkent va Qo‘qonda qizlar yangi usul maktabi ham ochildi.

1908-1917-yillarda esa chorizm Turkistondagi maktablarni ruslashtirish siyosatini olib bordi. 1908 yildan yangi usul maktablariga qarshi kurash boshlandi. 1911-yilga kelib, 50 ga yaqin maktab yopildi.

1917-yildan tovush usuli bilan o‘qitish metodiga asoslangan sinf-dars tizimidagi maktablar paydo bo‘ldi: ya’ni, bu usul maktablarida faqat mahalliy millat o‘qituvchilari dars berishi zarur edi. Yangi usul maktablari tarafdorlarini “jadid”lar, panturkistlar deb ta’qib qildilar.

“Yangi usul” yoki “usuli jadid” maktabining asoschisi Ismoilbek G‘aspirali bo‘lib, u butun faoliyatini turkiy xalqlarining ravnaqi va taraqqiyotiga bag‘ishladi.

O‘zbekistonda uning izdoshlari ko‘paydi. Fayzulla Xo‘jayev, Ishoqxon Ibrat, Saidrasul Aziziy, So‘fizoda, Mahmudxo‘ja Bexbudiy, Abdulqodir Shakuriy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Ismatulla Rahmatullayev Abdurauf Fitrat, H.H.Niyoziyalar jadidchilik harakatining darg‘alari bo‘lib, ular istiqloq uchun, millatimizning ilm-ma’rifatda dunyoning taraqqiy etgan millatlari qatorida turishi uchun harakat qildilar.

Lekin mazkur davrda Turkiston o‘lkasida pedagogik fikrlarning rivojlanishini Furqat, Anbar otin, Saidaxmad Siddiqiy va boshqalarsiz tasavvur etish qiyin.

Furqatning (1858-1909) xizmati shundaki, u jamiyatdagi ilg‘or g‘oyalarni hayotga tadbiiq etishga harakat kilgan. “Turkiston”dagi taraqqiyotparvar ijtimoiy-falsafiy tafakkurning yorqin namoyondasi bo‘lgan. Dunyoviy bilimlar va madaniyatining otashin tarafdori va tashkilotchisi, o‘z mamlakatining ilmiy va texnika taraqqiyoti uchun shijoat bilan kurashuvchi inson sifatida uning o‘z o‘mi bor.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o‘zbekistondagi taraqqiyparvar, ijtimoiy-falsafiy tafakkurning rivojlanishini Furqat va uning ijodisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Furqat o‘zbekistonda ta’limning yangi tizimini joriy etish kerakligini targ‘ib qildi.

“Gimnaziya”, “Ilm xosiyati”, “Vistavka xususida”, “Konsert xususida”, “Suvorov haqida” asarlari shular jumlasidandir. U o‘zbek bolalariga musiqa o‘rgatishni juda istar edi. Lekin mustabid davrda Furqat bu orzulariga erisha olmadi.

Saidaxmad Siddiqiy (1864-1927) hunarmand-dehqon oilasida tugʻilgan. Avval eski maktabda, soʻng rus-tubjoy maktabida oʻqiydi.

U Yevropa va Osiyoga, Rossiyaga sayohat qiladi. Samarqandga qaytgach (1903) til oʻrganish bilan shugʻullanadi, dehqon va hunarmand bolalari uchun maktab ochadi. Bu maktab rus maktablariga oʻxshar edi. Soʻng kattalar uchun ham savodsizlikni tugatish kurslari ochildi. 1914-yilda maktab uchun oʻquv qoʻllanmalari, darsiik va jumallar sotiladigan “Zarafshen” nomli magazin ochadi. U oʻzbek va tojik tillarida sheʼrlar yozar edi. Siddiqiy Oʻzbekiston va Tojikistonda ilgʻor pedagogik fikrlarni rivojlantirishga katta hissa qoʻshgan.

U oʻzbekistonda pedagogika tarixiga oid katta ishlar olib boradi. Siddiqiy Samarqandda emas, viloyat kishloqlarida ham yangi usul maktablari ochadi, yangicha oʻqitish metodlarini yaratadi, shuningdek tabiatshunoslik, geografiya darslarini tabiat qoʻynida, ochiq xavoda oʻtkazib, taʼlim jarayonida undan foydalanish usullarini ishlab chiqadi. Chet el madaniyati va adabiyoti bilan oʻquvchilarni tanishtirishga katta eʼtibor beradi.

Anbar otin (1870-1915) oʻzbek shoirasi va maʼrifatparvari. Oʻzbek va tojik tillarida sheʼrlar yozgan. U 1870-yil Qoʻqonda Farmonqul degan ilgʻor kishi oilasida tugʻilgan. Maʼlumotni Dilshod otin (Barno)dan oladi. U maktabda tarix, adabiyotni oʻrganadi, sheʼrlar yozadi. Soʻng oʻzi ham darslar beradi. U qizlarga odob qoidalari, sheʼr tuzilishi, yuksak axloqiy malakalar hosil qilish qoidalarini oʻrgatadi. Uning butun hayoti sheʼriyat bilan bogʻliq. Ularda maʼrifiy gʻoyalar ilgari suriladi. Anbar otin maʼrifatgina shaxs erkinligini shakllantira olishini biladi. Uning Furqatga yozgan sheʼriy maktubida yangi usul maktablarini ochish hakidagi takliflari bayon etilgan. Anbar otin devon ham tuzgan. Anbar Otinning dunyoqarashini, falsafiy tafakkurini oʻzida mujassamlashtirgan asari - “Qarolar falsafasi”dir. Asar kirish va 4 qismdan iborat. Har bir faslda shoira oʻzining ijtimoiy-qarashlarini bayon qiladi, ayollar taqdiri haqida yozadi.

Mahmudxoʻja Behbudiy (1875-1919) yozuvchi, jurnalist, jamoat arbobi, maʼrifatparvar. U maktabni bitirgach, madrasada oʻqiydi. Lekin bitirmasdan mehnat faoliyatini boshlaydi. Arabiston, Misr, Turkiya, Rossiyaga sayohat qiladi. 1903-1904 yillari oʻzbek va tojik tillarida “Muntaxabi joʻgʻrofiya” (“Qisqacha umumiy geografiya”) asarini, yangi usul maktablari uchun

“Kitob ul-atfol” (“Bolalar uchun kitob”, “Muxtasari tarixi islom” (“Islomning qisqacha tarixi”), “Amaliyoti islom”, “Aholi jo‘g‘rofiyasiga kirish”, “Rossiyaning qisqacha geografiyasi” asarlarini yozadi. Shakuriyning qishlog‘idagi yangi usul maktabini 1908-yil Samarqandga o‘z hovlisiga ko‘chirib keladi. “Behbudiy nashriyoti”ni tashkil etib, darsliklar, “Turkiston, Buxoro, Xiva xaritasi”ni bosib chiqaradi. “Samarqand” gazetasi, “Oyna” jurnalini nashr etadi.

U xalqni ilm - ma‘rifatni egallashga chaqiradi, ayollarning ilm olish kerakligini ilgari suradi, yangi usul maktabini ochish dunyoviy fanlarni o‘qitishni targ‘ib qiladi.

Behbudiy 1918-yil “Musulmon ishchi va dehqon Sho‘rosi”ning maorif komissari qilib tayinlanadi. Shundan so‘ng o‘quv rejalari tuzish, yangi darsliklar yaratish, o‘qituvchilar kurslarini ochish ishlariga qatnashadi, o‘zi “Yangi hisob” darsligini tuzib nashr etadi.

1918-yil Toshkentga kelib, Turkistonda davlat tili haqidagi Dekret, milliy ishlar xalq komissarligining Nizomi loyihalarini tayyorlovchi komissiyalar ishida qatnashadi. 1919-yil Buxoro amiri amaldorlari tomonidan Shahrisabzda qamoqqa olinib, Qarshi shahrida qatl qilinadi.

Taniqli o‘zbek pedagogi va olimi Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida uning 1913-yilda yozgan va 1917-yilda ikkinchi bor nashr qilingan “Turkiy guliston yoxud axloq” nomli asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o‘rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir. Bu asar mazmun tomonidan muallifning boshqa ijtimoiy va pedagogik asarlari bilan uzviy bog‘liqdir. “Turkiy guliston yoxud axloq” asari axloqiy va ta‘limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni “yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi” ilm-axloq haqida fikr yuritiladi. Shu jihatdan qaraganda bu asar Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig‘”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Nosir Xusravning “Saodatnoma”, Sa‘diyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Axmad Donishning “Farzandlarga vasiyat”, Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” asarlari shaklidagi o‘ziga xos tarbiyaviy asardir. Shuni ta‘kidlash lozimki, XX asr boshlarida bunday asarni yaratish, milliy g‘oya, milliy rux singdirilgan ta‘lim-tarbiyaviy ishlarning tadbiiq etilishi pedagogika olamidagi yirik kashfiyotdir.

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr

yuritib “Agar bir kishi yoshligida nafi buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, ollohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq, yerdan turib yulduzlarga qo‘l uzatmoq kabidur”, - deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar katta ahamiyatga ega.

Darxaqiqat, Abdulla Avloniy tarbiyadagi asosiy g‘oya, bu bizlar uchun: “YO hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” deya mushohada qilishi, uning tarbiya sohasida juda katta va keng bilimga ega ekanligi, komil insonni tarbiyalashda ta‘lim-tarbiyaning har bir yo‘nalishiga e‘tibor berish kerakligini, ong va tafakkurni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda tarbiya katta rol o‘ynashini mohirona ifodalay bilishi, tahsinga loyiqdir. Bu g‘oya o‘z navbatida yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, insonparvarlik, odamiylik, olijanoblilik, mehnatsevarlik, iffatli, mehr-oqibatli, intizomli, adolatparvar, millat g‘ururini e‘zozlovchi, ulug‘ ajdodlarimiz an‘analari va ilmiy meroslarini ko‘z-qorachig‘iday asrovchi, axloqi pok inson bo‘lib yetishish borasidagi asosiy mezon hisoblanadi.

Abdulla Avloniyning ta‘lim-tarbiya haqidagi ta‘limoti

Asosiy g‘oya: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat yo saodat, yo falokat masalasidir”

Demak, Abdulla Avloniy, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, bola tarbiyasini nisbiy ravishda to‘rt bo‘limga ajratadi:

1. “Tarbiyaning zamoni”.

2. “Badan tarbiyasi”.

3. “Fikr tarbiyasi”.

4. “Axloq tarbiyasi” hamda uning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritadi.

5. Turkistonda 1917-yildan XX asrning 70-80-yillarigacha O‘zbekistonda halq ta‘limi. 1917-yilgi fevral voqealari va oktabr davlat to‘ntarilishidan so‘ng Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida - ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy-mafkuraviy, jumladan xalq maorifi sohalarida keskin o‘zgarish yuz berdi.

Turkiston o‘lkasida milliy demokratiya vakillari, mashhur ma‘rifatparvar ziyolilar tomonidan yangi usuldagi maktablarning keng tarmog‘ini yaratish, maktab-maorif borasida zudlik bilan islohotlarni amalga oshirish yuzasidan bir qator takliflar ilgari surildi.

Ammo O'zbekiston hududida ma'naviyat va madaniyat 1917-yildan boshlab murakkab vaziyatni boshdan kechirdi, jiddiy to'siqlar va buzg'unchiliklarga uchradi. Turkistonni qizil imperiya koloniyasiga aylantirishga kirishgan bolsheviklar siyosati va amaliyotini xalq ommasi, milliy ziyolilar qabul qilmadilar.

Milliy ziyolilar va arboblarning faoliyati keng tus oldi, chuqur ijtimoiy-madaniy mazmun kasb etdi. Jadid ziyolilari, ijod ahli bo'lmish Munavvar Qori, Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, A.Qodiriy, A.Avloniy, Hamza, G'ozii Yunus, Xurshid va boshqalar bilan bir qatorda XX asr bo'sag'asida tug'ilgan iste'dodli yoshlar Mashriq Yunusov (Elbek), Naim Said, Rafiq Mo'min, Mahmud Xodiyev (Botu), Baxrom Xaydariy va boshqa qator ziyolilar madaniyat, maorif sohalarida jonbozlik qildilar, ijtimoiy yo'naltirilgan ijod bilan shug'ullandilar.

Milliy madaniyatimizning eng qadimgi va yirik markazi bo'lgan Samarqandda mashxur ma'rifatparvarlar Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Akobir Shomansurzoda, Said Axmad (Vasliy), Saidaxmadxo'ja Siddiqiy, Mardonquli Shomhammadzoda zudlik bilan maktab islohatini amalga oshirish fikri bilan maydonga chiqdilar. Ular 1917-yil aprel oyidan boshlab chiqayotgan "Xurriyat" gazetasi saxifalarida yangi usuldagi maktablarning keng tarmoqlarini yaratish zarurligi hakidagi fikrni ilgari surdilar. "Anjumani maorif" jamiyatining mablag'lariga "Rushdiya" maktabi ochildi, unda bepul o'qitilar edi. Abdurauf Fitrat bilan Kamol Shams bu maktabda o'kuvchilarga islom dini ta'limotini, islom tarixini, musulmon hukukini, turk, arab va fors tillarini, arifmetika, geometriya, geografiya, tabiatshunoslik, tarixni o'qitar edilar. Yoz faslida Samarqandning o'zida taniqli ma'rifatparvar, shoir va dramaturg Hoji Mumin Shukrullo "Tarbiyat" maktabini ochdi.

1918-yilning yozida Samarqandda "musulmon o'qituvchilari uchun pedagogik kurslar" ochildi. O'sha yilning kuzida Toshkentda - Toshkent uyezdining tub yerli aholisi uchun maktab o'qituvchilari kurslari ochildi.

1918-yil 9-aprelda Munavvar qori uyida to'plangan jadidlar Turkiston Xalq dorilfununining musulmon bo'limini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi. Ular 22 kun ichida musulmon bo'limi dasturlarini tuzadilar. Dorilfununning musulmon bo'limi ham rus bo'limi kabi uch bosqichdan iborat bo'lishi belgilandi.

Yuqori bosqich - dorilmuallimin (o'qituvchilar kursi, keyinroq oliy o'quv yurti) o'rtta bosqich - boshlang'ich maktablarni o'z ichiga olar edi. Xalq dorilfununi tarkibining bu shaklda bo'lishi sharoitning o'zidan kelib chiqqan holda zamonaviy bilim va savodxonlikka bo'lgan ehtiyojdan tug'ilgandi.

O'sha yilning 3-mayida dorilfunununing Musulmon bo'lini rahbariyatiga saylov bo'lib, unda Munavvar qori rais (rektor), iso To'xtaboyev birinchi muovin, Burxon Xabib ikkinchi muovin, Abdusamid qori Ziyobov xazinador, Muxtor Bakir sarkotib bo'lib saylandi. 13-may (yakshanba) kuni Toshkentning eski shahar qismida Vikula Morozovning sobiq do'koni binosi (hozirgi o'zbek yosh tomoshabinlar teatri)da musulmon aholi uchun "xalq dorilfununi" ochiladi. Bu bo'lim tez orada o'ziga xos yirik bilim maskaniga aylandi. Dastlab 9 ta boshlang'ich maktab ochish mo'ljallangan bo'lsada, aholi ehtiyojiga ko'ra, ularning soni 24 taga yetdi. Dorilfununining musulmon bo'limi 15 demokratik tashkilot vakillari uyushgan 45 kishilik kengash tomonidan boshqariladi. Undagi muallimlar soni 18 nafarga yetdi.

1918-yil 2-iyun kuni sobiq seminariya binosida dorilfununining o'zbeklar uchun maxsus o'qituvchilar tayyorlovchi bo'limi - "Dorilmuallimin" ochildi. Unda Fitrat ona tilidan, Kamol Shams arifmetika va geometriyadan, Xaydar Shavqiy gigiyena, gimnastika va nemis tilidan, Raximboyev arifmetikadan, Abduraxmon Ismoilzoda san'atdan, Rizayev madaniyat tarixi va siyosiy iqtisoddan. Munavvar qori ona tilidan dars berishadi. Bu bo'limning ochilish marosimida Munavvar qori nutq so'zlab, inson ma'rifatli bo'lib, ko'zi ochilmaguncha vijdoni uyg'onmasligini, vijdon uyg'onmasa na o'zini, na xalqni erkin muhofaza qila olmasligini, bu iymonsizlik ekanini mutafakkirona noziklik bilan ifoda etadi.

Munavvar Qori Yevropacha usuldagi bunday Xalq dorilfununni tashkil etish bilan bir qatorda, mavjud madrasalarni isloh qilish va ularda asosan dunyoviy fanlar o'qitilib, milliy ziyolilar tayyorlash g'oyasini ham ilgari suradi. Bu qarashlarini - u 1923-yil iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan xalq maorifi mudirlari qurultoyidagi ma'ruzasida bayon etgani, shu yili bu yangi usulda 30 dan ortiq madrasa va eski maktablarda talabalar o'qitilganligi ma'lum.

Munavvar Qori 1922-yildan Turkiston maorif noziri, keyin esa

Toshkentning eski shahar maorif bo'limi muboshiri (inspektori) bo'lib ishladi, o'sha yili 23-25-martda bo'lib o'tgan 2-Umumturkiston maorif xodimlari qurultoyida ishtirok etib, maktab bo'limiga a'zolikka saylandi. Keyinchalik Alisher Navoiy nomli ta'lim-tarbiya bilim yurtida va turli maktablarda o'zbek tili va adabiyotidan dars berdi.

Xalq ta'limining iste'dodli tashkilotchilari Abdulqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullayev, Ishoqxon Ibrat, O.Dadaxo'jayev, Abdulla Mustaqov, Xodi Fayziyev, Ashurali Zoxiriy, Sobirjon Raximov, Shokirjon Raimiy, Qori Niyoziy, Said Rizo Alizoda, To'xtanazar SHermuhammedov, Rafiq Mo'min va boshqalar katta pedagogik ish olib bordilar. Maktablar soni ortdi. 1918-yil boshida 330 taga, 1920-yilda esa Farg'ona, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida ham tashkil etilib, ular soni 1405 taga yetdi. Tashkil bo'lgan maktablar, ayniqsa, qishloq joylarida va tumanlarda asosan 1 - 2 - boshlang'ich sinflardan iborat edi. Keyinchalik yuqori sinflar paydo bo'la boshladi. Bunday targ'ibot natijasida Toshkentda, Andijonda, Qo'qonda va boshqa joylarda qizlar maktablari xam birin-ketin ochildi. Ayol muallimlar Solixaxon Muhammadjonova, Muxarrama Qodirova, Gulsum Kopayeva, Fotima Burnasheva, Zebiniso Razzoqova, Zaynab Sadriddinova, Maryam Sharipova va boshqalar ta'lim-tarbiya ishlarini olib borganlar.

1922-yilga kelib Turkistonda bolalarning 25 foizi maktablarga jalb qilingan edi. Buxoro respublikasida 1921-yilda 175 ta yangi maktab, 11 ming o'quvchi bor edi. Lekin 1924-yil o'rtalariga kelib maktablar 69 tani, o'quvchilar 3563 tani tashkil qildi. Xorazmda 40 ta umumta'lim maktablari va internatlarda 2600 bola ta'lim-tarbiya oldi. O'zbekiston respublikasi tashkil bo'lganda turli bosqichdagi 1500 ta maktab bo'lib, ularda 116 ming o'quvchi o'qir edi.

Ma'lumki, 1924-yilda amalga oshirilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida mintaqa kartasi qaytadan tuzildi. Shuni ta'kidlash lozimki, 20-30 yillardagi juda murakkab, siyosiy ijtimoiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar respublikaning milliy madaniyatiga har hil tarzda ta'sir o'tkazdi, barcha sohadagi o'zgarishlarni qarama-qarshi tusga kiritdi va respublika taraqqiyotining asosiy tendensiyalari hamda yo'nalishlarini uzoq yillarga belgilab berdi.

Xalq ma'rifatining yuksalish yo'lida aholining savodliligini oshirish, savodsizlikka barxam berish davr talabi edi. Bu maqsadda ko'plab yangi

savod maktablari va kurslar ochildi. Minglab aholi savodli bo'ldi. Shuni aytish joizki, 1930-yili umumiy boshlang'ich ta'limni joriy etish savodsizlikni qisqartirishga yordam berdi. 30-yillarning oxirlariga kelib, umumiy yetti yillik ta'limni amalga oshirishga kirishildi. Sovet davlatining statistik ma'lumotlarida ko'rsatilishicha 1925- 1941-yillar davomida xalq ta'limi maktablari soni muttasil ortib borgan. Masalan, 1924-25-o'quv yilida o'zbekistonda 160 ta sovet tipidagi maktablar tashkil qilinib, ularda 17209 o'quvchi ta'lim olgan bo'lsa, 1941-yilga kelib maktablar soni 5504 taga va ularning o'qitilayotgan o'quvchilari soni esa 1 mil. 315 ming kishiga yetgan.

1930 - yillarning birinchi yarmida avj olgan bu tadbir amalda ziyolilar safini malakasi va saviyasi past kishilar bilan to'ldirishga, yuzakilik, omilsizlik, qog'ozbozlik kabi noma'qul illatlarning ildiz otishiga olib keldi. Kishining qobiliyati, madaniy saviyasi va ma'lumot darajasi emas, balki ijtimoiy kelib chiqishi asosiy mezon qilib olindi.

Bu yillarda respublika oliy o'quv yurtlari tarmog'i ham ortib bordi.

20-yillar o'rtalaridan boshlab mustabid tuzum o'zbekistonda qator ilmiy- tadqiqot institutlari tashkil qildi. 1932-yilga kelib o'zbekiston olimlari Respublika Fanlar Akademiyasini tashkil etish ishiga kirishdilar. 40-yillarning boshida O'zbekistonda 60 dan ortiq maxsus ilmiy-tekshirish muassasalari, laboratoriya va stansiyalari mavjud bo'lib, ulardan nazariy va amaliy fan sohalari bo'yicha turli yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirildi. 1940-yil 9 yanvarda Fan Qo'mitasi Ittifoq Fanlar akademiyasining O'zbekiston filialiga aylantirildi.

Ikkinchi jahon urushining suronli yillarida respublika oliy o'quv yurtlari va texnikumlar o'z faoliyatlarini davom ettirdilar. Katta qiyinchiliklarga qaramay, ular sanoat, qishlok xo'jaligi, maorif, tabobat va boshqa sohalar bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlab beradigan chinakam manba bo'lib qoldi. 1943-yilda respublikada 41 ta oliy o'quv yurti (ularning 12 tasi ko'chirib kelingan) va 52 ta o'rta maxsus bilim yurtlari faoliyat ko'rsatdi. Urush yillari davomida ularda 20 mingdan ziyod oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar yetishtirildiki, bu xalq xo'jaligini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash imkonini berdi. Ular o'z navbatida samarali mehnat qilib, fashizmni tor-mor keltirish ishiga munosib hissa qo'shdilar. Pedagogik kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berildi, chunki urush davri sharoitlarida ularga ehtiyoj ayniqsa sezilarli edi. Urush yillari o'zbekistonda barcha

turdagi qo'shinlar uchun zobit kadr va mutaxassislar ham tayyorlandi. Toshkentda piyodalar bilim yurti ham ko'chirib keltirilib, respublikamizga joylashtirilgan bir necha harbiy bilim yurtlari, oliy o'quv yurtlarining harbiy fakultetlarida, o'nlab turli kurslarda kadrlar tayyorlandi.

O'zbek fan ahlining urush sharoitidagi izlanishlari, ilmiy tadqiqotlarining yo'nalishlari front va xalq xo'jaligi talablari hamda manfaatlariga moslashtirildi. Bu boradagi ilmiy va tashkiliy ishlarni muvofiqlashtirish, ularga rahbarlik qilish sobiq SSSR FA O'zbekiston filiali (O'zFA) va keyinroq, 1943-yil 4-noyabrda uning asosisda tashkil etilgan O'zbekiston Fanlar akademiyasi zimmasiga tushdi. Bu akademiyaning birinchi prezidenti etib T.N.Qori-Niyoziy saylandi. Fanlar akademiyasining tashkil etilishi o'zbek xalqi hayotida muhim tarixiy xodisa bo'ldi. Bu akademiya o'zbekiston ilmiy tafakkurining markazi bo'lib qoldi. Shu bilan respublikada ilmiy tafakkurni yanada rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratildi. Bu davrda taniqli matematik olimlar T.N.Qori-Niyoziy, T.A.Sarimsoqov, geolog-olimlar M.Abdullayev, faylasuf I.Mo'minov, kimyogar olimlar O.S.Sodiqov, A.S.Uklonskiy, S.Y.Yunusov va boshqalar samarali izlanishlar olib bordilar. Fanlar akademiyasi tarkibida 22 ta ilmiy muassasa mavjud bo'lib, ularda 818 ta ilmiy va ilmiy-texnik xodimlar faoliyat ko'rsatdilar.

XX asrning 80-yillarida, jamiyatimizning barcha bo'g'inlarida qayta qurish keng quloch yozdi. Uning mazmunida hayotni demokratlashtirish, tezkor iqtisodiy islohot, ma'naviy poklanish milliy qadriyatlar va axloqiy g'oyalarning tiklanish muammolarini hal etish zaruriyati yuzaga keldi. Qayta qurishning hal qiluvchi bosqichida jamiyat uchun chetdan tomoshabin emas, balki mamlakat iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayoti rivojiga javobgar, ma'suliyatli, sog'lom fikrli g'oyaviy-siyosiy dunyoqarashi shakllangan shaxs zarur edi.

Islohotda o'quvchilarni mehnat ta'limi va tarbiyasi, kasbga yo'llash, politexnik ta'limning mazmun, shakl va metodlarini yanada kuchaytirish masalasi isloh qilingan maktablar oldida turgan muhim vazifalardan biri ekanligi alohida uqtirilgan. Bu borada barcha mashg'ulotlarni 3 bosqichga bo'lish, ya'ni boshlang'ich maktab (I-IV sinflar), to'liqsiz o'rta maktab (V-IX sinflar), o'rta umumta'lim maktablaridagi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, mehnat ta'limi va kasbga o'rgatish yuzasidan

dasturlar ishlab chiqish, ijtimoiy-foydali, unumli mehnatni rivojlantirish, politexnik bilim, mahoratni shakllantirish tadbirlarini belgilash, mehnat tarbiyasini iqtisodiy tarbiya bilan birga qo'shib olib borish masalalariga ijodiy yondoshish maqsadga muvofiqdir. O'quvchiga ta'lim-tarbiya berishning muhim bo'g'ini oila va jamoatchilikdir. Bola oila, jamoatchilik, muhit ta'sirida tarbiyaning muhim ajralmas qismlari hisoblanadigan g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnat, iqtisodiy, ekologik, jismoniy, estetik jihatdan tarbiyalanib boradi. Shuningdek, bola shaxsini bir butun yaxlit shakllantirishda maktabdan tashqari muassasalarning ahamiyati juda katta. Islohot ta'lim-tarbiya berishning bu bo'g'inining ish mazmunini tubdan o'zgartirishni ham nazarda tutadi. Isloh talablarini amaliyotga tadbqiq etish uchun ta'lim-tarbiya maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'lim va tarbiya birligining namunaviy dasturini ishlab chiqish, darsdan tashqarida o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlarning mazmuni va shaklini jiddiy qayta qurish, kuni uzaytirilgan guruxlar tuzishni ommalashtirish, maktabdan tashqari muassasalar - bolalar saroylari, uylari, yosh texniklar va tabiatshunoslar, sayyohlar stansiyalari, sport, musiqa, badiiy va xareografiya maktablari, bolalar kutubxonalar, oromgohlar va shu kabilarni vujudga keltirish, istiqomat joylarida olib boriladigan xilma-xil ishlarga barcha o'quvchilarni jalb etishga erishish, bolalar tarbiyasida oilaning ma'suliyatini oshirish va g'oyat qisqa vaqt ichida shu muassasalarning moddiy-maishiy sharoitini yaxshilash zarurligi uqtirildi.

Ta'limning mazmuniga aniqliklar kiritildi. O'quv dasturlari qaytadan tuzildi, o'quvchilarni ortiqcha ma'lumotlar bilan band etishdan, zeriktirishdan xalos etildi. Ta'limning shakllari va metodlari takomillashtirildi, ba'zi fanlardan o'quv darsliklari, metodik qo'llanmalar yaratildi. O'quv rejasiga "Atrof muhit bilan tanishish" (1-2 sinflarda), "Informatika va hisoblash texnikasi asoslari" (X-XI sinflarda), "Oila etikasi va psixologiyasi" (X-XI sinflarda), "Ishlab chiqarish asoslari, Kasb tanlash" (8-10 sinflarda) kabi fan asoslari kiritildi va o'qitildi. O'qituvchilar mehnatiga tabaqalashtirib halq to'lash joriy etildi. O'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash masalasida ijobiy siljishlar ro'y berdi, o'quvchilarni mehnat ta'limi va tarbiyasining mazmuni takomillashtirildi, hunar-texnika ta'limi tizimida ishchi xodimlar tayyorlash kengaytirildi. Maorifning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalasiga nisbatan

jamoat tashkilotlarining munosabatlari birmuncha o'zgargandek tuyuldi. Biroq, bu o'zgarishlar ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, uyushtirish uchun yetarli emas edi, albatta. Xullas kutilgan natijalarga erishilmadi.

Pedagogika fanlari doktori, akademik Siddiq Rajabovning O'zbekiston Respublikasi va jahon pedagogikasi fanini rivojlantirishda xizmati beqiyosdir. U pedagogika fanining eng muhim muammolari ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib, respublikamiz xalq maorifining tarqqiyoti va bu taraqqiyotning obyektiv qonuniyatlari, uning rivojlanish istiqbollari, pedagogika fani metodologiyasi, yoshlar tarbiyasi va xalq pedagogikasiga doir o'nlab asarlar yaratdi.

Siddiq Rajabov o'zining butun hayoti va faoliyatini pedagogika fani va ravnaqi uchun bag'ishladi. U 1937-yili aspiranturani tamomlagach, O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tekshirish institutiga ilmiy xodim va Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika instituti "Pedagogika" kafedrasiga o'qituvchi qilib tayinlandi. Yosh olim ilmiy tadqiqot ishini pedagogik faoliyati bilan qo'shib olib bordi. Shu yillarda S.Rajabov kechki pedagogika instituti direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'inbosari lavozimida ham yosh o'qituvchi sifatida mutaxassislar tayyorlashda katta faoliyat ko'rsatdi, o'z ishini puxta bilgan rahbar, yetuk ilmiy xodim va mahoratli o'qituvchi sifatida elga tanildi. Yosh olim matbuotda tez-tez ilmiy, pedagogik, publitsistik maqolalari bilan chiqqa boshladi. Jumladan, urushgacha bo'lgan davrda S.Rajabovning "Oliy pedagogika o'quv yurtlarining ish sifatini yuqori ko'taraylik", "Oliy o'quv yurtlari hayotida muhim davr", "Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar", "Yan amos Komenskiyning pedagogik qarashlari", "Imtixonlarning yuqori sifati uchun kurashaylik", kabi ishlari matbuotda e'lon qilindi. Shu yillarda u "XIX asr va XX asr boshlarida Buxoroda maktab va maorif taraqqiyoti ocherki" asarini yozib tamomladi. 1941-yilda ana shu mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini respublikada birinchi bo'lib muvaffaqiyatli himoya qildi. Bu orada u Respublika matbuoti va rahbariy idoralarida samarali mehnat qildi.

Respublikamiz fanini rivojlantirishga beqiyos katta hissa ko'shgan olimlarimizdan yana biri akademik Habib Abdullayevdir. Uning geologiya, jumladan, bu fanning petrologiya-metallogenik tarmog'i sohasidagi tadqiqotlari o'zbekistondagina emas, chet mamlakatlarda ham e'tirof etildi.

H.Abdullayev 1956-1962-yillarda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining prezidenti lavozimida xizmat qilish bilan birga, yirik ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Yuqori malakali ilmiy xodimlar tayyorlashga alohida e'tibor berdi. Uning tashabbusi va jonkuyarligi bilan tayyorlangan yuzlab fan nomzodlari va doktorlari fanning yangi yo'nalishlariga asos soldilar.

Shuni ta'kidlash lozimki, XX asr 2-yarmida O'zbekiston Fanlari Akademiyasi olimlari fizika-matematika, mexanika, boshqaruv jarayonlari va informatika, kimyo-texnologiya, tuproqshunoslik, biologiya, ijtimoiy-gumanitar fan sohalarida katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Bu yutuqlar akademiya laboratoriyalari va institutlari olimlarining ko'plab avlodlari fidokorona va yuqori kasbiy darajada olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijasi bo'ldi. Aynan ularning mehnati tufayli keng e'tirof etilgan ilmiy maktablar vujudga keldi, yangi ilmiy yo'nalishlar rivoj topdi. Ko'plab ilmiy xodimlar tayyorlandi, ilmiy ishlar amaliyotga tadbiq etildi. O'zbek olimlari, geologlar Habib Abdullayev, Ibrohim Hamroboev, biokimyogar Yolqin To'raqulov, kimyogarlari Obid Sodiqov, N.Nabiyev, Sobir Yunusov, fizik va matematiklar T.N.Kori-Niyoziy, Toshmuhammad Sarimsaqov, Ubay Oripov, texnika fanlari sohasidagi olimlar Muhammad O'rozboyev, Vosit Qobulov, faylasuf Ibroxim Mo'minov, tarixchi Yaxyo G'ulomov, pedagog Siddiq Rajabov. Iminjon Qodirov va boshqa ko'plab olimlarning nomlari O'zbekistondan tashqarida ham shuhrat qozondi.

Nazorat uchun savollar:

1. XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda fan, madaniyat va maorif taraqqiyoti qay darajada edi?
2. Xonliklar davrida ilm-fan, ta'lim-tarbiyadagi o'zgarishlar haqida gapiring?
3. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotda qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
4. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining yaratilishi va uning asosiy g'oyalari nimadan iborat?
5. Sobiq Sho'ro davrida (1917-1990 yy) xalq ta'limi va pedagogika?

5-MAVZU: IQTISODIY RIVOJLANGAN XORIJIY DAVLATLARDA TA'LIM TIZIMI

Reja:

1. Rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta'lim-tarbiya, maktab va maorif taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari.
2. AQShda ta'lim tizimini tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari.
3. Yaponiyada ta'lim-tarbiya va uning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Fransiyada ta'lim tizimi.
5. Germaniyada ta'lim tizimini rivojlanishi.
6. Rivojlangan xorijiy davlatlar va mustaqil O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi o'zaro hamkorlik masalalari.

Tayanch iboralar:

Rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta'lim-tarbiya, maktab, maorif, AQSH da ta'lim, Yaponiyada ta'lim, Germaniyada ta'lim, Fransiyada ta'lim, ta'lim tizimidagi islohatlar.

1. Rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta'lim-tarbiya, maktab va maorif taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari. Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarda ta'lim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, maktablarda amalga oshirilganini o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta'lim tizimlarini yangidan tashkil qilishda, ta'lim-tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq xalos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz. Zotan, hozirgi zamon ta'limida davlat va jamiyat talabi va manfaatlari aks etib turishi kerak.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim-tarbiya berishda eng ilg'or pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning eng maqbul tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda keng ko'lamdagi islohotlarni o'z boshidan kechirayotgan bizning ta'limimiz uchun bu katta ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda chet el ta'limi bo'yicha ko'pgina maqolalar, broshyuralar, qo'llanmalar chop etildi, unga bag'ishlab seminarlar, anjumanlar, uchrashuvlar o'tkazildi.

Bu bizning ta'lim tizimlarimizda, chet ellarda o'quv tarbiya ishlarining qo'yilishiga e'tibor va qiziqishning tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligidan dalolatdir. Xalq ta'limi tizimlarida chet el ta'limini o'rganish bilan shug'ullanuvchi muassasalar ham tashkil topmoqda. Xalq ta'limi vazirligidan tashqari bu masala bilan Respublika o'quv-metodika markazida, pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tarkibida maxsus bo'limlar faoliyat ko'rsatmoqda, malaka oshirish markaziy institutida bir qator kafedralar ish bilan shug'ullanmoqdalar.

Chet el ta'limi tizimlaridan bizning mutaxassislarni voqif qilishda BMT ning O'zbekistondagi vakolatxonasi, elchixonalar, AQSH ning Tinchlik Korpusi mutaxassislari, Germaniya xalqaro rivojlanish fondi, AKSELS markazi, Adenauer jamg'armasi, Fransiya madaniyat markazi, Britaniya Kengashi, Gyote instituti, "Silm A.SH." firmasi, YUNESKO va YUNISEF ning vakolatxonalari va boshqa ko'plab tashkilotlar yaqindan yordam bermokdalar.

"Rivojlangan davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham shakllanib kelayotgan o'rta sinf bo'lmish mulkdorlar sinfining muhim tarkibiy qismi, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining tayanchi va suyanchi hisoblanadi"- degan edi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Barkamol avlod yili" davlat dasturida.

Darhaqiqat rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning, mamlakat ichki siyosatiga faol tasir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarida maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Yaponlarda, masalan, "maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoli" gina bo'lib qolmay, "u insonlarni yaxshilaydi", degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan.

Ta'lim to'g'risidagi g'amxo'rlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat e'tiborida bo'lgan. Shuning uchun xam AQShning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Techcherni, Fransiya Prezidenti F.Mitteranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb, bejiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni "Jamiyatni xarakatlantiruvchi kuch" deb hisoblagan.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni 2 mingdan ortiq. Fransiya, AQSH, Yaponiya ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmokdalar. Ular faoliyatini esa xalqaro ta'lim markazlari, masalan, AQSH da xalqaro ta'lim instituti muvofiqlashtirilib bormoqda. Ko'pchiligining faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilgan. 80-yillardan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQSH dagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish o'quvchilar va ota-onalar ixtiyorida.

“Yangi dunyo” ning pedagogik g'oyalari Fransiya va Germaniya ta'limiga ham sezilarli ta'sir etmoqda.

Germaniya to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga oshirilmoqda. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasidan chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Fransiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo'linadi.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushidan keyinok Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida bir qator farqlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan, asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy ta'lim maktablarining yangi musika ta'limi o'quv dasturiga milliy va jahon mumtoz musiqasini o'rganish ham kiritilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda 60-80-yillarda tabiiy-ilmiy ta'lim dasturi tarkibiga fizika, ximiya, biologiya, bazi xollarda astranomiya, geologiya, mineralogiya, fiziologiya, ekologiya elementlari kiritilib, u AQSH va Fransiyada 4 yil, Buyuk Britaniyada 6 yil, Germaniyada 2 yil o'qitiladi. O'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida yangi-yangi kurslar paydo bo'la boshladi. Fransiyada 70-80-

yillarda to'liqsiz o'rta maktablar o'quv dasturidagi tabiiy-ilmiy va gumanitar turkumiga eksperimental, iqtisodiy gumanitar kurslar kiritiladi.

Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirildi. Fransiya maktablarida ularga 6-10 foiz, Buyuk Britaniya maktablarida 15 foiz o'quv soatlari ajratildi.

Maktablarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim ishini tabaqalashtirish muammolarini keltirib chikardi.

Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'limni tabaqalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan. O'quvchilarni tabaqalashtirib o'qitish xorijiy mamlakatlarda asosan boshlang'ich ta'lim kursidan keyin amalga oshiriladi. Masalan, Fransuz pedagoglari ta'lim jarayonida sinf o'quvchilarini uch tabaqaga ajratib o'qitishni afzal ko'radilar. Bular quyidagilar :

1. Gomogenlar - matematika va gumanitar yo'nalishda ish olib borsa bo'ladigan o'quvchilar.

2. Yarim gomogen - tabiiy turkumdagi fanlarni o'zlashtira olishga moyil o'quvchilar.

3. Gegeron - barcha predmetlarni har xil saviyada o'zlashtiradigan o'quvchilar va hokazo.

Tabaqalashtirish jarayoninig yangi muhim yo'nalishi to'ldiruvchi ta'limni rivojlantirish bo'lib qolmokda.

To'ldiruvchi maktablar paydo bo'lishining sababi, AQSH va G'arbiy Yevropada o'zlashtira olmaydigan hamda ulgurmaydigan o'quvchilarning ko'payib borayotganligi, funksional savodsizlik avj olayotganligidir.

80 - yillarda AQSH o'quvchilarinig 50 - yillarga nisbatan reyting ko'rsatkichi 973 dan 893 ga tushdi. Fransiyada har uch litseychidan biri bu salbiy holatni bartaraf etish to'ldiruvchi ta'lim zimmasiga tushadi.

To'ldiruvchi ta'lim maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktab va litseylarda amalga oshirilmoqda. AQSH da bu xizmatga ommaviy axborot vositalarinig imkoniyatlari xam safarbar etilgan, Milliy telekompaniya maxsus o'quv kanali orqali 130 soatlik o'quv ko'rsatuvlari tashkil etildi.

O'quv jarayonlarini tabaqalashtirib olib borish bo'yicha chet mamlakatlarinig ko'pchiligida tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e'tibor tobora ortib bormoqda.

Keyingi davrlarda o'z tengdoshlariga nisbatan qobiliyatda bir necha barobor ilgari lab ketgan bolalar ko'plab topilmoqda. Ular o'quvni juda erta boshlab ta'lim kurslarini o'zlashtirishda katta shov - shuvlarga sabab bo'ladigan darajada muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Shunday iqtidorlar maktabi G'arbda 60 - yillardayoq paydo bo'lgan edi. Bunday maktablarning o'quv dasturlari bolalar qobiliyati va imkoniyatini to'la ro'yobga chiqarishni ta'minlab berish darajasida murakkab tuzilgan.

Qobiliyatli bolalar bilan ishlash dasturlari AQSH da keng quloch yo'yan. Ayrim shaharlarda oliy toifali bolalar bog'chalari ochilgan bo'lib, ularda 4-5 yoshli o'quvchilar maktab dasturida o'qitiladilar. AQSH da "Merit" dasturi asosida har yili yuqori sinflar va kollejlardan eng qobiliyatli bolalardan 600 mingtasi tanlab olinadi. Ular o'rtasida test sinovlari o'tkazilib eng qobiliyatli 35 ming o'quvchi tanlab olinadi va o'qitiladi. Ularga turli imtiyozlar, stipendiyalar, yaxshi shart - sharoitga ega bo'lgan turarjoy, eng oliy darajadagi universitetlarga qabul va boshqalar amalga oshiriladi.

Lekin iqtidorli bolalarga qarama - qarshi qutbda turgan aqli zaif o'quvchilarning taqdiri ham chet ellik hamkasblarni tobora tashvishlantirmoqda, bunday xolni kelib chiqish sabablarini o'rganish, oldini olish bo'yicha ko'pgina profilaktik ishlar olib borilmoqda va ular uchun maxsus maktablar ochilmoqda. Lekin statistik ma'lumotlar bunday bolalar soni tobora oshib borayotganligini ko'rsatib kelmoqda.

70 - yillarda AQSH da kelajak maktabi umummilliy loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Bu eksperiment mazmuni o'qituvchi buyrug'i bilan ish tutish, ko'proq o'quvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatini berishdan iborat. Ta'lim tarkibi sinfda ishlash, mustaqil mashg'ulot, o'qituvchi konsultatsiyasini o'z ichiga oladi.

Germaniya maktablarida sinfda o'quvchilar sonini qisqartirish sari yo'l tutilgan. Bunday o'quvchilarning har biriga individual paketlar (topshiriqlar) tarqatiladi. Toshiriqlarni o'quvchi mustaqil bajaradi, lozim bo'lganda u o'qituvchidan konsultatsiya oladi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'zda tutilgan maqsadlari :

- maktablarning insonparvarlik, umuminsoniylik yo'nalishlarini kuchaytirish.

- o'quvchi shaxsini shakllantirishning eng samarali yo'llarini qidirib topish.

- tarbiyaning yangi formalarida - o'quvchilar kengashi, maktab kengashlaridan, tarbiyaviy o'yinlardan foydalanish.

- Maktab o'quv dasturlarini ixtisoslashtirish, fanlarning o'zaro aloqasini mustahkamlash, takomillashtirish.

- Maktabni mehnat, insoniy faoliyat bilan yaqinlashtirish, kasbga yo'naltirish ishlarini qayta tashkil etish.

- Tabaqalashtirib o'qitishni yo'lga qo'yish, maxsus o'quv muassasalarini (ham talantlar, ham aqliy, jismoniy zaif o'quvchilar uchun) rivojlantirish.

- Yangi, ya'ni o'quv texnik vositalarini ta'limdagi salmog'ini oshirish, o'qituvchilar korpusida kompyuter ta'limini yo'lga qo'yish.

- Pedagogik g'oyalarni amalga oshirishda keng qamrovli eksperiment - tadqiqotlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Chet el ta'limidagi bunday ibratli jihatlarni Vatanimiz ta'lim tizimlarida qo'llash yosh, mustaqil Resublikamizda o'quv - tarbiya ishlarini isloh qilish jarayonini tezlashtiradi.

2. AQSH da ta'lim tizimini tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari.

Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'lim tizimining tuzilishi quyidagicha:

- bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari;

- 1-8- sinflargacha bo'lgan boshlang'ich maktablar (bunday maktablarda 6 yoshdan 13 yoshgacha o'qiydilar);

- 9-12-sinflardan iborat o'rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat.

Amerika Qo'shma Shtatlarida navbatdagi ta'lim bosqichi oliy ta'lim bo'lib, u 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlarda hamda dorilfununlar va boshqa oliy o'quv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktoranturalardir.

AQSH da majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o'quv yurtlari davlat, jamoa, xususiy tasarrufida va diniy muassasalar ixtiyorida bo'lishi mumkin.

Amerikada 3 yoshgacha bolalar tarbiyasi bilan onalar shug'ullanadilar, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. Uch yoshdan 5 yoshgacha xususiy yoki davlat bog'chalaridan foydalanish mumkin, lekin bolalar

bog'chalari kichik va bu tizim kam rivojlangan. Enaga yollash bir haftada 200 dollarga tushadi. Bog'chalarda yagona bir dastur mavjud emas. Kerak bo'luvchi hamma jihozlar va kuchli ovqatni ota-onalarning o'zi olib keladi. 5 yoshdan esa "Kinder garde" deb ataluvchi tayyorlov muassasalarida ta'lim boshlanadi. Boshlang'ich maktab 6 yoshdan to 13-15 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Bu boshlang'ich maktablarda umumiy savodxonlik va kasbga yo'naltirish vazifalari hal etiladi. Sinfdan-sinfga ko'chish o'quvchining o'zlashtirganlik darajasiga bog'liq. Boshlang'ich ta'lim turli shtatlarda turlicha belgilangan (4, 5, 6, 8 yil). Maktablarda turli xil to'garaklar, uchrashuvlar, shovlar va sayohatlar uyushtiriladi, ammo ularning hammasiga xaq to'lash lozim. O'rta maktablar quyi va yuqori bosqichlardan iborat. 9-sinfni bitirgan talabalar tanlov asosida o'rta maktabga qabul qilinadi. O'rta maktablarda to'rt yo'nalishda kasb-kor asoslari berib boriladi.

1- kasb-hunar ta'limi, 2-biznes ta'limi, 3-savdo va sanoat ta'limi, 4- qurilish ta'limi. Oliy ta'lim 4 asosiy bosqichda amalga oshiriladi.

1- kichik mutaxassis - 2 yillik kollejlarda amalga oshiriladi.

2-bakalavr 4 yillik kollejlarda, 4 yillik kollej yoki dorifunnni tugatgan 3-bosqichni davom ettirish mumkin, bu 1-2 yillik magistr maktabi. 4-bosqich aspirantura, doktorantura. Maktablarda, ta'lim televidiniyasi, elektron til laboratoriyasi, videoapparatura, kompyuter va hokazolarni qo'llash yo'lga qo'yilgan. Maktablar ta'til vaqtida ham ishlab turadi. To'garaklar, qayta tayyorlash ishlari olib boriladi. Oliy ta'limda ikki yo'nalish mavjud: 1- ta'limni individuallashtirish, 2-talabning mustaqil ishlashini amalga oshirish. O'qituvchi yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Asosiy maqsad talaba intellektini mashq qildirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, AQSH o'rta maktablarida o'z o'quvchilariga uch yo'nalishda: akademik, kasb-hunar, umumiy yo'nalishlarida bilim beradilar. Ayni paytda o'quvchilarga to'rt yo'nalishda: qishloq xo'jaligi, biznes ta'limi, savdo va sanoat, qurilish bo'yicha hunar, kasb-kor asoslari o'rgatiladi.

AQSH da har bir o'quvchiga fanlar bo'yicha olgan bilimlari jamlangan attestatlar beriladi. Kollejlarda o'qish istagida hujjat topshirgan o'quvchilar yuqori o'rta maktabning so'ngi ikki yili bilimlari hajmida kirish test sinovlaridan o'tkaziladi. O'g'il-qizlarning tanlagan kasbiga layoqati va qobiliyati ham aniqlanadi.

Maktablarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan vositalar elektron yozuv apparatlari (kalligrafiya va yozuv qoidalarini takomillashtirishga yordam beradigan moslamalar), ta'lim televideniya, qo'lda ko'tarib yuradigan elektron til laboratoriyasi, slaydlar, videoapparaturalar, kompyuter va hokazolardan iborat.

XXI asr arafasida AQSH yangi qabul qilingan "2000-yilda Amerika ta'lim strategiyasi" dasturi e'lon qilindi.

Turli yo'nalishdagi asosiy maqsadlar belgilangan mazkur dasturda 2000-yilda barcha amerikalik kichkintoylarning maktabga tayyor holda kelishlari: aholining 90 foizi oliy ma'lumotli bo'lishi, o'quvchilarning ingliz tili, matematika, tabiiy fanlar, tarix, geografiya fanlari bo'yicha jahonga o'z iqtidorlarini namoyish eta olishlari, talabalarning tabiiy va matematika fani yutuqlarini o'zlashtirishda jahonda eng oldingi o'rinlariga chiqishlari, har bir voyaga yetmagan amerikalikning iqtisodiyot sohasida jahonning barcha yoshlari bilan bellasha oladigan bo'lishlari, maktablarda giyohvandlik va zo'ravonlikka barham berish, o'qish uchun barcha shart-sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan.

Bu AQSH ta'lim istiqbollarini belgilab beruvchi muhim dasturdir.

Oliy o'quv yurtlarida ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha AQSH jahon mamlakatlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bu mamlakatda ilmiy izlanishlar uchun ajratilgan mablag'ning 48 foizini davlat tomonidan, 50 foizini firma, konsern, sindikatlardan undiriladi, qolganlarini oliy o'quv yurtlarining mablag'lari tashkil qiladi.

AQSH dagi fundamental izlanishlarning bevosita ijrochisi oliy o'quv yurtlari, ularni mablag' bilan ta'minlab, ishlab chiqarishga tadbiq etuvchilar esa, turli sanoat, qurilish va boshqa tashkilotlardir. Ishlab chiqarish korxonalari dorulfununlar bilan shartnoma asosida hamkorlik qiladi. Ma'lumotlarga qaraganda, dorilfununlarning qariyb 70 foiz ilmiy xodimlari turli firmalarda tadqiqotchi maslahatchi bo'lib ishlaydilar. Dorilfununning ilmiy xodimlari, ishlab chiqarish korxonalarining ilmiy laboratoriyalariga boradilar.

O'qituvchi kadrlarni tayyorlash 4-5 yilga mo'ljallangan dastur asosida amalga oshiriladi, so'ngra 4-6 oy amaliyot o'tiladi.

Ta'limni xaddan ziyod demokratlashtirilishi talabalarning bilimni puxtaligini tekshirish va nazorat qilishda qiyinchiliklar tug'dirdi. Shu sababli

shunday boy moddiy bazaga va tajribaga ega davlatda butunlay savodsiz bo'lgan talaygina bolalar topiladi.

3. Yaponiyada ta'lim-tarbiya va uning o'ziga xos xususiyatlari.

Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868-yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga ikki vazifani: birinchi - boyish, ikkinchi - G'arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasiin qo'yadi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligi aytildi.

1872-yili "Ta'lim haqidagi qonun" qabul qilindi. Bunda Yapon ta'limi G'arb ta'limi bilan uyg'unlashtirildi. 1908-yilda Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. 1893-yili kasb yo'nalishidagi dastlabki kollej paydo bo'ldi.

1946-yili qabul qilingan Konstitutsiya fuqarolarning ta'lim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishlari belgilab ko'yilgan.

Yaponiyada hozirgi zamon ta'lim tizimlarinig tarkibi quyidagicha: Bolalar bog'chalari, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi o'quv yurtlaridan iborat.

Bolalar bog'chalari. Ta'limning bu bosqichiga 3-5 yoshli bolalar qabul qilinadi. Bolalar yosh xususiyatlariga muvofiq ravishda 3, 2, 1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadilar.

Majburiy-Ta'lim. Ta'limning bu pog'onasiga 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinib, ular shu muddat ichida 6 yillik boshlang'ich maktab va 3 yillik kichik o'rta maktab kursini o'taydilar. 9 yillik bu ta'lim majburiy bo'lib, barcha bolalar bepul o'qitiladilar va tekin darsliklardan foydalanadilar.

Yuqori bosqich o'rta maktabi. Bu maktablar ta'lim yo'nalishining 10, 11, 12-sinflarini o'z ichiga oladi. Yaponiyada bunday bosqich maktablarining kunduzgi, kechki va sirtqi bo'limlari mavjud. Kunduzgi yuqori bosqichli maktablarida o'qish muddati 3 yil. O'quvchilarning 95 foizi kunduzgi maktablarda ta'lim oladilar. Bu tarzdgai maktablarda o'qish ixtiyoriydir. Unda quyi o'rta maktablarni bitirgan yuqori bosqich o'rta maktablariga kirish sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'quvchi yoshlar qabul qilinadilar. Unda umumiy ta'lim (akademik) fanlari, texnik bilimlar, tijorat, mahalliy sanoat, qishloq xo'jaligi,

chorvachilik, baliqchilik, kemasozlik va boshqa maktablarda umumiy va xususiy tarmoqlarni qo'shib hisoblaganda 95 foiz yosh bilim oladi.

Dorilfununlar, kichik kollejar, texnik kollejar, maxsus ixtisoslashtirilgan kollejar Yaponiyada oliy ta'lim tizimini tashkil etadi.

Yaponiyada boshlang'ich, o'rta va oliy o'quv yurtlaridan tashqari, bir-biridan farq qiluvchi "Ixtisos maktablari" va "turli" maktablar ham mavjud. Ularning ko'pchiligi xususiy bo'lib, turli firma, konsern va sindikatlar uchun qisqa vaqtli kurslarda tikuvchi, oshpaz, hisobchi, mashinkada yozuvchi, avtotexnik, elektron hisoblash mashinalari uchun dastur tuzuvchilar va boshqa zaruriy kasblar o'rgatiladi. Yaponiyada ham turli xorijiy tillarni o'rgatishga ixtisoslashtirilgan maktablar mavjud.

Boshqa maktablardan farqli o'laroq, Yaponiya maktablarida o'qish 1-apreldan boshlanib, kelasi yilning 31-martida nihoyasiga yetadi.

Boshlang'ich va kichik o'rta maktablarda o'quv yili uch semestrga bo'linadi: aprel - iyul, sentabr - dekabr, yanvar - mart. Katta o'rta maktablarda esa o'quv yili 2 yoki 3 semestrga bo'linadi.

O'quv yili Yaponiyada 240 kun yoki Amerika Qo'shma Shtatlaridan 60 kun ko'pdir. Darslar 7 soat. Ko'pchilik maktablarda darslar ertalab soat sakkiz yarimda boshlanib, uchdan keyin tugaydi.

O'quvchilar xaftasiga 2-3 soat sinfdan tashqari klub ishlarida, 7 soat ixtisos bo'yicha mashg'ulotlarda yoki repetitorlar ixtiyorida bo'ladilar.

Yuqori bosqich o'rta maktablarida butun o'quv jarayonida o'quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O'quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o'z xohishlariga ko'ra ingliz tili, texnik ta'lim va maxsus sinovlarga jalb etiladilar.

Yapon maktablari elektron hisoblash mashinalari va boshqa o'quv texnika vositalari bilan to'la ta'minlanganligiga qaramay, mutaxassislarning fikricha, asosiy e'tibor o'qituvchi faoliyati va darslikka qaratilmog'i kerak. Ularning fikricha, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi jonli muloqot o'rmini har qancha, takomillashgan mashina ham bosa olmaydi.

Deyarli barcha darsliklar xususiy bosmaxonalarda chop etiladi. Ularni chop etishga mablag'ni vazirlik ajratadi. Yuqorida qayd etilgandek, darsliklar boshlang'ich va quyi o'rta maktablarda bepul, yuqori o'rta maktablarda esa pullikdir. Darsliklar narxi shundayki, ularni xarid qilishga hammaning imkoniyati bor. Foydalanilgan darsliklar pullik bo'lsa ham, tekin

bo'lsa ham o'quvchining o'zida qoldiriladi.

Yaponiyada o'qituvchi kadrlar tayyorlash sifatiga juda katta talablar qo'yiladi. Bu talablar shundayki, mazkur kasbga iqtidorsiz va yo'nalishi to'g'ri kelmaydigan tasodifiy kishilarning kirib qolishi amalda mumkin emas.

O'qituvchilar 4 yillik dorifununlarda va 2 yillik kollejlarda tayyorlanadi. Bu o'quv yurtlarining bitiruvchilariga birinchi va ikkinchi darajali guvohnomalar beriladi.

Maktab direktori bo'lish uchun 1 - darajali guvohnomaga ega bo'lish shart. Yapon o'qituvchilarinig jamiyatda tutgan obro'-e'tibori katta. Binobarin, ularning maoshlari ham yuqori, 74 foiz o'qituvchi jamoa va kasaba uyushmasiga a'zo. Bu ularga ta'lim mazmunini va uslubini muhokama qila olish imkoniyatini beradi.

Yapon o'qituvchilari har 5 yilda malaka oshirish kurslarida o'qib qaytadilar. Malaka oshirish o'qituvchilarning o'zlari uchun katta ehtiyojdir. Chunki, Yaponiya maktablari dasturi 10 yilda davr taqozosiga ko'ra o'zgaradi. Dasturlardagi yillik o'zgarishlar esa anjumanlar o'tkazish yo'li bilan o'qituvchilarga yetkazib boriladi.

O'qituvchilar o'zlariga ishonib topshirilgan 35 - 40 o'quvchining bilimi va tarbiyasi uchun javobgardirlar. Shu bois ular darsdan bo'sh vaqtlarini o'quvchilar, ularning ota - onalari bilan suxbatlarga, xonadonlarga tashrif ishlariga bag'ishlaydilar.

Yaponiyada oilaviy budjetning katta qismi bolalarning sara maktablarda puxta bilim olishlarini ta'minlashga, universitetlarga kirib bilim olishlariga sarflanadi. Oilada bola yaxshi bilim olishi uchun barcha shart - sharoitlar yaratib beriladi.

Bolalar tarbiyasida onalarning roli va ma'suliyati ayniqsa kattadir. Ular farzandlarining oqil, dono, muloyim, odil va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida o'zlarini ma'sul deb hisoblaydilar.

Turli ta'limiy ko'nikmalarni bolalar ongiga singdirish yapon maktablariga xos fazilatdir. Masalan, 2 - sinf o'quvchisi ko'pchilik oldida nutq so'zlash qobiliyatiga ega bo'lishi, 6 - sinf o'quvchisi kamida 2 ta cholg'u asbobida kuy chala bilishi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi suvda bemalol suza olishi kerak.

Dorifununlarga katta o'rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni

tugatgan o'quvchilar qabul qilinadi. U yerda 460 ta universitet bo'lib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munitsipal, 331 tasi xususiydir. 1 - toifadagi universitetlarda har bir o'qituvchiga 8 nafar, 2 - toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba to'g'ri keladi. Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bo'linadi: 1 - bosqichi turar joyda o'tkaziladi, buning uchun yapon, eski yapon tili, matematika, fizika, ximiya, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tadilar.

Bu sinovlardan o'tgan o'quvchilar universitetlarga yo'llanma oladilar va yana sinovdan o'tadilar. Xususiy universitetlarga esa to'g'ridan - to'g'ri test topshiriladi. Bir qator xususiy universitetlar o'zining uzluksiz shaxobchasiga ega (bog'chadan boshlab hamma bosqichlarni qamrab oladi). Universitetdan talabalarni xaydab yuborish mumkin emas. Lekin o'qish muddatini cho'zish mumkin (4 yillik o'qish 5 - 6 yilgacha cho'zilib ketishi mumkin).

Kollejlar :

1- kichik kollej.

2- texnik kollej

3- maxsus kollejlariga bo'linadi.

Uni bitirgan talabalar bakalavr diplomini oladi va universitetning 2 - yoki 3 - kurslariga qabul qilinadi.

Yapon dorilfununlarida talabalar o'quv jarayonida 140-150 sinov birligi topshiradilar. Ularda baho mezoni - "a'lo", "yaxshi", "konikarli", "koniqarsiz". Yapon dorilfununlari asosan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydi. Shunga qaramay, Yaponiyada "Dorilfunun kishini bilim va kasbga yo'naltiradi xolos, uni takomillashtirish, mukammallashtirish o'ziga bog'liq" deb hisoblaydilar.

Yaponiya dorilfununida bitiruvchilarning mutlaq ko'pchiligi xalq xo'jaligining turli sohalarida samarali mehnat qiladilar. Oliy ma'lumotli mutaxassislar soni jihatidan Yaponiya jahonda ikkinchi o'rinda turadi. Ming kishiga 190 ta oliy ma'lumotli mutaxassis to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich AQSH da har ming kishiga 294, Buyuk Britaniyada 138, fransiyada 115 nafardir.

Yaponiya ta'limining asosiy maqsadi va mazmuni aholini zamonaviy texnik hamda texnologik jarayonlar bilan jihozlangan xozirgi zamon sanoatida samarali ishlashga moslashtirishdir. Mamlakatda maktabga muhim ijtimoiy vazifani bajaruvchi, jamiyatning olg'a siljishini ta'minlovchi dargoh

deb qaraladi va xalq tomonidan e'zozlanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Yaponiyada ta'lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg'unlik kasb etgan. Ibrat olsa, o'rgansa arziydigan jihatlari ko'p. E'tiborli yana bir tomoni - Yaponiyada faqat milliy an'analar bilan cheklanib qolmay, jahondagi Amerika, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or pedagogik ish tajribalari ham ijodiy o'zlashtirilgan.

4. Fransiya ta'lim tizimi. Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Uning ta'lim tizimlari ham qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda "Ta'lim haqidagi" qonun dastlab 1955-yilda qabul qilinib, 1975-yilda unga qator o'zgartirishlar kiritilgan.

Fransiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan "Ta'lim haqidagi" qonuni 1989-yil 10-iyulda qabul qilingan bo'lib, uning o'zgartirilishiga ta'lim strategiyasida ro'y bergan o'zgarishlar, mamlakatning ichki tashqi siyosatidagi islohotlar, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg'or tajribalarning mamlakatga ta'lim tizimlariga kirib kelishi, o'quv predmetlarining integratsiyalari va boshqalar sabab bo'ldi.

Fransiya ta'limining asosiy maqsadi shaxsni xar tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu yerda:

1. Davlat maktablar;
2. Xususiy maktablar;
3. Oraliq maktablar mavjud.

O'qitiladigan predmetlar ichida fransuz tili va adabiyoti, o'qish va yozuv alohida ahamiyatga molik bo'lib hisoblanadi. Ular uchun dars vaqtining 30% ajratiladi. O'rtacha haftalik soatlar 26 soatdan iborat, darsning davomiyligi esa 60 minut. O'quv yili 5 chorakka bo'linadi. Fransuz maktablari boshlang'ich sinflarda o'qish ertalabki va tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardan saboq oladilar. Matematika, ona tili va adabiyoti baza predmeti, tarix, geografiya, mehnat, jismoniy tarbiya predmetlari esa rivojlantiruvchi predmetlar hisoblanadi.

Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish go'oyat muhim masala hisoblanadi. Bu

bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan: kichik guruh (2-4 yosh), o'rta guruh (4-5 yosh), katta guruh (5-6 yosh). Maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo'lib, ularga Fransiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Fransiya boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o'qish, yozish, hisoblash malakasini berishdir. O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin juda arzonlashtirilgan narxlarda. Boshlang'ich sinflarda o'qish uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi;
2. Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi);
3. Chuqurlashtirilgan bosqich.

Tayyorlov bosqichi - 1 yilga mo'ljallangan. Bunda bolalar hisoblashga, o'qish va yozishga, kuylashga, o'ylashga, tabiat manzaralarini tomosha qilishga va undan bahra olishga, jismoniy mashqlar bilan mashg'ul bo'lishga, maktabning turli sport tadbirlarida ishtirok etishga, musiqa va mehnatga o'rgatiladi.

-Navbatdagi bosqich - elementar kurs bo'lib, bu bosqichda o'qish 2 yil davom etadi. Bunda o'quvchilarning tayyorlov siklida predmetlar bo'yicha olingan bilimlarni yanada takomillashtiriladi.

-Boshlang'ich maktabning 3 - bosqichi - chuqurlashtirish bosqichidir. Bunda o'quvchilarning tayyorlov va elementar bosqichdagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi. Fransuz maktablarining boshlang'ich bosqichida "Grayasdanlik ta'limi", "Nafosat ta'limi" ham o'qitiladi. Nafosat ta'limiga musiqa, tasviriy san'at, sport kiritilgan. O'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash, ularni rag'batlantirish, shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ta'limda uzluksiz va vorislikni ta'minlab berish boshlang'ich sinf o'quvchilariga qo'yilgan bosh talabdir.

O'quv dasturining mazmunini bevosita o'qituvchining o'zi belgilaydi. Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchi bolalar bilimiga to'la mas'ul ekan, uning uslub tanlashiga, mustaqil harakat qilishiga ham to'la erkinliklar beriladi.

1990-yildagi hukumat qaroriga muvofiq, maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'limiga modullashtirish, bolalarning bilimiga, u yoki bu fanga

moyilligiga qarab tabaqalashtirish, dars jadvalini ham shu asosda tuzish huquqi beriladi. Bunday dars jadvallari yillik, yarim yillik, choraklik asosida tuzilishi ham mumkin.

O'quvchilar 11 yoshda boshlang'ich maktabni tugallab o'rta maktabga o'tadilar. O'rta ta'lim esa kollejlarda va litseylarda amalga oshiriladi. O'rta ta'lim ikki bosqichda:

Birinchi bosqichda quyidagi predmetlar o'rgatiladi:

fransuz tili va adabiyoti, chet tili (ingliz, nemis, ispan, italyan tillari), tarix, Fransiya geografiyasi, matematika, tibbiy fanlar.

Shunday qilib 5-6-sinflar umumiy o'rta ta'lim beradi: 4-3-sinflarda o'quvchilarga qobiliyati va moyilligiga qarab bilim beriladi.

Birinchi bosqich yakunlangach, o'quvchilar kasbiy yo'nalishlari bo'yicha guvoynoma oladilar.

Shundan keyin o'quvchilar 15 yoshdan 18 yoshgacha ta'lim oladilar. O'qish 3 yil davom etib, 2-sinf kichik, 1-sinf o'rta va yakunlovchi sinflarga bo'linadi.

O'quvchilar umumiy ta'lim va texnik litseylarni tugatganlaridan so'ng bakalavr unvoni va diplom ish uchun imtixon topshiradilar. Ana shunday diplomga ega bo'lganlarga oliy o'quv yurtlariga kirish huquqini qo'lga kiritadilar.

Fransiyada talablar pedagogika, politexnika instituti, oliy ma'muriy maktablarga kirish uchunгина imtixon topshiradilar. Bundan tashqari shu kasbga moyilligi ham alohida sinab ko'riladi. Boshqa oliygohlarga va universitetlarga esa bakalavr diplomi bo'lgan yoshlar imtihonsiz qabul qilinaveradi.

Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar mingdan ortiq. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko'rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashgan. O'qish muddati 2 yil bo'lib, sakkiz haftalik ishlab chiqarish amaliyotini ham ko'zda tutadi.

Sirtqi ta'lim shoxabchalari juda keng bo'lib, u 500 turdagi o'rta, oliy profetsional ma'lumot berishni tavsifa eta oladi.

Fransiyada maktab rahbarligi lavozimiga erishmoq uchun ta'limga rahbarlik qilishdan saboq beruvchi maxsus markazlarda o'qiydilar. Bunday markazlarda ular rahbarlik qilish, maktab iqtisodiyotini boshqarish, ta'limdagi yuridik masalalar, qonunchilik, ota-onalar bilan ishlash, madaniy

oqartuv ishlarini tashkil etish, jamoada yaxshi psixologik muhitni barpo etish kabi jihatlarni o'rganadi. o'qishni yakunlagach, suhbatdan, test imtihonlaridan o'tadilar.

Direktor dars bermaydi. Uning ish faoliyati ikki yil davomida diqqat bilan kuzatib boriladi. Aksariyat xollarda direktorlar maktab qoshidagi uyda yashaydilar. Shu ikki yil davomida maktab direktori talantli tashkilotchi, yetuk rahbar sifatida faoliyat ko'rsata olmasa, u yana qaytarilib o'qituvchilikka o'tkaziladi. Direktor 65 yoshdan so'ng umuman ishlamaydi.

O'qituvchilarni ishdan olishni maktab direktori amalga oshirmaydi. Yaxshi ishlamaydigan o'qituvchilarni direktor tavsiyasiga muvofiq ta'lim inspeksiyasi tomonidan taftish qilinadi. Uning intizomi, o'qituvchilik faoliyati, bolalar, ota-onalar o'rtasidagi obro'si diqqat bilan o'rganiladi va tegishli chora ko'riladi.

Maktab o'qituvchilariga qo'yilgan talab Fransiyada o'ta yuqori. Ayniqsa, boshlang'ich maktablarda o'qituvchi o'z kasbining ustasi, ajoyib notiq, san'atkor, musiqachi, sportchi, tashkilotchi, namunali xulq-atvor egasi bo'lmog'i lozim.

O'qituvchilar o'z nazariy-uslubiy malakalarini oshirishga katta ahamiyat beradilar. Malaka oshirish kurslaridan o'tish uchun aniq muddat belgilab qo'yilmagan. Vaqti-vaqti bilan o'qituvchilar o'z ixtiyorlari bilan test markazlarida imtihon topshiradilar. Shu imtihonlar davrida o'qituvchi faoliyatida ayrim nuqsonlar sezilib, malaka oshirishga ehtiyoj aniqlansa, o'z vaqtlari va mablag'lari hisobiga malaka oshiradilar.

5. Germaniyada ta'lim tizimini rivojlanishi. Avvalambor shuni ta'kidlash kerakki. Germaniyada ta'lim davlat va jamiyat tomonidan ardoqlanayotgan soha bo'lib, u mamlakatning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar ichida kuchli oltilikka kirgan.

Germaniya ta'lim tizimlarining bayoni kuyidagicha: Germaniyada ta'lim tizimi: Maktabgacha tarbiya tizimi Germaniya ta'lim tizimida ham muhim bosqich hisoblanadi. Uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, hayriya birlashmalari, korxonalar, hususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota-onalar bolalar bog'chalariga o'z farzandlarini tarbiyalanganliklari uchun ancha miqdorda pul to'laydilar. 3 yoshdan 6

yoshgacha bolalarning 80 foizi bog'chalarga qatnaydi. Germaniyada odatda bolalar bog'chada tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning yarmida esa uyda, oilada bo'ladilar. Germaniyada kuni uzaytirilgan bog'chalar ham bor.

Majburiy ta'lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga tegishli. Bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba'zi joylarda 10 yil) maktabda to'la haftalik o'qishni bitiradi, keyin hunar-texnika bilim yurtida to'la bo'lmagan haftalik o'qishda o'qiydi. O'qish davlat maktablarida tekin. Maktab o'quvchilariga o'quv ko'llanmasi, asosan darsliklar tekin ta'minlanadi. Hususiy maktablar ozroq. O'qish 6 yoshdan boshlanib, 4 yil davom etadi (faqat Berlinda 6 yil). Boshlang'ich maktabdan so'ng o'quvchilar yo'nalish bosqichidagi maktabga o'tadilar. Bu yerda 5-6 sinf bosqichdagi yo'nalish maktablarda maxsus dastur asosida o'qiydilar. Keyin navbatdagi maktab tipiga ko'chadilar:

Bular: -asosiy, maxsus maktab, real bilim yurtlari. Deyarli 30% bola asosiy maktabga o'tadi. 9 yoki 10 yillik o'qish tugatilgandan keyin kasbiy tayyorgarlikka o'tiladi. Maxsus maktablarda nuqsonga ega bo'lgan bolalar o'kiydi. Real bilim yurtlari asosiy maktab va yuqori maktabi o'rtasida turadi. Qoidaga ko'ra bu yerda o'qish b yil davom etadi (5-10 sinfgacha) va to'la ma'lumot berish bilan tugallanadi. Bilim yurtini tugatganlar o'rta maxsus o'quv yurtiga yoki yuqori bosqichdagi hunar-texnika maktabiga kirib o'qish huquqiga ega bo'ladi. Germaniyada gimnaziyalar ham mavjud. Ular 5-13 sinflarni o'z ichiga oladi. 11-13 sinflar oliy o'quv yurtlariga tayyorlash vazifasini ham bajaradi.

Gimnaziyani bitirganlik haqidagi yetuklik attestati oliy o'quv yurtida o'qish imkonini beradi. Germaniya ta'limi tizimida hunar ta'limi muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talab kuchlidir. To'liqsiz o'rta maktabni bitiruvchilarining (9-10 sinflar) 79 %, to'liq o'rta maktabni bitiruvchilarining esa 20 % hunar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Aksariyat xollarda o'qish muddati 3-3,5 yilni tashkil etadi. o'qish uch bosqichdan iborat bo'lib, birinchi yili asosiy hunar ta'limi beriladi. Bunga o'qitilayotgan kasbga taaluqli maxsus fanlardan nazariy asoslash berilib, yirik korxonalarda amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ikkinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi beriladi. O'quvchining birinchi yildan ikkinchi yilga o'tish sinov imtihonlari o'tkazilib o'qishni davom ettiruvchi yoshlar tanlab olinadi. Uchinchi yil davomida maxsus hunar

ta'limi yanada chuqurlashtirilib boriladi. Bitiruv imtihonlari maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi. Komissiya a'zolari korxonalarining yetakchi mutaxassislari, fideral yerlardagi sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi vakillaridan tashkil topadi. Hunar maktablarining diplomlari oliy o'quv yurtlariga kirish uchun huquq, bermaydi. Buning uchun 1 yillik tayyorlov kurslarini tugatish talab etiladi. O'qishga qabul qilish imtihonsiz maktab ta'limi to'g'risidagi hujjatga asosan amalga oshiriladi.

Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident boshqaradi. O'z-o'zini boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha guruhlar bosqichma-bosqich ishtiroki tamoyiliga amal qilinadi. Uning tarkibiga professor-o'qituvchilar, o'quvchilar, ilmiy xodimlar va boshqa xodimlar kiradi. Talabalar o'qishi erkin tashkil etilgan. Ko'p sonli o'quv bosqichlari bilan birga o'quv rejaları taklif etiladi. O'qishga haq to'lanmaydi. Agar talaba yoki ularning ota-onalari oziq-ovqat xarajatlarini ko'tara olmasa o'qish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish to'g'risidagi federal qonunga ko'ra ular moliyaviy yordam oladilar. Bu yordamning yarmi stipendiyaga qo'shib berilsa, ikkinchi yarmi qarz tariqasida beriladi.

Mamlakatda ta'limni isloh qilish masalasi ko'pdan buyon muhokama qilinmoqda, bunda o'quv jarayonini qisqartirish taklif qilinmoqda. Hozir universitetlarda talabalar 7 yil o'qiydi. Ular o'qishga kirganlariga qadar korxonalarda bir necha yil ishlashlari yoki bundesverda xizmat qilishni hisobga olsak, talabalar haqiqiy mexnat faoliyatlarini ancha kech boshlayotganligini tushunamiz.

Shuni ta'kidlash lozimki, Germaniya ta'limi o'ziga xos yo'nalishga, juda murakkab tizimga ega. Mamlakatda har qaysi maktab tipi uchun maxsus tayyorlangan o'qituvchilar bor. Ularning hammasi oliy maktabni tugatgan bo'lishlari shart. Boshlang'ich va asosiy maktabning bo'lajak o'qituvchilari oiti semestr o'qiydilar. Real maktab, maxsus maktab, gimnaziya va hunar-texnika bilim yurtlarining o'qituvchilari ancha uzoq muddat o'qishlari kerak. O'qish tamomlangandan keyin o'qituvchilikka nomzodlarning hammasi imtihon topshiradilar. Keyin maktabda pedagogik amaliyot o'tkazadilar va ikkinchi imtihon topshiradilar. O'qituvchi lavozimiga ega bo'lgandan keyin, qoidaga ko'ra umrbod lavozimiga tayinlanadi.

Quyidagi xolatga e'tibor qarataylik. Bo'lajak o'qituvchilar 3 yil

o'qiganlaridan keyin real sharoitdagi maktabda ikki yillik pedagogik amaliyotdan o'tadilar, xaftasiga 10-12 soatdan dars beradilar.

Bu davrda ularga maxsus murabbiylar belgilanadi, bu murabbiylar ularning faoliyatini nazoratda tutadilar, amaliyot tugagandan keyin shogirdlariga tegishli tavsifnomani beradilar. Shundan keyin maktab kengashi yuqori tashkilotlar bilan birgalikda bo'lg'usi o'qituvchilardan imtihon oladi va ularning kelgusi ishlarini baholab, tegishli tavsiyalar beradilar. Bu jarayonning yana o'ziga xos tomoni shundaki, imtihon va tavsiyalardan keyin bo'lg'usi o'qituvchi bir yilga sinov muddati bilan ishga olinadi. Bu sinov muddatini muvaffaqiyatli o'tgandagina unga o'qituvchi martabasi beriladi. Praktikant-talabalar qo'yilgan talablarni bajara olmasa maktabga qo'yilmaydi. Uning ustiga attestatsiyadan o'tkazish va litsenziya berish keng rasm bo'lganligini e'tiborga olsak, o'qituvchi doim o'z malakasini oshirib borishga majbur bo'ladi, aks holda u o'qituvchilik lavozimidan mahrum bo'lishi mumkin.

6. Rivojlangan xorijiy davlatlar va mustaqil O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi o'zaro hamkorlik masalalari. Rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta'lim-tarbiya va maktab haqida yuqorida bayon qilingan eng yaxshi tajribalarni o'z ta'lim tizimidagi o'zaro ta'lim tizimlarimizda joriy qilish Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin boshlandi. Bu sohada bizga YUNISEF, YUNESKO kabi Xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlarning O'zbekistondagi elchixonalari amaliy yordam bermoqdalar. Respublikamizdagi ta'lim muassasalari ta'limni takomillashtirish bo'yicha xorijiy davlatlar bilan hamkorlikning barcha shakllaridan foydalanayotirlar.

Respublikamiz Oliy majlisining 1 - chaqiriq IX-sesciyasida ta'limga oid ikki muhim hujjat – "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi mamlakat ta'limini jahon andozalariga, rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta'lim-tarbiya va maktab saviyasiga olib chiqishda ulkan voqea bo'ldi.

Bizning maktabimiz jahonda eng ilg'or maktablar bo'lib qolishiga Respublika rahbariyati va hukumati tomonidan hamma shart sharoit yaratilmoqda. Bizning ta'lim tizimlarimiz ham jahonda e'tirof etilgan ta'lim tizimlaridan biridir. Shu tufayli ham AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlar ta'limining ustalari bilan

o'tkazilgan uchrashuvlar va muloqotlarda Respublikamiz ta'limi tizimiga yuqori baho berildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Respublikamiz xalq ta'limi xodimlari oldida hozirgi kunda eng muhim vazifa - mustaqil o'zbekistonning hozirgi ta'lim tizimlarini istiqbol ruxi bilan takomillashtirish, uni o'zimizning mumtoz pedagogika an'analari bilan boyitish, chet el pedagogikasidagi ilhor jihatlarni o'zlashtirish, yangi - yangi samarali o'quv predmetlarini ta'lim tarkibiga kiritish bilan jahon davlat standartlari darajasiga olib chiqishdir. Buning uchun esa bizning iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlardagi quyidagi ilg'or tajribalarni ta'lim tizimimizda qo'llay bilishimiz maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari :

1. Rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta'lim-tarbiya, maktab va maorif taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini sharhlab bering?
2. Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi "ta'limni tabaqalashtirish" usullarini izohlab bering?
3. AQSH da ta'lim tizimi qanday tuzilishga ega?
4. AQSH ta'lim tizimi qanday xususiyatlari bilan o'zbekiston ta'lim tizimidan farq qiladi?
5. Yaponiya ta'limining shakllanishi va uning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating?
6. Yaponiyada ta'lim tizimi va uning tarkibiy qismlarini izohlab bering?
7. Yaponiyada o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalasini izohlang ?
8. Fransiya ta'lim tizimini ilg'or jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
9. Germaniya ta'lim tizimini izohlab bering?
10. Rivojlangan xorijiy davlatlar va mustaqil O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi o'zaro uyg'unlik jarayonini izohlang?

6-MAVZU: TARBIYA JARAYONI MOHIYATI VA PRINSIPLARI

Reja:

1. Tarbiya jarayonining maqsadi.
2. Tarbiya jarayonining mazmuni.
3. Ijtimoiy tarbiyaning asosiy vazifalari.
4. Tarbiya qonuniyatlari.
5. Tarbiya prinsiplari.

Tayanch iboralar:

Tarbiya jarayoni, tarbiya nazariyasi, tarbiya jarayoni xususiyatlari, tarbiya mazmuni, ijtimoiy tarbiya, tarbiya prinsiplari, tarbiya qonuniyatlari.

1. Tarbiya jarayonining maqsadi. Pedagogika fanining muhim tarkibiy qismlaridan biri – bu tarbiya nazariyasi sanaladi.

Tarbiya nazariyasi-pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayon mazmuni, tamoyillari, qonuniyatlari, uni tashkil etish masalalari, metodikasi, shakllari, metodlari, vositalari, usullari va muammolarini o'rganadi.

Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yondashish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni ham qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Tarbiya nazariyasi Sharq mutafakkirlari va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabi fanlarning ma'lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo'limlari: umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi va xalq ta'limi tizimini boshqarish bilan uzviy bog'liq.

Tarbiya haqida tushuncha. Tarbiya jarayonini tashkil etishda, eng avvalo, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida yuz berayotgan o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetish talab etiladi. Binobarin, kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining turli davrlarida shaxs tarbiyasiga yondashuv ham mazmunan, ham shaklan o'zgarib boradi. XXI asr insoniyat tarixida "kompyuter davri" bo'lib qolmoqda. Bu esa shaxsni tarbiyalashga o'ziga xos yondashuvni qaror toptirishni taqozo etadi.

Biroq, fan-texnika qanchalik jadal rivojlanib, jamiyat hayotidan muhim joy olib, ishlab chiqarish jarayonlarining tezlashuviga qanchalik samarali ta'sir etmasin, tarbiya nazariyasida shaxsni komil etib tarbiyalash, bu borada Markaziy Osiyo mutafakkirlari, xalq pedagogikasi hamda jahon pedagogikasining ilg'or fikrlariga tayanib ish ko'rish zarur.

Tarbiya maqsadi va vazifalari. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha ifodalab kelingan bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan.

Tarbiya maqsadi-ijtimoiy buyurtma asosida belgilanadi, eng oddiy harakatdan tortib to keng ko'lamli davlat dasturi asosida tashkil etiluvchi tarbiya doimo muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi.

Maqsadsiz ma'lum g'oyani ifoda etmaydigan tarbiya bo'lmaydi. Tarbiya Tarbiya maqsadi asosida uning mazmuni asoslanib, maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi metod va usullar aniqlanadi. Uning muammosi pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Tarbiya maqsadi **umumiy va individual xarakterga ega** bo'lishi mumkin. Ilg'or pedagogika umumiy va individual maqsadlar birligi va uyg'unligini namoyon etadi.

Tarbiya jarayoni umumiy ijtimoiy maqsadni hal etishga yo'naltiriladi va aniq vazifalar tizini sifatida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra tarbiya maqsadi tarbiya jarayonini tashkil etishda hal etiladigan vazifalar tizimidir.

Tarbiya maqsadi qanday shakllanadi? Uning shakllanishida ko'plab obyektiv sabablar yetakchi rol o'ynaydi. Organizmning fiziologik yetilish qonuniyatlari, insonning ruhiy rivojlanishi, falsafiy va pedagogik fikrlar yutug'i, ijtimoiy madaniyat darajasi maqsadga umumiy yo'nalish beradi. Biroq asosiy omil doimo davlat mafkurasining yetakchi g'oyalari bo'lib qolaveradi.

Shaxs kamolotida muhim o'rin tutuvchi ma'naviy va axlohiy poklik, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi. Ularning asosida yosh avlodga oila, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va samarasi yotadi.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad

asosida tashkil etiladi. Tarbiya maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Tarbiya jarayonining natijasi. Tarbiyaning natijasi yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyushtirish va rahbarlik. shuningdek, o'quvchi shaxsining o'zi tomonidan faollik ko'rsatilishini taqozo etadi. Bu jarayonda pedagog yetakchi rol o'ynaydi. U ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadini tushunadi, unga erishish yo'lida amalga oshiriladigan vazifalar tizimidan xabardor, tarbiya shakl, metod, vositalarini to'g'ri tanlay oladi va tarbiya jarayoniga tadbir etadi.

Tarbiya jarayonining mohiyatini tarbiyaga har tomonlama yondashish bilan muvaffaqiyatli tarzda, ilmiy tahlil qilish mumkin.

Shaxs tarbiyaning natijasi sifatida shakllanadigan ijtimoiy mavjudotdir. Shaxsning ko'pdan-ko'p xislatlari bir-biridan ajratilgan emas, balki o'zaro mustahkam bog'langan. Tarbiya jarayonida bolaning shaxsiyati ayrim-ayrim emas, balki yaxlit ravishda rivojlanadi.

Bola o'sib va rivojlanib borgan sari tarbiya vazifalari murakkablashib, chuqurlashib, tabaqalashib boradi.

Har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash unga izchil ravishda aqliy, g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnat, estetik, jismoniy, ekologik, iqtisodiy hamda huquqiy tarbiya berish, o'quvchilarning ongi, xulq-atvori va faoliyatining birligi, shuningdek, tarbiya jarayonini tashkil etishning yakka, guruhli va ommaviy shakllarini qo'shib olib borilishini ta'minlaydigan pedagogik tizimlarni vujudga keltirish va bu tizim g'oyalari amal qilishni talab etadi.

Ijtimoiy tarbiya jarayoni shaxsning ijtimoiy fazilatlarini shakllantirish, uning atrof-tevarak, jamiyat, odamlar hamda o'ziga nisbatan munosabatlari doirasini vujudga keltirish va uni kengaytirishga qaratilgan. Shaxs ishtirok etadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi qanchalik keng, xilma-xil va chuqur bo'lsa, uning ma'naviyati boy bo'ladi.

O'z tabiatiga ko'ra tarbiya jarayoni ko'p omilli xarakterga ega. YA'ni, bola shaxsining qaror topishi oila, ta'lim muassasasi, jamoatchilik, ijtimoiy

muhit, shuningdek, vaziyatlar xilma-xilligi, bevosita va bilvosita ta'sirlar ostida ro'y beradi.

Tarbiya jarayonining natijalari odatda bir xil xarakterda bo'lmaydi. Bu narsa o'quvchilarning psixologik (individual, tipologik), fiziologik va jismoniy xususiyatlari, ularning hayotiy va ma'naviy tajribasi, shaxsiy pozitsiyasiga bog'liq.

Tarbiya jarayoni, odatda, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini qayta tarbiyalash, bolaning atrof-muhitdagi u yoki bu hodisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlar va ularning xususiyatlarini bartaraf etish bilan olib boriladi.

O'zini o'zi tarbiyalash shaxsni o'zida ijtimoiy qadrga ega bo'lgan fazilatlarini hosil qilish va takomillashtirishga hamda salbiy xislatlarini bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyat sifatida ta'riflanadi.

O'z-o'zini qayta tarbiyalash shaxsning o'zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarini yo'qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayonidir. Bola xulqidagi "og'ish"lar oiladagi nosog'lom muhit, ota-onaning tarbiyada yo'l qo'ygan xatolari, o'qituvchi faoliyatidagi kamchiliklar asosida vujudga keladi. Qayta tarbiyalash jarayonida salbiy xulqni hosil qilgan sabab, sharoit o'zgartiriladi, qayta tarbiyalashda maktab va shaxsning shaxsiy ta'sirini oila, shu jumladan, ota-ona ham ma'qullashi lozim. Demak, qayta tarbiyalash o'quvchining o'zigagina emas, balki uning ota-onasiga ham qaratilishi lozim.

Tarbiya. O'sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson bo'lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari – aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy, jinsiy tarbiyani tashkil etishga nisbatan yangicha yondashish, ularni samarali tashkil etish yo'llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa tarbiyadagi eng muhim vazifalardir.

2. Tarbiya jarayonining mazmuni. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya g'oyasi turlicha ifodalangan bo'lsada, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamda obyektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo falokat, yo saodat – yo falokat masalasidir"(. Ushbu fikrlardan anglaniladiki,

shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq.

Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri bolaning ularga munosabatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli kechinmalarni qanday anglashi, baholashi, his qilishi, ulardan o'zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur. Zero, tarbiya ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi asosida kechadi.

Tarbiya jarayonida o'quvchining ongigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali o'quvchilarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Faoliyat o'quvchilar jamoasi manfaati va istagi asosida uyushtirilsa, bu jarayonda bolaning tengdoshlari va o'zini o'zi anglash jarayoni yuzaga keladi. Bola o'z xulqi,


xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo'lib qoladi.

Tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchi, tarbiya jarayonining manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bu tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklardan iborat.

Tarbiyada o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi ham hisobga olinadi. Tarbiyachi bola shaxsining o'quvchilik yillarida uning ongiga turli faoliyat (o'qish, mehnat, ijtimoiy ishlar, o'yin, sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta'sir etish muhimdir.

Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshirilib, uning tarkibiy qismlari ayni bir vaqtda, faoliyatning biror turi asosida namoyon bo'ladi.

Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rin tutadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, uning amalga oshishi uchun ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi:



Tarbiya jarayonining umumiy mohiyati

Tarbiya jarayonining o'ziga xosligi. Ijtimoiy tarbiya maqsadi hamda vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining o'ziga xosligini anglab olish muhimdir. Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning eng muhim xususiyati **aniq maqsadga yo'naltirilganligidir.**

Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi. Yagona maqsadga erishish yo'li zamonaviy tarbiya jarayonining maqsadini

tavsiflaydi.

Tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashkil (subyektiv va obyektiv) omillar ko'zga tashlanadi. Subyektiv omillar shaxsning ichiki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlari mazmunini anglashga yordam bersa, obyektiv omillar shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobiy hal etish uchun sharoit yaratadi. Tarbiya faoliyatining mazmuni, yo'nalishi va shakli obyektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunday muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik shaxsiy xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yoki yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniy sifatlarni namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Shaxsning muayyan vaqtning o'zida, turli-tuman qarashlar mavjud sharoitda harakat qilishi tarbiya jarayonini murakkablashtiradi. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiya shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Binobarin, yoshlik yillarida insonning asab tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi. Shu bois tarbiya muvaffaqiyati ayni o'quvchilik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berish lozimligini talab etadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzluksizligi sanaladi. Ta'lim muassasasida olib borilayotgan tarbiya jarayoni bu – o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Bolani tarbiyalashda maktab yetakchi o'rin egallasa ham, bolalarga uzluksiz tarbiyaviy ta'sir o'tkaza olmaydi, chunki, bolalar ma'lum muddatgina ta'lim muassasasida, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri ostida bo'lib, qolgan vaqtning asosiy qismini oilada, ko'chada, jamoat orasida

o'tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta'tillar davrida o'quvchilar ta'lim muassasasi o'qituvchisi ta'siridan chetda qoladilar. Demak, ta'lim muassasasida bolalarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo'lib, sinfdan va maktabdan tashqarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan holi vaqtda ular o'qituvchi yoki tarbiyachining ta'siri hamda nazoratida uzoqlashadilar.

O'quvchilarga nisbatan ta'lim muassasasining ta'sirini susaytirmaslik maqsadida sinfdan, maktabdan tashqarida va ta'til davrida ham tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga alohida e'tibor beriladi. Ana shu maqsadda bir qator tarbiyaviy ishlar olib boriladi.

Ayni vaqtda respublikada o'quvchilarning ta'lim muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo'shimcha ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida o'quvchilar xususiy fanlar hamda xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirishlari, texnik va badiiy yo'nalishlar bo'yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari mumkin. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan tarli yo'nalish va mavzulardagi uchravshuvlar, ko'rgazmalar, ko'riklar, suhbatlar o'quvchilarning tafakkurini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o'rin tutmoqda.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati – bu uning yaxlit holda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni va metodlarini birligi shaxsni shakllantirish g'oyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Shaxs ma'naviy-axloqiy sifatlarni ketma-ket emas, balki yaxlit o'zlashtirib boradi, shu bois pedagogik ta'sir yaxlitlik, tizimlilik kasb etadi.

Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilish, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni qaror toptirishni talab etadi.

Tarbiyaning yana bir xususiyati shundan iboratki, **bu jarayon ikki tomonlama aloqa xususiyatiga ega bo'lib**, unda bolaning o'zi ham faol ishtirok etadi.

Ikki tomonlama aloqa ikki yo'nalishda, ya'ni, o'qituvchining o'quvchiga ko'rsatadigan ta'siri (to'g'ri aloqa) hamda o'quvchining o'qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzida tashkil etiladi.

Tarbiyaning pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyasiga muvofiq, endilikda o'quvchi tarbiya jarayonining obyektigina bo'lib qo'ymasdan, subyekt sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo'layotgan tashqi ta'sirlar va axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlr samarasiz yakun topadi. Mana shundan tarbiya jarayonining yana bir xususiyati – tarbiyada qarama-qarshilikning mavjudligi kelib chiqadi. Qaram-qarshiliklar o'quvchilarga o'z tushunchalariga muvofiq paydo bo'lgan dastlabki sifatlar o'rtasida yoki o'quvchilarga qo'yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi.

Undan tashqari bu qarama-qarshiliklar ko'pincha bolaning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo'lmasligidan, o'qituvchi va tarbiyachilarning o'quvchilar yosh, psixologik, fiziologik xususiyatlari (fe'l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy hamda fiziologik jihatdan sog'lomligi)ni yaxshi bilmasliklari oqibatida kelib chiqadi.

Demak, tarbiya muayyan, aniq maqsad va ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori, dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzum mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, fuqarolarning dunyoqarashi, intilishlarida belgilanadi. Tarbiya jarayonining xususiyatlarini chuqur anglash, tarbiyani tashkil etishda ularni inobatga olish ma'lum pedagogik vazifalarni ijobiy hal etish imkonini beradi.

3. Ijtimoiy tarbiyaning asosiy vazifalari. Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Vazifalar ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O'zRda yosh avlodni tarbiyalash jarayonida quyidagi vazifalarni hal etilmoqda:

1) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg'otish;

2) o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatidan ogoh etish, chuqur bilim va tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, ularning ongini boyitish;

3) umuminsoniy axloq meyorlari (odamiylik, kamtarlik, o'zaro yordam,

mehr-muhabbat, muruvvat, alodatni yoqlash, insonparvarlik, axloqsizlikka nisbatan nafrat va hokazolar)ning mohiyatini anglash, o'quvchilarda muomala odobi, yuksak madaniyatni qaror toptirishga erishish;

4) o'quvchilarda huquqiy va axloqiy meyorlarga hurmat ruhida yondashish hissi va fuqarolik tuyg'usi, ijtimoiy burchga mas'ullikni qaror toptirish;

5) tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas'uliyatni tarkib toptirish;

6) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg'usini shakllantirish, o'zga millat va xalqlarni hurmat qilish, ularning huquq va burchlarini kamsitmaslik tuyg'usini qaror toptirish;

7) mustaqil davlat – O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rganish;

8) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning sha'ni, or-nomusi, qadr-qimmatini, huquq va burchlarini hurmat qilishga o'rgatish va beshqalar.

Respublikada olib borilayotgan ijtimoiy tarbiyaning umumiy vazifalari ana shulardan iborat. Shu bilan birga ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari – axloqiy, aqliy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy tarbiyaning xususiy maqsadidan kelib chiqqan holda bir qator vazifalar amalga oshiriladi. Chunonchi,

1) axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarni ijtimoiy-axloqiy meyorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy meyorlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tushuntirish, ularda ijtimoiy-axloqiy meyorlar (talab va ta'qiq)ga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida axloqiy ong va madaniyatni shakllantirish;

2) aqliy tarbiyani yo'lga qo'yish chog'ida o'quvchilarni ilm-fan, texnika va texnologiya sohasida erishilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etish, ularga ijtimoiy va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarni berish orqali tafakkur va dunyoqarashni rivojlantirish;

3) jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarni o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanishi hamda uning ishchanlik qobiliyatini oshirish borasida g'amxo'rlik qilish tuyg'usini yuzaga keltirish, ularda yangi harakat to'rlari borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, o'quvchilarning yoshi, jinsiga muvofiq keladigan (kuch,

tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, mehnat, chidam, iroda, xarakterni qaror toptirish) jismoniy sifatlarni rivojlantirish, shaxsiy gigiyenani saqlashga nisbatan ongli munosabatlarni tarbiyalash;

4) эстетик тарбияни олиб бориш жараёнида о'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish;


5) **ekologik tarbiyani olib borish chog'ida** o'quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda ekotizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarni qaror toptirish, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'amxo'rlik qilish tuyg'ularni qaror toptirish, ekologik madaniyatni shakllantirish;

6) **iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida** o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish ko'nikma, malakalarini hosil qilish, inson mehnati bilan yaratilgan moddiy boylikni asrash, ularni ko'paytirish borasida qayg'urish tuyg'ularini qaror toptirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish;

7) **huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida** o'quvchilarga davlat Konstitutsiyasi, davlat haqidagi ta'limot, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarishga oid huquqlar mohiyatini tushuntirish, ularda ijtimoiy-huquqiy meyorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyatiga oid tushunchani hosil qilish, huquqiy munosabatlar borasida tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlash, huquqiy ong hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, huquqiy madaniyatni shakllantirish;

8) **fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida** o'quvchilarga siyosiy bilimlarni berish, O'zR Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari faoliyati, shuningdek, respublikaning ichki va tashqi siyosati mazmunini o'rganishni ta'minlash asosida o'quvchilarda siyosiy faoliyat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish, siyosiy madaniyatni shakllantirish va hokazolar.

4. Tarbiya qonuniyatlari. Tarbiya jarayoni ijtimoiy hodisa sifatida quyidagi qonuniyatlar asosida kechadi:



Tarbiya qonuniyatlari

5. Tarbiya prinsiplari. Tarbiya prinsiplari – tarbiya jarayonini mazmuni, metod va vositalariga qo'yiladigan talablar yoki tarbiya jarayonini tashkil qilishda tarbiyachi amal qilishi kerak bo'lgan qoidalar majmuidir.

Tarbiya prinsiplari:

- Ijtimoiy hayot va mehnat bilan birlik prinsipi;
- Tarbiyada insonparvarlik prinsipi;
- Tarbiyalanuvchilarga xususiy yondashuv;
- Tarbining bir masadga aratilganligi.

Ijtimoiy hayot va mehnat bilan birlik prinsipi. Ushbu prinsipning mazmuni tarbiyalanuvchini ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisi qilib tarbiyalashni nazarda tutadi. Jumladan, tarbiyalanuvchilar davlat ramzlarini mazmun-mohiyatini bilishi, madhiyani yoddan aytib berishi, vatani tarixini, davlat tilini bilishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko'nikmasi bo'lishi, milliy urf-odatlarini bilishi va boshqalar talab etiladi. Shuningdek, tarbiyachi ijtimoiy hayotda bo'layotgan voqealardan xabardor bo'lishi hamda tarbiyalanuvchilarga axborotlarni to'g'ri tahlil qilib berishi kerak bo'ladi.

Tarbiyada insonparvarlik prinsipi. Ushbu prinsip tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan talabchanlik va hurmat bilan yondashishni talab qiladi. Jumladan, tarbiyalanuvchilarga nisbatan talabchanlik ularning yosh va individual xususiyatlariga mos bo'lishi bilan birgalikda, oqilona va puxta

o'ylab ko'rilgan bo'lishi kerak. Tarbiyalanuvchiga ruhiy azob va jismoniy jazo bermaslik ham ushbu prinsipning asosiy qoidasi sanaladi.

Tarbiyalanuvchilarga xususiy yondashuv. Eramizdan avvalgi davrda Qadimgi Yunonistonda faylasuf-pedagoglar tarbiyada yosh va individual psixologik xususiyatlarni hisobga olib tarbiya metodlarini qo'llashni bilishgan hamda tarbiya jarayonida buni e'tiborga olishgan. So'nggi yillarda pedagoglar va psixologlarning tadqiqot natijalariga ko'ra, tarbiya jarayonida nafaqat yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olishni, balki tarbiyalanuvchilarning o'ziga xosligini hisobga olib tarbiya jarayonini tashkil qilish kerakligi ta'kidlanadi. Tarbiyalanuvchiga xususiy yondashuv, deganda tarbiyalanuvchining hayotiy ko'rsatmalari, qiziqishlari, orzulari, maqsadlari, biror xatti-harakatga keltiruvchi motivlari kabilardir. Demak, tarbiyachi tarbiya jarayonini tashkil qilishda tarbiyalanuvchilarning yuqoridagi jihatlarini ham hisobga olishi muhimdir.

Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi. Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi deganda, oila jamiyat va ta'lim muassasasining shaxs tarbiyasida maqsadlarining birligi tushuniladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Tarbiya jarayonining mohiyatini qisqacha tavsiflang.
2. Tarbiya maqsadi nimadan iborat?
3. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Tarbiya jarayonida qanday vazifalar hal etiladi?
5. Tarbiya jarayoni qanday qonuniyatlar asosida kechadi?

8-MAVZU: TARBIYA METODLARI VA VOSITALARI

Reja:

1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha.
2. Tarbiya metodlari klassifikatsiyasi.
3. Tarbiya vositalari.
4. Tarbiya metodlarini tanlash asoslari.

Tayanch iboralar:

Tarbiya metodlari, tarbiya vositalari, metod, usul, metodlar klassifikatsiyasi, tarbiya shakllari, tarbiya metodlarini tanlash, tarbiyalanuvchi xususiyatlari.

1. **Tarbiya metodlari haqida tushuncha.** Maqsad, mazmun, shakl, metod va vositalar kabi tushunchalar tarbiya jarayonining mohiyatini ochib beradi. Biroq, tarbiya mohiyatini yoritishda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan yana bir tushuncha ham mavjud, bu tarbiya metodlari tushunchasidir.

Tarbiya metodi (yunoncha "metodos" – yo'li) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari. Maktab amaliyotiga tadbiiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi yetmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi.

Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqati nazaridan baholash mumkin. Tarbiya metodlarini to'g'ri tanlash bir qator omillarga bog'liq.

Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarni to'g'ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur.

Tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy

talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.

Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatiari. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlardir. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari. Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turlicha tarbiya metodlari hamda vositalaridan foydalaniladi. Bu metod va vositalar nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'p jihatlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Binobarin, ushbu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan xilma-xil tarbiya metodlarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin:

1. Tushuntirish (hikoya qilish, o'rgatish).
2. Mashqlantirish (odatlantirish, mashq qildirish).
3. Namuna (maslahat berish, uzr so'rash, o'rnak bo'lish).
4. Nasihat qilish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash va hokazolar).

5. Qoralash va jazo (ta'kidlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar).

Xalq pedagogikasi namunalari, tarbiya metodlari va tarbiyaviy ta'sirlar muayyan vositalar yordamida qo'llanilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, turli gurunglar (choyxona, to'y marosimlari), sayillar, oilaviy an'analar (tug'ilgan kun, fuqarolik pasporti, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ma'lumotga egalik to'g'risidagi attestat va diplom, davlat mukofotlarini olish kabi holatlarni nishonlash) va

musobaqalar o'ziga xos tarbiya vositasi sanaladi.

2. Tarbiya metodlari klassifikatsiyasi. *Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar* o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi, irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari sanaladi. Ular yordamida o'quvchilarning ongiga jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy g'oya va maqsadlar singdiriladi. Yoshlar dunyoqarashini shakllantirish, ularning hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashish uchun ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar qo'llaniladi.

O'quvchilarda g'oyaviy ongliklik va ijtimoiy faollik, ya'ni, davlatning ichki va xalqaro siyosati mazmunini tushunish va idrok qilish ko'nikmalarini tarbiyalash lozim. Tushuntirish ijtimoiy ongini shakllantirishda eng ko'p ishlatiladigan usuldur.

Tushuntirishda o'quvchilarga mamlakat fuqarosining davlatga nisbatan muayyan huquq va burchlar asosida bog'langanligi borasida ma'lumotlar beriladi. Bunda davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi hamda Konstitutsiyasiga sadoqat ruhida tarbiya berishning ahamiyati katta. Shu sababli davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasining mohiyati tushuntiriladi.

Suhbat. O'quvchi shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan usul hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning dolzarbligi, sinf o'quvchilarga mosligi, ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish imkoniyatini hisobga olish zarur. Suhbat quyidagi mavzularda uyushtirilishi mumkin:

Mavzu yo'nalishlari

- 1) etik mavzular (ijtimoiy ma'naviy-axloqiy meyorlar, jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy munosabatlar, jamoa orasida o'zini tutish qoidalari va boshqalar.);
- 2) estetik mavzular (tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go'zalligi);
- 3) siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, xalqaro munosabatlar va boshqalar.);
- 4) ta'lim va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot va o'simliklar dunyosi, elektronika va boshqalar.)

Ta'limiy-tarbiyaviy suhbatlarning mavzu yo'nalishlari

Suhbatlarning mehnat, huquqiy, ekologik, iqtisodiy va gigiyenik

mavzularda tashkil etilishi ham ijobiy natijalarini beradi.

Suhbat davomida o'quvchilarga ularning o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari hamda mustaqil fikrlashlariga imkon beruvchi savollar bilan murojaat qilish foydali. Bu borada bahs-munozaralarning ahamiyati katta.

Hikoya. O'quvchilar odatda hayot va turli adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga axloq meyorlari, xalq o'tinishi, tabiiy boylar, qahramonlar hayoti va jasorati, shuningdek, tarix, adabiyot va san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot namunalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari – radio, televideniye, gazeta va jurnallar sahifalarida e'lon qilingan ma'lumotlar ham o'quvchilar uchun qimmatli material bo'ladi. Suhbat ham, hikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda ular tushunadigan so'zlar vositasida adabiy tilda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Suhbat yoki hikoya mavzusining o'quvchilar tomonidan belgilanishi, ularning samarali kechishini ta'minlaydi, buning natijasida o'quvchilar ilgari surilayotgan mavzuga befarq qaramaydilar.

Namuna. O'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari va ibrat olishlari nihoyatda muhim.

O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa, yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'qituvchining darsda va hayotda o'zini qanday tutishini, atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

O'quvchilar o'zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqiid qiladilar. Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning, ba'zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qayerda bo'lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalar so'z va amaliy harakatlarida tafovut bo'lmasligini ta'minlashlari kerak.

Ilg'or kishilarning hayoti va faoliyatidan olingan ma'lumotlar, adabiy asar, kinofilm va spektakllar qahramonlarining xatti-harakatidagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga kuchli ta'sir qiladi.

Maktablarda ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. O'quvchilar o'z ota-onalarining ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan faxrlanadilar, ularga taqlid qilishga intiladilar.

Namunada xalq pedagogikasi g'oyalaridan ham foydalaniladi. Ota-

onalar o'z farzandlarini hamisha katta hayotiy tajribaga ega, dunyoqarashi va bilim doirasi keng kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan, "Qush uyasida ko'rganini qiladi". Juda oddiy xulosa. Shu oddiy xulosa ostida qancha fikrlar jamlanib yotganligini hamisha ham fahmiga boravermaymiz. Bu bilan xalq "uyingda tartibli bo'l, aks holda bolang ko'chada tartibsiz bo'ladi", "bola oldida birovlarning g'iybatini qilma, bolang g'iybatchi bo'ladi", demoqchi.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari. O'quvchida o'z-o'zini tarbiyalashga, ya'ni, o'z ustida ongli, bartartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. Tarbiya jarayonida o'z-o'zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Ushbu metodlar o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilishlari, turli o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo'llaniluvchi usullardir.

O'z-o'zini tarbiyalash o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilish, va o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etish, ijtimoiy mavqeini oshirishning ta'sirchan vositasi. O'quvchilar o'qish, tarbiya va dam olishda o'z-o'zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, bu usullar o'quvchilarni o'z-o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish o'z shaxsi, mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli. O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish uchun o'quvchi o'zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O'z-o'zini baholash mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish orqali o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat usuli.

O'quvchining qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin o'quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois o'quvchi irodali bo'lishi, o'z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo'lishi, ya'ni, tarbiyalanishni xohlashi, o'zini o'rtoqlari, atrofdagilarning ko'zi bilan ko'rish va o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi lozim.

O'z-o'zini baholash o'quvchi uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o'ziga obyektiv baho berish, o'zidan qoniqishiga yordam beradi.

Izohlash tarbiyalanuvchiga hissiy-og‘zaki ta’sir etish usuli. Izohlashning hikoya va tushuntirishdan farqlanadigan muhim belgisi muayyan guruh yoki alohida shaxsга yo‘naltirilganligidir. O‘quvchilar bilan ishlaganda ma‘naviy-axloqiy tushunchalarning ijtimoiy ahamiyati va ma‘nosini izohlash zarur. Izohlash quyidagi holatlarni yuzaga keltiradi:

1) yangi ma‘naviy-axloqiy sifatlar yoki xulq ko‘nikmalarini tarkib toptirish va mustahkamlash;

2) tarbiyalanuvchilarning sodir etilgan muayyan hodisa (masalan, sinf o‘quvchilari ommaviy ravishda darsga kelmaganlari)ga to‘g‘ri, ongli munosabatni hosil qilish.

Ta‘lim muassasasi amaliyotida izohlash, ishontirishga tayanadi. Ishontirish vositasida o‘quvchi ruhiyatiga sezilarsiz holda ta’sir etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hamda o‘smirlar ishonuvchan bo‘lishadi. Pedagog ishontirishdan tarbiyalanuvchi ma‘lum ko‘rsatmani qabul qilishi zarur bo‘lgan vaziyatlarda foydalanadi. Mazkur metoddan boshqa metodlarning ta’sirini kuchaytirish uchun ham foydalaniladi.

Munozara tarbiyalanuvchilarga hissiy-og‘zaki ta’sir ko‘rsatish asosida ularda ma‘naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bahs-munozara usuli bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzular (“Did haqida bahs”, “Mashhur bo‘lish yo‘llari”, “Biz madaniyatli kishilarmizmi?” va hokazo)da o‘tkaziladi. Munozara fikrlar to‘qnashgan vaziyatda o‘quvchilarda ma‘lum hodisaga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi.

Munozara asosida turli qarashlar yotadi. Bahs ijobiy natija berishi uchun puxta tayyorgarlik ko‘rish maqsadga muvofiq. Munozaraga 5-6 ta savol tayyorlanadi. Savollar bilan ishtirokchilar oldindan tanishtiriladilar. Ba‘zan tarbiyachi munozara ishtirokchilarini o‘zi tayinlashi ham mumkin. Chiqishlar jonli, erkin va qisqa bo‘lishi zarur. Pedagog ishtirokchilarga fikrlarini ixcham, asosli va dalillar asosida bayon etishga yordam beradi.

Mashq va o‘rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq meyorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlarida mustahkamlanib boradi.

O‘qituvchi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib

borayotganligini kuzatib borishlari kerak. O'quvchilar odatlarni o'z yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishlari tufayli taqlid qilish, uzluksiz tarbiyani yo'lga qo'yish asosida tarkib toptiriladi. Natijada odat xarakterga aylanadi.

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli, ijobiy jarayondir. Mashq natijasini ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o'quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma'naviy-axloqiy sifatlari hamda hayotiy tajribasi ortadi.

O'rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir. O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisi bo'lib, harakatlarni ko'rsatib berish va tushuntirish talab etadi.

Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xili mavjud:

1) faoliyatda mashq qilish; 2) kun tartibi mashqlari; 3) maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy hamda jamoa faoliyatini tashkil etish va o'zaro munosabatni yo'lga qo'yish odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari belgilangan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog'liq istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish odatiga o'rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq ko'nikma va malakalarini hosil qiladi, mustahkamlaydi.

Topshiriq o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan usul. O'quvchilarning topshiriqlarni jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar o'z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas'uliyatni his etishga o'rganadilar.

Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor meyorlari. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Pedagogik talab ma'lum harakatlarni rag'batlantiruvchi yoki to'xtatuvchi hamda o'quvchini oqilona harakatlarni bajarishga undovchi xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Rag'batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni

qo'llab-quvvatlash usulidir. O'qituvchi har bir o'quvchi shaxsida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni anglash olishi zarur. Shundagina o'quvchi o'zining kamolga yetayotganligini his qiladi, unda o'z kuchiga nisbatan ishonch paydo bo'ladi. O'qituvchi faoliyatida rag'batlantiruvchi usullardan foydalanib, o'quvchida ijobiy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Ta'lim tajribasida quyidagi rag'batlantirish turlari qo'llaniladi:




Rag'batlantirish turlari

Har qanday rag'batlantirish mavjud pedagogik talablarga muvofiq bo'lishi, ketma-ket bo'lmasligi zarur, shuningdek, o'quvchini yoki uning xatti-harakatlarini haddan oshirib maqtash, boshqa o'quvchilarga taqqoslash, ularni kamsitmaslik, talabchanlikni bo'shashtirmaslik kabi shartlarga muvofiq qo'llaniladi.

Jazolash shaxsning xatti-harakati, faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo ham o'quvchining individual xatti-harakatlari va umumjamoaning faoliyati uchun qo'llaniladigan eng so'nggi tarbiya usuli. Jazo choralarini qo'llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash kabi usullardan foydalanish mumkin emas. o'quvchini qo'rqitish, g'azablantirish ham ijobiy natija bermaydi. Aksincha, o'quvchi qo'rqqanda yolg'on gapirishni o'rganadi, ikki yuzlamachi bo'lib qoladi.

Ta'lim amaliyotida quyidagi jazo choralarini qo'llash mumkin:



Jazolash turlari

Tanbeh berish eng muhim jazo chorasi. O'qituvchi o'quvchiga yuzmayuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin.

Ogohlantirish sodir etilishi mumkin bo'lgan muayyan xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Hayfsan berish o'quvchining ma'lum xatti-harakatlarini qat'iy choralar asosida baholash. Agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, o'quvchi belgilangan intizomni buzaversa, uning aybi qay darajada bo'lishi va intizomni qanday sharoitda buzganligini inobatga olib unga hayfsan e'lon qilish mumkin.

Uyaltirish o'quvchining ma'lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan subyektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus va sharm-hayodir. Odamda insonda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, avvalo, o'zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu his-tuyg'ularni ehtiyotkorlik bilan o'stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizirtiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

Jazo puxta o'ylab qo'llanilishi lozim, aksincha, jahl ustida jazolash mumkin emas. Jazolar yakka xarakterda, ya'ni, birgina usulni qo'llash asosida bo'lsin, o'quvchining aybiga mos, muvofiq bo'lishi, tez-tez qo'llanilmasligi, jazolanuvchida jazoning to'g'ri belgilanganligiga nisbatan shubha tug'ilmasin va ular o'z ayblarini sezsin. Jamoada muhokama qilish va jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlangan jazo berilsa, uning ta'sir kuchi yanada oshadi. Jazo tarbiyalanuvchining jismoniy va ruhiy azoblamasligi, tahqirlamasligi, sha'nini yerga urmasligi kerak.

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib borar ekan, unga

muvoqif ravishda tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi.

3. Tarbiya vositalari. Tarbiya vositalari tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirish uchun qo'llaniladigan moddiy, ma'naviy, madaniy obyekt va predmetlar majmuidir.

Umumiy holda tarbiya vositalari deganda, oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari, milliy va tarixiy qahramonlar, adabiyot va san'at, zamonaviy qahramonlar, xarizmatik liderlar va boshqalar nazarda tutiladi. Shuningdek nomoddiy va moddiy predmetlar hamda obyektlar ham tarbiya vositalaridir.

4. Tarbiya metodlarini tanlash asoslari. Tarbiya metodlarini bilish, to'g'ri tanlash va qo'llash pedagogik mahoratni egallaganligi ko'rsatkichidir. Xususan, tarbiya metodlari bir nechta asosda tanlanadi:

- Tarbiya maqsadi va vazifalariga qarab;
- Tarbiya mazmuniga qarab;
- Tarbiya vositalariga qarab;
- Tarbiyalanuvchilarning yoshi va individual xususiyatlariga qarab;
- Tarbiya vaqtiga qarab;

Shuningdek, yuqorida ta'kidlanganidek, tarbiya metodlarini tanlash tarbiyachining salohiyati va tajribasiga ham bog'liq.

Nazorat uchun savollar:

1. Tarbiya metodlarini ko'rsating va ularga ta'rif bering?
2. Tarbiya metodlaridan hikoya, suhbat, namuna hamda ma'ruza qanday hollarda qo'llaniladi?
3. Xalq pedagogikasi qanday tarbiya metodlariga ega?
4. Rag'batlantirish va jazolash metodlari haqida gapirib bering.

8-MAVZU: TARBIYA TURLARI VA VAZIFALARI

Reja:

1. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmuni va ilmiy dunyoqarash.
2. Sotsial tarmoqlarning o'quvchilar dunyoqarashining rivojlanishiga ta'siri.
3. Tarbiya turlari va mazmuni.
4. Tarbiya turlarini shakllantirish metodlari va vositalari.

Tayanch iboralar:

Tarbiya turlari, vazifalari, sotsial tarmoqlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi, ekologik tarbiya, aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi, iqtisodiy tarbiya, huquqiy tarbiya vatanparvarlik tarbiyasi, ekologik tarbiya, estetik tarbiya.

1. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmuni va ilmiy dunyoqarash.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo'lgan ma'naviyatga bog'liq. Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi **ma'naviy-axloqiy tarbiya** asosini ham ilg'or milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g'oyalari tashkil etadi.

Ma'naviyat shaxs, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollari belgilaydigan ichki ruhiy omildir.

Ma'naviyat (arabcha "ma'nolar majmui") mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur. tushuncha va g'oyalari majmui hisoblanadi

Ma'naviyatli inson bilimli, ma'lum kasb-hunar sohibi, o'z Vatanning sodiq fuqarosidir. O'z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g'ururlana oladigan inson. O'z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarashi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir.

Axloq esa shaxsning xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. U ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruhiy hayotida o'ziga xos o'rin tutadi.

Axloq (lotincha "xulq-atvor") ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar va shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmui

Axloq ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy meyorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezonini bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablar bu jamiyatda ma'lum ijtimoiy-axloqiy talablarga mos axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida o'quvchilar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta'sir etishdir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy meyor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimliliigi, mustahkam ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u va xislatlarni shakllantirish, o'quvchilar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning hovea-hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko'ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat eng asosiy bo'lib hisoblanadi.

O'quvchida ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo'lishi shart. Shu bois ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar o'quvchi tomonidan axloqiy meyor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglash

negizida tashkil etiladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda o'quvchilar xatti-harakatlarida ko'zga tashlanadigan salbiy odatlar – jamoa joylarida qattiq gapirish, qo'pol so'zlarni ishlatish, hissiyotga berilish, o'ylamay gapirish, ishonli bo'lmagan hamda dalillar bilan tasdiqlanmagan voqea-hodisalar haqida fikr yuritish, boshqalarning suhbatini bo'lish, qo'lini silkitib gapirish kabilarni bartaraf etishga e'tibor qaratish zarur.

2. Sotsial tarmoqlarning o'quvchilar dunyoqarashining rivojlanishiga ta'siri. Sotsial tarmoqlarning o'quvchilar faoliyati bilan bog'liq aksariyat jarayonlarda ishtirok etishi sotsial tarmoqlar orqali o'quvchilar dunyoqarashini rivojlantirishning nazariy, tashkiliy va amaliy-metodik jihatdan tashkil etish mumkinligini anglatadi.

Bugun shaxs, xususan, zamonaviy o'quvchilarning dunyoqarashi sotsial tarmoqlardagi turli holatlar, ma'lumotlar va shart-sharoitlar ta'sirida o'zgarib bormoqda. Bunday holatda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalari yangi usulda tadbqiq qilish, zamon talablariga asosan ta'lim berish jarayoni takomillashtirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini tadbqiq qilish bo'yicha ilk tadqiqotlar A.Abdudodirovning "Fizika-matematika fanlari o'qituvchilarini intensiv tayyorlash nazariyasi va amaliyoti: kompyuter texnologiyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish aspektlari" doktorlik dissertatsiyasida amalga oshirilgan. Unda, ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalari tadbqiq etish ta'lim samaradorligi va tezligini oshirishi to'g'risida aytib o'tilgan.

D.Abdudzimova va mualliflar jamoasi hamkorligida ettirilgan "Telekommunikatsiya tizimlarining globallasuvi sharoitida bolalar axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yo'riqnoma"da internet, ommaviy axborot vositalaridan tarqatilayotgan axborotlardan bolalarni himoyalash masalalariga e'tibor berilgan.

O.Davlatovning "Talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini tarixiy-madaniy meros vositasida rivojlantirish" nomli tadqiqot ishida "Axborot xavfsizligini ta'minlash eng avvalo, turli axborot manbalaridagi ma'lumotlarni tahlil etish, baholash va zararli axborotlarni aniqlash, talabalarni zararli axborotlar tahdididan o'z-o'zini va jamiyat a'zolarini himoya qilish, ularga qarshi kurashishga tayyorlashni talab etadi"

degan mazmunda fikr yuritiladi.

O.Davlatov zararli axborotlardan himoyalashda zararli manbaalarni cheklash zaruriyati haqida so'z yuritadi.

Tadqiqotchi Sh.Shodmonovning fikrimizcha, axborot xavfsizligini ta'minlashda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, ularda tahlil mexanizimini rivojlantirish bugungi zamon ta'lim tizimi sharoitida maqsadga muvofiq bo'ladi. Tahlil shuni ko'rsatmoqdaki bugun har bir shaxs zavmonaviy texnologiyalar bilan hamnafas bo'lib yashamog'i kerak. Bu sohada bilimli, savodli bo'lish insonlar faoliyatida davomida ortda qolmaslikka, doim zamon bilan hamnafaslikda hayot kechirish kerakligini anglatib turadi.

Bizning millatimiz va mentalitetimiz barcha o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda avvalo dunyoqarashni rivojlantirishning yurtimizdagi tarixiy ildizlarini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Barkamol avlodni tarbiyalash masalasi barcha zamonlarda ham dolzarb bo'lib kelgan. Odamzotning o'z zurriyotiga g'amho'rlik qilishi, voyaga yetkazishi, ayniqsa ta'lim berib ulg'aytirishi, sog'lom tan va ruh bilan jamiyatga qo'shishi va uyg'unlashishini ajdodlarimiz "komil inson tarbiyasi", deb atagan.

Komil insonni tarbiyalash — umumbashariy g'oya. YA'ni, bu — jani odamzotga xos orzu. Lekin uni amalga oshirishda har bir xalq o'zining milliy xususiyatlari, an'ana va qadriyatlaridan kelib chiqadi. Shu ma'noda, komillik g'oyasi nafaqat alohida shaxslarni, balki xalq va millatlarni ham yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, hayotning ko'pgina sohalarida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q.

Biz o'z yurtimizda kelajagi buyuk davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etmoqchimiz. Erkin fuqarolik jamiyatida davlatni boshqarish, mamlakat miqyosida qarorlar qabul qilish, tadbirlar o'tkazish ishlari odamlarning tashabbusi va intilishlari orqali amalga oshiriladi. Bunday jamiyat fuqarolari yuksak tafakkuri va ma'naviyati, ijtimoiy faolligi, olijanob fazilatlar bilan ajralib turadi. Bir so'z bilan aytganda, bunday jamiyat fuqarolari har tomonlama mukammal bo'lmog'i zarur. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mamlakatimizda barkamol avlodni voyaga yetkazishga alohida ahamiyat berilayotgani bizning erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidagi

intilishlarimizga ham har tomonlama mos va uyg'undir.

Tadqiqotlar natijalari tarbiyaviy ishlarda samarali qo'llanilib kelinayotgan tarbiya metodlaridan quyidagilar foydalanish o'quvchilar dunyoqarashini samarali rivojlantirilishiga yordam berishi ko'rsatadi:

Ijtimoiy ongni hosil qiluvchi metodlardan (shakli; ahloqiy-ma'naviy suhbat, baxs)

Odatlantirish va foliyatda mashqlantirish metodlar (shakli; -namuna ko'rsatish, musobaqa)

Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari (shakli; - ma'qullash, ishonch bildirish)

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining dunyoqarashini sotsial tarmoqlar vositasida rivojlantirish bir qator omillarning ta'sirida sodir bo'ladi. Bu omillarga ijtimoiy muhit (makro va mikro muhit) ta'siri, oila tarbiyasi, maktab, ota-ona va sinfdoshlarning ta'siri, sotsial tarmoqlarning o'quvchi hayotidagi o'rni va uning shaxsiga ta'siri muhim omil hisoblanadi.

O'quvchilarning dunyoqarashini sotsial tarmoqlar vositasida rivojlantirishda ko'zlangan maqsadga yo'naltirilgan faoliyat uchun samarali bo'lgan shakllarni tanlab olish muhimdir. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida munozara (bahs-munozara) trening kabi shakllarda anketa, tushuntirish hamda pedagogik kuzatish kabi metodlar yordamida o'quvchilar dunyoqarashini rivojlantirish samarali hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoda Internet-media insoniyatning taraqqiyot yo'lidagi eng muhim yutuqlaridan biri va jamiyatdagi muhim o'rni va ahamiyati tufayli hayratlanarli sur'atlarda rivojlanayotgan eng qimmatli ommaviy axborot vositalaridan biri xisoblanadi. Axborot tizimidagi medianing muhimligi tufayli ular geografik va ma'lum darajada siyosiy va madaniy to'siqlarni yengib o'tishdi va butun dunyo yoshlari bir-biri bilan bog'lana olib, dunyoning eng chekka mintaqalaridan ularga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni olish imkoniyati mavjud.

Mavjud adabiyotlar tahlili, sotsial tarmoqlarning axborot tarqatish va shaxsni ijtimoiy jihatdan rivojlantirishdagi o'rni, ta'sirini o'rganish, pedagogik kuzatish asosida o'quvchilarning sotsial tarmoqlarga munosabati, yondashuvlarini aniqlash natijasida quyidagi omillar ularda dunyoqarashni rivojlantirishda muhimligi e'tirof etilgan:

- ijtimoiy muhit (makro va mikro muhit).

- oila.
- maktab.
- o'qituvchilar, mahalla va sinfdoshlarining o'rni.

O'quvchi ijtimoiy muhitning ta'sirida rivojlanar ekan, bugungi globallashuv jarayonlarining tayanchi bo'lgan internet va sotsial tarmoqlarning salbiy va ijobiy ta'sirini to'g'ri anglab, undan to'g'ri, oqilona foydalanish qoidalarini bilib olish lozim.

Zamonaviy sharoitda o'quvchilar dunyoqarashini sotsial tarmoqlar orqali rivojlantirishda bir qator vositalar muhim o'rin tutadi. Ularning orasida bugungi kunda eng ko'p foydalanilib kelinayotgan Telegram, Feysbuk, Instagram kabilar alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar ijtimoiy tarmoqlar haqidagi bilimlari boyitish va zarur ma'lumotlarga ega bo'lishdagi ahamiyatiga oid ma'lumotlar bilan qurollantirish muhim. Ulardan, oqilona va samarali foydalanish tartib, qoidalari o'rgatilsa, o'quvchilarning dunyoqarashini rivojlanadi.

Ushbu ilmiy-amaliy tavsiyalar o'quvchilar dunyoqarashini sotsial tarmoqlar orqali rivojlantirishga ko'maklashadi:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mazmunini sotsial tarmoqlarga oid materiallar asosida mazmunan takomillashtirish.

2. Ziyonet saytida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mazmunidan kelib chiqqan holda tadbirlar mazmuni bo'yicha sotsial tarmoqlar materiallarga asoslangan metodik ishlanmalarining joylashtirilishiga erishish.

3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi yetakchiligida Respublika ta'lim markazi saytida "Ma'rifiy-madaniy tadbirlar va sotsial tarmoqlar" sahifasini yaratish asosida unda internet va sotsial tarmoqlar materiallaridan iborat elektron, foto, video, audio va turli sotsial tarmoqlar mahsulotlarining joylashtirilishini ta'minlash.

4. Mobil telefonlari va internet tarmog'ida aloqani yo'lga qo'yish va respublika ta'lim markazi tahlil bo'limi tomonidan metodik materiallar asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy tadbirlarning tashkil etilishini ta'minlash.

Biz fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik davlatda yashar ekanmiz, jamiyatimizda har qanday fikr, qiziqishga hurmat bilan qaraladi.

Ammo xatarli qiziqish va mayllardan davlat va jamiyat o'zini himoya qilishi lozim. Dunyoqarash tarbiyasi imkoniyatlarini rivojlantirishimiz uchun "ogohlik" iborasining ma'nolarini bugungi zamon sharoitidan kelib chiqib, ancha keng miqyosda tushunishimizga to'g'ri keladi. YA'ni buguni ogohlik xalqimiz, ayniqsa, yoshlar dilini, ruhiyatini, aql-idroki va umuman ma'naviyatini diniy aqidaparastlik, jaholatparastliklar xataridan tashqari, ayni paytda jahonda yuz berayotgan siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va estetik manfaatlar yo'nalishidagi kurashlarning xatarli jihatlari, jumladan, "ommaviy madaniyat" ning yemiruvchi ta'siridan muhofaza qilishni o'z ichiga oladi. Zero, globallashuv jarayoni, zamonaviy kommunikatsiya tarmoqlarining jadal rivojlanishi, madaniyatlararo, insonlararo muloqot kengayib borayotgan bir pallada Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy-madaniy merosni asrab-avaylab va kelgusi avlodlarga bekami-ko'st yetkazib berish, yoshlarimizni aqlli, dono, baxtli va barkamol etib tarbiyalash g'oyatda muhim va ahamiyatlidir.

3. Tarbiya turlari va mazmuni. Shaxs dunyoqarashini shakllantirishda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning roli. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma'naviy-axloqiy tarbiya ham muhim o'ringa ega bo'lib, uni samarali tashkil etish o'quvchida ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi.

Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi

Ахлоқий тарбиянинг асоси ахлоқ ва ахлоқий меъёрлардир. **Ахлоқ** (lotincha "moralis" - xulq-atvor) ijtimoiy munosabatlarni, shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, jamiyat tomonidan tan olinib, rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari yig'indisi. Axloqiy meyorlar to'g'risidagi bilimlar o'quvchilar ongiga ta'lim-tarbiya jarayonida singdirib boriladi. Axloqiy tarbiyaning natijasi o'quvchilarda axloqiy ong va faoliyat ko'nikmalari, axloqiy madaniyat shakllanishida ko'rinadi.

Axloqiy ong – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, shuningdek, milliy istiqlol g'oyasining o'quvchilar ongida aks etishi

Axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyat ta'lim-tarbiya jarayonida yo'lga qo'yilayotgan axloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzulardagi suhbat, bahs-munozara, debatlar xalq xo'jaligining turli sohalarida fidokorona mehnat qilayotgan, ilm-fan, madaniyat, ishlab chiqarish hamda sport sohalarida yuksak darajadagi muvaffaqiyatlarni qo'lga kirish bilan O'zbekiston Respublikasi nomini jahonga mashhur qilayotgan, uning obro'-e'tiborining oshishiga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan shaxslar hayoti va faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlardan samarali foydalanish, vatanparvarlik namunalarini ko'rsatgan, xalq qahramonlari namunasida shakllantiriladi.

Axloqiy tarbiya o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni samarali tashkil **etishda ong, his-tuyg'u hamda xulq-atvor birligiga erishish** maqsadga muvofiqdir. Zero, ular birligida ma'lum kamchiliklarning yuzaga kelishi ham o'quvchilarning komil shaxs bo'lib kamol topishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda quyidagi **vazifalar** hal qilinadi:

Asosiy vazifalar

1. O'quvchilarni odob-axloq qoidalari va ijtimoiy axloq meyorlari bilan tanishtirish. 2. Ularda ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish. 3. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ularini tarbiyalash va rivojlantirish. 4. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifat (ota-onani, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehnatsevarlik, bilim olishga intilish, kamtarlik, halollik, rostgo'ylik, oliyanoblik, munivvatlilik, rahmdillik, moddiy va ma'naviy ne'matlarni asrash, kelajakka ishonch bilan qarash va h o l larni tarbiyalash. 5. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy xulq-atvor ko'nikma va odatlarini tarkib topirish.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari

Yuksak ma'naviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalq farovonli yo'lida fidokorona mehnat qilish, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo'lish, o'zida irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo'lish kabi xislatlarni mustaqil O'zbekiston hayotida ustuvor bo'lgan tamoyillar sifatida e'tirof etish mumkin.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi asoslari tayanch omillar sanaladi.

Axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida **axloqiy mazmundagi suhbat, ma'ruza, bahs-munozara, konferensiya, seminar hamda debatlar**dan foydalanish o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Shaxsda ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish. **Dunyoqarash** tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Unda ijtimoiy-g'oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e'tiqodlar namoyon bo'ladi.

Dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, subyektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi. uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi asosida shakllanadi.

Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim ahamiyatga ega. Shaxs dunyoqarashida ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuv va qadriyatlari, axloqiy tamoyillar aks etadi. Dunyoqarashning boyib borishi shaxsiy sifat va fazilatlarnin boyitadi, barqarorlashtiradi. Ezgu g'oyalardan tarkib topgan dunyoqarash shaxs ijobiy fazilatlarinig boyitadi.

Dunyoqarash o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo'lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. **Ilmiy dunyoqarash** uzluksiz, izchil ravishda mavjud bilimlarni puxta o'zlashtirish, hayotiy tajribani orttirish asosida shakllanadi. Shunga ko'ra shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

Aqliy tarbiyaning shaxs ilmiy dunyoqarashini shakllantirishdagi roli. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o'rin tutadi.

Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga aqliy tarbiyani berishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zRning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" mazmunida ham bilimli, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligiga urg'u beriladi. Malakali kadr bo'lib yetishish ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir.

Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi. Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi **vazifalar** hal etiladi:

Asosiy vazifalar

1. Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.
2. Ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.
3. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.
4. Bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umimlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

Aqliy tarbiyaning asosiy vazifalari

Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanishi mumkin: 1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi. 2. Mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olish jarayoni. 3. Fikrlash ko'nikmasiga egalik. 4. Bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga kelib, uning negizida ilmiy qarash va e'tiqod yotadi.

Ilmiy qarash (yunoncha “idea” – g‘oya, tasavvur va tushunchalar yig‘indisi) muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g‘oya bo‘lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o‘zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. O‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish ularda ixtirochilik ko‘nikmalarini shakllantirishga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurni rivojlantiradi. **Ilmiy tafakkur** inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisa va jarayonlarga ilmiy yondashuvni anglatadi.

E‘tiqod dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy- falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma‘naviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko‘rinishi; muayyan g‘oyaga cheksiz ishonch bo‘lib, uning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi. Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko‘ra o‘zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi. Ikkinchi bosqichda ma‘naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin. ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko‘rish taqozo etiladi. Uchinchi bosqichda e‘tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma‘naviy-axloqiy tamoyil bo‘lib qoladi. O‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo‘llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e‘tiqodga aylanadi.

Sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o‘rin bergan. Masalan, Abu Nasr Forobiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug‘ilganda mavjud bo‘lgan bo‘lsa, aqliy bilimi, ma‘naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatları, ma‘lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta‘sirida, ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi.

Abu Nasr Forobiyning e‘tiroficha, inson bilimlarni o‘zlashtirar ekan, tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo‘lgan ma‘lumotlarni o‘zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: “Inson narsa va

hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri-bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi" Mutafakkir insonning bilimlarni o'zlashtirishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: "Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqbolli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shilib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqbolning belgisidir. Ayniqsa, hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi".

Abu Ali ibn Sino esa bilimni chuqur o'zlashtirish donishmandlik ekanligini aytadi: "Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo'lsayu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bunga hikmat – donishmandlik deyildi".

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga boshlovchi bilim") asari ta'bir joiz bo'lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta'minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to'g'risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo'lish ezgu ishlar tantanasini ta'minlovchi garov bo'lib, uning yordamida hatto osmon sari yo'l ochiladi:

Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidir,

Bilim tufayli, go'yo ko'kka yo'l topiladi.

Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to'qqiz-o'n asr vaqt o'tgach, inson nafaqat osinonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo'ldi.

Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma'rifatni rivojlantirishga yo'naltirish yetakchi o'rin tutadi. Binobarin, ilm-ma'rifat zulm va bid'atdan forig' bo'lish yo'lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan "Xilvat dar anjuman", "Safar dar vatan" g'oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o'zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs-munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo'lgan ilm puxta va mustahkam bo'ladi.

Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz o'zlashtirish zarurligini uqtiradi. Shuningdek, ilm o'rganish mashaqqatli yumush bo'lib, uni

o'rganishda ayrim qiyinchiliklarni yengib o'tishga to'g'ri kelishi, bu yo'lda chidamli, qanoatli, bardoshi bo'lish orqaligina mukammal bilimga ega bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi.

Abdulla Avloniy ilmni afzalligini quyidagicha bayon etadi: "Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur". Alloma bilim insonni jaholatdan qutqarishning samarali vositasi ekanligiga ham urg'u beradi: "Ilm bizni jaholat qorong'usidan qutqarur, madaniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur".

O'quvchi dunyoqarashini shakllantirishning bir necha maqbul shakl, metod va vositalari bo'lib, ular sirasida ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzularda tashkil etiluvchi suhbatlar, bahs-munozaralar, ma'ruzalar, muammoli vaziyatlarni yaratish asosida o'quvchilarni fikrlashga undovchi amaliy treninglar, debatlar, mustaqil ishlar, shuningdek, ishchanlik o'yinlari samarali sanaladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida fanlararo aloqadorlik, ijtimoiy va tabiiy omillarning o'zaro muvofiq kelishiga erishish omillari, atrof-muhit hamda ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shaxs kamolotini ta'minlashga erishish imkoniyatidan unumli foydalanishga intilish maqsadga muvofiq.

Dunyoqarashning shakllanishida jamiyatda ustuvor o'rin tutgan mafkuraviy g'oyalalar va ularning mohiyatidan to'laqonli xabardor bo'lish o'ziga xos ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilayotgan ta'lim-tarbiya, xususan, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar asoslari mohiyati bilan o'quvchilarni tanishtirish jarayonida O'zRning milliy istiqlol g'oyasi va ma'fura asoslari to'g'risida ma'lumotlar berib borish, o'quvchilarda ularga nisbatan munosabatni shakllantirish samarali yo'l hisoblanadi.

Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning tarkibiy qismi. O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish va ularda iqtisodiy faoliyatni yurita olish ko'nikma, malakalarni shakllantirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila budjetini shakllantirish, oila xo'jaligini yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarni to'g'ri tashkil etish va hokazalar)ni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi

Iqtisodiy tarbiya iqtisodiy ta'lim bilan chambarchas holda olib boriladi. Iqtisodiy tarbiyani tashkil etishda oila, ta'lim muassasasi va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikka tayanish ijobiy natijalarni beradi.

Iqtisodiy tarbiyani tashkil etishda quyidagi **vazifalar** bajariladi:

Asosiy vazifalar

- 1) o'quvchilarga iqtisodiy bilim asoslari (iqtisod, oila xo'jaligini yuritish va boshqarish, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, ishlab chiqarishni moliyalashtirish, kapital, tadbirkor, tadbirkorlik faoliyati, kichik va o'rta biznes, ijara, shartnomalar va ularni tuzish, banklar, bank operatsiyalari, byujdetni shakllantirish, daromad, bankrot, biznes-reja va boshqalar)ni berish;
- 2) ularda iqtisodiy ong va tafakkur, xususan, mavjud moddiy boyliklarga nisbatan oqilona munosabatni tarbiyalash, 3) kasbiy yoki ishlab chiqarish ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni iqtisodiy ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish; 4) o'quvchilarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga nisbatan ehtiyoj va layoqatni yuzaga keltirish; 5) ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatining yo'lga qo'yilishiga erishish.

Iqtisodiy tarbiyaning asosiy vazifalari

Iqtisodiy mavzulardagi suhbat, bahs-munozara, hamda treninglar, ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar, ishlab chiqarish korxonalariga uyushtiriluvchi ekskursiyalar, tadbirkorlik yoki muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalarini shakllantiruvchi ishchanlik o'yinlari, o'quvchilarning ishlab chiqarish borasidagi ijodiy qobiliyatlarini namoyish etishga imkon beruvchi ko'rik-tanlovlar, iqtisodiy yo'nalishdagi konferensiya, seminar, munozaralarni tashkil etish iqtisodiy tarbiya samaradorligini ta'minlaydi.

Iqtisodiy tarbiyani uzluksiz amalga oshirishda ta'lim muassasalarida dars va darsdan tashqari sharoitlar, oilada amalga oshirilayotgan harakatlar muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy mazmundagi suhbatlar, uchrashuvlar, ekskursiyalar, to'garaklar ko'rinishidagi amaliy tadbirkorlik faoliyati (u yoki bu hunar yo'nalishidagi ijodiy ishlar)ni tashkil etish o'quvchilarda iqtisodiy tafakkurning shakllanishiga yordam beradi.

Ekologik tarbiya o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi. "Ekologiya" tushunchasi ilk bor nemis olimi E.Gekkel tomonidan qo'llanilgan. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ekologik tarbiya (grekcha "oikos" – turar joy, makon, "logos" – fan) o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarni boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir

O'zbekistonda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etishga alohida Ijtimoiy-ekologik harakat g'oyasi "O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish Milliy harakat rejasi"da o'z ifodasini topgan.

O'quvlarda tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatni qaror toptirish, mehr-muhabbatni uyg'otish, atrof-muhit musaffoligiga erishish ekologik muammolarni hal etish yo'lida muhim bosqich sanaladi.

Ekologik ta'lim o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayoni

Nazariy ekologik bilimlar (ekologik ong), atrof-muhit va tabiat muhofazasi yo'lida olib borilayotgan faoliyat birligi ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ekologik ong tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi bo'lib, u murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Ekologik madaniyat o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik faoliyat ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui.

Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi zarur:

Asosiy vazifalar

1. O'quvchilarning ekologik bilimlarini yanada oshirish.
2. Ularning tabiat va atrof-muhit ekologiyasi to'g'risidagi tasavvurini boyitish.
3. O'quvchilarda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash ijtimoiy zaruriyat ekanligi to'g'risidagi e'tiqodni shakllantirish.
4. O'quvchilarda ekologik faoliyat ko'nikma va malakalarni tarbiyalash hamda ularning tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash jarayonida faol ishtirok etishlariga erishish.

Ekologik tarbiyaning asosiy vazifalari

Oila va jamiyatda ekologik mavzulardagi suhbat, davra suhbat, ekskursiya, bahs-munozara, ijodiy tanlovlar, uchrashuv, ijtimoiy-foydali mehnat (shanbalik, hashar, ko'kalamzorlashtirish) kabilar ekologik tarbiya samaradorligini oshiradi. Oila tarbiyasida suhbat, kuzatish va, amaliy faoliyatni tashkil etish, rag'batlantirish va jazolash kabi metodlardan foydalanish ham o'quvchilarning ekologik madaniyatini riaojlantiradi. O'quvchi tarbiyasida ishtirok etayotgan subyektlarning shaxsiy namunalari, o'quv manbalari, badiiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari (jumladan, Internet) materiallarining g'oyalari o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim vositalari sanaladi.

Fuqarolik tarbiyasining mazmuni va vazifalari. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyalari fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va huquqiy jamiyatni barpo etishdek ezgu maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, huquqiy madaniyatini qaror toptirish – fuqarolik (huquqiy) jamiyatning asosiy talabi sanaladi.

Jamiyatda qonun yo'li bilan belgilangan talablar fuqaro xulqini baholash, xatti-harakatlari mohiyatini tahlil qilish uchun mezon bo'lib xizmat qiladi. Ana shu talablarga muvofiq fuqaroning xulq-atvoridagi ayrim ko'rinishlar, harakatlar yoki odatlar ma'qullanadi yoki qoralanadi.

O'zR ijtimoiy maqsadi demokratik, insonparvar huquqiy davlat va jamiyatni qurishdir. Uni bunyod etish jarayonida yangi ijtimoiy fuqarolik

tarbiyasini tashkil etish vazifalarini yanada murakkablashtiradi. Huquqiy jamiyat barpo etilishining muvaffaqiyati fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy ongillik darajasi, fuqarolik fazilatlarining shakllanganligi va ijtimoiy faollik ko'rsatkichlariga bog'liq.

Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlarini yo'lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Fuqarolik tarbiyasining markaziy obyekti fuqaro sanaladi. Fuqaro fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxsdir. **Fuqarolik** esa huquqiy va axloqiy meyorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasining **vazifalari** quyidagilardan iborat:

Asosiy vazifalar

1. Yosh avlodni jamiyatda ustuvor bo'lgan axloqiy va huquqiy meyorlarga rioya etishga o'rgatish
2. O'quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berish, ularda fuqarolik faoliyati ko'nikma va malakalarini hosil qilish.
3. O'quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish
4. Ularda xalq o'tunishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ulardan g'ururlanish, faxrlanish va ifxur hislarini oshirish.
5. Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlarini bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoiy fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish.
6. Vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini e'zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash.

Aqliy tarbiyaning asosiy vazifalari

O'quvchilarning fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsga davlat Konstitutsiyasida ko'rsatilgan huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarish xususida ma'lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda huquqlardan foydalanish va burchlarni bajarish bo'yicha ko'nikma va malakalarini hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

Respublika Bosh qonunida shaxsning quyidagi huquqlari kafolatlanadi: yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, ayblanayotgan shaxs ishining

sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilishi, har kim o'z sha'ni va obro'siga tahdid qiladigan tajovuzlardan, shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalaniş va turar-joy dahlsizligi, Respublika hududida bir joydan ikki joyga ko'chish, O'zbekistonga kelish va undan chiqib ketish, fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi, vijdon erkinligi, davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki o'z vakillri orqali ishtirok etish, qonuniy mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlarda ishtirok etish, kasaba uyushmalarida, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish, saylash va saylanish, mulkdor bo'lish, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, dam olish, qariganda yoki mehnat qilish layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda ijtimoiy ta'minotdan foydalanish, tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish, ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi.

O'quvchilarga huquqlari borasidagi bilimlarni berish bilan birga fuqarolarning burchlari nimalardan iborat ekanligi haqida ma'lumot berish, bu xususida o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish ko'zlangan maqsadga erishishda muvaffaqiyat omili bo'ladi.

Fuqarolarning burchlari quyidagilardan iboratdir: fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarda ko'zda tutilgan talablarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilish; O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy-madaniy merosini avaylab asrash; fuqarolar tabiiy atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish; qonunlar bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lash; O'zbekiston Respublikasini himoya qilish.

O'quvchilarni fuqarolik ruhida tarbiyalashda davlat ramzlarining ahamiyati. **Ramzlar** – bu shartli belgilar bo'lib, ular qadim davrlardayoq turli xalqlarda u yoki bu hodisa, olam, mavjudot, odamlar tasvirini, ularning qarashlarini ifodalagan. **Davlat ramzlari** muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari hamda maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g'oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmuidir. Muayyan davlatning bayrog'i, gerbi (tamg'asi) hamda madhiyasi davlat ramzlari majmuini ifodalaydi.

Davlat ramzlari o'zlarida chuqur siyosiy va ijtimoiy-g'oyaviy mazmuni ifoda etadi. Davlat ramzlari (bayroq, gerb)da tasvirlangan ranglar, tasvirlar muayyan xalq, millat o'tmishi, qadim an'analari, xalqning turmush

tarzi, orzu-umidlari, maqsadi, hayotiy intilishlarini ifoda etishga xizmat qiladi. Davlat madhiyasida esa xalq, millat, davlat va jamiyatning yagona maqsadi, birligi g'oyalari tarannum etiladi.

Davlat ramzlari davlatning mavjudligini ko'rsatuvchi belgilardir.

O'zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligining e'lon qilinishi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni ifoda etuvchi ramzlarni yaratishni taqozo etdi. 1992 yil 10 dekabrda O'zRning davlat madhiyasi qabul qilindi. O'zbekiston Xalq shoiri Abdulla Oripov va taniqli bastakor Mutal Burxonov O'zR davlat madhiyasining mualliflaridir.

1991 yil 18 noyabrda O'zbekiston Respublikasining bayrog'i, 1991 yil 2 iyulda esa O'zbekiston Respublikasining gerbi (tamg'asi) qabul qilindi.

Ta'lim muassasalarida fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda o'quvchilarga davlat ramzlariga oid ma'lumotlarni berish, ularning ongiga davlat ramzlarining xalq, millat or-nomusi, sha'ni, qadr-qimmatining timsoli ekanligi to'g'risidagi g'oyalarni singdirish zarur.

Mustaqil O'zbekistonda oq, ko'k, yashil va qizil ranglar o'z ifodasini topgan bo'lib, ularning har biri muayyan ma'noni anglatishga xizmat qiladi. Oq rang qizil rang bilan hoshiyalangan. Respublika bayrog'ida yurt tarixi, o'zbek xalqining milliy ruhi va yurt tabiatining jamoli aks ettirilgan. Bayroqning chap tomoni yuqorida qismida yarim oy va o'n ikki yulduzning tasviri tushirilgan. Ko'k rang va yulduzlar tasviri tiniq, moviy osmon belgisidir. O'rtadagi oq rang esa yorug' kun va pokiza, oq ko'ngilli o'zbek xalqining tilagi, qizil hoshiyalar esa tomirlarda jo'sh urayotgan qon kabi tiriklik va hayot ramzidir. Yashil rang esa qadim-qadimdan tabiat belgisi, oy (yangi oy) ramzining berilishi mustaqillik sharoitida hayot kechirish xalqimiz uchun o'ziga xos yangi davr ekanligining ifodasidir. Yulduzlar sonining o'n ikkitaligi yil oylari, muchal hisobiga nisbatdir. Umuman, yulduzlar qadimdanoq abadiyat timsoli sifatida qadrlanib kelingan. XVIII asrdan boshlab esa, byuuk intilish hamda ulug' g'oyalarning ifodasi sifatida talqin etila boshlangan.

Respublika milliy bayrog'ining huquqiy maqomi "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonunda belgilab berilgan. Milliy bayroq va uning mohiyati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazish sinf soatlarida, shuningdek, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish chog'ida amalga oshiriladi.

Bayroq davlat mustaqilligining belgisigina bo'lmay, u O'zbekiston Respublikasi nomini xalqaro maydonda ramziy ravishda ifoda etish uchun xizmat qiladi. Davlat bayrog'i Prezidentlik apparati, Respublika Oliy Majlisi va hukumati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorig'i Kengeshi va hukumati, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari, turli davlatlarda Respublika nomidan ish olib boruvchi O'zbekiston Respublikasining doimiy vakolatxonalari binolarida ko'tariladi.

Fuqarolik tarbiyasining yo'nalishlaridan biri o'quvchilarga millat, xalq o'tmishini o'rgatish asosida milliy o'zlikni anglash hisssiga ega bo'lishlarini ta'minlash sanaladi.

Milliy qadriyatlar g'oyalari o'rganish asrlar davomida ardoqlanib kelgan an'ana, urf-odat, marosimlar millatni bu qadar jipslashganligi siridan voqif etadi. Fuqarolik tarbiyasi negizida xalq o'tmishi, tarixini o'rganish: milliy qadriyatlar mohiyatini anglashga yo'naltirilgan faoliyatga o'quvchilarni jalb etish ijtimoiy maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan yo'l sanaladi.

O'quvchilarda fuqarolik hissini qaror toptirish, ularni fidoiy, vatanparvar fuqaro sifatida tarbiyalash evaziga ta'minlanadi.

Yosh avlodda fuqarolik hissi va e'tiqodini tarbiyalamay turib, ularda axloqiy, xulqiy odatlar va ko'nikmalarni shakllantirib bo'lmaydi.

Fuqarolik tuyg'usini qaror toptirish murakkab jarayon. Bunda dastlab o'quvchilarga fuqarolikning mohiyati va meyoriy qoidalar mazmuniga oid bilimlar beriladi. Avvalo, o'quvchiga fuqarolik odobi va madaniyati haqida tushunchalar beriladi, bu xildagi xatti harakatlarga oid namunalar keltiriladi, so'ngra faoliyat uyushtiriladi.

Badiiy va ilmiy adabiyotlar, matbuot yangiliklari, kinofilm, spektakl g'oyalari, turli suhbatlar mazmunini tushuntirish, targ'ib etib borish orqali o'quvchilar ongiga fuqarolik tushunchalari singdiriladi. Fuqarolik tuyg'usini bolalarda maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab hosil qilish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun "Respublika bayrog'ida nimalar aks ettirilgan?", "Respublika gerbida nimalar tasvirlangan?", "Himo qushi tasviri qanday ma'noni anglatadi?", "Sen Davlat madhiyasini bilasanmi?" kabi mavzularda suhbatlashish muhimdir.

O'quvchiga fuqaro sifatida o'z xulq-atvori mazmunini tahlil etish imkonini berish lozim. Ya'ni, "Bugun xalq farovonligi, Vatan taraqqiyoti

uchun nima qila oldim?”, “Zimmamdagi burchni qanday ado etdim?” tarzidagi savollarga javob topishga o‘rgatish kerak.

Yosh avlodga turli fanlar asoslarini chuqur o‘zlashtirish ularning tafakkuri va dunyoqarashini boyitishga, shuningdek, fuqaro sifatida o‘z majburiyatlarini to‘laqonli anglashlari uchun imkoniyat yaratishini tushuntirib borish maqsadga muvofiqdir. Fidoiylilik, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, qat’iyat, matonat, uyushqoqlik kabi xislatlar o‘quvchilarda fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda tarbiyalanadi.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish uchun ma’lum shart-sharoitlarning mavjudligi taqozo etiladi. Bular: o‘quv yurtida tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiya jarayoni yuksak darajada uyushtirilishi kerak; fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonining muvaffaqiyati o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasining saviyasiga bog‘liq; tarbiyaviy ishning rejali, uzluksiz, tizimli bo‘lishiga erishish; oila, maktab va mahalla o‘rtasida o‘zaro hamkorlikning yuzaga keiishi fuqarolik tarbiyasining muvaffaqiyatini ta’minlaydi; o‘quvchilarning axloqiy va huquqiy meyorlar, umumiy tartibga qat’iy rioya etishga o‘rgatish, zimmasidagi burchni to‘laqonli ado etishlariga e’tiborni qaratish.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda **suhat, munozara, ma’ruza, bahslardan foydalanish, mashq, test, anketa savollarga javoblar olish** kutilgan natijani qo‘lga kiritishga imkon beradi.

Fuqarolik tarbiyasida uning natijasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchining tarbiyalanganlik darajasi asos qilib olinadi. Fuqaro quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi lozim: fuqarolik burchini bajara olish (o‘z Vatani, xalqi, ota-onasi oldidagi majburiyatni his eta olish) qobiliyatiga egalik; milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘usiga ega bo‘lish; davlat Konstitutsiyasi, davlat hokimiyati organlari, mamlakat Prezidenti, davlat ramzlari (gerb, bayroq va madhiya)ga hurmatda bo‘lish; mamlakat taqdiri va istiqboli uchun javobgarlik, mas’ullik; ijtimoiy huquqiy va axloqiy meyorlarga hurmat va itoatda bo‘lish; mamlakat milliy boyluklarini asrash, ularni ko‘paytirish haqida qayg‘urish; davlat tili, milliy madaniyat va an’analarga sadoqat ko‘rsatish; ijtimoiy faollik; demokratik tamoyillarga amal qilish; tabiatga nisbatan ehtiyotkorona, mas’uliyatli munosabatda bo‘lish; fuqarolarning huquq va burchlarini hurmat qilish; huquqiy ong va fuqarolik madaniyatiga ega bo‘lish; o‘z faoliyati, xatti-harakatiga

mas'uliyatli bo'lish; baynalminallik, o'zga xalqlarga hurmat ko'rsatish va boshqalar.

O'quvchilarda vatanparvarlik va baynalminallik hissini shakllantirish – fuqarolik tarbiyasining asosi. Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida shaxsda vatanparvarlik (lotincha “patriots” – vatandosh, “patris” – vatan, yurt) tuyg'usini shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Zero, fuqaro davlatning a'zosi sifatida uning sha'ni, obro'-e'tiborini ta'minlashi, uning manfaatlari uchun kurasha olishi zarur.

“Vatan atamasi aslida arabcha so'z bo'lib, ona yurt ma'nosini bildiradi. Vatan tushunchasi keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Bir xalq vakillari jumuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng ma'nodagi tushunchadir. Kishi tug'ilib o'sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor ma'nodagi tushunchadir”.

Vatanparvarlik shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat. tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishu hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat sanaladi.

“Vatanparvarlik – o'z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan boqlagan barcha kishilarga xos fazilat. Millat taraqqiyotining imkoniyatlari, shon-shuhrati, obro'-e'tibori ham shu millat kishilar vatanparvarlik tuysusining darajasi bilan bog'liqdir”

Vatanparvar shaxs qiyofasida quyidagi sifatlar namoyon bo'ladi:

Vatanparvarlik sifatlari

Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, unga sadoqat: o'zi mansub bo'lgan millat o'timishi, urf-odatlari, an'analari va qadriyatlariga sodiqlik; Vatan va millat tarixidan g'ururlanish, yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish borasida g'amxo'rtlik qilish; Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo'lida mehnat qilish; Vatan ozodligi va millat erkiga qilinayotgan har qanday tahdidga qarshi kurashish. Vatan va millat obro'i, sha'ni, or-nomusini himoya qilish; Vatan ravnaqi va millat taraqqiyotiga nisbatan ishonchga ega bo'lishi.

Vatanparvar shaxs qiyofasida aks etuvchi sifatlar

Vatanparvar shaxs o'z vatanini uning boyliklari yoki vatanining qulay geografik hududda joylashganligi uchun emas, balki, o'zi Vatanning bir

bo'lagi ekanligi, o'zi mansub bo'lgan millatning shu Vatanda, shu makonda yashashi uchun qadrlay olishi, unga nisbatan chuqur hurmat ko'rsatishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida vatanparvarlik, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalariga keng o'rin berilgan. Xususan: "O'zbekiston fuqarosining vatanparvarligi bu qayta o'zgarish yo'lini ko'rsatuvchi, ko'zlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan yo'lchi yulduz, ishonchli kompasdir. O'zbekistonga, uning yeriga, tabiatiga, bu yerda yashayotgan xalqlarga muhabbat, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'analarini teran bilib olishga intilish, respublikaning qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg'urish ko'p millatli o'zbek jamiyatining muhim jiplashtiruvchi asosi hisoblanadi".

Erkka intilish, ozod yashashga bo'lgan ehtiyoj insonga xos bo'lgan tuyg'udir. Inson o'z vatanidagina ozod va erkin yashay oladi. Shu bois vatan ozodligi uchun kurashish masalasi qadim-qadimdan allomalarning asarlari hamda ezgu g'oyalarni ifoda etuvchi ta'limotlarning bosh mavzusi bo'lib kelgan. Hadisi Sharifda vatanni sevish iymondan ekanligi ta'kidlanadi.

Alisher Navoiy quyidagi misralarda vatandan ayrilish inson uchun og'ir judolik ekanligini "G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish" deb boshlanuvchi she'riy asarida alohida ta'kidlab o'tadi.

Allomaning fikrlarini rivojlantirgan holda vatandan judo bo'lish og'ir judolikkina emas, balki "yuzi qaroliq" ekanligini Zahiriddin Muhammad Bobur "o'z yorin qo'yib Hind sori yuzlanish" tufayli "yuzi qaroliq" bo'lganligini aytadi.

Abdulla Avloniy o'z asarlarida "Vatan" tushunchasiga ta'rif berib, uning ravnaqi uchun kurashish vatanparvar insonga xos xususiyat ekanligi quyidagicha qayd etadi: "Har bir kishining tug'ulub o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sg'on yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi – tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan – uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohatda yashamas. ...

Biz turkustonliklar vz vatanimizni jonimizdan ortiq suydig'imiz kabi. Arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho'llarini, eskumular shamol taraflarini, eng sovuq va muzlik yerlarini boshqa yerdlardan ziyod suyarlar.

Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab hijrat qilur edi”.

Inson o'zi tug'ilib o'sgan vatunda orzu-umidlari, niyatlari, hayotiy intilishlari bilan o'ziga yaqin bo'lgan kishilar davrasida bo'ladi, o'zi ko'nikkan turmush tarzi bo'yicha kun kechiradi, bolalikdan o'zi ko'nikkan ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etadi, hayotining bir qismiga aylangan tilda so'zlashadi va u shu muhitdagina o'zini erkin his qiladi. Begona yurtlarda u o'ziga tanish bo'lgan, o'zi ko'nikkan muhitni topa olmaydi. Shu bois garchi iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatga safar uyushtirgan bo'lsa-da, o'z yurtini tezda sog'inadi.

Baynalminallik (“inter” – orasida, o'rtasida, aro, “nation” – xalq) o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilatlardan biridir

O'quvchilar o'rtasida vatanparvarlik va baynalminallik tarbiyasi ularga oid mavzularda suhbat, davra suhbat, matbuot konferansiyasi, viktorina, uchrashuv, ko'rik-tanlov, bahs-munozaralar tashkil etish kabi shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish, vatanparvarlik va baynalminallik mavzularida yaratilgan asarlar mazmunini birgalikda o'rganish, kinofilmlar tomosha qilish ham o'zining ijobiy natijasini beradi.

O'quvchilarda baynalminallik tuyg'usini shakllantirishda ta'lim muassasalari qoshida faoliyat yurituvchi “Do'stlik klubi”ning ta'siri kattadir. Binobarin, turli millatlarga mansub bolalar o'rtasida do'stlik aloqalarining bog'lanishi ularda bir-birlariga nisbatan hurmatni qaror toptiribgina qolmay, o'zga millat yoki elatlarning urf-odatlari, an'analari, tili, madaniyati va qadriyatlarini puxta o'rganishga ko'maklashadi. Bu boradagi bilimlar esa ularda shovinistik (millatchilik) kayfiyatining shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, o'quvchilarni Respublika Baynalminal markazi yoki joylardagi Milliy-madaniy Markazlarning faoliyati bilan yaqindan tanishtirish, ayni vaqtda respublika hududida turli millat va elat vakillarini birlashtiruvchi 138 ta Milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritayotgani to'g'risida ma'lumotlar berib, ular tomonidan uyushtirilayotgan tadbirlarga o'quvchilarni faol jalb etish ham ijobiy natijalarni beradi.

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining ham ahamiyati beqiyosdir. Respublika "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati rahbarligida harbiy vatanparvarlik g'oyasini targ'ib etuvchi "Vatanparvar" o'yinlari, musobaqalarining o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarni ijtimoiy-g'oyaviy, ma'naviy-axloqiy, psixologik-irodaviy, jismoniy hamda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etish ular tomonidan Vatanni himoya qilish dek muqaddas burchni anglashlariga yordam beradi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo'lib, mazkur jarayonda quyidagi vazifalar amaiga oshiriladi:

Asosiy vazifalar

O'quvchilarga fuqaro mudofaasi, harbiy bilim asoslarini bo'yicha boshlang'ich bilimlarni berish, amaliy ko'nikmalarni hosil qilish; ularni milliy mustaqillik, O'zRning davlat qurilishi va konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi uyushtiriluvchi tahdidlarning oldini olishga tayyorlash, o'quvchilarda g'oyaviy onglilik, terrorizmi va diniy ekstremistik g'oyalarga qarshi nafrat tuyg'usini tarbiyalash; o'quvchilarning Vatan himoyasini ta'minlashga oid harbiy-texnik tayyorgarlikka ega bo'lishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish, o'quvchilarda favqulotda vaziyatlarda tegishli chora-tadbirlarni ko'ra olish, qurotli hurujlardan himoyalaniish ko'nikma va malakalarini shakllantirish; ularda hushyorlikni oshirish va

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining asosiy vazifalari

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishda ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan boshlang'ich harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar o'rtasida BHT (boshlang'ich harbiy ta'lim o'quv fani) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni namoyish etish imkonini beruvchi musobaqaning tashkil etilishi bu borada ijobiy natija bera oladi. O'qituvchi rahbarligida "Shon-shuhrat" muzeylariga

uyushtiriluvchi ekskursiyalar ham o'quvchilarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Huquqiy tarbiya mazmuni. Huquqiy tarbiya o'quvchilar o'rtasida fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda o'ziga xos o'rin tutadi. 1993 yil mart oyida e'lon qilingan "Sinfдан va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi"da qayd etilganidek: "Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari Konstitutsiyani, davlat haqidagi ta'limotni, chunonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirishdan, bolalarni davlat qonunlarini yuksak darajada hurmat qilish, ularga so'zsiz rioya etish, adliyaviy bilimlarni egallashga ehtiyoj sezish, tartib va intizomni buzuvchilarga nisbatan murosasizlik ruhida tarbiyalash, xalqaro huquqning ahamiyatga molik masalalari, xalqaro tashkilotlar (BMT, Xavfsizlik Kengashi va hokazo) faoliyati haqida o'quvchilarning umumiy tasavvurlarini shakllantirishdan iboratdir".

1997 yil 29 avgustda qabul qilingan O'zRning "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi" jamiyat va shaxs huquqiy madaniyatini rivojlantirishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Huquqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish garovi hisoblanadi.

Huquqiy ta'lim o'quvchilarga huquqiy meyorlar, qonunlar va ijtimoiy-huquqiy munosabatlar to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni bo'lib, u izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etiladi

Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi

Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish huquqiy ta'lim va tarbiya jarayoniga muhim bosqichidir.

Huquqiy tarbiyani tashkil etishda quyidagi **vazifalar** hal etiladi:

Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish quyidagi shartlar asosida

amalgam oshiriladi: keng ko'lamli ijtimoiy – huquqiy axborotli muhitning mavjudligi; shaxs huquqiy ongini shakllantirish; shaxs huquqiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

Asosiy vazifalar

O'quvchilarga huquqiy meyorlar, qonunlar, ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, ularning ijtimoiy ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish; ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyoj va huquqiy ongni qaror toptirishga erishish; o'quvchilarda huquqiy faoliyat ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularda huquqiy madaniyat ko'rinishlari (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy mas'ullik, huquqiy faollik, huquqiy e'tiqod va huquqiy salohiyat) va huquqiy madaniyat elementlari (huquqiy meyor, qonunlarning ijtimoiy ahamiyatini to'g'ri baholash, ijtimoiy harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarliklarga qarshi murosasiz kurashni tashkil etishni shakllantirish

Huquqiy tarbiyaning asosiy vazifalari

Huquqiy madaniyat shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

O'quvchilardagi qiziqishni inobatga olgan holda huquqiy mavzularda ma'ruza va seminarlar tashkil etish, mustaqil ravishda huquqiy bilimlarni o'zlashtirish maqsadida ularni huquqiy adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish, jinoiy xatti-harakatlar va ularning oqibatlarini xususida davra suhbatini, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari bilan uchrashuv va konferensiyalar o'tkazish, shuningdek, huquqiy mavzudagi kinofilmlar namoyish etish muhimdir.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish davrida o'quvchilar faoliyati mazmunini tahlil etish, ularda o'z faoliyatlariga nisbatan tanqidiy yondoshuvni qaror toptirish, shuningdek, o'z faoliyatlarini real baholashga o'rgatib borish talab etiladi.

O'quvchilar "O'zbekiston davlat va huquqiy asoslari", "Konstitutsiyaviy huquq" o'quv predmetlari asoslarini o'rganish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari tizimi, vakillik hokimiyati organlari, O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti, Respublika Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va davlat qo'mitalari, mahalliy boshqaruv organlari, fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi kabi organlar faoliyatini o'rganish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosati mohiyatini o'zlashtirish, xalqaro huquqiy munosabatlarni yo'lga qo'yilishi tartibi bilan tanishib borar ekanlar, ayni vaqtda ularda nafaqat huquqiy ong balki siyosiy ong ham shakllanadi. Zero, jamiyat tizimi, uning amal qilishi uchun asos bo'lgan g'oya va qarashlar o'z navbatida huquqiy g'oya va qarashlarning vujudga kelishini ta'minlaydi.

Estetik tarbiyaning mazmuni. Estetik tarbiya "badiiy tarbiya" sifatida ham qo'llaniladi. Estetik tarbiya keng ma'noga ega bo'lib, faqat san'at vositasidagina emas, balki, hayot, mehnat, ijtimoiy munosabatlar, tabiat vositasida go'zallikni his qilishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni o'z ichiga oladi. Badiiy tarbiya esa san'at (adabiyot, musiqa, qo'shiq, tasviriy va san'atning boshqa yo'nalishlari) vositasida shaxsda estetik his-tuyg'ularni shakllantirishni nazarda tutadi.

Estetik tarbiya (lotincha "estezio" "go'zallikni his qilaman") o'quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, go'zallikka muhabbat uyg'otish, ularning badiiy didini o'stirish, go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon

Estetik tarbiya **vazifalari** quyidagilardan iboratdir:

Asosiy vazifalar

1. O'quvchilarga estetik bilimlarni berish
2. Ularda estetik tushunchalarni hosil qilish
3. O'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik ong, estetik did va estetik madaniyatni shakllantirish

Estetik tarbiyaning asosiy vazifalari

Kishilar go'zallikni idrok qilish qobiliyatiga ega bo'lganliklari uchun hayajonlanish, qo'yg'urish, darg'azab bo'lish, quvonish, zavqlanish kabi his-tuyg'ularni boshdan kechiradilar. Bundan tashqari kishi yuksak badiiy

mahorat bilan yaratilgan obrazni yoki tabiat, hayotdagi go'zal hodisani idrok qilganidan zavq-shavqqa to'ladi.

Nafosat haqidagi tushunchalarni o'zlashtirib olish, ajaoyib san'at asarini sayoz, past saviyada yozilgan asardan farqlash, o'z fikr-mulohazalarini to'g'ri ekanligini qattiq turib, himoya qilishga yordam beradi.

Estetik did o'z tabiatiga ko'ra shaxsga xos bo'lgan psixologik hodisadir. Ammo shaxs ijtimoiy munosabatlarning faol ishtirokchisi bo'lganligi uchun u go'zallikni baholash mezonlarini puxta o'zlashtira oladi. Estetik did shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, obyektiv nafosat o'lchovi bo'lib, go'zallik, xunuklik va tubanlikka baho berishda subyektiv yondashuvni ifodalaydi. Did sanaladi. Xullas, maktab o'quvchilari o'rtasida nafosat tarbiyasini tashkil etishda samarali shakl, metod va vositalardan oqilona foydalanish ijobiy natijalar beradi.

Estetik tarbiya shaxsda go'zallikni his qilish tuyg'usini shakllanishiga yordam beradi. Inson doimo o'z hayotini go'zallik asosida qurishga intiladi. Estetik tarbiya axloqiy, aqliy, huquqiy, ekologik, jismoniy va mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Tabiat, adabiyot, teatr, musiqa, she'riyat, tasviriy san'at va boshqalarga bo'lgan muhabbat shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Estetik tarbiya axloqiy tarbiyani samarali tashkil etishda katta ahamiyatga ega. Estetikadan rohatlanishda faqat san'at asarlarigina emas, balki ezgu ishlar, jamoaga hurmat, sadoqat, vijdonan mehnat qilish muhim o'rin tutadi.

Estetik bilimlar tanlovi, viktorina, bayram, ko'rgazma va hokazolarni tashkil etish asosida hosil qilinadi. O'quvchilar o'z qobiliyatlarini turli xil badiiy-ijodiy faoliyatlarda namoyon etadilar.

Estetik tarbiya shaxsning estetik ongi, munosabatlari hamda nafosat faoliyatining vujudga kelishi va takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, bu jarayon yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli bosqich hamda darajalarga ega. Estetik tarbiyasi shaxsning estetik madaniyatini egallashiga yo'naltirilgan bo'lib, turli shakl va metodlar yordamida amalga oshiriladi.

Jamiyat va ayrim shaxsning estetik madaniyati tushunchalari mavjud. Jamiyatning estetik madaniyati deganda insoniyat butun rivojlanish tarixi jarayonida to'plangan moddiy va ma'naviy qadriyatlarini mazmuni tushuniladi. O'quvchi shaxsning estetik madaniyati uning jamiyat madaniy merosini faol, ijodiy o'zlashtirishi natijasida hosil bo'ladi. Shaxsning

go'zallik bilan o'zaro munosabati, shuningdek, shaxsning ayrim sifatlarini o'zaro ta'siri natijasida estetik madaniyati doimo o'zgarib turadi.

Estetik tarbiya vositalari. Nafosat tarbiyasining vositalari o'quvchilarning go'zallikni sevish ruhida tarbiyalash maqsadida tevarak-atrofdan tanlab olingan turmush, tabiat, san'at go'zalligi va bolalarning badiiy faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda qo'llaniluvchi omillar sanaladi.

Estetik vositalar xilma xildir. Tabiat mehnat, insoniy munosabatlar, san'at estetik tarbiya vositasidir. Tabiat estetik tarbiyaning muhim manbaidir. K.D.Ushinskiy tabiatni yosh avlod estetik tuyg'ularining rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan ajoyib tarbiyachidir, degan edi. Sayohat, sayr, yurish, tabiatga bag'ishlangan san'at asarlarini o'rganish mazkur yo'nalishdagi an'anaviy ishdir. Biroq tabiat ichida bo'lishning o'zi yetarli emas. Tabiatdagi go'zallikni ko'ra bilish, his etish lozim. Bunday qobiliyat asta-sekin rivojlanib boradi. Sayr, ekskursiya handa maktab uchastkasida ishlash paytida tarbiyachilar e'tiborini tabiat boyliklariga, uning shaklidagi mukammalliklarga qaratishi, bolalarga nafosat, tabiatni sevish ehtiyojigina bo'lmay, shuningdek, uni ehtiyotlashdan ham iboratligini tushuntirib borishi lozim.

Oila go'zallikning birinchi maktabidir. Oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, uy-jihozlari, ularning yagona birligi, uyg'unligi, tartibli joylashtirilishi, saranjom-sarishtalik, maktabning bezatilishi, maktabdagi yodgorlik va a'lochilar burchagi kabilarning barchasi bevosita bolalarda go'zallikni tarbiyalashda katta ta'sir ko'rsatadi.

Turmush go'zalligining asosini tozalik va tartibli tashkil etadi. Sinfxonalarida tozalik saqlanishi, tabiat burchagining tashkil etilishi, o'quvchilar ijodiy ishlari ko'rgazmasi, a'lochilar taxtasi tizimining yangilatib turish ham muhim ahamiyatga ega.

Badiiy adabiyot nafosat tarbiyasida cheksiz imkoniyatlarga ega. U o'quvchilarga hayotni chuqurroq anglashni o'rgatadi. O'quvchilarga o'zbek va chet el adabiyoti haqida ko'proq ma'lumot beriladi. O'quvchilar she'rlar, hikoyalar, xalq og'zaki ijodi namunalari – maqol, matal, ertak, doston, qo'shiq, qissa va romanlarni qanchalik ko'p o'qisa ularda go'zallikka bo'lgan intilish shunchalik kuchli bo'ladi. Shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodiy faoliyati, asarlari bilan tanishish tahlil qilish o'quvchilarning bilim


doirasini kengaytiradi, his-tuyg'ulari va til boyligini takomillashtiradi.

Adabiyot darslari o'quvchilarda go'zallikni idrok etishni ta'minlaydi. O'quvchilar nasriy asarlar, she'rlardan parchalar yod oladilar, buning natijasida o'quvchilarning badiiy nutq madaniyati ham shakllanadi. O'quvchilarni mumtoz adabiyotimiz vakillari – Alisher Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Muqimiy, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek, Abdulla Qahhor, G'ofur G'ulom, Zulfiya, Maqsud Shayxzoda, zamondosh adiblar – Primqul Qodirov, Odil Yoqubov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon, Mahmud Toir asarlari, shuningdek, jahon adabiyotining noyob namunalari bilan tanishishlari ularning har tomonlama yetuk bo'lib o'sishlariga yordam beradi. Bundan tashqari o'quvchilar bastakor – Yunus Rajabiy, Muhammadjon Mirzayev, Doni Zokirov, Dilorom Omonullayeva, rassomlar – Kamoliddin Behzod, O'rol Tansiqboyev, Rahim Ahmedov, Chingiz Axmarov, Malik Nabiyev, Ortiqali Qozoqovlar tomonidan san'at asarlari bilan tanishib borsalar ularning nafasat ongi yanada boyiydi. Olam va inson go'zalligi, mardlik, jasorat, yuksak insoniy g'oyalarni o'zida aks ettirgan san'at asarlari insonlarni go'zallikni his qilish, ularga intilib yashashga undab kelgan. G'oyaviy saviyasiz asarlar o'quvchilar ongini sayozlashtiradi, ularni chinakam go'zallikdan chalg'itadi, go'zallikni sevishtirishga bo'lgan intilishlarini susaytiradi. didini pastaytiradi. O'quvchilarning go'zallik bilan bevosita muloqotda bo'lishlari ularga ko'proq hissiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham o'qituvchi, tarbiyachilar tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonida o'quvchilarni badiiy jihatdan yuksak bo'lgan asarlar va tabiat manzaralari bilan tanishtirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik va me'moriy asarlar namunalari bilan o'quvchilarni tanishtirish ularda simmetriya, mutanosiblik, chiziq, rang va kolorit uyg'unligini idrok etish tuyg'ulariga ega bo'lishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. O'quvchilar e'tiboriga ezgu g'oyalarni tarannum etuvchi musiqiy asarlarning havola etilishi, ulardan olinayotgan taassurotlar bilan o'rtoqlashish ularda musiqiy ohang, ritya, tovushlarning ifodaviyligi va sur'atini his etish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Adabiy asarlar esa o'quvchilarning nutq boyligini oshirish, fikrlash qobiliyatini o'stirish, shaxsiy qarashlarini erkin bayon etishga imkon beradi.

O'quvchilarda estetik didni shakllantirish. Estetik ong ijtimoiy voqelik, tabiat, san'at bilan bevosita muloqot jarayonida o'quvchilarni turli nazariya, qarashlar mohiyati bilan tanishtirish, ular o'rtasida nafosat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish hisobiga shakllantiriladi.

Estetik ong go'zallik, go'zallikni his etish, uning mohiyatini anglash, nafosat his-tuyg'usi, nafosat didi kabi tushunchalarning ongda aks etishi

Estetik ong o'ziga xos murakkab tuzilishiga ega. Ya'ni:



Estetik ongning tarkibiy qismlari

Estetik ong asosini estetik idrok tashkil etadi.

Estetik idrok ijtimoiy voqelik, buyum va hodisalarning go'zalligini ongda yaxlit aks etishi bo'lib, u go'zallik his etilganda yuzaga keladi va aniq maqsadga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi

Estetik ong go'zallikni qadrlash va uni boyitish yo'lidagi amaliy harakatni keng ko'lamda tashkil etish asosida takomillashib boradi. Estetik onglilikning yuqori darajasi estetik madaniyat sanaladi.

Estetik madaniyat go'zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go'zalliklarni asrash va boyitish yo'lida o'zlashtirilgan bilim hamda amaiga oshiriladigan estetik faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Jismoniy tarbiya mazmuni. Yoshlarni sog'lom bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash masalasi xalq pedagogikasi. og'zaki ijodi hamda mutafakkirlar asarlarining bosh g'oyalardan biri bo'lib kelgan.

Jismoniy tarbiya o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat va Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiya tuzimining muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi

Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyani tashkil etishda muayyan vazifalar hal qilinadi. Ya'ni:

Vazifalar

1. Inson a'zolarining funksional kamoloti (ichki a'zolar, asab va harakat, suyak-muskul tizimi, tana uyg'unligi va ularning funksional faoliyatini boshqarish layoqati)ga ega bo'lishni ta'minlash
2. O'quvchilarning sog'ligini mustahkamlash.
3. Ularni gigiyena qoidalariga amal qilishga ko'niktirish
4. O'quvchilar mohirligini har tomonlama o'stirish.
5. O'quvchilarning jinsiy jihatdan to'g'ri kamolga yetishlari uchun sharoit yaratish
6. O'quvchilarda mustahkam iroda, qat'iy xarakter, intizonga so'zsiz amal qilish ko'nikmalarini shakllantirish

Jismoniy tarbiya vazifalari

“Alpomish” dostonida Hakimbek (Alpomish)ning jismoniy mashq qilishi, tabiat qo'ynida voyaga yetganligi, uning alpligi quyidagicha tasvirlanadi: “Alpinboyning bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birinchdan bo'lgan parli yoyi bor edi. Shunda yetti yashar bola Hakimbek shul o'n to'rt botmon yoyini qo'lga ushlab ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi. Yoyning o'qi yashinday bo'lib ketdi. Asqar tog'ining katta cho'qqilarini yulib ketdi, ovozasini olamga yoyildi. Shunda barcha xaloyiq yig'ilib kelib aytdi: “Dunyoda bir kam to'qson alp o'tdi, alplarning boshlig'i Rustami doston, oxiri bu Alpomish alp bo'lsin”.

Abu Ali ibn Sino ham insonga xos bo'lgan ijobiy fazilatlaridan sanab o'tar ekan, quyidagilarga alohida urg'u beradi: 1. Jasurlik – biror ishni bajarishda kishining jasurligi, chidamliligi, inson boshiga tushgan yomonlikni to'xtatib turuvchi quvvat. 2. Aqllilik – biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik qilishdan saqlovchi quvvat. 3. Ziyraklik – sezgi bergan narsalarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushuntirishga yordam beruvchi quvvat.

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida Farhodning jismoniy qobiliyatlarini alohida ko'rsatib o'tadi. Dostonda ta'riflanishicha, Farhod aqliy kamolotga erishish bilangina cheklanib qolmay, jismoniy va harbiy

mashqlar yordamida chiniqadi. Suvda suzish, chavandozlik, qilichbozlik va boshqalar uning kundalik mashg'ulotiga aylangan. Mutafakkirning fikriga ko'ra, Farhod 10 nafar 20 yoshli yigitning quvvatiga ega bo'lgan.

Abdulla Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq va ilm-ma'rifatga ega bo'lmoq uchun badantarbiya bilan shug'ullanishi zarur: "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunku o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz vujud lozim. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarida, ishlarida kamchilikka yo'l qo'yurlar. ... Badan tarbiyasini fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila tersi kavidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo'yib asatrini yuvib ovora bo'lmak kavidirki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mehnat va sog'lom bir vujud kerakdur".

Jismoniy tarbiya kishilarga kuchli ta'sir ko'rsatib, salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko'rishga yordam beradi. Sport har qanday yoshda ham qaddi-qomatni tarbiya qilish kuch-quvvatini saqlab turishning ajoyib vositasidir. Sport dam olish bilan mehnatni almashtirib turish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida sport, shu jumladan, bolalar sportini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, yoshlarni jismoniy tarbiyalashning kopleks dasturi ishlab chiqildi. "Sog'lom avlod dasturi" yoshlarning salomatligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur dastur talablariga muvofiq respublika miqyosida quyidagi uch bosqichli sport musobaqalarining o'tkazilishi yo'lga qo'yildi:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilar o'rtasidagi "Umid nihollari" bellashuvi.

2. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari o'rtasidagi "**Barkamol avlod**" bellashuvi.

3. Oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar o'rtasidagi "**Universiada**" bellashuvi.

Shuningdek, sportning turli yo'nalishlari bo'yicha joylarda ommaviy sport bayramlari, musobaqalarning tashkil etilishi ommaviy tus oldi.

Yangi turdagi o'quv muassasalarda ham o'quvchilar o'rtasida jismoniy tarbiyani samarali tashkil etilishiga e'tibor qaratilmoqda. Jismoniy tarbiya mazmuni o'quvchilarning harbiy chaqiriqqacha tayyorgarligiga erishish bilan uzviy bog'liqdir.

Bugungi kunda yoshlar o'rtasida sportning futbol, shaxmat, suvda suzish, tennis, boks, karate, ushu va takvando kabi turlari tobora ommalashib bormoqda. Respublikada sportning ommalashuvi turli yo'nalishlarda xalqaro maydonlarda mamlakat sharafini himoya qiluvchi sportchilar sonining o'sishiga imkon berdi. Bugungi kunda sportchilarimiz orasida olimpiada chempionlari yetishib chiqmoqda. O'quvchilarga olimpiada sovrindorlari hamda xalqaro musobaqalarning g'oliblari bo'lgan M.Abdullayev, L.Cheryazova, A.Grigoryan, R.Chagayev, B.Sultonov, O.Haydarov, A.Doktorashvili, A.Taymazovlar haqida hikoya qilib berish, ularning ishlarini davom ettirishga rag'batlantirish samarali natijalarni beradi.

O'quvchilarning jismoniy madaniyatga ega bo'lishlari jismoniy tarbiya samaradorligini belgilovchi muhim omil sanaladi. Shuningdek, jismoniy madaniyat inson va jamiyat umumiy madaniyatining ham ajralmas qismidir.

Jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarni gigiyena qoidalari bilan tanishtirish, ularga so'zsiz amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlariga erishish muhimdir. Buyuk pedagog Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida bu borada quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Nazofat (gigiyena) deb a'zolarimizni, kiyimlarimizni, asboblarimizni pok va toza tutmoqni aytilur. Poklik zehn va idrokingni keng va o'tkir qilur. Xalq orasida e'tibor va shuhratga sabab bo'lur. Poklik ila har xil kasalliklardan qutulib, jonimizning qadrin bilan bo'lurmiz. Pok bo'lmak salomatimiz, saodatimiz uchun eng kerakli narsadur. Yirtiq eski kiyimlar kiymoq ayb emas, yangi kiyimlarni kir qilib, yog'ini chiqarib yurmak zo'r ayb va gunohdur. ... Ifloslik balosidan poklik davosi ila qutulmoq kerak". Demak, inson jismonan baquvvat va aqlan ziyrak bo'lishni istasa, u birinchi navbatda poklikka katta ahamiyat berishi lozim. Ayni paytda poklik tarbiyasi ustuvor bo'lgan insonlarda kishiga yaxshi yashash uchun zarur bo'lgan barcha fazilatlarda tarkib topadi hamda axloqqa zid bo'lgan nuqsonlar yo'qoladi.

Jismoniy tarbiya bolalarga faqat oilada yoki ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etish jarayonidagina emas, balki sinfdan hamda maktabdan tashqari o'tkaziladigan mashg'ulotlar, turli musobaqalar, tadbirlar chog'ida

ham samarali tashkil etib borilishi maqsadga muvofiq. “Sogʻlom tanda – sogʻ aql” degan maqolda jismoniy tarbiyaga oid maʼno loʻnda qilib ifoda etilgan. Jismoniy tarbiyani bugungi kun talablariga muvofiq yuqori darajaga koʻtarish oʻquvchilar oʻrtasida salbiy holatlar – kashandalik va ichkilikbozlikning keng tarqalishi oldini oladi.

3. **Tarbiya turlarini shakllantirish metodlari va vositalari. Maʼnaviy-axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlari, shakl va metodlari.** Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq” asarida axloq “insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur”, - deydi. Aynan axloq, uning ijtimoiy ahamiyati haqida maʼlumot beruvchi mazkur manbada alloma yaxshi va yomon xulqlarga toʻxtalib oʻtadi. Allomaning nuqati nazaricha, yaxshi xulqlar quyidagilardan iborat: fatonat (aql), diyonat (eʼtiqod), nazofat (poklik va tozalik), gʻayrat, riyozat (savob ishlar), qanoat, shifoat, ilm, sabr, hilm (yumshoq tabiat) intizom, nafs meyori, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison (til va adabiyot), iqtisod, viqor (gʻurur), muhabbat, avf (kechirimli boʻlish). Bu xislatlar maʼnaviy-axloqlilikning asosiy sifatlari sanaladi. Ular asosida Vatanga muhabbat va sadoqat, mehnatga axloqiy munosabat, oʻz atrofdagilarga axloqiy yondashuv, shuningdek, har bir oʻquvchining oʻzi va shaxsiy xulq-atvoriga munosabatni qaror toptiriladi.

Abdulla Avlniy yomon xulqlar sirasiga quyidagilarni kiritadi: gʻazab, aysh-ishrat, jaholat, safohat (umri va molini bekorchi narsalarga sarf etish), hamoqat (oʻz bilamonlik, manmanlik), adolat (dangasa, yalqov), hasosat (taʼma, hirs), rahovat (gʻayratsizlik), anoniiyat (xudbin, mutakabbir, manman), adovat (kek saqlash), namimat (chaqimchilik), gʻiybat, haqorat, jibonat (qoʻrqqoqlik), hasad, kizb (yolgʻon), nifoq, taʼma, zulm va boshqalar.

Oʻquvchilarda ijobiy sifatlarni tarbiyalash ularning salbiy xislatlardan holi boʻlishlariga yordam beradi. Bu esa dastlab oʻquvchilarga xulq-odob meyorlari va qoidalarini anglash va shaxs ongini shakllantirishga doir metodlar asosida amalga oshiriladi.

Bunga badiiy va ilmiy-ommaviy adabiyotlarni oʻqish, kinofilm va spektakllarni tomasha qilish, maxsus tashkil etilgan maʼnaviy-maʼrifat kunlarida turli mavzularda suhbatlar tashkil etish natijasida axloqiy tushunchalar va xulq-odatlar paydo boʻla boshlaydi. Oʻquvchilar oʻzlari va boshqalarning xatti-harakatlarini baholay boshlaydilar. Buning uchun turli

ma'naviy-axloqiy mavzularda o'tkaziladigan suhbat va munozaralarda o'quvchini fikr yuritish, o'ylashga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, "O'rtog'imiz Kamol qanday qilib giyohvandlar orasiga tushib qoldi?", "Siz erkinlik deganda nimani tushunasiz?", "Zamonaviylik – bu nima?" kabi mavzulardagi suhbat, bahs va munozaralar o'quvchilarni o'ylash, fikr yuritishga yo'llaydi, ularda salbiy xislatlardan saqlanish, yaxshi odatlarni o'rganishga bo'lgan intilish va qiziqishlari tarkib topa boshlaydi. Ularning, ayniqsa, o'z xatti-harakatlarini baholashga bo'lgan intilishlari va ishonch, e'tiqodlari shakllanadi.

Debat, munozara va suhbatlar ma'naviy-axloqiy tarbiyaning eng dolzarb muammolariga bag'ishlanishi zarur.

Hozirgi davrda yoshlar o'rtasida tobora ommaviylashib borayotgan "Zakovat", "Intellektual ring", "Qizlar davrasi", "O'yla, izla, top!" kabi o'yinlar ham mazmun, ham mohiyati, ham metodik jihatdan o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'quvchi faoliyatini tashkil etish va xulq-odobni shakllantirish metodlaridan mashqlantirish, o'rgatish, pedagogik talab qo'yish jamoa fikrini hisobga olish, topshiriqlar berish, tarbiyaviy vaziyatlar hosil qilish va boshqa metodlardan foydalanish samarali natijalar beradi.

Rag'batlantirish metodlariga mukofotlash va ma'qullash kiritiladi.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda samarali shakl, metod va vositalardan foydalanish boy milliy madaniy, tarixiy va pedagogik an'analar, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmuni va metodlarini aytib bering.
2. Ilmiy dunyoqarash tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
3. Sharq mutafakkirlarining shaxs dunyoqarashini shakllantirish borasida qarashlardan namunalarni keltiring.
4. Aqliy tarbiya mohiyati nimalardan iborat?
5. Iqtisodiy tarbiya o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishda qanday o'rin tutadi?
6. O'quvchi dunyoqarashining shakllanishiga ekologik tarbiya qanday ta'sir ko'ratadi?
7. Fuqarolik tushunchasining mazmunini sharhlang.
8. Estetik tarbiyaning vazifalari nimalardan iborat?
9. Jismoniy tarbiya qanday vazifalarni hal qilishga yordam beradi?

9-MAVZU: O'QUVCHILAR JAMOASI – PEDAGOGIK ASOSIY SHAKLI, OILA TARBIYASI

Reja:

1. Mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish ta'lim va kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy maqsadi.
2. "Jamo" tushunchasining mohiyati.
3. O'quvchilar jamoasining shakllanish bosqichlari.
4. Oilaning tarbiyaviy vazifalari, Oila, jamiyat, maktab va jamoatchilik hamkorligi

Tayanch iboralar:

Jamo, o'quvchilar jamoasi, Jamoa belgilari, mustaqil fikrlovchi erkin shaxs, o'quvchilar jamoasining shakllanish bosqichlari, sinf raxbarning vazifalari.

1. Mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish ta'lim va kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy maqsadi. Ijtimoiy munosabatlar ko'lamining kengayishi o'sib kelayotgan avlodni o'ta murakkab xususiyatga ega munosabatlar jarayoniga har tomonlama yetuk etib tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Psixologik, intellektual va fiziologik jihatdan yetuk inson hayotiy qarama-qarshilik, xususan, turli buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolish, nosog'lom turmush kechirish va noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etishdan o'zini saqlab qola oladi. Shuningdek, shaxsning aqliy salohiyatga egaligi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omildir. O'zRda demokratik va huquqiy jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda yosh avlodning mustaqil va erkin fikrlay olishi ro'y berayotgan voqeahodisalarga shaxsiy munosabtni bildirishga imkon beradi. Ijtimoiy borliqda kechayotgan o'zgarishlarga nisbatan shaxsiy nuqtai nazarining shakllanishi shaxs faolligini ko'rsatuvchi muhim jihatlardan biridir. Qolaversa, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxs o'z imkoniyatlari, qobiliyatini erkin namoyon eta oladi. Muvaffaqiyatli ravishda olib borilayotgan ta'limiy islohotlarning ham asosiy maqsadi erkin, mustaqil fikriga ega barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu xususida O'zR birinchi Prezidenti, I.A.Karimov quyidagilarni e'tirof etadi: "Amalga

oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, o'z qobiliyatini, o'z talantini ishga solib hayotini yanada yaxshilashi, ma'nan boyitishi uchun barcha imkoniyatni yaratib berishdan iboratdir”).

Komil insonni shakllanirish masalasi barcha davrda ham muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Xususan, zardushtiylik dinida komillikning asosi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal (harakat)dan iborat ekanligi ta'kidlansa, islom ta'limoti g'oyalariga ko'ra yetuklikning bosh mezonini – ilmlilik, bilimli bo'lishdir.

Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham komil inson qiyofasining yoritilishiga alohida ahamiyat berilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy **komil insonni shakllantirish va fozil jamoa (yetuk jamiyat)ni shakllantirish tarbiyaning bir butun, yaxlit ikki yo'nalishi** ekanligiga urg'u beradi. Allomaning fikricha, fozil jamiyat komil inson sa'yi-harakati bilan barpo etilishi mumkin. Shu bois mamlakatni boshqaruvchi shaxs o'zida eng oliy insoniy fazilatlarini mujassam eta olishi zarur, deb hisoblaydi. “Aql to'g'risida” nomli risolasida Abu Nasr Forobiy rahbar shaxs qiyofasida namoyon bo'lishi lozim bo'lgan o'n ikki fazilatni keltirib o'tadi. Mazkur fazilatlar har bir zamonaviy shaxsda o'z aksini topa olishi kerak, zero, ular inson hayotini mo'tadil kechishi hamda muayyan kasbiy faoliyatlarni tashkil etishda muvaffaqiyatlarga erishishni kafolatlaydi.

Abu Rayhon Beruniy ham komillikning asosini ilmi bo'lishda deb hisoblaydi va barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikdir, deya urg'u beradi. Allomaning fikricha, axloqiylik, to'g'rilik, odillik, tadbirkorlik, o'zini vazmin tutish, kamtarlik, insof, ehtiyotkorlik, shuningdek, aadolatli va vijdonli bo'lish komil inson qiyofasida aks etishi zarur bo'lgan eng asosiy sifatlardir.

Abu Ali ibn Sino ham kamolotga erishishning birinchi mezon sifatida **bilimli bo'lishni** alohida qayd etadi. Bilimli insonning adolatli bo'lishi esa uning yanada yuksalishini ta'minlaydi, deya baholab alloma, adolatni ruhiy lazzat (ruhiy xotirjamlik)ning muhim ko'rsatkichi ekanligini uqtiradi.

Alisher Navoiy asarlarida komil inson muanammosi markaziy o'rinni egallaydi va o'z orzusidagi komil inson shaxsini asarlarining qahramonlari timsolida gavdalanirishga urinadi. Alloma qarashlarida komil inson quyidagi sifatlarga ega bo'lishi borasidagi g'oya ilgari suriladi: aqlli, axloqli,

bilimli, ijodkor, qobiliyatli, dono, kamtar, insonparvar, saxovatli, sabr-qanoatli, adolatli, muruvvatli, sog'lom, jismonan baquvvat, mard va jasur.

Abdulla Avloniy komil insonni tarbiyalash borasidagi qarashlari bilan Sharq mutafakkirlarining fikrlarini boyitar ekan, komil inson qiyofasida, yana shuningdek, **vatanparvarlik va intizomlilik** sifatleri ham namoyon bo'lishi kerak, deb hisoblaydi.

2. Jamoa tushunchasi mohiyati. Zamonaviy talqinda «jamo» tushunchasi ikki xil ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, jamoa deganda bir necha kishilarning muayyan maqsad yo'lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o'quv yurti jamoasi, xo'jalik jamosi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, o'quvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi.

Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o'ynashi to'g'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanshini ta'minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo'lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning yetarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi.

O'quvchilar jamoasi o'ziga xoslik kasb etuvchi muhim belgilarga egadir. Quyida jamoa va uning xususiyatlari (belgilari) borasida so'z yuritamiz.

Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha meyorlari o'z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo'lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida o'zaro birlik, uzviylik, aloqadorlik yuzaga keladi.

Shu bois jamoa hayotining aniq (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-g'oyaviy xususiyat kasb etishi uning yetakchi belgisi sanaladi.


Har bir **jamoa boshqa jamoalar bilan uzviy aloqadorlikda mavjud** бўлади. Muayyan jamoaning har bir a'zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o'z jaomasi bilan birgalikda ishtirok etadi. Jamoa

a'zolarini intilishlarini tushunish, jamoa oldiga qo'yilgan maqsad mohiyatini chuqur his etish hamda uning shaxsni shakllantirishdagi o'rni va rolini to'g'ri baholay olish jamoa a'zolarining umumiy va xususiy (shaxsiy) maqsad, qiziqishi, ehtiyoj va faoliyatlari o'rtasidagi birlikni namoyon etadi hamda jamoaning bo'linishga yo'l qo'ymaydi.

Har bir jamoa o'z-o'zini boshqarish organiga ega va umumiy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog'lanadi. **Ijtimoiy jamiyat ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyat** jamoaning navbatdagi muhim xususiyatidir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o'z aksini topishi muhim ahamiyatga egadir.

Jamoa xususiyatini aniqlashda jamoani tashkil qilishda qanday usuldan foydalanilganlikni bilish muhim hisoblandi.

Pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro ruhiy yaqinlik, ishchanlik, bir-biri uchun g'amxo'rlik, o'zaro yordam, jamoa manfaati uchun qayg'urish, mazkur yo'lda amaliy harakatlarni tashkil etish hamda javobgarlik hissi qaror topadi. Shunga ko'ra jamoa o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:



Jamoaning o'ziga xos xususiyatlari

Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun ma'suliyat hissini uyg'ota borib, jamoa a'zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, a'zolarida jamoaga mansublik hissini paydo bo'lishiga ko'maklashadi, jamoa bilan munosabatda bo'lish ehtiyojini oshiradi. Jamoa a'zolari orasida o'zaro hissiy birlik (bir-birini yoqirish hissi) yuzaga keladi. Ushbu munosabat ko'pincha o'z-o'zidan paydo bo'ladi hamda ular o'qituvchiik ta'sir ko'rsatish uchun qo'l keladi. Jamoa a'zolari o'rtasidagi ruhiy birlik mazmuni ular orasida hosil bo'lgan

ishchanlik faoliyatining xarakteriga bevosita bog'liqdir.

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim. **Jamoaning rasmiy tuzilishi** deganda jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlari ko'zda tutiladi. Mazkur jihat bir tomondan jamoa a'zolari o'rtasida yuzaga kelgan ishchanlik munosabati mazmunini ifoda etsa, ikkinchi tomondan, rahbarlik vazifasini bajaruvchi shaxslar tomonidan jamoa a'zolarining xatti-harakatlari va intilishlarini muvofiqlashtirish yo'lida tashkil etilayotgan boshqaruv faoliyati mohiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Norasmiy tuzilma jamoaning barcha a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va mikrogoruhni tashkil qiluvchi ayrim a'zolar o'rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a'zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o'rinni egallaydi. O'quvchining jamoadagi o'rni uning shaxs sifatida shakllanishi va kamolotga erishishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Maktab yoki sinfdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo'lganda, jamoaning rasmiy yetakchilari norasmiy munosabatlar tizimida ko'zga ko'ringan o'rinni egallagan holdagina u chinakam jamoa bo'la oladi. Norasmiy (mikro) guruhlar umumjamoa ijtimoiy manfaatlar uchun kurashuvchi guruhlar bo'lgandagina o'zini jamoa tarzida namoyon etadi.

Yashash joylarida o'zaro birikkan bolalar guruhlari qanchalik ahil va inoq munosabat asosida tashkil topgan bo'lmasin haqiqiy jamoa bo'la olmaydi. Chinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga moyillik faoliyatini tashkil eta olishi, jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro hamkorlik va ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosabatlarni qaror toptirishi lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unga o'qituvchilik rahbarlikning yo'lga qo'yilishidir.

Demak, jamoa bir necha (a'zo) kishidan iborat guruh bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad asosida tashkil topadi. Jamoa faoliyati oldinga qo'yilgan maqsadni ifoda etadi. Jamoa a'zolari o'rtasida qaror topgan o'zaro birlik va ularning o'zaro munosabatlari jarayonidagi tenglik jamoaga rahbarlik qilish, yetakchilarga bo'ysunish, jamoa oldidagi javobgarlik hissini anglashga zamin yaratadi.

Jamoa va uni shakllantirish o'qituvchilik faoliyatining maqsadi hisoblanadi. Muhim tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'lgan subyektlarning namuna ko'rsatishlari jamoani shakllantirishning muhim vositasi bo'lib, u

yordamida jamoaning barcha yoki muayyan a'zosini tarbiyalash mumkin.

Jamoa tomonidan hal etilishi ko'zda tutilgan yetakchi tarbiyaviy vazifa shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni tarbiyalash hamda mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir.

Umumiy o'rta ta'lim hamda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida jamoani shakllantirish mas'uliyatli vazifa sanaladi.

Ta'lim muassasasi tarkibida eng barqaror bo'g'in – bu muayyan guruhlar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Guruh jamoasi tarkibida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o'qish faoliyati sanaladi. Aynan guruh jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, guruhlar jamoalari negizida maktab jamoasi shakllanadi. Muassasa jamoasi ikki muhim bo'g'in – o'qituvchilar jamoasi hamda o'quvchilar jamoasi asosida tarkib topadi. O'quv yurtlari jamoasi tarkibida o'quvchilar jamoasi asosiy qismini tashkil etadi.

O'quvchilar jamoasi – bu ijtimoiy ahvoli, umumiy saylov organlari oldidagi umumiy javobgarlik, barcha a'zolarining huquq va burchlari tengligi asosida o'zaro ijtimoiy ahamiyatli umumiy maqsad va birlikka ega o'quvchilar guruhi

AL va KHK o'quvchilarining jamoalarga o'qituvchi va rasmiy saylangan (tayinlangan) o'quvchi yo'lboshchilik qiladi. Ular sirasiga guruh rahbari, guruh faollari (xususan, guruh yetakchisi (starosta), "Yoshlar" ittifoqining guruh bo'limi raisi, tozalik komissiyasi raisi, devoriy gazeta muharriri va boshqalar).

O'quvchilar jamoasi unga rahbarlikni qiladigan o'qituvchilar va bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi bo'lib, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish huquqiga, o'ziga xos psixologik muhit va an'alariga ega bo'ladi.

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli murakkab jarayondir.

Shaxsning jamoada qaror topishi. Shaxs psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi muayyan jamiyat a'zosi bo'lib, uning shakllanishi ijtimoiy munosabatlar jarayonida kechadi. Mazkur jarayonda qatnashish asosida u jamiyat tomonidan tan olingan ma'naviy-axloqiy, shuningdek, huquqiy meyorlar mohiyatini o'zlashtiradi. Jamiyatning a'zosi sifatida uning ijtimoiy

va iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi mehnat faoliyatini yo'lga qo'yadi. Shuningdek, shaxsiy ehtiyojlari, manfaatlarini qondirish yo'lida ham atrofdegilar bilan munosabatga kirishadi.

Shaxs ijtimoiy muhitdan uzilgan holda mavjud bo'la olmaydi. Buning misoli sifatida R.Kipling tomonidan yaratilgan asardagi Mauglini keltirish mumkin. Garchi, inson bolasi bo'lsada, ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etish ko'nikma va malakalari shakllanmaganligi bois odamlar hayotiga moslasha olmaydi.


Bola yoshligidan o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlarini tengdoshlari bilan birgalikda tashkil etish asosida ijtimoiy muhitga moslasha boradi. Ijtimoiy muhit bolaga borliqni anglash uchungina emas, balki o'zligini anglash uchun ham imkoniyat yaratadi. Bolaning doimiy ravishda jamoa orasida bo'lishi, uning jamoa ta'sirida shakllanishi unda ijtimoiy faollikni yuzaga keltiradi.

Sharq mutafakkirlari jamoaning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rnini va roliga alohida e'tibor berganlar. Xususan, Abu Ali ibn Sino ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishdagi rolini yuqori baholaydi. Tashqi muhit va odamlar insonning borliq, unda kechayotgan o'zgarishlar, jarayonlar mohiyatini anglashgagina emas, balki uning xulqida yaxshi va yomon sifatlarning shakllanishiga ham sezilarli ta'sir etishi, shu bois bolalarni tarbiyalashda u mansub bo'lgan mikromuhit xususiyatini inobatga olishni ta'kidlaydi. Bolani yomon ta'sirlardan saqlash zarurligini uqtiradi. Alloma o'qitish samaradorligini ta'minlashda bolalarga jamoa asosida bilimlarni berishni maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi.

Abu Nasr Forobiyning fikricha, inson bishqalar bilan munosabatda bo'lish, ularning yordami va qo'llab-quvvatlashlarini his etish ehtiyojiga ega. Ana shu ehtiyojni qondirish yo'lidagi amaliy harakatlar insonni kamolotga yetaklaydi, deb hisoblaydi. Abu Rayhon Beruniy esa shaxsning rivojlanishida o'zaro yordam, hamkorlik, odamlarga nisbatan xayrihohlik uning ijtimoiy muhitdagi roli va o'rnini belgilab beradi.

3. O'quvchilar jamoasining shakllanish bosqichlari. Jamoaning vujudga kelish uchun to'rt bosqich zarur. Jamoaning shakllanish bosqichlarida dastlab o'qituvchi butun guruhga talab qo'yadi, bu jarayonda jamoa faollarining shakllanishiga e'tibor qaratadi. Navbatdagi bosqichda muayyan darajada shakllangan jamoa faollari (aktivi) jamoa a'zolari oldiga

ma'lum talablarni qo'yadi. Uchinchi bosqichda esa jamoa har a'zosidan muayyan tarzda faoliyatni olib borishni talab qiladi. To'rtinchi bosqichda esa jamoaning har bir a'zosi o'z oldiga jamoa manfaatlarini ifoda etuvchi talabni qo'yish layoqatiga ega bo'ladi. Bu jarayon mohiyati qo'yidagicha:



O'quvchilar jamoasining rivojlanish bosqichlari

Jamoaga qo'yilayotgan talablar mazmunidagi farq jamoa rivojlanishi bosqichini aniqlovchi yorqin tashkiliy ko'rsatkich sanaladi. Jamoaning amaliy faoliyati mazmuni, jamoa a'zolarining jamoa oldidagi javobgarligi, ular o'rtasidagi ijodiy hamkorlik, shuningdek, ularning xulq-atvori axloqiy kamolot darajalarini ko'rsatuvchi muhim belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Jamoani shakllantirishda uning hayotini belgilovchi ichki jarayonning mohiyatini inobatga olish zarur.

Jamoaning shakllanish bosqichlarini belgilash shartli sanaladi, zero, jamoaning shakllanishi muayyan chegara yoki oraliqqa ega emas. Shunga qaramay o'qituvchi nuqtai nazardan jamoaning shakllanishini muayyan bosqichlarga ajratish mumkin. O'quvchilar jamoasini ma'lum rivojlanish bosqichlarga ajratish muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoa rivojlanishining har bir bosqichi jamoa a'zolariga nisbatan samarali pedagogik ta'sir ko'rsatishning maqbul shakl, metodini tanlash imkonini beradi.

Jamoa rivojlanishining birinchi bosqichi. Mazkur bosqichda talab faqat o'qituvchilar tomonidan qo'yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang'ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo'lmay, balki "tashkil etuvchi birlik" (guruh) hisoblanadi. Bu bosqichda

o'quvchilar o'qituvchi tomonidan talablarning qo'yilishiga e'tiborsiz qaraydilar. Jamoa a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqaligina jamoa qaror topadi. O'quvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi tufayli asta sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a'zolarida mas'uliyat, javobgarlik, faoliyat biriligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo'lishi, shuningdek, o'quvchilarda jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishni paydo bo'lishiga olib keladi. Bolalarning jamoada faoliyat ko'rsatish tajribasiga ega emasliklari bu bosqichda o'qituvchi jamoa a'zolarini oddiy tarzda uyushtirish maqsadini ko'zlaydi.

O'qituvchining talabchanligi, jamoaning barcha a'zolariga birday talabni qo'ya olishi, u tomonidan qo'yilayotgan talabning qat'iyiligi, izchilligi hamda murosasizligi muhim omil hisoblanadi. Bu vaziyatda o'qituvchining «hukmdorlik» davri uzoq davom etishi mumkin emasligi, bir qarashda intizomning vujudga kelganligi ma'lum bo'lsada, ayni vaqtda guruh a'zolarining faolliklarini rivojlantirish uchun zarur bo'luvchi sharoitning hali mavjud bo'la olmaganligini hisobga olish zarur.

Jamoa hayotining **birinchi bosqichida** jamoa faolining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli (aktivi) muayyan guruhning shunday a'zolaridirki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar, o'qituvchi faoliyati va talabiga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladilar. Faollar o'qituvchining yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi. Bu bosqich jamoa faolining o'qituvchi talabini qo'llab-quvvatlash va uning o'zi ham bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tafsiflanadi. Endilikda o'qituvchi jamoada paydo bo'lgan va u bilan bog'liq muammo, masalalarni yolg'iz o'zi hal qilmaydi. Jamoa faolini bu ishga uni jalb etadi. Ushbu bosqichda jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni, jamoa o'z-o'zini **boshqarishga** o'tadi.

O'quvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrining muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda jamoaning muhim ishlarini o'quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirilishi, tadbirlarni o'tkazishga tiyyorgarlik, uni o'tkazish hamda faoliyat natijalarini

muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususyat kasb etishini ko'rsatuvchi omillar sanaladi.

Jamoaning ijobiy rivojlanishi uning a'zolarida motiv (rag'bat)larning paydo bo'lishi, ijodiy hamkorlik va o'zaro yordam munosabatlarining tez sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi.

Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelishida jamoa faolining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faolining jamoa a'zolari orasida hurmat qozona olishi, ularga namuna bo'lishi, o'z burchlarini aniq va puxta bajarishi hamda o'z mavqelaridan noo'rin foydalanmasliklari juda muhimdir. Bu o'rinda A.S.Makarenkoning jamoa faoliga nisbatan "jamoa vijdoni" deya bergan ta'rifini eslab o'tish joizdir. Jamoa faoli birmuncha imtiyozlar (huquqlar)ga ega bo'lsada, ayni paytda uning o'ziga ham oshirilgan talablarning qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Jamoaning rivojlanishi bu bosqichda to'xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko'rsatayotgan kuch jamoaning bir qismigina xolos. Bordinyu. jamoaning rivojlanishi ushbu bosqichda to'xtatib qolinsa, jamoa faolining guruhning boshqa a'zolari bilan qarama-qarshi qo'yish xavfli tug'ilishi mumkin. Bu bosqichda jamoaning barcha a'zolarining alohida faollik ko'rsatishga erishishlari zarur sanaladi.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi. Bu bosqich anchagina sernahsul bo'lib, unda butun jamoa "ayrim o'zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs"larga talab qo'ya boshlaydi.

Jamoa ishiga ushbu bosqichda faqat faolgina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. O'qituvchi mazkur yo'nalishda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasi, jamoaning birgalikdagi faoliyati va uning a'zolari xatti-harakati jamoa bo'lib muhokama qilinadi, turli mavzularda suhbatlar va ma'ruzalar uyushtiriladi, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlarning targ'iboti tashkil etiladi. O'qituvchi jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a'zolarining ijodiy tajribasiga hissa qo'shish imkonini beradigan o'zaro munosabatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan shakl va metodlardan foydalanadi.

Jamoaning har bir a'zosida ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda tashkil etish ko'nikmasini hosil qila olishi jamoa a'zolari orasida barqaror insoniy munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi.

Jamoadagi barqaror insoniy munosabatlarning yuzaga kelishining sababi – uning a'zolarini ijobiy, madaniy-ma'rifiy mazmunga ega bo'lgan ishlarni tashkil etishda faol ishtirok etishlaridir.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichda ko'rsatib o'tilgan xususiyatlar shundan dalolat beradiki, ushbu bosqichda jamoa faoligina emas, balki jamoaning har bir a'zosi bir-birlariga nisbatan axloqiy mazmundagi talablarni qo'ya boshlaydilar.

Jamoa rivojlanishining to'rtinchi bosqichi. Bu bosqich uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan vazifalar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Har bir bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan muayyan talab qo'yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga xos yo'nalishi (masalan o'yindan umuminsoniyat baxti yo'lida kurashishiga intilish o'rtasidagi farq) bilan ajralib turadi.

To'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi. Biroq bu holat jamoaning muayyan shaxsni yanada rivojlantirishdagi roli va o'rini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablarni qo'yish uchun mutlaqo qulay sharoit yaratiladi.

Bir guruh pedagoglar o'quvchilar jamoasini uning shakllanish va rivojlanishiga ko'ra uch bosqichga ham bo'ladi. YA'ni: a) jamoani dastlabki jipslashtirish; b) jamoani shakllantirish asosida uning har bir a'zosini individual rivojlantirish; v) jamoaning umumiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

Jamoa hayotida muhim o'rin tutuvchi har bir bosqichni ajratib ko'rsatish yuqorida bayon etilgan fikrlarga zid emas, balki shaxsning rivojlanishida jamoaning yetakchi ahamiyatini ta'kidlaydi.

O'quvchilar jamoasi o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyish etadi: 1) o'quvchilarning jamoaviy faoliyatga tayyorliklari, ruhiy tetiklikka egaliklari;

2) jamoa uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar mohiyatini anglash, ularni ardoqlash va o'z qadr-qimmatini baholash; 3) jamoa a'zolari o'rtasida do'stlik, o'zaro birlik, hamjihatlik va yordam ko'rsatish tuyg'usining qator topganligi; 4) jamoadagi ishchan, jamoa faoliyatini tashkil etishda faollik ko'rsatish; 6) jamoa a'zolarida o'z hissiy tuyg'ularini boshqara olishlari, muomala, muloqot, nutq va yurish-turish qoidalariga amal qilish ko'nikmasining shakllanganligi.

Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona talab o'quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek, jamoat joylari hamda oiladagi xulq-atvor qoidalarini o'z ichiga oladi.

Puxta o'ylangan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi maktabda muayyan tartibning o'rnatilishini ta'minlaydi.

O'qituvchilar tomonidan puxta o'ylab qo'yilgan talablar quyidagi holatlarda ijobiy natija beradi:

1. Qo'yilayotgan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak.

2. Talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim.

3. Jamoaga nisbatan qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi lozim.

4. O'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

O'quvchi qo'yilayotgan talablar hajmi va tizimini bilibgina qolmasdan, talab qo'yish metodikasini ham o'zlashtira olgan bo'lishi kerak.

O'quvchilar jamoasiga nisbatan talablarni qo'yish metodikasi bolalarni talablar mazmuni bilan tanishtirish, talablarning ahamiyatini tushuntirish, tajriba o'rtirish, o'quvchilar faoliyati, qo'yilayotgan talablarning bajarilishini muntazam nazorat qilib turishdan iborat.

O'quvchilarni talablar bilan tanishtirish ko'pincha umumiy majlislarda amalga oshiriladi, bunda ta'lim muassasasining direktori yoki o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari istiqbol rejaları va ularni amalga oshirish jarayonidagi talablar mazmuni bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Tanishtirish ko'pincha amalda ko'rsatish, guruhlarda guruh majlislari yoki maxsus

suhbatlarni uyushtirish asosida amalga oshiriladi.

Xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan talablar bilan tanishtirish mazkur talablar ustida mashq qildirish bilan qo'shib olib borilishi kerak. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha murakkab ish. O'quvchilar talablarni yaxshi anglashlari mumkin, biroq aksariyat hollarda ularga rioya qilmaydilar. Shu bois muntazam ravishda mashq qildirish madaniy xulq-atvorni odatga aylantiradi.

Talablarning qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o'rnatish lozim. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinfdagi navbatchilik uchun stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar. Qo'yilayotgan talablarning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan nazorat muntazam ravishda, izchil olib borilishi va haqqoniy bo'lishi zarur. Olib borilgan nazorat natijalaridan o'quvchilarni ogoh etib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda faol (aktiv)ni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Har bir o'qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakti jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi.

Jamoa faolini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi.

Ishchan jamoa faolini shakllantirish uchun o'qituvchi o'quvchilarning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o'qituvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlash zarur.

Faollarni tarbiyalashda o'quvchilarning jamoadagi obro'si ham inobatga olinadi. Jamoa faoli tarkibini bolalarning o'zlari o'qituvchi ishtiroki va rahbarligida tanlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi jamoa faoli bilan maslahatlashish asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi.


Jamoa faolining har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazifani yuklash, ularning ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish maqsadga muvofiq. O'qituvchi aynan faolga oshirilgan talab qo'yadi. O'quvchilar jamoasida faol rahbarligida o'z-o'zini boshqarish jamoa a'zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak. Shu bois o'qituvchi faolni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim.

O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishi bu o'qituvchilar tomonidan

tashkil qilinadigan jamoa ishini uyushtirish va boshqarishda o'quvchilarning faol ishtirok etishidir. O'z-o'zini boshqarishning shakllari orasida jamoa a'zolarining yig'ilishi, konferensiyasi hamda turli komissiyalar (masalan, o'quv komissiyasi yoki tozalik komissiyasi) faoliyati muhim o'rin tutadi.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishda an'analar muhim o'rin tutadi. **Jamoa an'analari** jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odatlar bo'lib, ularning mazmunida munosabatlar xususiyati va jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi.

Jamoa an'analari shartli ravishda ikkiga bo'linadi:




Jamoa an'analari turlari

Kundalik faoliyat an'analari o'quvchilarning o'quv faoliyati (o'zaro yordam turlari) va mehnat faoliyati (ko'chatlar o'tkazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o'z ichiga oladi.

Bayram an'alariga ijtimoiy ahamiyatga ega turli voqea hamda hodisalar bilan bog'liq sanalar (xususan, "Alifbe bayrami", "Mustaqillik bayrami", "Navro'z bayrami", "Xotira va qadrlash kuni" va boshqalar)ni nishonlash maqsadida tashkil etilgan faoliyat kiradi.

An'analarning yuzaga kelishida o'quvchilarning unga nisbatan munosabati katta ahamiyatga ega. Maktab rahbariyati va o'qituvchilar o'quvchilar jamoasiga muayyan sanalarga bag'ishlab haddan ziyod ortiqcha tadbiri uyushtirish talabini qo'yimasligi zarur. Tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda o'qituvchilar jamoasi yoki o'qituvchi o'quvchilar jamoasi bilan birgalikda ish olib borish, ularni an'analarni davom ettirishga o'rgatish masalasiga e'tiborning qaratilishi ijobiy natijalarni beradi.

Jamoa va uning shaxsni shakllanishidagi o'rni va roli muammosi yuzasidan o'lib borilgan ilmiy tadqiqotlar shaxs va jamoa o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi borasida quyidagi andozaning yaratilishini ta'minlaydi:



Shaxs va jamoa o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanish andozasi

O'quvchilar jamoalarida rasmiy yetakchilar bilan birga norasmiy yo'l boshchilarning mavjudligi ko'zga tashlanadi. Odatda rasmiy yo'l boshchilar tarkibini a'lo baholarga o'qiydigan, jamoa ishlarida faol ishtirok etuvchi o'quvchilar tashkil etsa, norasmiy liderlar garchi bu kabi sifatlarni namoyon etmasalarda, ayrim sifatlarga ko'ra tengdoshlarini o'z ortlaridan ergashtira oladilar. Bunday o'quvchilar boshqalardan jismonan kuchliligi, qat'iyatligi, hech narsadan cho'chimasligi, o'ziga bo'lgan ishonchi bilan ajralib turadilar. Norasmiy liderlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi boshqa o'quvchilarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois sinf rahbari hamda maktab pedagogik jamoasi bunday liderlarning faoliyatini bevosita va bilvosita nazorat qilib borishlari zarur.

O'quvchilar uyushmasiga pedagogik rahbarlik, yuqorida qayd etilganidek, aksariyat holatlarda sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli sinf rahbari guruhning umumiy hamda har bir a'zosining individual xususiyatlarini bilishi, ularni inobatga olgan holda jamoaga yondashishi zarur. Sinf rahbarining norasmiy liderlar va ularning shaxsi haqida to'laqonli ma'lumotlarga ega bo'lishi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Demak, jamoa bir necha a'zo (kishi)lardan tashkil topgan muayyan guruh bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad asosida birlashadi hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Jamoa o'zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon qiladi. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, u ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlariga ko'ra to'rt bosqichdan iborat bo'ladi. Jamoani shakllantirish o'ziga xos metodika asosida amalga oshiriladi. Jamoaning mustahkam bo'lishi, a'zolari o'rtasida o'zaro yordam hamda hamkorlikning qaror topishida jamoa an'analari muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Oilaning tarbiyaviy vazifalari, Oila, jamiyat, maktab va jamoatchilik hamkorligi. Oila tarbiyasining mohiyati. "Jamiyat" va "oila" tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Bu bog'liqlik jamiyatning oilalarsiz mavjud bo'lmashligi, o'z navbatida oilaning ma'lum bir jamiyat tarkibida vujudga kelishi va yashovchanligida ko'rinadi. Oila va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabat ikki tomonlama aloqadorlik xususiyatiga ega. Har bir oila umumjamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa uning bag'rida mavjud bo'lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir.

Oila kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

Oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Oilaviy munosabatlar ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish va faoliyat doirasi kengayadi, o'zaro

aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini kurish holati ro'y beradi.

Oila tarbiyasi ota-onalar yoki shaxs kamoloti uchun mas'ul shaxslar tomonidan tashkil etilib, farzandlarni har tomonlama yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon

Shaxsning ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishida oila tarbiyasi asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo'lib voyaga yetishlarida katta ahamiyatga ega.

Sharqda qadimdan oila tarbiyasiga yuqori baho berib kelingan. Islom dinining muqaddas manbalari – “Qur’oni karim” va “Hadisi Sharif”da oila, oilaviy munosabatlarga oid qarashlar o'z ifodasini topgan. “Qur’oni karim”da: “Xotinlaringiz zirotgohingizdir” deyiladi. Buning ma'nosi oila qurishdan ko'zlangan asosiy maqsad – farzand ko'rish, ularning komil insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash ekanligidir.

Sho'ro tuzumi davrida esa oilaning shaxs tarbiyasida tutgan o'rni inkor etilib, uni ijtimoiy borliq vositasida tarbiyalashga harakat qilindi.

O'zRda mustaqillik yillarida fuqarolarda milliy o'zlikni anglash tuyg'usining qaror topganligi, o'tmish qadriyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortganligi oilaning shaxs kamolotida tutgan o'rni va rolini xolisona baholash imkonini berdi.

Davlatning oilaga nisbatan g'amxo'rligi qabul qilinayotgan qonun va qarorlarda o'z ifodasini topmoqda. Respublikada “Oila” ilmiy-amaliy Markazi tashkil etilganligi buning yorqin dalilidir.

Ota-onalar o'zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga, uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg'usini shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga tayyorlash, turli ko'rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib-intizomga amal qilish, axloq qoidalariga rioya etish, sog'lom turmush tarzini yaratish, shaxsiy hayotlarini belgilashda maqsad, so'z va faoliyat birligini ta'minlash borasida ibrat namunasini ko'rsatadi.

Oila tarbiyasida obyektiv va subyektiv omillarning roli katta. Oilaning

moddiy ta'minoti va farovonlik (maishiy turmush) darajasi, oila budjetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog'lom ruhiy muhitning barqarorligi va hokazolar obyektiv omillar sanalsa, oiladagi shaxslararo munosabatlar mazmuni, oila a'zolarining fiziologik, psixologik, madaniy jihatdan komillik hamda ma'lumot darajasi, ularning qiziqish va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik, oilaviy hayotni tartibga solish borasidagi o'zaro yordam, hamkorlik, birlik tamoyillariga tayanish subyektiv omillar sanaladi.

Oila tarbiyasida bolalar hayotini to'g'ri yuritish ularni vaqtdan to'g'ri, unumli foydalanishga o'rgatish garovidir. Bunda bolalar vaqtini o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlari bo'yicha to'g'ri taqsimlash nihoyatda muhimdir.

Oila muhitida tashkil etiladigan **jinsiy tarbiya** o'zida bolani jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o'rgatish, o'z sog'ligi uchun g'amxo'rlik qilish va mas'uliyatli bo'lishni ta'minlashga qaratilgan harakatlarning mazmunini ifoda etadi. Bolalarning sog'lom bo'lishlarida ularning kundalik hayotiy rejimga amal qilishlari nihoyatda muhimdir. Ota-onalar yoki oilaning katta a'zolari bolalarning mehnat qilishlari va dam olishlarini tartibga solishga ahamiyat berishlari kerak.

Ovqatlanishning to'g'ri tashkil etilishi ham bolaning sog'lom bo'lib o'sishining asosiy omillaridan biridir. Ota-onalar tomonidan bolaning belgilangan muayyan soatlarda ovqatlanish, ovqatlanishdan avval qo'lni yuvish, ovqatdan keyin og'izni chayish, shuningdek, kuniga ikki marta (ertalab va kechqurun) tish tozalash, haftada bir marta vanna (yoki dush, hammom)da cho'milish, qo'l va oyoq tirmoqlarini olishga odatlantirib borishlari zarur. Ushbu holatlar bolalarda jismoniy madaniyat unsurlarini shakllantiradi.

Oila tarbiyasida bolalarni **aqliy jihatdan tarbiyalash** ham muhim o'rin tutadi. Eng muhimi, ota-ona tomonidan bolaning qiziqish va ehtiyojlarini ko'ra bilish asosida tasavvur, idrok, tafakkur, xotira hamda diqqatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashg'ulotlarga jalb etishdan iborat. Shuningdek, ma'lum yo'nalishlar bo'yicha bolada qg'iziqishni uyg'ota olish, uni rivojlantirib borish ham talab etiladi. Oila muhitida bolaning aqliy jihatidan tarbiyalab borishda konstruktorlik o'yinlari (kubiklar yordamida uylar qurish, kesmalar asosida fano (tasvir)lar hosil qilish va boshqalar), fikr

doirasini kengaytirishga yordam beruvchi sport o'yinlari (shaxmat, shashka)ni tashkil etish, turli mavzulardagi krossvord, chaynvord va rebus topishmoqlarini hal qilish. teatr, muzey va ko'rgazmalarga tashrif buyurish, ilm-fan, texnika, texnologiya rivojiga oid suhbatlarning uyushtirilishi bu borada o'zining ijobiy samarasini beradi.

Axloqiy tarbiya oila tarbiyasining o'zagini tashkil etadi. Oilada uyushtiriladigan axloqiy tarbiyaning **maqsadi** bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar ota-ona va oilaning boshqa a'zolari, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, kamtarlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, sahovat, insonparvarlik, adolat, vijdon, or-nomus, g'urur, intizom, ijtimoiy burchni anglash va hokazolarni shakllantirishdan iboratdir. Oiladagi sog'lom muhit, oila a'zolarining psixologik jihatdan o'zaro yaqinliklari, ehtiyoj, qiziqish va hayotiy yondoshuvilaridagi umumiylik, bir-birlarini har qanday vaziyatda qo'llab-quvvatlay olishlari, ota-onalar tomonidan barcha farzandlariga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularga ko'rsatilayotgan e'tiborning bir xil bo'lishi oila tarbiyasida ijobiy natijalarga erishishning **omillari** sanaladi.

Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go'zallikni his qilish. undan zavqlanish, tabiat go'zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg'u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish, ularni hayotni sevishga o'rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishini nazarda tutadi. Bolalar yoshligidanoq soxta go'zalliklar (yarim yalang'och yoki yalang'och badan, meyoridan ortiq qo'llanilgan pardoz, urfga kirib borayotgan kosmetik operatsiyalar "mahsuli", o'ta darajadagi yaltiroq mato yoki taqinchoqlar) go'zallikning timsoli emasligini anglab yetishlari lozim. Bola tasavvurida haqiqiy, tabiiy go'zallik (yam-yashil tabiat, nafis qor uchquni, nozik gullar, beg'ubor osmon, viqorli tog'lar, tiniq zilol suv, toza, musaffao havo, bepoyon dalalar, qushlarning yoqimli ovozi, sharqiroq suv, "chuchvara"lar hosil qilayotgan yomg'ir tomchilari, kamalak jilosi, shuningdek, ochiq, xushsurat, chiroyli tabassum, shirali ovoz, ta'sirchan badiiy va san'at asarlari, yuksak mahorat bilan yaratilgan o'yinchoqlar (bolaning asabini junbushga keltiradigan elektron o'yinchoqlar emas), yarashqli liboslar va boshqalar)ning namoyon bo'lishi uchun shart-sharoit yaratib berish maqsadga muvofiqdir.

Bolalarda haqiqiy go'zallikni his etish tuyg'usi tabiat bag'rida, muzey.

ko'rgazma, kino va teatrlarda bo'lish tufayli shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim muassasalari hamda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tabiat bag'riga, muzey, ko'rgazma, kino va teatrlarga uyushtiriladigan ekskursiya va tashriflar katta tarbiyaviy kuchga egadir.

Bolalarni oilada to'g'ri tarbiyalashda oila xo'jaligining odilona tashkil etilishi, bolalarni oila xo'jaligini yuritish ishiga jalb qilish katta ahamiyatga ega. Bolalar tomonidan bajariladigan oilaviy yumushlar ularning jismoniy va aqliy kamoloti darajasidan ortiq bo'lmasligi, ularning tezda toliqishlari yoki mayib bo'lishlariga sabab bo'lmasligi lozim. Bolalar zimmasiga ularning yoshi, rivojlanish darajasi, jismoniy quvvatiga muvofiq yumushlarning taqsimlab berilishi, berilgan topshiriqlarning bajarilishi va ularning sifatini kattalar tomonidan nazorat qilib turish, bajarilgan topshiriqlarning haqqoniy bahosiga ega bo'lgan havasini oshiradi, unda o'z kuchiga bo'lgan ishonchni yuzaga keltiradi.

Oilada tashkil etilgan mehnat bolalarni farosatli bo'lish, ishni rejali olib borish, vaqtdan unumli foydalanish, tejamkor bo'lish, shuningdek, o'zgarlar mehnati, inson mehnatining mahsuli bo'lgan ne'matlarni asrab-avaylashga o'rgatadi.

Oilada, shuningdek, atrof-muhit muhofazasi (ekologiyasi)ga oid tarbiyaviy ishlar ham tashkil etiladiki, bu jarayonda bolalarda "inson-tabiat-jamiyat" tushunchalari o'rtasida yuzaga keluvchi o'zaro muvofqlik borasidagi g'oyalarning qaror topishiga zamin hozirlaydi. Oila muhitida tashkil etilayotgan hovli sahnini supirib-sidirish, gulzorlarni tashkil etish, ko'chatlarni o'tkazish va ularni parvarish qilish, maishiy chiqindilarni bartaraf etishga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish bolalarda tabiatni asrashga nisbatan mas'ullik tuyg'usini shakllantiradi.

Oilaviy hayotning meyorida bo'lishi ko'p jihatdan oila budjetining holatiga ham bog'liq. Shu bois oila a'zolari mehnati evaziga yaratilayotgan moddiy mablag'larni tejab-tergab, ulardan o'rinni foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bois bolalarni ham yoshlikdan pul bilan muomala qilishga o'rgatish, o'zining shaxsiy hamda oila a'zolarining buyumlari, shuningdek, oila mulkiga nisbatan mas'uliyatli yondashishga ko'niktirib borish muhim ahamiyatga egadir. Bolalarga pulning inson mehnatiga to'nadigan qiymat ekanligini tushuntirib berish, uni oilaning eng muhim ehtiyojlari uchun ishlatish lozimligini uqtirish, ular tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lar

edi. Oilada tashkil etiladigan iqtisodiy tarbiya bolalarda iqtisodiy savodxonlik hamda tafakkurning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bolalarda iqtisodiy tafakkurni hosil qilishda ota-ona, oilaning katta yoshli a'zolarining namunasi katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga egadir (iqtisodiy tarbiya).

Oila tarbiyasini tashkil etish shakli, metod va vositalari. Oila sharoitida uyushtirilayotgan suhbatlar alohida diqqatga sazovordir. Ommaviy axborot vositalari orqali aholi e'tiboriga havola etilayotgan huquqiy mavzulardagi maqolalar, ko'rsatuv, eshittirish, ommaviy-huquqiy adabiyotlar hamda ularda ilgari surilgan g'oyalar yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlar bolalarda huquqiy tasavvur, idrok, savodxonlik, tafakkur, faollik, mas'ullik, e'tiqod va salohiyatni qaror topishiga olib keladi.

Oila muhitida bolalarga ularning burchlari to'g'risidagi ma'lumotlarni berib borish, o'z navbatida huquqlaridan foydalanish yo'llarini ko'rsatib berish bu borada yaxshi samara bera oladi.

Oila bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini hosil qiluvchi o'ziga xos maskan sanaladi. Bolalar "Vatan", "xalq" tushunchalarining mohiyatini dastlabana shu maskanda o'zlashtiradilar. Binobarin, oilaning o'zi Vatanning bir bo'lagidir. Oila sha'nini himoya qilish, uni saqlash to'g'risida qayg'urishning Vatanning sha'ni, el-yurt manfaati uchun kurashish tuyg'ulari bilan uzviy bog'liq bo'lishiga erishish oila tarbiyasining asosi bo'lishi lozim.

Ota-onalarning muayyan darajada pedagogik bilimlarga ega bo'lishlari ahamiyatlidir. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasida tashkil etilgan hamkorlik ota-onalar uchun pedagogik yordam ko'rsatishni nazarda tutadi.

Farzand dastlabki ma'lumot va ijtimoiy meyorlarga amal qilish borasidagi ko'nikmalarga oilada ega bo'ladi. Chunki oilaviy ijtimoiy munosabatlar, xususan, madaniy-maishiy, iqtisodiy-moliyaviy, mulkiy munosabatlar hamda mehnat faoliyatini tashkil etishda farzandlar o'zlari sezmagani, mohiyatini tushunib yetmagan holda mazkur munosabatlar jarayonida ishtirok etadilar, demakki, ijtimoiy masalalar bilan to'qnash keladilar, natijada bu tarzidagi muloqotlarning deimiy, qisqa muddatlarda takrorlanib turishi ular uchun ota-onalar, farzandlarning huquq, burch, majburiyat va mas'uliyatlarini tushunib yetishga yordam beruvchi ijtimoiy obyektiv shart-sharoitlarni yaratadi.

Oila tarbiyasining farzandlarga tarbiya berish, ularda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash yuzasidan bir qator tadbirlar amalga oshiriladi. Quyida ota-onalar bilan olib borilgan ishlar, tashkil etiladigan tadbirlardan namunalar keltiriladi:

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar quyidagilardir:

I. Ota-onalar bilan o'tkaziladigan suhbatlar. Suhbatlar yakka va umumiy tarzda olib boriladi. Ilk suhbat chog'ida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ma'naviy-axloqiy madaniyat unsurlarini qaror toptirish muvaffaqiyatini ta'minlash kafolati bo'lgan ota-onalar va farzandlarning ijtimoiy onglik hamda faollik darajasini aniqlashga yordam beruvchi anketa so'rovlarini o'tkazish mumkin.

Dastlabki suhbat va ota-onalar tomonidan to'ldirilgan so'rovnomalarni natijalarini tahlil etish ular bilan tashkil etiladigan tadbirlar yo'nalishi va mazmunini belgilab beradi.

II. Ta'lim muassasasining o'quv yili davomida ota-onalar bilan olib boradigan ishlari:

1. Sinf ota-onalar majlisi. Majlis o'quv yili davomida besh marta o'tkaziladi, ya'ni, o'quv yili boshlanishi oldidan, I, II, III va IV choraklar yakunida. Majlislarda o'quv yurti ichki-tartib qoidalari, umumijamoa ijtimoiy meyorlariga rioya etish holatlari, yuzaga kelgan ziddiyatlar tahlil etiladi, navbatdagi davr uchun belgilangan ishlarni rejalashtirish, ularni ha! etish yo'llari, chora-tadbirlari belgilanadi. Maktabda ta'lim olayotgan, jamoa hayoti, shuningdek, tarbiyaviy tadbirlar faollik ko'rsatayotgan, o'qishda, mehnatda alohida o'rnak bo'layotgan o'quvchilarning ota-onalariga minnatdorchilik izhor etiladi.

Ayrim o'quv yurtida tashkil etilayotgan tadbirlarda faol ishtirok etmasliklari aytib o'tiladi va buning sabablari aniqlanadi, bunday holatlarga barham berish borasida fikrlashib olinadi.

2. Umummaktab ota-onalar majlisi. Ota-onalarning umumiy yig'ilishida o'quv yili davomida o'quvchilar, ota-onalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarining borishi va yakuni muhokama qilinadi. Ota-onalar maktab hayoti va o'quvchilarning intizomi, xulq-atvori, ijtimoiy meyorlarga amal qilishlari, o'quvchilarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash borasida erishayotgan natijalar bilan tanishtiriladi.

O'quv yili yakunida bo'lib o'tgan umummaktab ota-onalar majlisida

ijtimoiy hayotda faol ishtirok etgan, turli fanlar bo'yicha uyushtirilgan tadbirlarda alohida ibrat ko'rsatgan, shuningdek, muayyan fanlar bo'yicha olimpiadalarda muvaffaqiyatli qatnashgan o'quvchilar va ularning ota-onalarini rahmatnomalar bilan taqdirlash maqsadga muvofiqdir.

3. Ijtimoiy-ma'naviy mazmundagi suhbat va ma'ruzalar. Bunday ma'ruza va suhbatlar ota-onalarda ijtimoiy, shuningdek, ta'lim-tarbiyaga oid bilimlarni egallash, farzand tarbiyasi ishiga jiddiy e'tibor berish, bu borada ta'lim muassasasi bilan mustahkam hamkorlik o'rnatishda muhim ahamiyatga ega.

Nazorat uchun savollar:

1. Jamoa nima?
2. O'quvchilar jamoasi ishlab chiqarish jamoalaridan qanday farqlanadi?
3. Jamoaning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflang.
4. Jamoani shakllantirish qanday bosqichlarda kechadi?
5. Jamoani tashkil etish metodikasida nimalar aks etishi lozim?
6. Oila, jamiyat, maktab va jamoatchilik hamkorligi deganda nimani tushunasiz?

10-MAVZU: DIDAKTIKA TA'LIM NAZARIYASI SIFATIDA. TA'LIM MAZMUNI, DAVLAT TA'LIM STANDARTLARI.

Reja:

1. Didaktika haqida tushuncha
2. O'qitish qonuniyatlari va prinsiplari
3. Ta'lim mazmuni mohiyati va tarixiy xususiyatlari
4. Davlat ta'lim standartlari

Tayanch iboralar:

Didaktika, ta'lim, o'qitish, didaktika kategoriyalari, o'qitish qonuniyatlari, o'qitish prinsiplari, ta'lim mazmuni, o'quv reja, o'quv dasturi, darslik, davlat ta'lim standartlari.

1. Didaktika haqida tushuncha. Didaktikaning predmeti va vazifalari. Didaktikaning tashkil topishi va rivojlanishi. Ta'lim barcha davrlarda ham ijtimoiy hodisa sanaladi. Uning yordamida shaxs va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri mustahkamlanadi. Ta'lim shaxs tomonidan ijtimoiy tajribalarning o'zlashtirilish jarayonini tezlashtiradi, uni zarur ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi: yunoncha "didaktikos" o'rgatuvchi, "didasko" esa o'rganuvchi) ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolar)ni o'rganuvchi fan

Bu tushunchani buyuk cheh pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670 yillar) "Buyuk didaktika" (1657 yil) nomli mashhur asarida tilga oladi. Ayni o'rinda pedagog "didaktika bu faqat ta'lingina emas, balki tarbiyalash ham" ekanligini alohida qayd etadi.

Didaktikaning predmeti, funksiyalari va vazifasi. Didaktika predmetini aniqlash bo'yicha turli qarashlar ilgari surilgan. Ko'pchilik olimlar ta'lim obyekti deb o'qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini ko'rsatadilar.

Didaktika ta'limni ijtimoiy tajribani berish vositasi sifatida e'tirof etiladi. Ta'limiy faoliyatni tashkil etishda o'qituvchi – o'quvchi, o'quvchi – o'quv material, o'quvchi – boshqa o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar

yuzaga keladi. O'qish, o'rganish ta'lim jarayonining ajralmas xususiyatidir. Ijtimoiy tajribani o'rgatish jarayoni sifatida ta'lim **ikki shaxs (o'quvchi va o'qituvchi) o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadi.**

Didaktikaga ta'limning mazmunli va jarayonli jihatlarini birgalikda o'rganish xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda tutgan holda didaktika ta'limni faqatgina o'rganish obyektini sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyihalashtirish obyektini sifatida qaraydi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi)ning predmeti o'qitish (o'qituvchi faoliyati) va bilim olish (o'quvchining o'rganish faoliyati)ning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi jihatlarini o'rganishdan iborat.

Дидактиканинг **вазифалари** куйидагилардан иборат:



Didaktikaning asosiy vazifalari

Didaktikaning **ilmiy-nazariy vazifasi** ta'limning mavjud jarayonlarini o'rganish, uning turli jihatlarini o'rtasidagi bog'liqliklarni, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir.

O'zlashtirilgan nazariy bilimlar ta'lim amaliyotini yo'naltirish, ta'limni jamiyat tomonidan qo'yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq takomillashtirishga imkon beradi. Ta'lim mazmunini anglab olish, ta'lim tamoyillari, ta'lim metod va vositalarini qo'llash meyorlarini aniqlash asosida didaktika **amaliy-meyoriy hamda tashkiliy-texnologik vazifani** bajaradi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar

tizimi. Muayyan fanga xos bo'lgan tushunchalarda ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to'plangan bilimlar aks etadi. Mavjud ilmiy tushunchalar ikki asosiy guruhga ajratiladi:

1) falsafiy tushunchalar;

2) xususiy ilmiy, ya'ni, muayyan fangagina xos bo'lgan tushunchalar.

Didaktika uchun "umumiy", "alohida", "mohiyat", "hodisa", "qarama-qarshilik", "bog'liqlik" kabi falsafiy tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega. Didaktikada qo'llaniladigan umumiy-ilmiy tushunchalar orasida "tizim", "tuzilma", "vazifa", "element" kabilar alohida o'rin tutadi.

Pedagogikaga xos didaktik tushunchalar sirasiga quyidagilar kiradi:

Ta'lim o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon

Ta'lim jarayoni o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon

Bilim olish idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarning mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni

Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli

O'quv fani ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan hamda o'zida muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba

Ta'lim mazmuni davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar, shuningdek, shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati

Bilim shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui

Ko'nikma olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi

Malaka ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi

Ta'lim tizimi yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o'quv-tarbiya muassasalari majmui

Ta'limni boshqarish ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqboillarini beqilash

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) ta'limning aniq yo'nalishmi belgilab beruvchi yetakchi g'oya

Ta'lim tizimi yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o'quv-tarbiya muassasalari majmui

Ta'lim jarayonini tashkil etish o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri uyushtirilishi

Ta'lim turlari mazmuni, tashkil etilish o'rni, bosqichi, qo'llaniladigan asosiy vositalari va jalb etiladigan ta'lim oluvchilarning yoshiga ko'ra farqlanuvchi ta'lim ko'rinishlari

Ta'lim tamoyillarli ta'lim nazariyasining asosiy yetakchi qoidalari

Ta'lim shakli ta'lim jarayonining tashkiliy qurilishi

Ta'lim metodlari ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi ustublar majmui

Ta'lim vositalari ta'lim samaradorligini ta'minlovchi obyektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasim, chizma, dioprojektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va subyektiv (o'qituvchining aytqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar

Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi

Asosiy didaktik kategoriyalar sirasiga ta'limning didaktik tizimi va ta'lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham qayd etish mumkin.


Didaktik nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari. Ta'lim jarayoni psixologik-pedagogik konsepsiyalar (ular aksariyat hollarda didaktik tizimlar ham deb ataladi) asosida tashkil etiladi.

Didaktik tizim (yunoncha "systema" – yaxlit qismlardan tashkil topgan, birlashtirish) ma'lum mezonlar asosida ta'lim jarayonining yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish

Didaktik tizim ta'limning maqsadi, tamoyillari, mazmuni, shakli, metod va vositalarining birligi asosida tashkil etilgan tuzilmalarning ichki yaxlitligini ifodalaydi. Didaktik konsepsiya (tizim)lar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1) an'anaviy; 2) progressiv; 3) zamonaviy.

amonaviy pedagogikada ta'lim paradigma (modeli)lari. Pedagogik paradigma (yunoncha "paradeigma" – misol, namuna) – pedagogika fani rivojining ma'lum bosqichida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida e'tirof etilgan nazariy va metodologik ko'rsatmalar to'plami bo'lib, u ta'limning konseptual modeli sifatida qo'llaniladi. Ayni vaqtda ta'limning quyidagi paradigmalari keng tarqalgan:



Ta'lim paradigmalari

1. An'anaviy-konservativ paradigma (bilim paradigmasi)ga ko'ra ta'limning asosiy maqsadi "qanchalik qiyin bo'lmasin bilim olish". YA'ni yosh avlodga individual rivojlanishi hamda ijtimoiy tartibni saqlab qolishga yordam beruvchi madaniy meroslarning muhim elementlari – bilim, ko'nikma va malakalar, ilg'or g'oyalalar va qadriyatlarni saqlab qolish, ularni yoshlarga yetkazish zarur degan g'oya ilgari suriladi.

2. Ratsionalistik (bixevioristik) paradigma negizida ta'lim mazmuni emas, balki o'quvchilar tomonidan turli bilimlarni o'zlashtirilishini ta'minlovchi samarali usullari yotadi. Ta'lim muassasalarining vazifasi o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy meyorlar, ijtimoiy talablar va ko'zlagan maqsadlariga mos keladigan xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

3. Gumanistik (fenomenologik) paradigmaga ko'ra ta'lim oluvchi erkin shaxs, ijtimoiy munosabatlar subyektini sifatida o'ziga xos rivojlanish imkoniyatlariga ega. Ta'limning fenomenologik (fenomen yunoncha "phainomenon" – hisoblangan, ya'ni, mashhur, alohida nodir odam) modeli o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ularning talab va qiziqishlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ko'zda tutadi. Gumanistik paradigma doirasida faoliyat olib boruvchi har bir ta'lim tizimi ijodiy rivojlanadi va o'quvchi hamda o'qituvchining erkinligi va ijodkorligini yoqlaydi.

Gumanistik paradigma g'oyalari 1991 yildan keyin respublika uzluksiz ta'lim tizimiga joriy etila boshlandi. Paradigmaning diqqat markazida

o'quvchining barkamol rivojlanishi, uning intellektual ehtiyojlari, "erkin fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash" masalasining ijobiy hal etilishi yotadi. Ayni vaqtda respublika ta'lim muassasalarida qo'yidagi g'oyalarga amal qilinmoqda: "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. ... Mustaqil fikrlash – ham katta boylikdir".

4. Ezoterik paradigma (yunoncha "esoterikos" ichki, sirli, yashirin) mohiyati haqiqat abadiy va o'zgarmas, doimiy ekanligini ta'kidlashdan iborat. Paradigma tarafdorlari haqiqatni bilib bo'lmazligi, unga faqatgina fahmlash asosida erishish mumkinligini ta'kidlaydilar.

5. Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmanning asosiy maqsadi amaliyotni takomillashtirish asosida ta'lim oluvchilarga "aniq" ilmiy bilimlarni berish va ularning o'zlashtirilishini ta'minlashdir. Bilim - kuchdir, shu bois shaxs qimmatini uning o'rganish, bilim olish, imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shaxs muayyan (o'rtacha, standartlashtirilgan) bilim yoki xulq-atvor egasi bo'lsagina qadriyat sifatida e'tirof etiladi degan g'oya ushbu paradigmanning asosini tashkil etadi.

6. Noinstitutsonal paradigma ta'limni ijtimoiy institutlar, ya'ni, maktab va oliy ta'lim muassasalaridan tashqarida tashkil etish g'oyasini ilgari suradi. Bu ta'lim Internet va kompyuterlar vositasida ta'lim dasturiariga (masofadan o'qitish) muvofiq o'qitishni samarali deya hisoblaydi.

Ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatida. Ta'lim tushunchasi va mohiyati. Ta'lim tizimli bilim olishning eng muhim va ishonchli usulidir. Ta'limga ikki tomoulama aloqa (ta'lim olish va ta'lim berish), shaxsni har tomonlama rivojlantirish va boshqa xususiyatlar xosdir. Ta'lim, shuningdek, o'ziga xos xususiyatlar ham ega. Ta'lim o'qituvchi tomonidan boshqariluvchi o'ziga xos anglash jarayonidir. O'qituvchining yo'naltiruvchi sifatidagi roli o'quvchilarning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalarni to'liq o'zlashtira olishlarida ko'rinadi.

Ta'lim o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti jarayoni ham sanaladi. U o'quvchilarga o'quv materialini mazmunini tushuntirib beradi, savol va topshiriqlar beradi, ularning faoliyatini nazorat qiladi, xato va

kamchiliklarini aniqlaydi, yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilaydi, qanday ishlash lozimligini qayta ko'rsatadi. Har qanday ta'lim o'zida o'qituvchi va o'quvchining faoliyati, ya'ni, o'qituvchining o'rgatish hamda o'quvchining o'rganishga yo'naltirilgan faoliyati, boshqacha aytganda to'g'ridan to'g'ri, bevosita va nisbiy munosabat(aks etadi).

Ta'lim jarayonining yaxlit tizim sifatidagi tavsifi. Ta'lim jarayonining "yaxlitligi" "tizimliliigi" va "majmuaviyiligi"ni bir xilda talqin etish mumkin emas. Biroq, ta'lim jarayonining yaxlitligi uning tizimliliigi bilan uzviy bog'liq.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) o'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlikdir

Ta'lim yaxlit tizim sifatida ko'plab o'zaro bog'liq quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: ta'lim maqsadi, o'quv axborotlari, o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limiy faoliyatlari, uning shakllari, pedagogik muloqot vositalari, shuningdek, ta'lim jarayonini boshqarish usullari.

Ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatida quyidagicha namoyon bo'ladi:

Ta'lim jarayonining negizini o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limiy faoliyatlari tashkil etadi.

Ta'lim funksiyalari. "Funksiya" tushunchasi "**ta'lim vazifalari**" tushunchasiga yaqindir. Ta'lim funksiyasi ta'lim jarayoni mohiyatini ifoda etadi, vazifasi esa ta'limning komponentlaridan biri hisoblanadi.

Didaktika (ta'lim jarayoni)ning quyidagi uchta funksiyasini ajratib ko'rsatadi: **ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash.**

Ta'lim jarayonining ta'lim berish funksiyasi o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat

Ta'lim natijasi sifatida **bilimlarning to'laligi, chuqurligi, tizimliliigi, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi** muhimdir. Bu kabi holatlar ta'lim jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan **amaliy ko'nikma va malakalarning shakllanishi** ham alohida ahamiyatga ega.

Umumiy ko'nikma va malakalarga og'zaki va yozma nutqni bilish,

axborot materiallaridan foydalana olish, o'qish, manbalar bilan ishlash, referat yozish, mustaqil ishni tashkil etish kabilar kiradi.

Ta'limning rivojlantiruvchi funksiyasi ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchining rivojlanishi sodir bo'lishini ifodalaydi

Rivojlanish quyidagi yo'nalishlarda sodir bo'ladi: **nutq, fikrlash, sensorli-harakatli va hissiy-irodaviy sohalarning rivojlanishi**. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim shaxsni har doim rivojlantiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchini har tomonlama rivojlantirish, birinchi navbatda, aqliy rivojlantirish (analiz qilish, taqqoslash, turlarga ajratish, xulosa chiqarish, obyektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni o'rgatish, natijalarni tekshirish malakasini rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim.

Ta'lim jarayoni tarbiyalovchi xususiyatga ham ega. Tarbiya va ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik obyektiv va qonuniy hisoblanadi. Biroq shaxsni ta'lim jarayonida tarbiyalash tashqi omillar (oilal, mikromuhit va boshqalar)ning ta'siri tufayli qiyin kechadi.

Ta'limning tarbiyalash funksiyasi turli ijtimoiy tuzum hamda sharoitda ham yaqqol namoyon bo'lib, ta'lim mazmuni, shakli va metodlarining mohiyati bilan belgilanadi va o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etish jarayonida yetakchi o'rin tutadi


Ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantiriladi.

Ta'limning tarbiyalovchilik xususiyati, eng avvalo, ta'lim mazmunida aks etadi. Biroq, barcha o'quv fanlari ham birdek tarbiyalovchilik imkoniyatiga ega emas. Gumanitar va estetik fanlarning bu boradagi imkoniyatlari yuqori.

Ta'lim jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili o'qituvchi va o'quvchilarning munosabatlari, sinfdagi psixologik muhit, o'qish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, o'quvchilarning idrok etish faoliyatlariga o'qituvchining rahbarligi hisoblanadi.

O'qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi. Ta'lim muassasasida tashkil etiladigan ta'lim jarayonida o'quvchining faoliyati o'qituvchi rahbarligi ostida kechadi. O'qituvchi faoliyatining vazifasi o'quvchilarning ijtimoiy borliqni ongli va faol idrok etishga yo'naltirilgan faoliyatlarini boshqarishdan iboratdir.

Ta'lim jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat:



Ta'lim jarayonini boshqarish bosqichlari

O'qituvchi faoliyatini rejalashtirish bosqichi kalendar-tematik yoki darslar rejalarini tuzish bilan yakunlanadi. Rejalar, reja-konspektlar yoki konspektlarni tuzish uchun uzoq, jiddiy ishlash kerak bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning tayyorliklari darajasi, ularning o'quv imkoniyatlari, moddiy baza holati, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o'rganib chiqishi, o'quv materialini mazmunini tanlab olishi, dars olib borish shakli va metodini o'yab chiqishi kerak bo'ladi.

O'quvchilar faoliyatini tashkil etish o'quvchilar oidiga o'quv masalalarini qo'yishni va uni bajarish uchun imkoniyatlar yaratishdan iborat bo'ladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatini boshqarish ularni to'g'ri yo'naltirishni nazarda tutadi. Nazorat qilish esa o'quvchilar faoliyatining maqsadga muvofiq, samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Natijalarni baholash va tahlil qilish ta'lim jarayonining qanday kechganligini bilish, yutuqlar omillarini o'rganish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Bujarayonlarning barchasi shaxsni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyati. Bilim olish faoliyatning o'ziga xos ko'rinishi sifatida muayyan tuzilish, rivojlanish va faoliyat qonuniyatlariga ega.

Bilim olish borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni


Bilim olishning muhim komponenti motiv, ya'ni. ta'limiy xarakterdagi harakat, faoliyatni tashkil etishga nisbatan rag'batni his etish, ehtiyojning yuzaga kelishidir.

O'qishning keyingi komponenti **o'quv harakatlari (operatsiyalari)** sanalib, uyar anglangan maqsadga binoan amalga oshiriladi. O'quv harakatlari o'quv jarayonini tashkil etishning barcha bosqichlarida namoyon bo'ladi. Harakatlar tashqi (kuzatiladigan) va ichki (kuzatilmaydigan) ko'rinida bo'lishi mumkin. Tashqi o'quv harakatlariga predmetli harakatlar (yozish, rasm chizish, tajribalar o'tkazish); perseptiv harakatlar (tinglash, fikrlash, kuzatish, sezish) hamda nutqdan foydalanish kiradi.

Ichki (mnemonik, yunonchadan "mnemonikon" eslab qolish madaniyati) harakatlarga materialni eslab qolish, uni tartibga solish va tashkil etish, shuningdek, tasavvur va fikrlash harakatlari kiradi.

Har qanday bilimni o'zlashtirishda o'quvchilardan idrok etish madaniyatiga ega bo'lish va o'quv materialini anglab yetish talab etiladi. Pedagogik jarayonda o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning ma'nosini yetarli darajada tushunmay, faqat tovushlar birligi sifatida qabul qilinishi va yodlab olinishi xavfilidir.

Bilimlarni o'zlashtirish jarayonining tuzilishi. O'quvchilarning o'quv faoliyatlarini samarali boshqarish uchun bilimlarni o'zlashtirish jarayonining mohiyati hamda bilimlarning egallash bosqichlaridan yetarlicha xabardor bo'lish. Bilimlarning egallash quyidagi bosqichlarda kechadi:



Bilimlarni egallash bosqichlari

Bilimlarni egallashda o'zlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar bosqichma-bosqich boyib va mustahkamlanib boradi. Bu holat bilimlarni egallashning dinamik xarakterini ifodalaydi. Jarayonni sxema yordamida quyidagicha ifodalash mumkin:

Birinchi bosqich **idrok etish** hisoblanadi. **Idrok etish** aniq maqsadga

yo'naltirilgan anglash jarayoni bo'lib, u tanlash xususiyatiga ega. Shu bois o'quvchilarga mavzuni, ya'ni, ularning nimani o'rganishlari (masalani qo'yish)ni tushuntirib berish orqali o'quv materiali bilan dastlabki tanishish amalga oshiriladi. Mazkur bosqich o'quvchi qaysi hodisa va voqealarni, predmetlarni o'rganish haqida yetarlicha tasavvurga ega bo'lganida va o'quv masalasini tushunib yetganda yakunlanadi.

Ikkinchi bosqich o'quv **materialini anglab yetish** bo'lib, u ma'lumotlarning nazariy jihatlarini ajratib olish va tahlil qilishdan iborat. Bunda asosiy mazmuni topish, tushunchani ajratib olish, ularning belgilarini asoslab berish, tushuntirish materialning xususiyatini aniqlab olish, misollar va tushuntiruvchi dalillar to'plamini o'rganib chiqishi kerak. O'quvchi eng **asosiy, ikkinchi darajali hamda qo'shimcha, tushuntiruvchi elementlarni** ajrata olishi lozim. O'quvchi o'quv masalasini yechish usulini tushunsa, bilimlar o'rtasidagi tizimni anglab yetsa ushbu bosqich yakunlangan sanaladi.

Uchinchi bosqich – **eslab qolish va mustahkamlash** bo'lib, o'zlashtirilgan bilimlarni uzoq vaqt davomida saqlab qolishdan iborat. Unda idrok etish faoliyati ko'proq mashqlar, mustaqil va ijodiy masalalar xususiyatiga ega bo'ladi. Nazariy material, tushuncha, qoida, isbotlar turli mashqlarda takrorlanadi. O'qituvchi o'quvchilarning topshiriqlarni tushunib bajarishlarini kuzatib borishi kerak. O'quvchilar matnlarni mexanik ko'chirib olishlari, topshiriqlarni bajarishlari, qoida va tushunchalarni chuqur anglab yetmay bajarishlari mumkin. Bosqich yakunida o'quvchilar nazariy materiallarni biladilar va ulardan mashqlarni bajarish, masalani yechish, teoremani isbotlashda foydalanishni biladilar. Ularda o'quv malakalari va ko'nikmalari shakllantirilgan bo'ladi.

To'rtinchi bosqich **bilimlarni amaliyotda qo'llashdan** iborat. Bilimlarni qo'llash o'rganilayotgan materialning mazmuni xususiyatiga qarab faoliyat turli shakllari va ko'rinishlarida amalga oshirilishi mumkin. Bu o'quv mashqlari, laboratoriya ishlari, tadqiqot topshiriqlari, maktab yer maydonidagi ishlar bo'lishi mumkin.

Ta'limning gnoseologik asoslari. O'quv jarayonini mantiqiy qurilishi ta'lim mazmunining gnoseologik xususiyatlariga bog'liq.

Gnoseologiya (yunoncha – “gnosis” (“gnoseos”) – bilim, ong, o‘rganish, logiya – fan, ta’limot) bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlari, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo‘lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta’limot.

Muhammad al-Xorazmiy (IX asr) bilish nazariyasi rivojlanishiga katta hissasini qo‘shgan. U birinchi bo‘lib koinot obyektlarining harakatlari hamda yerdagi nuqtalarining joylashishini jadval ko‘rinishida aks ettirib, tajriba-kuzatish va tadqiqotlar metodlarini ilmiy jihatdan asoslab berdi, yagonalikning birligi tamoyili, alohida va umumiy, induksiya va deduksiyalarning mohiyatini aniqlashtirdi; matematik masalalarni yechishning algoritmik metodini ishlab chiqdi. Bu metoddan bugungi kunda ham foydalanib kelinmoqda.

Al-Kindiy (IX asr) ilmiy bilishning uch bosqichli konsepsiyasini ilgari suradi. Alloma insonning bilishini: sezgiga oid va ratsional bilish tarzida ikkiga ajratadi. Sezib bilishning predmeti va obyekti barcha jism va moddiy narsalar hisoblanadi. Kindiyning fikricha, sezib bilish aql uchun muhim materialni beradi. “Faqatgina aql tashqi dunyo haqida haqiqiy bilim va tushunchani ishlab chiqishga qodir”, - deb hisoblaydi Kindiy.

Abu Nasr Forobiy (X asr) Kindiy g‘oyalarning mohiyatini aniqlashtiradi. Biror narsani bilishga intilgan inson avvalo uning ma’lum holatini o‘rganadi, mavjud bilimlarini o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan bilimlarga yo‘naltiradi. Alloma fanlar klassifikatsiyasi, bilish faoliyatini tashkil etishga oid tavsiyalarni ishlab chiqadi. “Yaxshi nazariyotchi bo‘lish uchun deydi, - Abu Nasr Forobiy, - qaysi fan bilan shug‘ullanishidan qat’iy nazar quyidagi uchta shartga amal qilish kerak:

1) fan asosida yotuvchi barcha tamoyillarni yaxshi bilishi; 2) ushbu tamoyil va ma’lumotlar asosida zarur xulosani chiqarishi, ya’ni, mulohaza yuritish qoidalarini bilishi kerak; 3) xato nazariyalarni isbotlab berish va boshqa mualliflar fikrlarini tahlil qilishni, shuningdek, haqiqatni yo‘l-g‘ondan ajratish va xatoni tuzatishni bilishi zarur.

Abu Rayhon Beruniy Beruniy (XI asr) bilishni uzluksiz, to‘xtovsiz davom etadigan jarayon sifatida tushunadi. Allomaning fikricha, insoniyat borliqning haqiqiy mohiyati, hozircha noma’lum bo‘lgan jihatlarini kelajakda bilib oladi.

Abu Ali ibn Sinoning (XI asr) bilish nazariyasida sabab haqidagi ta'limot alohida o'rin oladi. U sabablarni aniq, sezish asosida **anglanadigan va yashirin, tashqi holatlarini tahlil etish asosida tushuniladigan sabablarga** ajratadi va hodisaning mohiyati uning yuzaga kelish sabablarini aniqlash yo'li bilan anglanishi mumkin deb hisoblaydi.

Chex pedagogi Y.A.Komenskiy XVII asrda ta'lim jarayonining mohiyatini ilmiy asoslashga urindi. Alloma bolaning aqliy, jismoniy o'sishini tabiiy qonuniyatga muvofiq kelishi g'oyasini asoslangan holda ta'lim jarayoni, uning tuzilishi, tamoyil va metodlari belgilaydi. Y.A.Komenskiy ushbu g'oyasi G'arb olimlarining ta'lim jarayonining gnoseologik asoslarini ko'rsatish, o'quv jarayoniga tabiiy va ijtimoiy qonuniyatlar ta'sirini yoritishga urinishlaridan biridir.

XVIII asrda fransuz olimi Jan Jak Russo ham insonning tabiat va jamiyatdagi o'rni haqidagi falsafiy g'oyalar asosida ta'lim mohiyatini ochib berishga uringan. Uning fikricha, ta'lim jarayonining mohiyati bolaning atrof-muhitni bilishiga asoslanadi.

Hozirda ta'lim mohiyatini tushunishga turlicha yondashuv mavjud. YA'ni:

1. **Sotsiologik yondashuvga** ko'ra ta'limning mohiyati ijtimoiy tajribalarni yoshlarga yetkazishdan iborat. O'quvchilar insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi natijalari bo'lgan bilimlarni o'rganadilar. Ta'limning mazmuni o'quvchilarga ajdodlar tajribasini o'zlashtirishga xizmat qiluvchi jarayonini tashkil etishdan iborat. Bu qoida ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning muhim omili – shaxs kamolotini tushunishga ilmiy yondashishni anglatadi.

2. **Xususiy pedagogik yoki didaktik yondashuv** yaxlit ta'lim jarayonining borishini belgilab beruvchi bilim olish bosqichlari (o'quv materialini o'rganishni, uni anglab yetish, mustahkamlash, amaliy faoliyatda bilimlarini qo'llash)ni ifodalaydi. Mazkur yondashuvga ko'ra **ta'lim mazmuni** o'quvchilar tomonidan bilim egallash bosqichlarining ketma-ketligiga amal qilish asosida faoliyatni tashkil etishdan iborat.

3. **Psixologik yondashuv** L.S.Vigotskiyning (1896-1934 yillar) ta'limning shaxs rivojlanishida asosiy omil bo'lishi haqidagi **“yaqin rivojlanish zonasi”** deb yuritiluvchi qarashining yaratilishi bilan bog'liq. Unga ko'ra, ta'lim faqat yaqin zonada qurilganda, hali to'la shakllanmagan,

lekin o'quv jarayonini qurishga asos bo'la oladigan mexanik harakatlar asoslangandagina mazmunga ega bo'ladi.

4. Dialektik yondashuv tabiat, jamiyat va fikrlashning harakatlanishi hamda rivojlanishi borasidagi umumiy qonunlarni yorituvchi falsafiy ta'limotga asoslanadi. Unga ko'ra ta'lim jarayoni inson ongining borliqni aks ettira olishiga imkon berishi zarur. Haqiqatni bilish murakkab jarayon. Dialektik yondashish g'oyasiga ko'ra rivojlanishning asosi qarama-qarshilik hisoblanadi. Rivojlanish qarama-qarshi kuchlar kurashidir.

Dialektik yondashishga binoan **ta'lim jarayonining asosiy qarama-qarshiliklari** quyidagilar sanaladi:

1. Ijtimoiy-tarixiy (ilmiy) bilimlar hajmi va o'quvchi o'zlashtirgan bilimlar hajmi o'rtasidagi qarama-qarshilik. Bu qarama-qarshilik ta'lim jarayonini harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. U ta'lim mazmunini doimiy takomillashtirishga olib keladi. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini ijtimoiy-texnik taraqqiyot darajasiga yaqinlashtirish zaruriyati ta'lim mazmunini tubdan yangilash, uni yangi tamoyil, shakl, metod va vositalarini izlashni muhim ijtimoiy vazifa qilib qo'yimoqda.

2. O'quvchining bilimi va u egallab olishi kerak bo'lgan shakl, metod va vositalari) darajasi o'rtasidagi qarama-qarshilik. Bu qarama-qarshilikni hal etish o'quvchining intellektual rivojlanishi sur'ati va darajasiga bog'liq. Bir xil mazmun va hajmdagi o'quv materiali ham aqliy rivojlanishning turli ko'rsatkichlari orqali namoyon bo'lishi mumkin.

3. O'quvchining mavjud rivojlanish darajasi bilan ijtimoiy buyurtmada ko'zda tutiluvchi rivojlanish darajasi o'rtasidagi qarama-qarshilik. Agarda ijtimoiy talab bolaning idrok etish imkoniyatidan yuqori bo'lsa, unda jiddiy qiyinchilik yuzaga keladi.

4. Aksiologik (yunoncha "axios" – qimmatli, logiya – fan) yondashuv – qadriyatlar haqidagi falsafiy ta'limot bo'lib, unga ko'ra ta'lim jarayonida o'quvchi hayot, sog'liq, muhabbat, oila, ta'lim, mehnat, tinchlik, ishonch, go'zallik, ijod, insoniylik va shu kabi qadriyatlar bilan tanishtirib borilishi lozim.

2. Ta'lim qonuniyatlari va prinsiplari. O'quv jarayonida amal qiluvchi barcha qonuniyatlar umumiy va xususiy xarakter kasb etishiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi. Amal qilinishiga ko'ra yaxlit didaktik tizimni qamrab oladigan qonuniyatlar umumiy, amal qilinishiga ko'ra faqat alohida tarkibiy

qismlariga tegishli bo'lgan qonuniyatlar esa **xususiy** deb ataladi.

Ta'lim qonuniyatlari quyidagilardan iborat: 1) ta'lim omillari, shart-sharoitlari va natijalari o'rtasida o'zaro aloqadorlikning mavjudligi; 2) ta'lim jarayonining ijtimoiy omillar va jamiyat ehtiyojlari bilan bog'liqligi; 3) ta'lim, rivojlanish va tarbiyaning o'zaro birligi; 4) har qanday ta'lim jarayonida o'qituvchi, o'quvchi va o'rganilayotgan obyektlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning talab etilishi; 5) ta'lim jarayoni samaradorligining o'quvchilar tomonidan ko'rsatiladigan o'quv faolligi asosida ta'minlanishi; 6) malakalarning muayyan operatsiya va harakatlarning muntazam, ko'p bora takrorlanishi natijasida hosil bo'lishi; 7) o'zlashtirishning puxtaligi takrorlashning izchilligiga bog'liq ekanligi; 8) o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan murakkab faoliyat usullarining o'qituvchi tomonidan ularga eng oddiy faoliyat usullarini muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi natijasi ekanligi.

Ta'lim qonuniyatlari asosida unga qo'yiladigan talablar – ta'lim tamoyillari aniqlanadi.

Ta'lim prinsiplari o'qitish asosida yotadigan, ta'lim va uni tashkil etish jarayonini tashkil etish mazmuni, shakl, metod va vositalarini tanlanishini belgilaydigan boshlang'ich asoslardir

Ta'lim jarayonida quyidagi tamoyillar ustuvor xarakter kasb etadi: ijtimoiy-g'oyaviylik; ongillik va faollik; ilmiylik va tushunarlilik; ko'rgazmalilik; mustahkamlik; tarbiyalovchi xarakterga egalik; fundamentallik va amaliy yo'nalganlik (ta'limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi); tabiat bilan uyg'unlik; madaniy taraqqiyot bilan uyg'unlik; ta'limning o'quvchilar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi; insonparvarlik; oqilona talabchanlik bilan bola shaxsini hurmat qilishning muvofiqiligi; pedagogik hamkorlik.

3. Ta'lim mazmuni, mohiyati va tarixiy xususiyatlari. Ta'lim o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish, ularning amaliy ko'nikma, malakalari va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, ushbu tushuncha negizida shaxsning tanqidiy fikrlashi, yaratishi, borliqda sodir bo'layotgan hodisalarni o'zaro aloqadorlik nuqtai nazaridan baholay olishi ham aks etadi.

Ta'lim tushunchasi, shuningdek, ajdodlar tomonidan to'plangan ijtimoiy ahamiyatli tajribalarning avlodlarga doimiy uzatilishini ta'minlovchi tizimli jarayoni ham sanaladi. «...ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini bugungi

kun talablari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish zarur», - deydi yurtboshimiz.

Shaxsni ijtimoiylashtirish uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor mevorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o'zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayonidir.

Ta'lim mazmuni tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar, qarashlar, ishonchlar to'plami, o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish natijasida erishilgan amaliy tayyorgarlikning ma'lum darajasi bilan belgilanadi.

Ta'lim mazmunining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan bilimlar muhim ijtimoiy qadriyat ham sanaladi. U individning ijtimoiylashishi, odamning sotsium (ijtimoiy muhit)ga kirishiga yordam beradi. O'tgan asrda ta'lim mazmunini siyosiyashtirishga, urinishga qaratilgan harakatlarning yuzaga kelganligi uning mazmunini belgilashda ekstensiv yondashish (miqdoriy – sonini ko'paytirish) yetakchi o'rin egalladi. Natijada ta'lim mazmuni o'quv fanlari sonining doimiy ortib borish hisobiga kengaytirildi, ta'lim jarayonida tayyor bilimlarni berish asosida, o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga e'tibor qaratilib, o'quvchi shaxsini rivojlantirish masalasi o'z yechimini topmadi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondoshishga muvofiq ta'lim mazmuni mohiyatini aniqlashda asosiy qadriyat bilim emas, balki odamning o'zi hisoblanadi. Bunday yondoshuv shaxsning ta'lim olish, ma'naviy, madaniy va hayotiy talab-ehtiyojlarini qondirish, rivojlanayotgan shaxsga nisbatan samimiy munosabatida bo'lishi ta'lim mazmunini erkin tanlash imkonini beradi.

An'anaviy pedagogika deyarli faqat odamning ijtimoiy mohiyatini tan olganligi bois, ta'limning maqsadi insonning jamiyat a'zosi sifatida rivojlanishi, unda ijtimoiy ahamiyatli sifatlarining shakllanishi hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida, O'zbekiston Respublikasida ta'lim jamiyat va davlatning ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanishi asosi deb e'lon qilindi. Ta'limning maqsadi mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limning umumiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- aholi milliy-madaniy ehtiyojlarini qonitqirish, jismoniy va ma'naviy

sog'lom avlodni tarbiyalash;

- o'quvchilar tomonidan ijtimoiy va ishlab chiqarish talablari bilan belgilanadigan bilimlar tizimini o'zlashtirilishini ta'minlash;

- ularda ilmiy dunyoqarash, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy madaniyat, ijodiy, erkin fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning mustaqil bilimlarini oshirib borishi;

- yoshlarda Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, fuqarolik dunyoqarashi, insoniy qadr-qimmat, demokratik o'zini boshqarishda ishtirok etish. shuningdek, o'z harakatlari uchun javobgarligini yuzaga keltirish.

Ana shu umumiy vazifalar bir qator alohida masalalardan iborat bo'ladi. Ular o'quv fanlari mazmunida uyg'unlashtiriladi.

Ta'lim turlari va ko'rinishlari. Yevropa va Sharq, Osiyo va Amerika mamlakatlarida ta'lim turlari tarixiy taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan. Birinchi turi mifologik ta'lim bo'lib, unda dunyoning mohiyati ertak, afsona, doston, qissa hamda qo'shiqlar shaklida o'rganilgan.

Keyingi tarixiy turi sxolastik ta'lim bo'lgan. Uning mohiyatiga ko'ra ta'limda matn madaniyati va yer, osmon haqidagi bilimlar so'z bilan ifodalanib, xotira va irodani mashq qildirish asosida yosh avlodga inson mavjudligi va u tomonidan tashkil etiladigan faoliyat mazmuni haqida bilimlar berilgan, savodxonlik va nutq madaniyatiga o'rgatilgan.

Ta'limning uchinchi tarixiy turi - ma'rifatparvarlik bo'lib, u dunyoviy bilimlar yaratilgan davrda yuzaga kelgan. XX asrdan boshlab esa turli ta'lim paradigma (model)lari, turlari va ko'rinishlarining rivojlanish jarayoni kuzatildi.

1. Bugungi kunda asoslariga ko'ra ta'limning quyidagi turlari, ko'rinishlari mavjud:

2. ilmiy bilimlarni o'zlashtirishi turi va sifatiga ko'ra (biologik, matematik, fizik, iqtisodiy, filologik ta'lim va shu kabi);

3. ustuvor mazmunga ko'ra (nazariy va amaliy, gumanitar va boshqalar);

4. ijtimoiy faoliyatlarni egallashi turi va mahoratiga ko'ra (musiqiy, badiiy, texnik, texnologik, pedagogik-tibbiy ta'lim va shu kabilar);

5. madaniy qadriyatlarni o'zlashtirishiga ko'ra (an'naviy ta'lim, badiiy-estetik, diniy ta'lim va boshqalar);

6. kishilik jamiyatining madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish ko'lamiga

ko'ra (milliy, yevropa, xalqaro, global ta'lim va boshqalar);

7. ta'lim tizimi turiga ko'ra (universitet, akademik, gimnaziya, litsey ta'limi va boshqalar);

8. ta'lim mazmuni yo'nalishining ustuvorligiga ko'ra (formal va moddiy, ilmiy va elementar, gumanitar va tabiiy fanlar, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy va boshqalar);

9. ta'lim darajasiga ko'ra (boshlang'ich, to'liqsiz o'rta, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim).

Hozirgi zamon bosqichida ta'lim mazmunini belgilovchi muhim g'oyalar (asoslar). Ta'lim mazmuni – bu jamiyatning shaxsni ma'naviy rivojlanishi darajasiga qo'yilgan talablar, jamiyatning ijtimoiy tajriba va madaniyatini aks ettirgan ijtimoiy buyurtmasi modelidir.

Ijtimoiy tajriba quyidagi to'rt element bilan tavsiflanadi:

- inson tabiat, jamiyat haqidagi bilimlari
- faoliyatning ko'nikma, malaka va usullari;
- yangi vazifalarni hal etish bo'yicha ijodiy faoliyat tajribasi;
- atrofdagilar bilan o'zaro emotsional (hissiy) – qadriyatli munosabatlar tajribasi.

1. Shularga muvofiq zamonaviy didaktika g'oyalariga ko'ra ta'lim mazmunining tarkibida quyidagilar o'z aksini topadi: 1) olam haqidagi bilimlar; 2) faoliyatni amalga oshirish usullari tajribasi; 3) ijodiy faoliyat tajribasi; 4) atrof-muhitga hissiy-qadriyatli munosabat tajribasi.

2. Ilmiy asoslangan ta'lim mazmunini qanday aniqlash mumkin? Ta'lim mazmuniga nima ta'sir ko'rsatadi? U nimaga bog'liq bo'ladi?

3. Ta'lim mazmunini aniqlovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat bo'ladi:

4. fan, texnika, madaniyatning jamiyatda rivojlanganligi darajasi;
5. ta'limning maqsad va vazifalari;
6. o'quvchilarning yoshi xususiyatlari;
7. o'quvchi shaxsining ehtiyojlari.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim mazmuni o'quvchilarda atrof-muhit haqida umumiy tasavvurlarni hosil qilishi, ularni o'zlarining amaliy faoliyatlari uchun zarur bo'lgan bilimlarni izlashga va bu bilimlarni hayotiy muammolarni hal etishda qo'llashga o'rgatishi kerak. Ta'lim mazmuni o'quv rejalari, o'quv dasturlarida, darsliklarda aks ettiriladi. «Shuni unitmasligimiz

kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi», - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim mazmunini tanlab olish tamoyil va mezonlari. Maktab ta'limi mazmunini shakllantirish quyidagi umumiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

1. Ta'lim mazmunining barcha elementlari barcha bosqichlarda jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo'lishi tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmuniga an'anaviy bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga jamiyatning rivojlanganligi, ilmiy bilim, madaniy hayot darajasi va shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi fanlarni kiritishni talab etadi.

2. Ta'limning yagona mazmunli va protsessual tomoni tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmunini tanlashda bir tomonlama ilmiy yo'nalishni rad etadi. U aniq bir o'quv jarayonini amalga oshirish bilan bog'liq pedagogik haqiqatni hisobga olishni ko'zda tutadi. Bu umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim mazmunini loyihalashtirishda uni berish va o'zlashtirish tamoyillari hamda texnologiyasi, o'zlashtirish darajasi va u bilan bog'liq harakatlarni hisobga olish kerakligini anglatadi.

3. Ta'lim mazmunining yaxlit tuzilishi tamoyili. Bu tamoyil ta'lim tizimining turli bosqichlarida nazariy bilimlarning berilishi, o'quv fani, o'quv material, pedagogik faoliyat, o'quvchi shaxsi kabi tashkil etuvchilarining o'zaro mosligini ko'zda tutadi.

Oxirgi yillarda ta'lim mazmunini tanlash gumanitarlashtirish va fundamentalashtirish kabi tamoyillar yetakchi o'rin egallamoqda. Bu umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim shaxsning insonparvarlik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishini anglatadi. Insonparvarlik madaniyati birinchi navbatda bilim, hissiyotlar madaniyati, muomala va ijodiy harakatlar uyg'unligidir.

4. Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili. Bu tamoyil birinchi navbatda o'quvchilarning umuminsoniy va milliy madaniyatni faol ijodiy va amaliy o'zlashtirishlari uchun sharoitlar yaratish bilan bog'liqdir. Buning uchun gumanitar g'oyalar umumiy ta'lim mazmuniga singdirilishi kerak. Bu esa o'z navbatida gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro munosabatlari tamoyilining o'zgartirilishini talab etadi, uning asosini shaxsa e'tibor qaratish tashkil etishi zarur.

5. Ta'lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyili ta'limni gumanitarlashtirishdagi to'siqlarni yo'qotishga imkon beradi (an'anaviy pedagogikada uni ilmiylik, tushunarlik va tarixiylik tamoyili sifatida qaraladi). U gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlarni birlashtirish, ketma-ketlikni o'rnatish va fanlararo aloqalarni o'quvchilarning idrok etish va amaliy faoliyat metodologiyasi mohiyatini anglab yetishlariga tayanishni talab etadi.

6. Ta'lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili, bu tamoyil ta'lim mazmunini o'sib boruvchi yo'nalishda rejalashtirishdan iborat bo'lishini anglatadi, bunda birinchi navbatda har bir yangi bilim avvalgisiga tayanadi va undan kelib chiqadi.

7. Ta'limning mazmuni muntazamligi tamoyili, ushbu tamoyil o'rganilayotgan bilimlar va shakllantirilayotgan malakalarni yagona tizimdagi o'rni, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, barcha o'quv kurslari va yaxlit mazmunning bir-biriga hamda umuminsoniy, milliy madaniyat tizimiga kiruvchi tizim sifatida ko'rishni ko'zda tutadi.

8. Ta'lim mazmunining o'quvchilar yoshlari imkoniyatlariga mosligi tamoyili o'quvchilarning yosh darajasi va tayyorgarligini ko'zda tutadi. Ularga o'zlashtirish uchun u yoki bu bilimlar va malakalar tizimi o'zlashtirish uchun taklif etiladi.

- Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning mazmunini shakllantirish ko'rib chiqilgan tamoyillarini zamonaviy o'rta maktablar va akademik litseylari uchun tanlab olish quyidagi mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- erkin fikrlovchi shaxsning rivojlanishi va uning madaniyatini shakllantirish masalalari mazmunini yaxlit aks ettirish;

- ilmiy va amaliy ahamiyati;

- ta'lim mazmunining murakkabligi, o'quvchilar imkoniyatlarining mavjud o'quv dasturlariga mosligi;

- ta'lim hajmining uni o'rganishga ajratiladigan vaqtga mosligi;

- maktab hamda litseylar bazasining zamonaviy talablarga javob berishi;

- umumiy o'rta ta'lim mazmunini qurishda xalqaro tajribalarni hisobga olish.

Ta'lim mazmunini belgilovchi meyoriy hujjatlar. Ilmiy pedagogik adabiyotlarda ta'lim mazmunini shakllantirishning quyidagi uch bosqichi ko'rsatiladi:

- umumiy nazariy bosqich;

-- o'quv bosqichi;

- o'quv materialini o'zlashtirish bosqichi, ya'ni, ta'lim mazmunining o'quv rejasi, o'quv dasturi va darsliklar kabi meyoriy hujjatlarda o'z ifodasini topishi.

Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni davlat ta'lim standarti, o'quv rejaları mazmunida namoyon bo'ladi. O'quv rejaları quyidagilardan iborat: tayanch, namunaviy va maktab o'quv rejasi.

Umumiy o'rta hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari) uchun tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tashkiliy qismi hisoblangan asosiy meyoriy hujjat bo'lib, u namunaviy va amaliy o'quv rejalarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standarti tarkibiy qismi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

- Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejarining namunaviy o'quv rejaları tayanch o'quv rejasi asosida tuziladi va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirliklari tomonidan tasdiqlanadi. Bu reja uzoq muddatga mo'ljallab tuziladi va uning asosida mavjud sharoitlarni hisobga olib ishchi o'quv rejaları ishlab chiqiladi.

- O'quv rejasi – meyoriy hujjat hisoblanib (ta'lim muassasasi sertifikat) quyidagilarni belgilaydi:

- o'quv yili, chorak (semestr)lar va ta'tillarning davomiyligi;

- ushbu ta'lim muassasasida o'rganiladigan o'quv fanlari tartibi;

o'qish yillari bo'yicha fanlarni taqsimlash;

har bir fan bo'yicha yaxlit ta'lim davri va har bir sinf (kurs)da fanlarni o'rganishga ajratilgan soatlar hajmi;

har bir fanni o'rganishga ajratilgan haftalik soatlar hajmi;

praktikumlar, ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlar hamda shu kabilarning davomiyligi.

O'quv rejasida, yana shuningdek, aniq bir o'quv muassasi xususiyatlarini aks ettiruvchi, o'quvchilarning erkin tanlovi bo'yicha fakultativ va majburiy mashg'ulotlar aks ettiriladi.

O'quv dasturi – muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtni muhim bilimlarni o'rganilishi bo'yicha

taqsimlash, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi meyoriy hujjat.

Dasturda o'quv materialining ta'limning har bir yili va har bir sinf, kurs bo'yicha taqsimlanishi tuzilishi asoslab berilgan. Dasturda ko'rsatilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'quvchilar tomonidan to'la o'zlashtirilishi o'qitish jarayoni muvaffaqiyatligi va samaraliigi mezonlaridan biri hisoblanadi.

O'quv dasturlari namunaviy, ishchi va mualliflik bo'lishi mumkin.

Namunaviy o'quv dasturi u yoki bu ta'lim sohasiga nisbatan davlat ta'lim standartlari talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ushbu fanni o'rganish maqsadlari, o'quvchilarning bilim va malakalariga asosiy talablar, o'qitish tavsiya etiladigan shakl va metodlari haqidagi tushuntirish xati;
- o'rganilayotgan materialning tematik mazmuni;
- kursning alohida savollarini o'rganishga o'qituvchi sarflaydigan taxminiy soatlari hajmi;
- dunyoqarashni shakllantiruvchi asosiy savollari ro'yxati;
- fanlararo va kurslararo bog'liqlikni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar;
- o'quv uskunlari va ko'rgazmali qo'llanmalar ro'yxati;
- tavsiya etiladigan adabiyotlar.

Namunaviy o'quv dasturlari Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirliklari tomonidan tasdiqlanadi, tavsiyanoma xususiyatiga ega bo'ladi. Namunaviy dastur asosida maktab, akademik litsey pedagogik kengashi tomonidan ishchi o'quv dasturlari ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Namunaviy dasturdan farqli ravishda ishchi dasturda regional komponenti ta'riflanadi, o'quv jarayonini metodik, informatsion, texnik ta'minlash imkoniyati, o'quvchilarning tayyorgarligi darajasi hisobga olinadi.

Mualliflik o'quv dasturlari davlat standarti talablarini hisobga olgan holda o'quv fanini qurilishi boshqacha mantiqidan iborat bo'lishi, u yoki bu nazariyalarni o'rganishga mualliflik yondashuvi, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarga nisbatan mualliflik nuqtai nazarini aks ettirishi lozim. Bunday dasturlar ushbu fan sohasida pedagog, psixolog, metodistlarning tashqi rensenziyalariga ega bo'lishi kerak va ular mavjud bo'lganida maktab,

akademik litsey hamda kasb-hunar kollejarining Pedagogik Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Mualliflik o'quv dasturlari o'quvchilarning erkin tanlovi bo'yicha (majburiy va fakultativ) kurslar tashkil etishda keng foydalaniladi.

O'quv fani ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi manbadir.

O'quv fanining mazmuni har bir pedagog tomonidan ixtiyoriy belgilanmaydi, balki ijtimoiy hodisa sifatida ta'limning tarixiy rivojlanishi davomida ishlab chiqiladi. O'rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quv fanlarini ilmiy bilimning umumiy tuzilishiga mos ravishda shakllantirish kerak deb hisoblovchi nuqtai nazar eng keng tarqalgan va tan olingan hisoblanadi.

Ta'lim mazmuni va o'quv dasturlari o'quv adabiyotlarida loyihalashtiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga darsliklar va o'quv qo'llanmalari kiradi.

O'quv adabiyotlari orasida darslik alohida o'rin tutadi. Darslik muayyan o'quv fani bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba bo'lib, u mazmuni va tuzilishiga ko'ra fan bo'yicha yaratilgan o'quv dasturiga mos keladi. Namunaviy o'quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar maqsadga muvofiq holda Respublika Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirliklari tomonidan barcha maktablar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun tavsiya etiladi. /oyaviy va metodik jihatdan mukammal bo'lgan darslik ta'lim mazmuniga qo'yiladigan barcha talablarga javob bera olishi, o'quvchilar uchun qiziqarli, iloji boricha qisqa, tushunarli, ko'rgazmalilik nuqati nazaridan estetik xususiyatga ega bo'lishi kerak.

Darslik bir vaqtning o'zida ham barqaror, ham qulay tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishi kerak. Darslik barqarorligiga ko'ra mustahkam asosga ega, mobilligiga ko'ra ega asosiy tuzilmaga dahl etmagan holda yangi bilimlarni tezlikda kiritish imkoniyatini namoyon etadi. Ularga qo'yiladigan talablar turli-tuman va qarama-qarshi bo'lib, mukammal darsliklarning yetishmovchiligi doimo his etiladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda muqobil, parallel darsliklar nashr etiladi, shu sababli o'qituvchilar va

o'quvchilar ular orasidan eng yaxshilarini tanlab olish imkoniyatiga egalar.

Darslik o'quvchilarning ta'lim jarayonida, ongli ravishda va faol ishtirok etishlari, o'quv materialini to'la o'zlashtirishlarini ta'minlashi kerak. Ana shu masalalarni hal etish yo'lida darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- motivatsion vazifa - bu vazifa o'quvchilarni ushbu fanni o'rganishga yo'naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag'bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat;
- axborot vazifasi o'quvchilarga axborotlarni yetkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirishga imkon beradi;
- nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi – ta'lim jarayoni. uning natijalarini tekshirish, o'quvchilarda o'zini baholash va tuzatish layoqati hamda zarur bo'lgan ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun o'rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi.
- muvofiqlashtirish vazifasi material ustida ishlash jarayonida ta'limning boshqa vositalari (xaritalar, ko'rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar)ni jalb etishni ifodalaydi;
- rivojlantiruvchi –tarbiyalovchi vazifasi darslik mazmunining o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatarni shakllantirishdan iborat;
- o'qitish vazifasi darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo'lgan konpekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko'rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko'zga tashlanadi.

Ta'lim mazmuni o'quv materiali darajasida darsliklar bilan bir qatorda turli xil o'quv qo'llanmalari: adabiyot va tarix xrestomatiyalari, spravochniklar, matematika, fizika, ximiya bo'yicha masalalar to'plamlari, geografiya, biologiya bo'yicha atlaslar, til bo'yicha mashqlar to'plamlari va boshqalarda ochib beriladi. O'quv qo'llanmalari darslikning ba'zi tomonlarini kengaytiradi va aniq masalalarni hal etish maqsadiga ega bo'ladi (axborot. mashq qilish, tekshirish).

4. Davlat ta'lim standarti. Ta'lim mazmunining rivojlanishida ko'zga tashlanayotgan zamenaviy tendensiyalaridan biri uni standartlashtirish (davlat miqyosida yagona qoidalar va talablar o'rnatilishi) hisoblanadi. Standartlashtirishda quyidagi ikki omil muhim ahamiyatga ega:

turli ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar bilimlar hajmining bir xillik darajasini ta'minlovchi mamlakatda yagona pedagogik muhitni yaratish zarurligi;

O'zbekistonning jahon hamjamiyati tizimiga kirishi natijasida xalqaro ta'lim amaliyotida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmunini rivojlanishi tendensiyalarining hisobga olinishi.

Davlat ta'lim standarti:

1. ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari kerak bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat;

2. o'quv fani bo'yicha yakuniy ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat;

3. ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablarni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni bilan bir qatorda ta'lim standarti asosiy meyoriy hujjat hisoblanadi. «Standart» ingliz tilidan tarjima qilinganda «meyor», «namuna», «andoza», «model» ma'nolarini anglatadi. Standart yordamida, respublika miqyosidagi turli ta'lim muassasalarida ta'limning barqarorlik darajasini ta'minlashga erishiladi, o'quv ishlari normativlari moslashtiriladi, o'quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi. O'quvchi davlat tomonidan belgilangan ta'lim standarti bilan cheklanishlari mumkin, yoki bilimlarni yanada chuqurroq egallab olish maqsadida mustaqil shug'ullanish imkoniyatiga ega. Uning uchun qiyin bo'lgan yoki qiziqarli bo'lmagan fanni o'rganishda o'quvchiga standartga kiritilgan normativ minimum bilan cheklanish imkoniyati beriladi.

Ushbu holatda, o'quvchi o'ziga mos keladigan ta'lim yo'lini anglagan holda va mustaqil tanlab, o'z qiziqishlari, istagi, qobiliyatlari va intilishlarini amalga oshirishga imkoniyatga ega bo'ladi. Shakli va mazmuni bo'yicha tushunarli ifoda etilgan standart talablari oldindan o'quvchilarga va ularning ota-onalariga yetkaziladi.

Ta'limni standartlashtirish dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, mukammal ravishda o'quv rejaları va dasturlarini ishlab chiqish, ta'limning ma'lum darajasini belgilash bilan amalga oshiriladi. Ammo "standart" termini o'zi ta'limga nisbatan yaqin davrlardan qo'llanila boshlangan. Davlat

ta'lim standartlari ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi. Ular ta'lim mazmuni minimal hajmini qayd etish va ta'lim darajasining quyi chegarasini belgilab beradi.

Davlat ta'lim standartlarini yaratish bo'yicha ishlar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (1992 yil) qabul qilingandan keyin boshlandi. Mazkur hujjatning 6-bandida jahon ta'limi amaliyoti meyorlariga mos keluvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish zarurligi ta'kidlab o'tiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning IX sessiyasida (1997 yil) O'zbekiston Respublikasining yangi tahriridagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingandan so'ng ta'lim dasturlari yangi avlodi yaratildi. Jahon amaliyoti tajribasi asosida yaratilgan ta'lim standartlari har bir fan bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlarning minimal darajasini belgilashga imkon berdi.

Davlat ta'lim standartlari tarkibiy tuzilishiga ko'ra quyidagilardan ibaratdir:

1. Ta'limning yangi yoki aniqlashtirilgan maqsadlari, fanning o'rganish obyektlari va asosiy mazmunli yo'nalishlari ko'zda tutiladigan o'quv fanining umumiy ta'rifi.

2. O'quv fanining mazmuni, tayanch (invariant) darajasini tasvirlash.

3. Ta'limning majburiy natijalarini ifodalash, ya'ni o'quvchilarning o'quv tayyorgarliklari zarur bo'lgan minimal darajasiga talablar.

4. Bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiluvchi talablar, bu ularning majburiy tayyorgarliklari darajasining "o'lchamidir", ya'ni, tekshirish ishlari, testlar va alohida topshiriqlarni bajarishlariga qarab o'quvchilar tomonidan talablarning majburiy darajasiga erishilganligi haqida fikr yuritish mumkin bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Didaktika (ta'lim nazariyasi) nima?
2. Ta'lim nazariyalari va ularning asosiy kategoriyalari
3. "Ta'lim paradigmalari" tushunchasini ta'riflang.
4. Ta'lim mazmuni nima?
5. Ta'lim mazmuni qaysi meyoriy hujjatlarda aks etadi?
6. DTS qanday vazifalarni bajaradi?

11-MAVZU. TA'LIMNI TASHKILY SHAKLLARI

Reja:

1. Ta'limning tashkiliy shakllarining rivojlanishi.
2. Dars – o'quv faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli.
3. Darsga turlari va tuzilishi.

Tayanch iboralar:

Ta'limning tashkiliy shakllari, sinf-dars tizimi, dars tuzilishi, dars turlari, dars shakllari, dars bosqichlari, zaonaviy dars talablari, darsga tayyorgarlik bosqichlari.

1. Ta'limning tashkiliy shakllarining rivojlanishi. Ta'lim turlari va ularning tavsifi. Didaktik g'oyalar (tizimlar) tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi g'oyalar bilan boyib davr talabiga mos keluvchi tizimlarga aylanadi. Didaktik tizimlar ta'lim turlarini tavsiflash imkonini beradi.

Ibtidoiy jamoa va quldorlik tuzumi davrlarida insoniyat taraqqiyoti davomida orttirilgan hayotiy tajribalar amaliy harakatlar yordamida yosh avlodga uzatib borilgan bo'lsa, keyinchalik ular aniq belgilangan joy va ayrim toifa kishilar tomonidan maxsus o'qitila boshlandi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasiga ko'ra o'qitish mazmun-mohiyati, tuzilishi va maqsadiga ko'ra turli ko'rinish va shakllarda tashkil etib kelingan.

O'qitishning ilk maxsus turi qadimgi yunon faylasufi Suqrot (er. av. 469-399 yillar) tomonidan tashkil etilgan savollarga javob topishdan iborat o'qitish hisoblanadi. O'qitishning bu turi suqrotcha suhbat deb ataladi. Faylasuf (o'sha davrda bolalarni o'qitish faylasuflar tomonidan olib borilgan) bolalarda qiziqish, bilish bo'lgan intilishni yuzaga keltiruvchi savollardan foydalangan. Bolalar faylasuf rahbarligida mulohaza yuritish orqali voqea-hodisalarning mohiyatini idrok etishgan. Ritorik savollarni muhokama qilish, odatda faylasufning mulohazasi bilan to'ldirish bilan yakunlangan. Suqrotcha suhbatlar bir yoki bir necha o'quvchilar ishtirokida tashkil etiladi.

Dogmatik o'qitish (bilimlarni yodlash va takrorlash) jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo'lib, o'rta asrlarda keng tarqalgan. O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada dogmatik o'qitishda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili yetakchi o'rin tutgan. Bolalar ta'lim (muqaddas

kitobni o'qib talqin qilish, o'qish, yozish va hisoblash)ni boshlang'ich maktablarda olganlar. Dogmatik o'qitishda o'quvchilarning asosiy faoliyatlari tinglash, o'qish, yod olish, eslab qolish va matnni so'zma-so'z takrorlashdan iborat bo'lgan.

Oliy ta'lim madrasalarda berilgan. Madrasalarda o'qitish fors tillarida olib borilgan. Talabalar majburiy tarzda arab tilini ham o'rganganlar. O'quv rejasiga grammatika, Qur'on, Hadis, ritorika, logika, metafizika, geologiya, adabiyot, huquqshunoslik kabi fanlar kirgan. O'qitish asosan og'zaki shaklda olib borilgan. Biroq talabalar foydalangan o'quv adabiyotlari asta-sekin ancha ko'p qirrali, turli-tuman bo'lib boradi. Maktab ta'limi erkaklar uchun mo'ljallangan. Ammo badavlat oila qiz bolani o'qitish uchun uyga o'qituvchini taklif etgan.

Dogmatik o'qitish o'rniga asta-sekin o'quv jarayonida ko'rgazmalilikni ta'minlashga e'tibor qaratilgan. Buning natijasida ta'limning ko'rgazmali o'qitish turi rivojlanib boradi.

Uzluksiz ta'lim tizimida quyidagi ta'lim turlari qo'llaniladi:

Mujassamlashtirilgan ta'lim o'quv materiallarini o'quvchilarning bilish xususiyatlariga imkon qadar moslashtirishni ifodalaydi. Unga ko'ra mashg'ulotlar yaxlit mavzuni muayyan qismlarga bo'lib o'zlashtirilishga yo'naltiriladi. O'quv materiallarini bu tarzda o'zlashtirish bilish imkoniyatlari turlicha bo'lgan talabalar tomonidan mavzu mohiyatining puxta anglanishiga yordam beradi. Metodni qo'llashda o'quvchilar qobiliyati dinamikasini hisobga oluvchi ta'lim metodlari qo'llaniladi.

Modul ta'limi o'quv materiallarini boblar, bo'limlar yoki paragraflar majmui tarzida o'rganilishini ta'minlaydi. Bob, bo'lim yoki paragraflar majmui bloklar tarzida yaxlitlanadi. Bu ta'lim turini qo'llash o'quvchi (talaba)larni yangi pedagogik bilimlar, zamonaviy PT hamda ilg'or didaktik vositalardan xabardor qilishda samarali sanaladi. Mazkur ta'lim turidan o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishlarini yo'lga qo'yish, ularni o'quv materiallari bilan ta'minlash va o'quv faoliyatlari yuzasidan monitoringni tashkil etishda foydalanish mumkin. Modul ta'limi o'quvchilarni masofada ham samarali natijalarni beradi. Bunda o'quvchilar bloklarda chop etilgan yoki kompyuter varianti ko'rinishidagi o'quv materiallari bilan ta'minlanadilar. O'quvchilar o'quv materiallarini o'rganganlaridan so'ng ularga nazariy bilimlarini mustaqil baholash, ularni mustahkamlashga xizmat

qiladigan topshiriq (mashq)lar yuboriladi.

Rivojlantiruvchi ta'lim talabalarning ichki imkoniyatlari va ularni ro'yobga chiqarishga yo'naltiriladi. Ushbu ta'lim turiga ko'ra mashg'ulotlarda amaliy treninglardan keng foydalaniladi. Amaliy treninglar talabalarda pedagogik bilimlarni samarali o'zlashtirishga yordam berish bilan birga ularning imkoniyatlari to'la ro'yobga chiqishini ta'minlaydi. O'quv mashg'ulotlarida rivojlantiruvchi ta'lim elementi sifatida taqdimot metodidan foydalanish ham kutilgan natijalarni beradi. Bu metod talabalarda pedagogik faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashish, o'z ustida ishlash, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Tadqiqot metodidan seminar mashg'ulotlarda talabalarning bilimlarini baholash maqsadida foydalanish mumkin.

Tabaqalashtirilgan ta'lim o'quvchilarning layoqati, qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash uchun qulay sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. O'quvchilarga individual ravishda o'quv materiallarini o'zlashtirishga imkon beradigan mazkur ta'lim turini qo'llashda ham DTSda belgilangan meyardan kam bo'lmagan BKM o'zlashtiriladi.

Mustaqil ta'lim o'quvchilar tomonidan turli fanlar asoslarining mustaqil o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Ta'lim tizimida mustaqil ta'limdan foydalanishda o'qituvchi bilimlarni o'zlashtirish manbalarini o'quvchilarga tavsiya etadi, ularni izlash bo'yicha zarur ko'rsatmalarni beradi hamda mustaqil ta'limni samarali, maqsadga muvofiq tashkil etishga yordam beradigan metod, vositalardan xabardor qiladi.

Hamkorlik ta'limining mohiyati o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim jarayonida birgalikda ishlashlari, bir-birlarini chuqur tushuna olishlari, bir-birlariga nisbatan yaqinlikni his qilishlari, ta'lim maqsadiga erishganlik natijalarini hamkorlikda tahlil qilishidan iborat.

Individual ta'lim o'qitishning eng qadimgi turi hisoblanadi. Hayotiy tajribalarni ajdodlardan avlodlarga uzatish ibtidoiy jamiyatda yuzaga kelgan. Yozuv paydo bo'lishi bilan qavm boshlig'i turli belgilar yordamida o'zining tajribalarini yoshlarga o'rgatgan. O'qituvchi va o'quvchining bevosita va individual aloqasiga misol sifatida repetitorlikni ko'rsatish mumkin. O'qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelingan.

Faol o'qitish (yoki interfaol ta'lim) ta'lim tizimida tobora ommalashayotgan ta'lim turi sanaladi. U ta'lim subyektlari – o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keluvchi hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi. Shuningdek, o'quvchilarda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini erkin ifodalash, muammoli vaziyatlar yechimlarini birgalikda izlash ko'nikma, malakalarini shakllantiradi. Interfaol ta'lim jarayonida bahs-munozara, muammoli vaziyat, trening, debat, intervyu, taqdimot namoyish va o'yin texnologiyalaridan maqsadli foydalanish kutilgan natijani beradi.

Muammoli ta'limi zamonaviy ta'lim mohiyatini aks ettiruvchi ilg'or PT hisoblanadi. Undan ta'lim amaliyotida foydalanish talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, ilmiy farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash va ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma, malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarga pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid topshiriq va masalalarni tavsiya etish ularda bilish faolligi va ijodiy qobiliyatni shakllantiradi. Ta'limning bu turida muammoli topshiriqlar, shuningdek, muammoli pedagogik vaziyatlarni hal qilish metodi faol qo'llaniladi.

Dasturiy ta'lim (dasturlashtirilgan o'qitish) harakat (operatsiya)lar ketma-ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish ilgaridan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi "dastur" terminidan kelib chiqadi. Ushbu ta'lim turining maqsadi o'quv jarayonini boshqarishni yaxshilashdan iborat. Unga ko'ra o'qitish murakkab dinamik tizim sifatida qaraladi. Dasturiy ta'lim yangi didaktik, psixologik va kibernetik g'oyalar asosida XX asrning 60-yillari boshlarida yuzaga keldi.

Kompyuterli ta'lim o'qitish jarayonini maxsus ta'lim dasturlariga muvofiq tashkil etilishini nazarda tutadi. Rivojlangan mamlakatlarda kompyuter xizmatidan ta'limda foydalanishning keng rivojlanishi bu boradagi quyidagi asosiy yo'nalishlarni aniqlashga imkon berdi: o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirish samaradorligini ta'minlash; idrok etish qobiliyati (qo'yilgan masalani hal etish, mustaqil fikrlash, kommunikativ malakalarni egallash (axborotni to'plash, analiz, sintez qilish)ni rivojlantirish, u yoki bu ko'nikmani shakllantirishga imkon beruvchi jarayonlarga e'tibor)ni kuchaytirish.

Kompyuterlardan avtomatlashtirilgan test sinovlari o'tkazish, baholash

va boshqarishda keng foydalaniladi, bu vaqtni tejash imkonini beradi, natijada pedagogik jarayonning samaradorligi oshadi.

So'nggi yillarda innovatsion (yangilik kiritish) ta'limni tashkil etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ushbu ta'lim o'ziga xos xususiyatlarga ega: 1) oldindan ko'ra bilish, ya'ni o'quvchining avvalgi va hozirgi tajribasi asosida o'qitish emas, balki uni uzoq kelajakni mo'ljallashga o'rgatishdan iborat bo'lib, o'quvchi ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda taxmin qilish, ko'zlash, modellashtirish va loyihalashtirishni amalga oshira olishi zarur; 2) o'quvchining hamkorlikda ta'lim olish va muhim qarorlarni qabul qilish (lokal va xususiydan tortib dunyoni, madaniyat, sivilizatsiya rivojlanishini hisobga olishda global muammolarni hal etish)da faol ishtirok etishini ta'minlash.

Bugungi kunda masofaviy ta'lim (lotincha "distantia" – masofdan foydalanishga ehtiyoj oshmoqda. Masofaviy o'qitish o'quvchi qayerda va qanday holatda bo'lishidan qat'iy nazar muayyan ta'lim muassasasi ta'lim dasturini o'rganish imkoniyatini yaratadi. Bu maqsadni amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari: darsliklar va boshqa bosma nashrlar, o'rganilayotgan materialni kompyuter telekommunikatsiyalari orqali uzatish, videotasmalar, munozaralar va seminarlar o'tkazish, regional va milliy televideniye hamda ravdio orqali o'quv dasturlarini namoyish etish, kabelli televideniye va ovozli pochta, ikki tomonlamali videokonferensiyalar, telefon orqali qayta aloqa bilan bir tomonlama videotranslyatsiya va boshqalarning xizmatiga tayaniladi. Masofali ta'lim o'qituvchilarga vaqtini tejashda qulaylik yaratadi, asosiy faoliyatidan ajralmagan, jumladan uzoq rayonlarda yashovchilarga o'qish imkonini yaratadi.

O'yin texnologiyalari talabalarda pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish ko'nikma, malakalarini o'zlashtirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonining ishtirokchilari (o'quvchi, ota-ona, pedagogik jamoa vakili, ekspert, ijtimoiy tashkilotlarning xodimlari va b.sh.) sifatida turli rollarni bajarish talabalar tomonidan zarur nazariy bilimlarni puxta o'zlashtirilishiga imkon yaratadi. Rolli va ishbilarmonlik o'yinlari o'yin texnologiyalarining asosiy shakllari sanaladi.

Ta'lim shakllarining rivojlanishi. Jahon pedagogik fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: individual, individual-guruhli, sinf-

dars, ma'ruza, auditoriyadan tashqari va maktabdan tashqari.

Ta'limning individual-guruhli shaklidan Yevropada XVI asrda keng foydalana boshladilar. Markaziy Osiyo davlatlarida bu usuldan qadim davrlarda ham foydalanganlar. Bunga Avesto davri misol bo'la oladi, bu davrda o'quvchilar uchun asosiy o'quv qo'llanma zardushtiylikning muqaddas manbai "Avesto" (eramizdan avvalgi VII-VI asrlar) bo'lib kelgan. Avesto davri jamiyatidagi maktablarda individual o'qitish jamoali o'qitish bilan birga olib borilar edi. O'qituvchi "Avesto" kitoblaridan birini ochadi va o'quvchilar navbatma-navbat kelib ovoz chiqarib o'qiydilar, keyin hamma birgalikda o'qilganlarni takrorlaganlar, mashqlarni maxsus taxtachalarda yozganlar. Aqliy mashqlar o'qituvchining o'quvchi bilan erkin suhbatida davomida olib borilgan. Jismoniy tarbiyalash individual va jamoali mashg'ulotlar shaklida amalga oshirilgan. Otda yurish, ov qilish, qilichdan foydalanishni bilish, suvda suzish, yugurish, nayza otish va shu kabilar harbiy tayyorgarlikning majburiy turlari hisoblangan. Ta'lim olish jarayoni kun chiqqandan kun botgungacha davom etgan, uy vazifalari mavjud bo'lmagan.

XI asrdayoq Abu Ali ibn Sino o'zining "Tadbiri manzil" nomli ilmiy asarining maxsus "Amuzish va parvarishi modrasas farzand" ("Bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalash") bo'limida o'quvchilarga jamoali o'qitish haqida quyidagi tavsiyalarni beradi: 1) agarda o'quvchilar birgalikda o'qisalar, ular zerikmaydilar, fanni o'rganishga qiziqish kuchayadi; uarda bir-birlaridan ortda qolmaslik uchun o'zaro musobaqalashish istagi rivojlanadi, ular bolaning o'qishi yaxshilanishiga yordam beradi; 2) o'zaro suhbatlarda o'quvchilar kitobdan o'qish yoki kattalardan eshitgan qiziqarli ma'lumotlarni bir-birlariga aytib beradilar; 3) bolalar birgalikda yig'ilganlarida bir-birilari bilan do'stlashadilar va bir-birlarini hurmat qiladilar; ular faqatgina musobaqalashmaydilar, balki bir-birlariga o'quv materiallarini o'zlashtirishda yordam beradilar; bu bilan bolalar mag'rurlanadilar, bir-birlaridan yaxshi odatlarni o'rganadilar.

Burhoniddin Zarnuji (XII asr) "Bilim olish yo'lida o'quvchiga maslahatlar" nomli asarida maktabda dars taxminan bir soatlar davom etishi kerakligi yoziladi. O'qituvchi maktabda darsga tushinish va o'zlashtirish mumkin bo'lgan o'quv materiallarini tanlab olishi, darsda o'rganiladigan materiallarni tushuntirib berishi kerak. O'quv materiali shunday tanlanishi

kerakki, u ikki marotaba takrorlanganda o'zlashtirilsin. Shuning uchun u katta matnlarni qismlarga bo'lish va boshqa darslarda uni albatta takrorlashni taklif etadi

XV asrda jamoali o'qitishni tashkil etish g'oyasini Muhammad Tarag'ay Ulug'bek davom ettiradi. Mutafakkir o'zining madrasalarida individual mashg'ulotlar tizimini bekor qiladi va "jamo" sinf-dars tizimiga yaqin bo'lgan shaklini joriy qiladi. Umumiy ma'ruzani 50-70 nafar kishidan iborat katta guruhga odatda o'z sohasida mashhur bo'lgan olim mudarris (o'qituvchi-professor) o'qiydi, amaliy mashg'ulotlarni esa 10-15 kishidan iborat kichik guruhda kichik mudarris (o'qituvchi) olib boradi. O'qitishning muhim metodlari munozara va tortishuvlar hisoblangan.

2. Dars – o'quv faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli. XV va XVI asrlar davomida Yevropada ishlab chiqarishning rivojlanishi kuzatildi. Ushbu o'zgarishlar bolalarga ta'lim berishning ommaviy shakli yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

Ulardan biri ta'limning guruhli (jamoali) shakli sanaladi. U G'arbiy Rossiya (hozirgi Belorussiya va Ukrainaning g'arbiy qismlari) birodarlik maktablarida ilk bor qo'llanilgan va o'qitishning sinf-dars shaklining asosi bo'lib qolgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan "Buyuk didaktika" asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommaviylashtirildi. Olim pedagogikaga o'quv yili, o'quv kuni, dars, mashg'ulotlar orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari kabi tushunchalarni kiritdi. Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo'lsada bugungi kunda ham keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda.

Sinf-dars tizimining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

Ta'limning sinf-dars tizimi alohida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarida uning afzallik va kamchiliklarini ko'rsatib berdi.

Afzalliklari: yaxlit pedagogik jarayonning tartibli kechishini ta'minlovchi tashkiliy tizim shakllanishi; jarayonlarning oson boshqarilishi; mavzuning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, birgalikda izlash jarayonida o'quvchilar o'rtasida o'zaro munosabatning shakllanishi; o'qituvchi tomonidan o'quvchilar tarbiyasiga hissiy ta'sir ko'rsatilishi; o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish imkoniyatining mavjudligi, bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning

muntazamligi va ketma-ketligi.

Kamchiliklari: tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi; o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchilikning yuzaga kelishi; katta va kichik yoshli o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratish masalasi ayniqsa dolzarb xususiyat kasb etdi. Shunga mos ravishda tanlab o'qitish (tabaqalashtirilgan ta'lim) shakli yuzaga keldi (AQShda Batov, Yevropada Maingeyms tizimi).

Yevropa va AQShda XX asr boshida o'quvchilarning individual, faol, mustaqil o'quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilgan. 1905 yili Dalton shahrida (Massachusetts shtati) o'qituvchi Yelena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan individual ta'lim ta'lim tizimida eng radikal hisoblangan. Bu tizim dalton-reja nomi bilan pedagogika va maktab tarixiga kirdi. Uni ba'zan laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi deb ham ataydilar.

Bu tizimning mazmuni quyidagilardan iborat: o'quv faoliyatining samaradorligi har bir o'quvchining imkoniyati, qobiliyatiga bog'liq; ta'lim faoliyati ustun turadigan o'qishni an'anaviy tashkil etish o'quvchining mustaqil o'quv faoliyatining asosi hisoblanishi; o'qituvchi vazifasining faoliyatni odob bilan tashkil etishdan iboratligi, sinf laboratoriyasining ustaxonalar bilan almashtirilishi; darslarning bekor qilinishi; o'qituvchining yangi materialni tushuntirmasligi, o'quvchining laboratoriya (ustaxona)larda o'qituvchidan olingan topshiriq asosida mustaqil shug'ullanishlari va zarur bo'lgan paytda o'qituvchidan yordam so'rashlari.

XX asr 20-yillarida ta'limning loyihali tizimi targ'ib qilindi. Tizimning mazmuni o'quvchilarning o'zlari loyiha ishlari mavzuni tanlab olishlarini ifodalaydi. Loyiha ishlari real hayot bilan bog'langan bo'lishi va o'quv guruhlari jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy, xo'jalik-ishlab chiqarish yoki

madaniy-maishiy jihatlarini aks ettirish kerak bo'lgan.

O'tgan asrning 60-yillarida amerikalik professor pedagog Lyuyd Trank ishlab chiqqan Trank rejasi ommalashdi. Ta'limning bu shakli mashg'ulotlarni katta (100-150 nafar kishilik) auditoriyada 10-15 kishidan iborat guruhlarda yoki va o'quvchilarning har biri bilan individual ishlarni olib borish g'oyasini ilgari suradi. Ma'ruzani tashkil etishga turli texnik vositalardan foydalangan holda o'quv vaqtining 40 foizi, seminarlarga 20 foizi va laboratoriyalarda individual ravishda mustaqil ishlarni bajarishga 20 foizi ajratiladi.

Yevropada o'rta asrlarda dastlabki universitetlar paydo bo'lishi bilan ta'limning ma'ruza-seminar tizimi asoslandi. Ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari, maslahat va ixtisoslik bo'yicha amaliyot bugungi kunga qadar ma'ruza-seminar tizimda o'qishning asosiy shakllari bo'lib kelmoqda. Ushbu tizim odatda oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim amaliyotida faol qo'llaniladi. O'zbekistonda ma'ruza-seminar tizimidan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari amaliyotida ham samarali foydalaniladi.

Dars – o'quv faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli. Ta'limning turli shakllaridan samarali foydalanish muhim didaktik vazifa sanaladi. Ta'lim amaliyotida ta'limning jamoaviy (ommaviy), guruhli va individual shakllaridan foydalaniladi.

Ta'limning ommaviy shakli sinfdagi jami o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligi ostida birgalikda harakatlarini ko'zda tutadi. Guruhli shaklida esa o'quvchilar 3-6 kishidan iborat guruhlar yoki juftliklarda ish olib beradilar. Guruhlar uchun topshiriqlar bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin. Individual shakli har bir o'quvchining alohida mustaqil ishlashini ko'zda tutadi. Bu jarayonda o'qituvchi bir vazifa ustida ishlayotgan butun guruh o'quv faoliyatini boshqarib boradi, o'quv hamkorligini qaror toptiradi. Ommaviy ishlashning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining guruhni yaxlit nazorat qilish hamda har bir o'quvchining ishini ko'zdan qochirmaslik bilan bog'liq. Biroq, ommaviy ishlash individual farqlarni hisobga olmaydi, u fanlarni o'rtacha o'zlashtiradigan o'quvchiga mo'ljallangan. Shuning uchun ba'zi o'quvchilar berilgan ish sur'atidan ortda qoladilar, ayrimlar esa zerikib qiynalib ketadilar.

Ta'lim olishning jamoaviy (ommaviy) shakli shakllangan, turg'un o'quvchilar guruhi bilan o'quv faoliyatini tashkil etishni ko'zda tutadi.

Ta'limning guruhli shakliga ko'ra o'qituvchi bir vaqtning o'zida guruh o'quvchilarining bilish faoliyatlarini boshqaradi. O'quvchilarni jamoaviy, umumlashtirilgan-guruhli va tabaqalashtirilgan guruhlariga taqsimlash mumkin. Ta'limning jamoaviy shakli ko'p hollarda tabaqalashtirilgan guruhlar faoliyatini tashkil etishda qo'llaniladi. O'quv ishlarini tashkil etishning jamoaviy shakli o'qituvchi va o'quvchilarning dinamik yoki o'zgaruvchan tartibli juftliklarida kechayotgan munosabatlaridir.

Umumlashtirilgan-guruhli shakl har biri guruh tomonidan yagona topshiriqning faqatgina bir qismi bajarilishi nazarda tutiladi.

Tabaqalashtirilgan-guruhli shakl o'quv imkoniyatlari, ko'nikmalari bir darajada shakllangan o'quvchilar bilan ishlanishini ifodalaydi. Bunda o'quvchilar juft bo'lib ishlashlari ham mumkin.

Ta'limning individual shakli o'quvchilarning boshqa o'quvchilar bilan bevosita aloqalarini ko'zda tutmaydi. O'z mohiyatiga ko'ra sinf jamoasi yoki muayyan guruhlar bilan ishlashdan tubdan farq qilmasa-da, biroq o'quvchi o'zining shaxsiy imkoniyatlariga muvofiq o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni mustaqil bajaradi. Bu maqsad yo'lida maxsus tayyorlangan kartochkalardan foydalanish mumkin.

Ta'lim maqsadlari va foydalanishning qulayligi nuqtai nazaridan ta'lim shakllari quyidagicha darajalanadi: asosiy, qo'shimcha va yordamchi ta'lim.

Dars – ta'limni tashkil etish asosiy shakli. Dars ta'lim jarayonining yaxlitligi nuqtai nazaridan ta'limning asosiy tashkiliy usuli hisoblanadi. Unda sinf-dars tizimining xususiyatlari aks etadi, unda o'quvchilarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o'quv ishlarining muntazamligi ta'minlanadi. Dars iqtisodiy jihatdan foydalidir. O'quvchilar hamda sinf jamoasining individual xususiyatlarini bilishi o'qituvchi uchun har bir o'quvchi faoliyatiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta'lim shakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo'lmaydigan ustunligi hisoblanadi.

Darsda har bir o'quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratiladi.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarga ega, chunki: o'quvchilarning doimiy guruhi, o'quvchilar faoliyatiga

ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o'rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o'z xususiyatini ham aks ettiradi).

3. Darsga turlari va tuzilishi. Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo'lishi mumkin. Bu o'quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, o'quvchilar va jamoa sifatida sinfning xususiyatlariga bog'liq.

Zamonaviy didaktikada dars quyidagi turlari ajratib ko'rsatilgan:

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar yoshlarini hisobga olib o'quv ishlarining turli xillaridan foydalanishga, yangi bilimlarni berishni avval ilgari o'rganilganni mustahkamlash, takrorlash bilan birga olib borishga to'g'ri keladi. Hatto, tekshirish darslari ham bu yerda ko'pincha ishlar boshqa turlarini o'z ichiga oladi: materialni og'zaki yetkazish. qiziqarli hikoyani o'qish. Darsning aynan mana shu turi aralash (kombinatsiyalashgan) yoki murakkab tuzilishli deb ataladi. Aralash darsning taxminiy tuzilishi: uy vazifalarini tekshirish (o'quvchilar bilan savol-javob qilish); yangi materialni o'rganish; mavzuni o'zlashtirishni dastlabki tekshirish; mashq yordamida yangi bilimlarini mustahkamlash; avval o'rganilgan bilimlarni suhbat ko'rinishida takrorlash; o'quvchilarning bilimlarini baholash; uyga vazifa berish.

Yangi bilimlarni o'rganish (o'quvchilarni yangi materiallar bilan tanishtirish) darsi o'quvchilarni ularga tanish bo'lmagan yangi material mazmuni bilan tanishtirish jarayoni bo'lib, bunday dars bir nechta savollarni o'z ichiga oladi, ularni o'rganish uchun ko'p vaqt talab qiladi. O'qituvchi darsning mazmuni, aniq maqsadi va mustaqil ish shakllariga ko'ra yangi matyerialni o'zi bayon etadi. Ayrim hollarda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida mustaqil faoliyat olib boradilar. Ushbu dars quyidagi tuzilishga ega: 1) yangi materialni o'rganish uchun asos bo'lgan avvalgi materialni takrorlash; 2) o'qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishlashni tushuntirishi; 3) bilimlarni tushunishlarini tekshirish va dastlabki mustahkamlash; 4) uyga vazifa berish.

Bilimlarni mustahkamlash darstarida o'quv ishining asosiy mazmuni ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkam o'zlashtirish maqsadida ularni ikkinchi bor tushunib olish hisoblanadi.

O'quvchilar bilimlarni yangi manbalar bo'yicha o'rganib,

chuqurlashtiradilar, o'zlariga tanish qoidaga muvofiq yangi mazmundagi masalalarni yechadilar, ilgari olgan bilimlarini og'zaki va yozma takrorlaydilar. Bu kabi darslar quyidagi tuzilmaga ega bo'ladi: 1) uy vazifasini tekshirish; 2) og'zaki va yozma mashqlarni bajarish; 3) topshiriq bajarilishini tekshirish; 4) uyga vazifa berish.

Ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish va mustahkamlash darslari bilimlarni mustahkamlash darslari bilan bog'liqdir. Bu jarayon bir necha maxsus darslar jarayonida amalga oshiriladi. Boshqa darslarda yangi mavzularni o'rganishda davom ettiriladi. Shu bilan birga avvaliga mashqni bajarish ishlari bolalar tomonidan o'qituvchi yordamida va ular topshiriqni qanday tushunganlarini daslab jiddiy tekshirish bilan bajarilsa, keyinchalik esa qayerda qanday qoida qo'llanilishini o'quvchilarning o'zlari belgilaydilar.

Umumlashtiruvchi darslari (bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirishlar) ilgari o'tilgan materialdan eng muhim savollari qayta takrorlanadigan va tizimlashtiriladigan, o'quvchilar bilimlarida mavjud kamchiliklari to'ldiriladigan va o'rganilayotgan kursning muhim g'oyalari ochib beriladigan darslar hisoblanadi. Umumlashtiruvchi darslar mavzu, bo'lim va o'quv kurslarining yakunida o'tkaziladi. Kirish va yakunlash darsning tarkibiy elementi hisoblanadi. Takrorlash va umumlashtirishning o'zi hikoya, qisqacha xabarlar, darslikni o'qib berish yoki o'qituvchining o'quvchilar bilan suhbatlashishi shaklida o'tkazilishi mumkin.

Tekshirish (nazorat) darslari o'qituvchiga o'quvchilarning ma'lum sohadagi bilim, malaka va ko'nikmalari shakllanganlik darajasi, o'quv materialini egallashdagi kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarning bajarish yo'llarini belgilab olishga yordam beradi. Tekshirish darslari o'quvchidan ushbu mavzu bo'yicha uning hamma bilim, ko'nikma va malakalarini qo'llashini talab etadi. Tekshirish og'zaki hamda yozma shaklda ham amalga oshirilishi mumkin.

Ta'limning tashkiliy shakli sifatida dars dinamik hodisadir. U pedagogik jarayonning yaxlitligini ta'minlaydi va ta'limiy, tarbiyaviy-rivojlantirish vazifalarini ijobiy yechimini topishga imkon beradi.

Darsning ta'limiy vazifasi har bir darsning ta'lim vazifalarini belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish, dars mazmunini optimallashtirish, idrok etishning ilg'or

texnologiyalarini kiritish, turli shakl, metod va vositalaridan o'rinli foydalanish, dars tuzilishiga ijodiy yondashish, ta'lim berishda jamoaviy, guruhli va individual shakllarini qo'llash, operativ qayta aloqani ta'minlash, nazorat va boshqaruvni tashkil etish, darsning samarali kechishini ta'minlashdan iborat.

Darsga qo'yiladigan talablarning tarbiyaviy xarakterini o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, ta'limiy faoliyat jarayonida erishish zarur bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish (qo'yish), o'quv ishlari maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, qobiliyatlilik, halollik, mehnatsevarlik, tirishqoqlik va boshqalar)ni shakllantirish, o'quvchilarga pedagogik talablarni qo'yish, ular bilan hamkorlikka erishish, ularning yutuqlaridan quvonish kabi holatlar tashkil etadi.

Ta'lim jarayonida qo'yiladigan pedagogik talablarning o'quvchi shaxsini rivojlantirish imkoniyati o'quvchilarda ijodkorlik, tashabbuskorlik, faollik kabi sifatlarni tarbiyalashda ko'rinadi. Bunda o'quv materiallarining o'quvchilar idroki imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, "rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish", "o'zib ketish" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o'zgarishlarni rag'batlantirish, o'quvchilarning intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi «sakrash»larni oldindan ko'ra bilish, boshlanayotgan o'zgarishlarni hisobga olish asosida o'quv mashg'ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi.

Noan'anaviy darslar. XX asrning 70-yillarida o'quvchilarning darslarga qiziqishlarining pasayish xavfi aniqlandi. Xavfni bartaraf etish uchun nostandart darslarning tashkil etishga e'tibor qaratildi. Noan'anaviy darsning ko'plab turlari bo'lib, asosiylari quyidagilardir:

Darsning samaradorligi uning puxta tayyorlanganligi va samarali tashkil etilganligi bilan bog'liq. Yaxshi rejalashtirilmagan, yetarlicha o'ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o'quvchilar imkoniyatlariga moslashtirilmagan dars sifatli bo'la olmaydi. Darsga tayyorgarlik aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta'minlaydigan o'quv jarayonini tashkil etishning kompleks choralarini ishlab chiqishdir.

O'qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi uchta bosqich ko'zga tashlanadi: tashxislash, bashoratlash, loyihalash (rejalashtirish). Shu bilan birga o'qituvchi amaliy materiallarni yaxshi bilishi, o'z fanini erkin olib borishga erishishi lozim. Darsga tayyorgarlik asosini bo'lajak mashg'ultning algoritmlari, samaradorligi bog'liq bo'lgan omillar va holatlarni hisobga olishni ta'minlovchi qadamlarni ketma-ket tartib bilan bajarish tashkil etadi.

Algoritmni amalga oshirish aniq sharoitlarni diagnostika qilish bilan boshlanadi. Tashxis didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o'quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o'zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish. bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi.

Bashoratlash darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.

Loyihalash (rejalashtirish) o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan. pedagog o'zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so'rash, qayerda mavzuni kiritish, mashg'ulot keyingi bosqichiga qanday o'tish, oldindan ko'zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo'yicha qayta o'zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir. Boshqarish dasturi darsning an'anaviy rejasidan boshqaruv ta'sirning aniq va tushunarli bo'lishi bilan farqlanadi.

Maktabdan tashqari mashg'ulotlarning asosiy va barqaror turlariga o'qish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladigan, o'quvchilarning mustaqil uy ishlari kiradi. Mustaqil uy ishlarining asosiy maqsadi – darsda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, ularni esdan chiqarishning oldini olish, o'quvchilarning individual layoqati, iste'dod va qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Bu ishlar o'quv dasturi talablari, o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlari hamda ularning rivojlanish darajalarini hisobga olib quriladi. O'quvchilarning mustaqil uy ishlari ma'lum didaktik vazifalarni bajaradi. Chunonchi, darsda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, sinfda ishlab

chiqilgan o'quv materialini kengaytirish va chuqurlashtirish, mashqlarni mustaqil bajarish ko'nikmalarini shakllantirish, dasturli material doirasiga kiruvchi hajmda individual topshiriqlarni bajarish asosida mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual kuzatishlar, tajribalar, gerbariy, tabiiy namunalar, otkritkalar, rasmlar, gazeta va jurnal lavhalari statistik ma'lumotlar kabi o'quv qo'llanmalarini to'plash va tayyorlash va boshqalar.

Darslarda pedagogning o'quvchilar tomonidan uy vazifalarining halol bajarishlariga kamin e'tibor berayotganliklari, ularni sinfda tekshirishga urinmasliklari, yaxshi o'zlashtirayotgan o'quvchilarni rag'batlantirib bormasliklari ta'lim amaliyotda keng tarqalgan kamchilik hisoblanadi. Uy vazifalarini tushuntirib berishga ko'pincha vaqt yetmaydi, ular shoshilinch beriladi. Pedagoglar kamdan-kam hollarda o'quvchilar uy vazifasini bajarayotganda duch keladigan qiyinchiliklarini ko'rsatib beradilar, ularni bartaraf etish yo'lini esa ko'rsatmaydilar. Natijasida mustaqil uy vazifalarining bajarilishi samarasiz bo'lib qoldi.

Ta'lim jarayonida, shuningdek, darsning quyidagi yordamchi turlaridan ham foydalaniladi:

Fan to'garaklari yo'nalishi, mazmuni, ish metodi, o'qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.. To'garaklar o'qishni hayot bilan aloqasini kuchaytiradi, fanlararo bog'liqlikni rivojlantiradi. Fan to'garaklarida o'quvchilarning ishlari o'quv jarayonini faollashtiradi, o'qish sifatini oshirishga yordam beradi.

Ta'limning yordamchi shakllariga ekskursiyalar ham kiradi. Ular ommaviy, guruhli va kichik guruhli bo'lishi mumkin. O'quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo'yicha ham rejalashtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'qituvchi unga puxta tayyorlanishi: obyekt va mashrut bilan oldindan tanishib chiqishi, to'la rejani ishlab chiqishi, o'quvchilarni bo'lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak. Ekskursiya rejasida mavzu va maqsad, obyekt, u bilan tanishish tartibi, o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini tashkil etish, topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan vositalar va uskunalar, yakun yasash ko'rsatiladi. Ekskursiyani o'tkazish metodikasi mavzu, didaktik maqsad, o'quvchilarning yoshi, ularning rivojlanishi hamda ekskursiya obyektiga bog'liq bo'ladi.

Maktab o'quv rejasi turli fakultativ va tanlovi bo'yicha kurslarni tashkil

etishni ko'zda tutadi. Ular o'quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan ishlab chiqiladi. Amaliyotda fermerlik, iqtisod, elektro va radiotexnika, elektronika, polimerlar ximiyasi, astrofizika, psixologiya, etika, antik tarix, botanika fanlarining ayrim sohalari, shuningdek, chet tili, etnografiya, stenografiya, kutubxona ishi, rassomchilik, musiqa kabi kurslarni fakultativ sifatida o'rganiladi. Fakultativ va fanlarni ro'yxatini aniqlashda faqat o'quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakultativ va tanlovi bo'yicha mashg'ulotlar majburiy va umumiy o'rta ta'lim fanlari bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi kerak.

Odatda o'quvchilarning ma'lum o'quv materiali yoki topshirig'i ustida mustaqil ishlashlari ularda maslahat (konsultatsiya)ga nisbatan ehtiyojni yuzaga keltiradi. Maslahatni tashkil etish vaqtida asosan o'quvchi savol beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarga o'quv materialini egallashda qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Maslahat davomida o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini u yoki bu masalani to'g'ri tushunishga mustaqil keladigan, ular uchun qiyin topshiriqni tushunib oladigan qilib, o'rganilayotgan materialni mohiyatini ochishga o'rganadigan qilib yo'naltiradi. Ta'limning mazkur turi o'qituvchiga o'quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash, alohida e'tibor berishni talab etuvchi vaziyatlarga ularning diqqatini jalb etishga imkon beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarda o'zini nazorat qilish, bilimlarga tanqidiy ko'z bilan qarashni tarbiyalaydi. O'qimishlilik darajasini to'g'ri aniqlashga yordam beradi.

Ta'limning ma'ruza-analiy tizimi. O'zRning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ko'zda tutilgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarga muayyan soha yo'nalishi bo'yicha chuqur, differensatsiyalashgan kasbiy bilimlar berish imkoniyatini yaratadi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari ta'limning ma'ruza-amaliy tizimidan foydalaniladi. Mashg'ulotlar ikkita birlashtirilgan darslar ko'rinishida 80 minut davom etadi. Ularning o'ziga xosliklari quyidagilardan iborat:

-ma'ruza o'quvchilarning mustaqil ishlari uchun taxminiy asos sifatida katta hajmdagi tizimlashtirilgan axborotlarni berishning asosiy shakli (80

minut tashkil etiladi);

- amaliy mashg'ulot akademik litsey, kasb-hunar kolleji o'qituvchisi rahbarligi ostida olgan o'quv axborotlari (leksiya va mustaqil ishlari)ni chuqurlashtirish, tahlil qilish, kengaytirish, qo'llash va ularning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini nazorat qilish shakli;

- akademik litsey, kasb-hunar kollejida o'qish asosiy shakli sifatida o'quvchilarning mustaqil faoliyatlari amalga oshiriladi;

- o'quv guruhi o'quvchilarni uyushtirishning asosiy shakli (uning doimiy tartibi odatda butun ta'lim davomida saqlanib qoladi);

- o'quv guruhlari to'plami akademik litsey, kasb-hunar kollejida kurslardan iborat bo'ladi;

- kurslarda o'quv mashg'ulotlari jadvalga binoan yagona o'quv rejası va dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi;

- o'quv yili ikki semestr, attestatsiya davri va ta'tillarga bo'linadi;

- har bir semestr hamma o'quv fanlari bo'yicha yakuniy attestatsiya (imtihon topshirish) bilan yakunlanadi;

- akademik litsey, kasb-hunar kollejida o'qish muhim fanlar bo'yicha attestatsiya (bitiruv imtihonlarini topshirish) va mutaxassisligi bo'yicha bitiruv malakaviy ishini himoya qilish bilan yakunlanadi.

Akademik litsey, kasb-hunar kollejlarda ta'lim ma'ruza, seminar, laboratoriya ishi, o'quvchilarning ilmiy tadqiqotchilik ishlari (O'ITI), o'quvchilarning mustaqil o'quv ishlari, ishlab chiqarish amaliyoti, chet elda ish tajribasini oshirish kabi shakllarda tashkil etiladi. Ta'lim natijalarini nazorat qilish va baholash shakli sifatida kundalik, oraliq va yakuniy nazorat, baholash reytingi tizimidan, referat va kurs, bitiruv ishlaridan foydalaniladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ta'limning tashkiliy shakllarining rivojlanishi ta'riflab bering.
2. Ta'limning individual shakli qanday afzalliklarga ega?
3. Sinf-dars tizimining afzalliklari nimalardan iborat?
4. Zamonaviy darsga qanday talablar qo'yiladi?
5. Noan'anaviy darslar deganda nimani tushunasiz?
6. Fan to'garaklarini tashkil etilishi qanday maqsadlarga xizmat qiladi?
7. Darsga tayyorgarlik qanday bosqichlarda kechadi?

bo'yicha yaratilgan o'quv dasturlarda turli didaktik o'yinlarning ro'yxati yetarli darajada ko'rsatilgan.

Ta'limning globallashuvi ta'limiy va rivojlantiruvchi xarakteriga ega va yo'nalishi jihatidan xilma-xil bo'lgan kompyuter o'yinlarining maktab amaliyotiga jadal kirib kelishini ta'minlamoqda. Didaktik o'yinlar o'quvchilarga ijtimoiy-foydali mehnat hamda o'qish ko'nikmalarini faol o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning ahamiyati uning natijasi bilan emas, balki jarayonning mazmuni va uning kechishi bilan belgilanadi. O'yinlar bolalarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ularning turli psixologik zo'riqishlarini kamaytiradi. Didaktik o'yinlardan foydalanilganda o'quvchilarning manfaatdor bo'lishlari ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan taqdirdagina ularni taqdirlash mumkin. Aksincha, metodik jihatdan puxta asoslanmagan hamda shunchaki tashkil etilgan o'yin ijobiy natija bermaydi.


Ta'lim metodlarini tanlash. Pedagogika fanida o'qituvchilarning amaliy tajribasini o'rganish va umumlashtirish asosida ta'lim metodlarini tanlashga o'quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog'liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim: zamonaviy didaktikaning yetakchi g'oyalari, ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari; o'rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o'ziga xosligi; xususiy fanlar metodikasining o'ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo'yiluvchi talablarning o'zaro aloqadorligi; muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni; u yoki bu mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt; o'quvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi; o'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi; o'quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta'minlanganlik darajasi, jihozlar, ko'rsatmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi; o'qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darjasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatlari; o'quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o'rnatilganligi.

O'qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og'zaki, ko'rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq yechimlar qabul qiladi.

3. Ta'lim olganlikni tashxis etish. Tashxis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash sanaladi. Tashxisiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

O'quvchilar bilimni tashxislash orqali erishilgan natijalar va ta'lim olganlik darajasi o'rtasida farq aniqlanadi. **Didaktik tashxisning maqsadi** o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog'liq holda, o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Ta'limni baholash yoki tekshirish faqat natijalarni qayd etadi, biroq ularning kelib chiqishini izohlamaydi. Tashxis quyidagi nazorat shakllarini o'z ichiga oladi:




Tashxislashning asosiy tarkibiy qismlari

O'quvchilarning BKMni nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi.

Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olishning vazifalari. O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari. Ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri – nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab berishi lozim.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash tekshirish deb ham ataladi.



Ta'lim metodlari guruhlari

Yuqorida ko'rsatilgan metodlar quyidagi tarzda ham nomlanadi:


1. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va bajarish metodlari.
2. O'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish va motivlash metodlari.

Nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari.

O'quvchiga bilimlarni yetkazish shakliga ko'ra ta'lim metodlari:

1. Og'zaki bayon qilish metodlari.
2. Ko'rgazmali metodlar.
3. Amaliy metodlar kabi turlarga ham ajratiladi.

Ta'lim metodlari tizimida muhim o'rin tutadigan **og'zaki bayon qilish metodlarining** o'zi ham quyidagi turlarga ajratiladi:



Og'zaki bayon qilish metodlarining turlari

Og'zaki bayon qilish metodlari o'quvchilarning umumiy madaniyati, mantiqiy fikrlashi hamda bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liqdir. Ushbu metodlar o'quvchining nutq boyligini oshirish va xorijiy tillarni o'rganishdagi ahamiyati beqiyos.

Hikoya o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi

Metodning samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining nuqt mahorati, so'zlarni o'z o'rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, o'quvchilarning

yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog'liq. Shu bois hikoya mazmuni o'quvchilarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.

Hikoya qilinayotgan materialni samaralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg'u berishga e'tiborni qaratadi. Hikoya qisqa bo'lishi hamda o'quvchilarda his-hayajon va mavzuga nisbatan qiziqishni uyg'otishi kerak.

Suhbat - savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi

Suhbat metodi fanga qadimdan ma'lum, xatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta'lim jarayonida ko'p funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o'quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o'qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.

Suhbat – faoliyatini endigina boshlagan o'qituvchi uchun murakkab ta'lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta'minlash ko'p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha o'quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O'qituvchi oddiy savollar berishi, o'quvchilarga ular yuzasidan batafsil o'ylash uchun vaqt ajratishi, o'quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o'rinlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo'l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o'quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiy xulosaga kelinadi.

Suhbat ko'proq o'quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o'zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobiy natijalarni beradi. Suhbat turli ko'rinishlarda, ya'ni, **kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat** tarzida tashkil etiladi.

Kirish suhbati o'quv ishlarining boshida tashkil etiladi. Uni tashkil

etishdan ko'zlangan maqsad hal etilishi zarur bo'lgan ishlar mohiyatining o'quvchilar tomonidan anglab yetilganligini tekshirib ko'rishdan iborat.

Yakuniy suhbat o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Katexizism (qisqa bayonli) suhbat – o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasi va ularning yangi mavzuni o'zlashtirishga tayyorgarligini aniqlash uchun dars avvalida yoki so'ngida qo'llaniladi.

Evristik suhbat yangi bilimlarni muammoli tarzda egallashga yo'naltiriladi. Savollar shunday ketma-ketlikda berilishi zarurki, ular o'quvchilarni mustaqil fikrlash, ularda faollikning yuzaga kelishini ta'minlash, ularni tahlil qilishga undash, dalillarni ilgari surishga rag'batlantirsin.

Tushuntirish o'quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo'llaniladi. Undan odatda nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o'rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida o'quv materialining bir qadar qiyin o'rinlariga alohida urg'u berilib, mazmuni ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko'p hollarda o'qituvchining ko'rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog'liq bo'ladi.


Ma'ruza yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi sanalib, u qat'iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko'pligi, bilimlar bayonining tizimliliigi kabi o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi

Ma'ruza mazmuni murakab tizimlar, hodisalar, obyektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog'lanishlari, qonun va qoidalardan tashkil topadi va u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma'ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi, bir vaqida o'quvchilarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o'rgata boradi.

Maktab ma'ruzasining samaradorligini ta'minlash **shartlari** quyidagilardan iborat: ma'ruza rejasini tuzish; o'quvchilarni ma'ruza mavzusi, rejasini bilan tanishtirish; ma'ruza bandlarini mantiqiylik va ketma-ketlikda bayon etish; har bir bandini qisqacha xulosalash; ma'ruzaning bir qismidan ikkinchisiga o'tishda mantiqiy aloqadorlikni ta'minlash; ma'ruzani muammoli va hissiy tarzda bayon qilish; bunja nutq imkoniyati, misollar, aniq dalillar va qiyoslashlardan foydalanish; o'quvchilarning bilish

faoliyatini mahorat bilan boshqarish; ma'ruzaning muhim jihatlarini ochib berish; o'quvchilar ma'ruzaning asosiy o'rinlarini yozib borishlariga imkon yaratish; muhim o'rinlarni ta'kidlab ko'rsatish; ma'ruza mazmunini ko'rgazmali tarzda (namoyish, illyustratsiya, videofilm va boshqalardan foydalangan holda) yoritish.

Ta'lim sifatini oshirishda **ko'rgazmali metodlar** ham alohida ahamiyatga ega. Ko'rgazmali metodning quyidagi turlari mavjud:



Ko'rgazmali metodning turlari

Ushbu metodlardan foydalanish zaruriyati ko'rsatmalilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligida ko'rinadi. Inson miyasining 30 foiz hajmini ko'rishni, faqat 3 foizigina eshitishni ta'minlovchi neyronlar tashkil etadi. Pedagogik-psixologik yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ladiki, shaxs tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko'rish retseptorlari yordamida o'zlashtiriladi. Demak, o'zbek xalqi tomonidan ko'p bora qo'llaniladigan "Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi" maqoli ilmiy asosga ega ekan.

Namoyish metodi o'rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini ochib berishda qo'l keladi va ayni chog'da predmetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot berishda keng qo'llaniladi

Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismiari, ularning o'zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan obyektlarning subyekt yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Tajribalar namoyishi esa sinf taxtasiga chizish yoki o'qituvchining maxsus jihozlar yordamida ko'rsatib berishi hisobiga amalga oshadi.

Predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish yanada ko'proq didaktik samara beradi, biroq, bunday namoyishni amalga

oshirish har doim ham mumkin bo'la olmaydi. Shu bois o'qituvchilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun'iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, hayvonlar bilan hayvonot bog'ida, turli o'simliklar bilan esa issiqxonalarda tanishish) yoki sun'iy ravishda yaratilgan obyektlar (maket, model, skelet va boshqalar)dan foydalaniladi.

Metod yordamida o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil ravishda obyektlarni o'rganish, zaruriy o'lchov ishlarini olib borish, aloqadorlikni o'rnatish, shuningdek, hodisalarning mohiyatini anglab yetishga bir so'z bilan aytganda faol bilish jarayoniga yo'naltirishi lozim. Namoyish samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining bilish jarayoni mohiyatan o'quvchilarning yoshiga mos holda to'g'ri tanlanishi hamda mumkin qadar ularning diqqatini namoyish etilayotgan predmetning muhim jihatlari ga yo'naltirishiga bog'liqdir.

Tasvirlash (illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog'liq bo'lsada, didaktikada alohida o'rganiladi.

Tasvirlash narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko'rinishlari – chizma, rasmi, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko'rsatishni taqozo etadi

Namoyish va tasvir metodlari o'zaro bog'liqlikda bir-birini to'ldirgan holda qo'llaniladi. Agar hodisa va jarayonni o'quvchi yaxlit holda qabul qilishi zarur bo'lsa namoyishdan foydalanish, agar hodisa mohiyati hamda uning unsurlari o'rtasidagi bog'lanishlarni anglash talab etilsa illyustratsiyaga murojaat qilinadi.

Tasvirning samarasi ko'pincha o'qituvchi tomonidan ko'rsatuv texnologiyasi qay darajada o'zlashtirilganligiga bog'liq bo'ladi. Ko'rsatmalardan foydalanishning bilish jarayonidagi didaktik ahamiyati o'rganilayotgan obyekt mohiyatini to'laqonli yoritish bilan belgilanadi. Aslida illyustratsiyalar oldindan tayyorlanib, dars jarayonida zarur o'rinlarda kerakli hajmda ko'rsatiladi, aks holda ular sonining oshib ketishi o'quvchilarni hodisa mohiyatini anglashda chalg'itadi. Ayrim hollarda tarqatma materiallar (fotosurat, jadval, tabiiy obyektlar va boshqalar) yoki texnik vositalar xizmatidan foydalanishga to'g'ri keladi.

O'rganilayotgan mavzuning mazmuniga bog'liq bo'lgan narsa, hodisa va voqealarni hamma vaqt sinf sharoitida namoyish qilish mumkin bo'lmaydi. Shuning uchun ham o'tilayotgan mavzuning xarakteriga qarab,

ekskursiya metodidan ham foydalaniladi. Mazkur metod sinf sharoitida – dars jarayonida qo'llaniladigan ta'lim metodlaridan ibidan farq qiladi.


Ekskursiya narsa va hodisalar mohiyatini tabiiy sharoitlar (ishlab chiqarish muassasalari, fermer va jamoa xo'jaliklari, tabiat) yoki maxsus muassasalar (muzey, ko'rgazma zallari va hokazolar)da bevosita o'rganilishning tashkili etilishi

Ekskursiya bir vaqtning o'zida mustaqil ta'lim turi ham sanaladi. Ko'rgazmali metodlardan foydalanishda quyidagi shartlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir: ko'rgazmalilikning o'quvchilar yoshi va rivojlanish darajasiga mos kelishi; namoyish etilayotgan obyektlar barcha o'quvchilarga yaxshi ko'rinib turishi; namoyishda uning boshlang'ich bosqichi va asosiy jarayon (holat)larning ajralib turishi; tajribalar namoyishi maket, jihoz, qurollar yoki tajriba sxemasini chizib ko'rsatish asosida tashkil etilishi; namoyish va illyustratsiya o'quv materialining mazmuni bilan uyg'un bo'la olishi lozim.

Amaliy ishlar metodi o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo'naltirilgan jarayonda qo'llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi hosil qilinadi

Amaliy ishlar sinfda yoki tabiiy sharoitlar – maktab yer maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo'riqnomaga yoki maxsus ko'rsatmani o'quvchilar e'tiboriga havola etadi.

Amaliy ishlar metodi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar yordamida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi:



Amaliy ishlar metodlarining turlari

Qayd etilganidek, ushbu metodlar o'quvchilarda amaliy ko'nikma va

malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Aynan amaliy faoliyat jarayonida nazariy bilimlar harakatdagi shaklga ega bo'ladi.

Mashq – aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko'nikmalarini egallash yo'lidagi ko'p marta takrorlanishlar bo'lib, mashqsiz ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og'zaki, yozma, gradikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo'linadi.

Yozma mashqlar – ta'limning tarkibiy qismi sifatida zaruriy ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida qo'llaniladi. Diktant, insho, masala, misol, shuningdek, referat yozish va tajriba mohiyatini yoritish ham yozma mashqlar sirasiga kiradi.

Grafikaviy ishlar jihatlariga ko'ra yozma ishlarga o'xshashi bo'lib, ulardan asosan texnik jarayonlar (ya'ni geografiya, fizika, matematika, chizmachilik, rasm hamda texnologik ta'lim)da keng ko'lamda foydalaniladi.

Mashqlarning bajarilish sanarasi quyidagi shartlar hisobga olinganda birmuncha yuqori bo'ladi: mashqlarni bajarishga nisbatan ongli yondashish; bajarish qoidasini bilish; vaqt bo'yicha takrorlanishning to'g'ri taqsimlanishi.

Mashqni bajarishni tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat: o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi; topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi; o'qituvchi nazorati ostida o'quvchilar tomonidan o'quv harakatining dastlabki bajarilishi; zarur ko'nikma va malakalar shakllanganicha o'quv harakatlarning ko'p bora takrorlanishi.


Ayrim holatlarda o'quvchilar ovoz chiqarib o'quv harakatlarini takrorlashlari va bajarishlari lozim bo'ladi. Ular izohli mashqlar deb nomlanadi va bajariladigan harakatlarning mohiyatini anglagan holda ko'nikma va malakalarni egallashga imkon beradi.

Laboratoriya ishlari o'quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, qurol hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o'tkazish metodlari bo'lib, ular ko'proq tabiiy fanlar asoslarini o'rganishda qo'llaniladi. Bu metod o'quvchilarning asbob-uskunalar bilan ish ko'rish, o'lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko'nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqtni sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar o'quvchilarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil

ravishda tajriba va o'lchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi.

Laboratoriyadan amaliy ishlarning farqi shundaki, bu metod o'quvchilarning mavjud nazariy bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo'naltirilgan faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi. U o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, bilish faoliyatini nazorat qilish hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish borasidagi ko'nikmalarini shakllantirish kabi funksiyalarni bajaradi.

Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish faoliyati quyidagi besh bosqichda tashkil etiladi:



Ta'lim jarayonini boshqarish bosqichlari

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar negizida amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda **didaktik o'yinlardan** foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Binobarin, o'yin ham ijtimoiy faoliyat ko'rinishi sanaladi.

Didaktik o'yin o'rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi

Hozirgi vaqtda o'qituvchilar qo'ida barcha o'quv fanlari bo'yicha didaktik o'yinlarning ishlanmalari mavjud, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim

12-MAVZU: TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI.

Reja:


1. "Ta'lim metodlari" tushunchasining mohiyati va tavsifi.
2. Ta'lim metodlarining klassifikatsiyasi.
3. Ta'lim olganlikni tashxis etish.

Tayanch iboralar:

Metod, usul, metodika, ta'lim metodlari, usullari, ta'lim metodlarining klassifikatsiyasi, ta'lim vositalari, ta'lim olganlikni tashxis etish, baxolash, tekshirish.

1. "Ta'lim metodlari" tushunchasining mohiyati va tavsifi. "Metod" so'zining yunoncha tarjimasida "tadqiqot", "usul", "maqsadga erishish yo'li" kabi ma'nolarni anglatadi. Falsafa lug'atida ushbu tushuncha umumiy tarzda "maqsadga erishish yo'llari". Ta'lim metodlari dastlab pedagog ongida muayyan yo'nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo'ladi. Mazkur loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo'lmaydi, buning boisi ta'lim metodi o'zida umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi.

Aksariyat mualliflar "Ta'lim metodlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari" degan qarashga yon bosadilar. Demak, ta'lim metodlari ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmuidir. Ta'lim metodlari ta'lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi. Metod, birinchidan, ta'lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchidan, ta'lim faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi. Ta'lim metodlari quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:



Tarbiya metodlarining asosiy funksiyalari

Bu funksiyalar ta'lim metodini qo'llash jarayonida bir-biridan ajratilgan holda yoki ketma-ket joriy etilmaydi. aksincha bir-biriga o'zaro singib ketadi. Misol uchun, tashxisli funksiya o'qituvchining bir qator metodlardan yaxlit foydalanishi evaziga bajariladi.

“Ta'lim metodi” tushunchasi bilan birga ko'p hollarda “metodik usul” (sinonimlari – pedagogik usul, didaktik usul) tushunchasi ham qo'llaniladi. U ta'lim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri. metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta'riflanadi. Har bir ta'lim metodi muayyan ta'lim usullarini chog'ishtirish orqali joriy etiladi. Ta'lim faoliyatida qo'llaniladigan usullarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:



Metodik usullarning turlari

Ta'lim metodlarini tanlash quyidagi mezonlari asosida aniqlanadi: didaktik maqsad asosida; ta'lim mazmuni asosida; o'quvchilarning o'quv ko'nikmalarini egallash va rivojlanish darajasi asosida; o'qituvchining tajribasi va kasbiy tayyorgarlik darajasi asosida.

2. Ta'lim metodlari klassifikatsiyasi. Didaktik jarayon tuzilmasiga ko'ra ta'lim metodlari quyidagi uch guruhga ajratiladi:

Tekshirish – nazoratning tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy didaktik vazifasi o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida teskari aloqani ta‘minlash, pedagog tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi, bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o‘z vaqtida aniqlashni ta‘minlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o‘quvchining bilim darajasi, sifati, shuningdek, uning o‘quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

Tekshirish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. ya‘ni:

1. O‘quvchilarning bilim darajasini oldindan aniqlash. Odatda, u o‘quv yili boshida o‘quvchilar tomonidan avvalgi o‘quv yilida o‘zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o‘quv yilining o‘rtasida yangi bo‘lim (kurs)ni o‘rganishga kirishilganda ham o‘tkazilishi mumkin va o‘rinli.

2. Har bir mavzuni o‘zlashtirish jarayonidagi joriy tekshirishdir. Joriy tekshirish ta‘lim oluvchilar tomonidan o‘quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o‘zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi alohida olingan muayyan vaziyatni o‘rganishdir. Bunday tekshirish shakl va metodlari turlicha bo‘lib, ular o‘quv materiali mazmuni, murakkabligi, o‘quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta‘lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga muvofiq belgilanadi.

3. Oraliq tekshirish bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish. O‘quvchilarning o‘quv materialining muayyan bob yoki bo‘limlari bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli. Yangi mavzuni o‘rganish bilan birga o‘quvchilar avval o‘zlashtirilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko‘maklashadi, biroq o‘quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarning mustahkamlik darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Tashxisning boshqa shakl va metodlari bilan birga qo‘llanilsagina ushbu tekshirish kutilgan samarani beradi.

4. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini yaxlit bo‘lim yoki kursning alohida mavzusi bo‘yicha davriy tekshirish. Uning maqsadi – kursning turli qismlarida o‘rganilgan o‘quv materialining strukturaviy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni o‘zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi – tizimlashtirish va umumlashtirish.

5. O'quvchilarning ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini yakuniy tekshirish va hisobga olish. O'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o'quv yili oxirida o'tkaziladi. U olingan baholarni qo'shib, o'rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo'lmashligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda mavjud bilim darajasi (sifati)ni tashxislashdir.

Nazorat, shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash va tahlil qilishni ham o'z ichiga oladi. O'zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralanish belgilari va hokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi. O'quvchining o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Miqdor ko'rsatkichlari ko'proq ballar yoki foizlarda. Sifat ko'rsatkichli esa a'lo, yaxshi, qoniqarli va hokazo baholovchi fikrlar yordamida qayd etiladi. Har bir baholovchi fikrga oldindan kelishilgan (belgilangan) ma'lum ball, ko'rsatkich (masalan, o'rin - 1, 2, 3, 4 va hokazo) tayinlanadi.

Baho - o'quvchilarga ularning ta'lim olishi, bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijodiy yondashishni rag'batlantirish maqsadida ta'sir ko'rsatish vositasi

Bahoni amalda egallangan BKM bilan davlat ta'lim standartiga ko'ra o'zlashtirilishi belgilangan BKM umumiy hajmi o'rtasidagi nisbat sifatida tushunish zarur.

Hisobga olish ta'limning muayyan davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirish, xulosalash demakdir.

O'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini hisobga olishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim: 1) o'quv dasturi asosida mavzu va bulimni o'rganishda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish; 2) har bir yakunlangan mavzu bo'yicha o'quvchilarning faoliyati to'g'risida xulosa chiqarish; 3) o'rtacha arifmetik ma'lumotlarga tayanibgina o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholamaslik; 4) o'quvchilarning mavjud bilimlariga aniq, batafsil ma'lumot (tavsif) berish uchun ularning bir necha o'quv yilidagi statistik o'zlashtirish ma'lumotlarga asosanib tahlil etish.

O'zlashtirishni nazorat qilish quyidagi **vazifalarini bajaradi:**


oluvchilarga do'stona munosabati hamda bilim, ko'nikma, malakalarni baholashdan aniq maqsadning ko'zlanganligi kabi talablardan iborat.

Tizimlilik nazorat ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida – bilimlarning o'zlashtirilishi ularni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan davrlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lishini anglatadi. Bu tamoyil barcha ta'lim oluvchini uning ta'lim muassasasida bo'lgan birinchi kunlaridan boshlab so'nggi kunlarigacha muntazam ravishda tashxisga jalb etilishini ifodalaydi. Ta'lim oluvchining bilimi, ko'nikma va malakalarini ishonchli tekshirish uchun nazoratni muayyan vaqt oraliqlarida muntazam o'tkazib borish talab etiladi.

Oshkoralik barcha ta'lim oluvchilarni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi. Tashxis jarayonida belgilanadigan har bir o'quvchining reytingi oshkora xarakter kasb etadi. Oshkoralik tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivatsiyalashni talab etadi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari. Har bir fan bo'yicha o'quvchining o'quv faoliyatini nazorat qilish va baholash chorak yoki yarim yillik davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi nazorat turlari orqali baholanadi:

1) joriy nazorat (JN); 2) oraliq nazorat (ON); 3) yakuniy nazorat (YAN).



O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari

Nazoratning turi o'quv ishini tashkil etish shakliga bog'liq. O'qituvchi mavzudan kelib chiqib, nazoratning quyidagi shakllaridan foydalanadi:

1) **nazoratning ommaviy (frontal) shakliga** ko'ra o'qituvchi o'quvchilarga materialning ma'lum bir hajmi bo'yicha savol beradi, o'quvchilar unga qisqacha javob qaytaradilar. Bu kabi so'rash ko'pchilik o'quvchini bir vaqtning o'zida nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo bu nazoratni o'quvchilarning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo'llab bo'lmaydi;

2) **nazoratning guruhli shakliga** ko'ra o'quvchilarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilar guruhiga vazifa beriladi va uni guruh muayyan vaqt oralig'ida bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa o'quvchilar ham ishtirok etishiari mumkin.

3) **nazoratning individual shaklidan** har bir o'quvchining bilim. ko'nikma va malakalari darajasini mukammal tashxislash uchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida, odatda o'quvchilar javob berish uchun sinf yozuv taxtasi oldiga chaqiriladi:

4) **nazoratning uyg'unlashtirilgan (kombinatiyalangan) shakli** individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratdan yirik hajmli mavzularni bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilardan so'rash maqsadida foydalaniladi, har bir o'quvchiga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtda bir necha o'quvchini tekshirish imkoniyati yuzaga keladi;

5) **o'z-o'zini nazorat qilish** ta'lim jarayonida ichki qaytar aloqani yuzaga keltirishga xizmat qiladi va psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilarning faoliyatini nazorat qilish metodlari quyidagilar: og'zaki tekshirish, yozma tekshirish, amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish, uy vazifalarini tekshirish.

Og'zaki tekshirish. Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir. Tekshirish chog'ida o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham ataladi. Og'zaki tekshirishda o'qituvchi o'rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan o'quvchilarga savollar beradi. Biroq, o'quvchilarning nutqini o'stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin.

Keng tarqalganligi va samarali ekanligiga qaramay ogʻzaki tekshirish ayrim kamchiliklarga ham ega. Chunonchi, uni qoʻllash jarayonida: nisbatan koʻp mehnat sarflanadi; dars mobaynida 3-4 nafar oʻquvchiningina bilimini tekshirish mumkin.

Yozma tekshirish. Oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri boʻlib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Unga koʻra oʻqituvchi alohida mavzu yoki oʻquv dasturining maʼlum boʻlimini oʻtib boʻlganidan soʻng oʻquvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashni tashkil etadi. Yozma tekshirish nazorat ishi, insho, bayon, diktant va boshqalar yordamida olib boriladi. Ushbu jarayonda oʻqituvchining bajarilgan ish bilan tanishib chiqishi, uning sifatini tekshirishi uchun koʻp mehnat va vaqt sarflanadi. Oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasida bevosita aloqaning yoʻqligi sababli uning fikrlashini kuzatish imkoni boʻlmaydi.

Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish. Amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning toʻgʻriligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat boʻladi. Tekshirishning bu shaklidan oʻquvchilarning tabiiy fanlar boʻyicha bilimlarini hisobga olishda keng foydalaniladi.

Uy vazifalarini tekshirish. Oʻquvchilarning oʻzlashtirishini nazorat qilish uchun ular tomonidan uyga berilgan vazifalarning bajarishlarini tekshirish katta ahamiyatga ega. Uy vazifalarini tekshirish oʻqituvchiga oʻquvchilarning oʻquv faoliyatiga boʻlgan munosabatini, oʻrganilgan materialni qanchalik egallaganligini, uy vazifalarini bajarishdagi mustaqillik darajasini aniqlashga imkon beradi.

Shkallalash. Aniq jarayonlarni raqamlar tizini yordamida modellashtirish. Uning turli uslublari sifat tavsiflarini miqdoriy oʻzgarishlarga aylantirishga yordam beradi.

Test. Aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy koʻrsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Pedagogik amaliyotda testning bir qator afzalliklari koʻzga tashlanadi. Ular quyidagilardir: 1) nazorat uchun vaqtning kam sarflanishi; 2) nazariy va amaliy bilim darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkonining mavjudligi; 3) bir vaqtda koʻp sonli oʻquvchilar bilan nazoratni tashkil etish mumkinligi; 4) bilim natijalarining oʻqituvchi tomonidan qisqa muddatda tekshirilishi; 5)

barcha o'quvchilarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, ular uchun bir xil sharoitning yaratilishi.

O'quvchilar bilimini baholashning besh balli tizimining eskirganligi, zamon talablariga javob bera olmaganini uni reyting tizimi asosida baholash uslubi bilan almashtirishni taqozo etdi.

Reyting (inglizcha "baholash", "tartibga keltirish") muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash. Reyting tizimi o'quvchilarning bilim sifatini nazorat qilish turi, metodi va shakli sifatida e'tirof etilib, uning yordamida o'quvchilarning o'quv fanlari bo'yicha ta'lim standartida belgilangan barcha talablar bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlari sifati baholanadi.

Reyting nazoratda o'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilishning yuqorida keltirilgan metodlari bilan birga test usulidan ham samarali foydalanilmoqda. Test so'rovidan nafaqat o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, balki 1993 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida abituriyentlarni oliy o'quv yurtlariga tanlov asosida qabul qilish jarayonida ham samarali foydalanib kelinmoqda.

Reyting tizimi yana bir qator afzalliklarga ega. Masalan: baholash tizimi imkoniyatlarini kengaytirish; o'quvchi bilimini obyektiv aniqlash; ta'limni standartlashtirish imkoniyatini ta'minlash; DTSda ko'zda tutilib, o'quv dasturiga kirgan majburiy ixtiyoriy BKMni to'la o'zlashtirilishini ta'minlash; o'quvchilarda mustaqil bilim olish, erkin fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish; o'quvchilarda bilimlarni ixtiyoriy o'zlashtirish, kamchiliklarni bartaraf etish uchun mustaqil ishlash imkoniyati yaratiladi.

O'quvchilarning BKMni baholash mezonlari. O'quvchilarning BKMni baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalari, shuningdek, guruhdagi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi. Baholash mezonlarini ishlab chiqishda o'quvchilarning og'zaki javob berishlari, ko'nikma va malakalariga alohida-alohida yondashiladi.

O'quvchilarning BKM darajasi quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi:

"5" baho (85-100 ball) qo'yiladi, agar: a) o'quvchi materialni to'liq o'zlashtirib olgan bo'lsa; b) o'rganilgan mavzu bo'yicha asosiy ma'lumotlarning mohiyatini ochib bera olsa; v) egallangan bilimlarni amalda

qo'llay olsa; g) o'rganilgan mavzuni bayon qilishda, o'zma ishlarda xatolarga qo'l qo'ymasdan, ma'lumotlarni tushuntirib bera olsa qo'yiladi.

“4” baho (71-84 ball) qo'yiladi, agar: a) o'quvchi o'rganilgan mavzuning mohiyatini bilsa; b) o'qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa; v) egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olsa; g) og'zaki javob berishda jiddiy xatolarga yo'l qo'ymasdan, o'qituvchining qo'shimcha savollari bilan xatolarini to'g'rilay olsa hamda yozma ishda uncha jiddiy bo'lmagan xatoga yo'l qo'yilsa;

“3” baho (55-70 ball) qo'yiladi, agar: a) o'quvchi o'rganilgan mavzuni o'zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirish berishda o'qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa; b) savollarning mantiqiy tuzulishini o'zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa; v) yozma ishda xatolari bor bo'lsa.

“2” baho (0-54 ball) qo'yiladi, agar: o'quvchi o'rganilgan mavzu haqida tushunchaga ega bo'lsa-da, biroq, uni o'zlashtirmasa, yozma ishda qo'pol xatolarga yo'l qo'ysa.

Nazorat uchun savollar:

1. Ta'lim metodlari va uning vazifalari.
2. Ta'lim metodlari klassifikatsiyasi.
3. Ta'lim vositalari va uning turlari.
4. Ta'limni tashxis etish nima?

13-MAVZU: PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Reja:

1. Pedagogik texnologiyaning rivojlanish bosqichlari.
2. Pedagogik texnologiya tushunchasi va ta'riflari.
3. Pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari.
4. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari.

Tayanch iboralar:

Texnologiya, pedagogik texnologiya, ta'lim texnologiyalari, o'qitish texnologiyalari, muammoli ta'lim texnologiyalari, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari.

1. "Pedagogik texnologiya"ning rivojlanish bosqichlari. XX asrning 20-yillarida "Pedagogik texnologiya" termini birinchi bor pedagogikaga oid asarlarda tilga olingan. Shu vaqtning o'zida yana bir boshqa – "pedagogik texnika" termini ham tarqaldi. U pedagogik ensiklopediyada 30-yillarda o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga qaratilgan uslublar va vositalar sifatida ifodalangan. Pedagogik texnologiyalarga o'quv va laboratoriya uskunalari bilan ishlash, ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanishlar mahoratlari ham kiritilgan.

O'tgan asrning 40-50-yillarida, o'qitish - o'quv jarayonlarisha texnik vositalarni tatbiq etish boshlanganida, "ta'lim texnologiyasi" termini paydo bo'ldi, u keyingi yillar davomida "pedagogik texnologiyaga" aylantirildi.

60-yillar o'rtalarida bu tushunchaning mazmuni chet ellarda pedagogik nashrlarda va xalqaro konferensiyalarda keng muhokama etildi, natijada ushbu sohada turli mamlakatlarda (AQSH, Angliya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Vengriya) va darajasiga qarab uni talqin qilish ikki yo'nalishi belgilandi.

Birinchi yo'nalish tarafdorlari texnik vositalar va dasturlashtirilgan o'qitish vositalarini qo'llash zarurligini ta'kidladilar (technology in education).

Ikkinchi yo'nalish tarafdorlari esa o'quv jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirish va pedagogik g'oyalarning texnikaning keskin rivojlanishidan ortda qolishini yo'qotish muhim deb hisobladilar. Shunday

qilib 1-yoʻnalish “oʻqitishda texnik vositalar” sifatida belgilandi, biz biroz keyinroq yuzaga kelgan 2-yoʻnalish “oʻqitish texnologiyasi” yoki “oʻquv jarayoni texnologiyasi” sifatida belgilandi.

70-yillarning boshlarida turli xildagi oʻquv uskunalarini va oʻquv vositalarini modernizatsiyalashtirish zarurligi anglab yetildi. Bularsiz oʻqitishning sifatli va samaradorligiga erishib boʻlmay edi.

60-yillar oʻrtalari va 70-yillarning boshlarida AQSH, Angliya, Yaponiya, Italiya kabi yuksak rivojlangan davlatlarda pedagogik texnologiyalar masalalari bilan shugʻullanuvchi jurnallar nashr etilar edi, keyinchalik bu muammo bilan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va markazlar shugʻullana boshlaydi.

Shunday qilib, oʻtgan asrning 70-yillari oxiri 80-yillari boshlarida texnika rivojlanishi va chet elda taʼlimning kompyuterlashtirilishi boshlanishi oqibatida “oʻqitish texnologiyasi” va “pedagogik texnologiya” tushunchalari oʻquv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va boshqarish vositalari, metodlari tizimi sifatida tushunila boshlandi:

1. Amaliy masalalarni yechish uchun tizimli bilimlarni qoʻllash.
2. Oʻquv jarayonida texnik vositalardan foydalanish.

2. Pedagogik texnologiya tushunchasi va taʼriflari. “Texnologiya” yunoncha *coʻz boʻlib*, “*techne*” – mahobat, canʼat va “*logos*” – tyshyncha. taʼlimot, fan maʼnolini anglatadi. “Taʼlim texnologiyasi” ibopacining maʼnoli – (inglizcha “*An educational technology*”) taʼlim jarayonini yukcak mahobat bilan canʼat dapajacida tashkil etish toʻgʻpicida maʼlymot bepvyehi fan, taʼlimot demakdip. Ayni vaqtda mazkyp tyshynchaning taʼpifi hamda yning mohiyati bopacida yagona gʻoya mavjyd emac. By nazapiya mohiyatining yopitilishiga nicbatan typli yondashyvlap mavjyd.

Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, hozirgi davrda **pedagogik texnologiya** tushunchasi taʼlim amaliyoti va nazariyasi ilmdan mustahkam oʻrin egalladi, lekin uni pedagogikaning mukammal lugʻatlaridagi oʻrni hali nomaʼlumligicha qolmoqda.

Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud boʻlgan: u texnik vositalar haqidagi taʼlimot deb hamda oʻqitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan. Hozir pedagogik texnologiyalarning bir qancha taʼriflari mavjud.

V.P. Bepalko pedagogik texnologiyani *amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi* sifatida belgilaydi. U pedagogik tizim texnologiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'ladi, deb hisoblaydi. Bunda asosiy diqqat o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratiladi, **didaktik vazifa va o'qitish texnologiyalari** tushunchasidan foydalaniladi.

Pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga jadallik bilan kirib borayotgan bo'lsa ham, uning maqomi noaniqligicha qolib ketmoqda. Tadqiqotchilarning ishlarida fan va amaliyot oralig'idan o'rin egallamoqda.

N.F.Taluzina har bir pedagog real pedagogik jarayonni tashkil etishdan oldin o'quv jarayoni haqida texnologik darajada bilimlar tizimini bilib olgan bo'lishi shart deb hisoblaydi. U fan va amaliyot oralig'ida tamoyillarni olg'a suruvchi, metodlar ishlab chiquvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi -alohida fan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi, ularsiz pedagogik jarayon asoslanmay qoladi (texnologiya real o'qitish jarayoni sifatida).

Ayrim mualliflar o'qitish texnologiyalariga fan va san'at oralig'idagi fan deb qaraydilar, boshqalari uni loyihalash bilan bog'laydilar.

Shunday qilib, bir yondashuvda o'qitish texnologiyalari o'kitishning barcha vositalarini qamrab olgan qandaydir jilozlash sifatida ham belgilanadi. Unda texnologiya o'quv jarayonini texniklashtirishni taqozo qiladi.

Boshqa yondashuvda texnologiyaga ta'lim amaliyotini yangi yoki zamonaviylashtirilgan bilimlar bilan ta'minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiyaga ta'limning ilmiy tamoyillari va amaliyotini tatbiq etish sifatida qaraladi.

Texnologik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat o'qitish texnologiyalari bo'sh texnologiyalanganligi bo'yicha qolib ketmoqda. Bir qator texnologiyalarda nazariy asoslar kuchaytirilgan, amaliy tomoni u qadar oydinlashtirilmagan.

Pedagogik texnologiya o'ziga xos va potensial yaratiladigan pedagogik natijalarga erishish uchun pedagogik tizimning barcha tashkiliy tomonlariga aloqador nazariy va amaliy (ta'lim tizimi doirasida) tadqiqotlar sohasi sifatida belgilanadi.

Pedagogik texnologiya mohiyatini yoritish uchun pedagog-didaktiklar tomonidan berilgan ta'riflarga to'xtalishni maqsadga muvofiq deb topamiz.

«**Pedagogik texnologiya** – psixologik va pedagogik o‘qitlar yig‘indisi bo‘lib, shakllar, metodlar, usullar, o‘qitish yo‘llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to‘plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi» (B.Lixachev).

«Pedagogik texnologiya – o‘quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi» (V.P. Bospalko).

«**Pedagogik texnologiya** – rejalashtirilgan o‘qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi» (I.P. Volkov).

«**Texnologiya** – ishlov berish, holatni o‘zgartirish san‘ati, mahorati, malakasi va metodlar yig‘indisi» (V.M. Shepel).

«**Pedagogik texnologiya** – talaba va o‘qituvchining ularga zarur sharoit yaratish orqali o‘quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o‘tkazish bo‘yicha ular pedagogik faoliyatining har tomonlama o‘ylangan modelidir». (V.M. Manaxov).

«**Pedagogik texnologiya** – bu ta‘lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko‘zlagan o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir» (YUNESKO).

«**Pedagogik texnologiya** – pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo‘lishning tizimli yig‘indisi va tartibini bildiradi» (M.V. Klarin).

«**Pedagogik texnologiya** – o‘zida turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta‘riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi». (G.K. Selevko).

«**Pedagogik texnologiya** -tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta‘lim shakllarini kulaylashtirish, natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun inson calohiyati hamda texnik vositalarning o‘zapo ta‘sirini inobatga olib, ta‘lim maqaddapini oydinlashtirib, o‘qitish va bilim o‘zlashtirish jarayonlarida qo‘llanadigan usul va metodlar majmuidir». (M.O. Ochilov).

«**Pedagogik texnologiya** bu o‘qityvchi (tarbiyachi) tomonidan o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘qyvcilapga ta‘sir ko‘pcatish va bu faoliyat mahcyli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni» (N.Saidaxmedov).

«**Pedagogik texnologiya** bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan,

aniq maqcadga yo'naltirilgan hamda yshby maqcadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat japyonining mazmynidip" (O'.Q.Tolipov).

Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, pedagogik texnologiyaning ahamiyati avval o'zlashtirilgan nazariy bilimlar bilan yangi o'zlashtiriladigan bilimlar opacida myctahkam bog'lanishlarining yuzaga kelishi bilan belgilanadi. Mazkur jarayonda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

- *teng qiymatli (ekvivalent) amaliyot qoidaci*: ta'lim olyvchilarning ta'lim japyonidagi xatti-hapakatlari test o'tkazish yoki imtihon davrida ta'lim olyvchi tomonidan tashkil etilishi kytiriladigan xatti-hapakatlariga to'la mos keladi;

- *o'xshash amaliyot qoidaci*: ta'lim olyvchilar codip etilishi kytirilayotgan xatti-hapakatlarini tashkil etish majburiyatiga ega bo'lmay, balki mohiyatan shunday bo'lgan sharoitlarda mashq qilish imkoniga ega bo'ladi;

- *natijalarni aniqlash qoidaci*: ta'lim olyvchiga yning hap bip xatti-hapakatining mazmyinini baholash natijalari bo'yicha ma'lymot bepish, mazkur shartga akcipiyat hollarda jopiy nazoratni tashkil qilish japyonida picya etiladi;

pag'batlantirish qoidaci: talabning maqbul xatti-hapakatlarini pag'batlantirib bopish, pedagogik faoliyat japyonida talaba tomonidan codip etilgan calbiy xatti-hapakatlar ychyn ynga tanbeh bepilmaydi, balki ylapni baptapaf etish ictagini yuzaga keltiruvchi amaliy ko'pchatma bepiladi. Macalan, "yana bip marta ypinib ko'p", "yanada chyqyppoq o'ylab ko'p", "macalani hal etishning yanada oconpoq yo'li bor, yni topishga ypinib ko'p" va hokozolap.

Ta'lim texnologiyasi deganda, ta'limning belgilangan maqsadi va talabning bilim darajasiga ko'ra o'quv faoliyatini boshqarishning nazariy loyihasi va pedagogik tizimning amalda bo'lishini ta'minlovchi zarur vositalar tizimi tushuniladi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya o'qitishning eng samarali yo'llarini izlovchi fan sifatida ham, o'qitishda qo'laniladigan usullar, prinsiplar va boshqaruvlar sistemasi sifatida ham, o'qitish haqiqiy jarayoni sifatida ham ishtirok etadi.

Pedagogik texnologiyalar darajalari.

"Pedagogik texnologiya" tushunchasi ta'lim amaliyotida uchta tartib

bilan bir-biriga bog'liq darajalarda ishlatiladi.

1. Umumpedagogik (umumdidaktik) daraja: umumpedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) texnologiya ta'limning ma'lum bosqichida ushbu region, o'quv yurtida yaxlit ta'lim jarayonini ifoda etadi. Bu yerda pedagogik texnologiya pedagogik tizimga o'xshashdir: unga o'qitishning maqsadlari, mazmuni, vosita va metodlari to'plami, faoliyat obyekti va subyekti algoritmi kiradi.

2. Xususiy metodik (fan) darajasi: xususiy metodik pedagogik texnologiya "xususiy metodik" ko'rinishida qo'llaniladi, ya'ni bir fan, sinf, o'qituvchi doirasida o'qitish va tarbiyalash ma'lum mazmunini amalga oshirish uchun metodlar va vositalar to'plami sifatida ishlatiladi.

3. Lokal (modulli) darajasi: lokal texnologiya o'quv-tarbiyaviy jarayonning alohida qismlari, xususiy didaktik va tarbiyaviy masalalarni hal etish texnologiyasidan iborat (alohida turdagi faoliyat, tushunchalar shakllantirish, alohida shaxsiy sifatlarni tarbiyalash, dars texnologiyasi, materiallarni takrorlash va tekshirish texnologiyasi, mustaqil ishlar texnologiyasi va boshqalar).

Pedagogik texnologiyalarni rasmiylashtirish usullari. Texnologik sxema – texnologik jarayonni shartli ravishda tasvirlash, ularni alohida qismlarga ajratish va ular orasidagi mantiqiy bog'liqliklarni ko'rsatish.

Texnologik xarita - bosqichma-bosqich harakatlar ketma-ketligi ko'rinishida (ko'pincha grafik shaklda) qo'llaniladigan vositalarni ko'rsatib jarayonni tasvirlash.

Texnologik tizim. Adabiyotlarda va maktablar ishlari amaliyotida pedagogik texnologiya termini pedagogik tizim tushunchasi sinoniumi sifatida qo'llaniladi. Tizim tushunchasi texnologiya tushunchasidan ko'ra kengroq bo'lib, faoliyatning obyekti va subyektlarini ham o'z ichiga oladi.

Texnologiya metodikasidan natijalarining mustahkamligi, qayta yangilanishi, ko'plab "agarda" ikkilanishlarining yo'qligi bilan farq qiladi (agarda iste'dodli o'quvchi bo'lganida, agarda qobiliyatli bolalar, agarda otanonalar...).

1. Texnologiyalar va metodikalarning aralashtirib yuborilishi ba'zan metodika texnologiya tarkibiga kirishiga, ba'zan esa aksincha, u yoki bu texnologiyalar - o'qitish metodikasi tarkibiga kirishiga olib keladi.

2. Pedagogik texnologiyalarga talablar va texnologikligi mezonlari.

3. Har qanday pedagogik texnologiya ba'zi bir metodologik ta'ablarga yoki texnologiklik mezonlariga javob bera olishi kerak. Pedagogik texnologiyalarning asosiy sifatlari quyidagilarda ifoda etiladi:

4. Konsetuallik. Har bir pedagogik texnologiyaga ta'lim maqsadlariga erishish falsafiy, psixologik, didaktik va ijtimoiy-pedagogik asoslarini ichiga oluvchi ma'lum ilmiy konsepsiyaga tayanish xos bo'lishi kerak.

5. Sistemalilik. Pedagogik texnologiya sistemalilik belgilariga ega bo'lishi kerak: jarayonning mantiqi, uning hamma qismlari bog'liqligi, yaxlitligi.

6. Boshqariluvchanligi o'qitish jarayoni diagnostik maqsadni ko'zlash, rejalashtirish, lohalashtirish, bosqisma-bosqich diagnostika qilish, natijalarni tuzatish maqsadida vosita va metodlarni o'zlashtirish mumkinligini ko'zda tutadi.

7. Samaraliligi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar aniq sharoitlarda mavjud va natijalar bo'yicha samarali, harajatlar bo'yicha optimal bo'lishi, o'qitishning ma'lum standartiga erishishni kafolatlashi kerak (ya'ni, 70% foizdan ortiq o'quvchilar "yaxshi" bahoga va "a'lo" bahoga o'qishlari kerak, bu esa agarda sinfda 25 ta o'quvchi bo'lsa – shundan 19 tasi deganidir).

8. Qayta yangilanishi. Pedagogik texnologiyani boshqa bir turdagi ta'lim muassasalarida, boshqa subyektlar bilan qo'llanilishini (takrorlanishini, qayta tiklanishini) nazarda tutadi.

3. Pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari. Maktab, ijtimoiy institut sifatida butun jamiyatning holatini aks ettiradi. U siyosatdan alohida, g'oyalardan alohida yashay olmaydi, hech qanday falsafani targ'ib qilmay yashay olmaydi.

Shunday qilib har qanday umumpedagogik umumta'lim texnologiyasi ma'lum falsafiy poydevorga asoslanadi. Falsafiy konsepsiyalar pedagogik texnologiyalarni metodologik ta'minlash tarkibiga kiruvchi eng umumiy tartibga soluvchi sifatida ishtirok etadi.

Falsafiy asosi ta'limning yakuniy maqsadida ancha aniq ko'rinadi (misol uchun, diniy tarbiyalash, texnokratik, insonparvarlik pedagogik va shu kabi).

Falsafiy nuqtai nazarlar ta'lim mazmunida, o'quv fanlari mazmunida ancha aniq kuzatiladi. Ammo ko'pincha ularning g'oyaviylik yo'nalishlarida birlik bo'lmaydi, yagona umumiy falsafiy asoslar yo'q. O'zbekiston

Respublikasida zamonaviy ta'lim mazmuni ana shunday ziddiyatlar bilan farq qiladi.

Ta'limning metodlari va vositalarida falsafiy asoslarni aniqlash qiyinroq. Bir xil metodlar g'oyalari bo'yicha umuman qarama-qarshi texnologiyalarda qo'llanilishi mumkin. Shuning uchun bir texnologiya u yoki bu falsafiy asosga moslanishi mumkin (misol uchun: o'yin).

Zamonaviy jamiyatshunoslikda u yoki bu darajada ta'lim jarayonida mavjud bo'lgan falsafiy yo'nalishlar, maktab, oqimlar ko'p turlari mavjud.

Insonparvarlik – insonni shaxs sifatida qadrdlovchi, uning erkinligi, baxti, rivojlanishi va hamma qobiliyatlarini namoyon etish huquqini tan oluvchi dunyoqarash sistemasi. Bu sistema inson farovonligini ijtimoiy hodisani baholash mezonini, tenglik prinsipini – haqiqat, insoniylikni esa – jamiyatdagi munosabatlar istalgan qoidalari deb hisoblaydi.

Insonparvarlik falsafasiga antroposofiya, pedotsentrizm, erkin tarbiyalash, tabiati muvofiqligi, neopozitivizm, pozitiv ekzistensializm kabi yo'nalishlar qo'shiladi.

Insonparvarlik yo'nalishiga alternativ deb ssiyentistik – texnokratik konsepsiyasi hisoblanadi. Ratsionalizm, ochiq-oydin insonparvarlikka qarshi nazariya (Irqi, millatchilik va boshqalar).

Ssiyentizm dunyoqarash yo'nalishi sifatida insoniy jamiyat madaniyati tizimida fan va texnikaning rolini absolyutizatsiyalashda o'zini namoyon etadi. Paradigma sifatida qaraladigan umuman ilmiy bilim namunalari tabiiy va aniq fanlarga xos bo'lgan bilimlar qurish uslubi va umumiy metodlari absolyutlashtiriladi. Ssiyentik ko'rsatmalar aniq va texnik fanlarga tashqi taqlid qilishda ifoda etiladi: matematik belgilarni sun'iy qo'llashda. sxemalashtirishda, nazariyashtirishda, texnologiyalashtirish va texnikalashtirishda. Sseptizmga qarama-qarshi– inson tabiiy qobiliyatlarini hisobga olishga chaqiruvchi, ularga tayanish, hamda insonning tabiat bilan birligini, ularning o'zaro aloqalari mosligi va uyg'unligini targ'ib qiluvchi dunyoqarash, falsafiy konsepsiyalarga qarab shaxsning rivojlanishi va tashkil topishi asosiy prinsiplarini farq qiladilar. "Pedagogik texnologiya" tushunchasi o'qitish nazariyasida keyingi paytlarda yanada kengroq tarqaldi.

Ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish. O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi

faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

Tadqiqotchilar o'yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O'yinlarning muhim qirralari S.A.Shmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbirni) tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlariga ko'ra, faoliyat jarayonining o'zidan bahra olish uchun qo'llanadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o'yin degan tushuncha mavjud. Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar "o'yinli pedagogik texnologiyalar"ni tashkil etadi.

Pedagogik o'yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yiladi. Pedagogik o'yinlar asosida talabalarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi.

G.K. Selevko tomonidan pedagogik o'yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Pedagogik o'yinlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda bo'ladi:

- didaktik maqsad o'yinli vazifa shaklida qo'yiladi;
- o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi;
- o'quv materialidan o'yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o'quv jarayoniga didaktik vazifa o'yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;
- didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o'yin natijalari bilan bog'lanadi.

Oliy maktab amaliyotida tadbirkorlik o'yinlariga alohida ahamiyat beriladi.

Tadbirkorlik o'yinlari nazariyasi umuman boshqa o'yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog'langan.

Tadbirkorlik o'yini yangi texnologiya sifatida mohiyatan quyidagilarni bildiradi:

- ishlab chiqarish imitatsion modeli sifatida taqdim etilgan o'quv materiali mazmunining izchilligi;
- o'yinli o'quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyati tarkibiy qismlarini yaratish;
- o'quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni tug'dirish va ularni amalda qo'llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish;
- o'yinning ta'limiy va tarbiyaviy samaradorligi yi g'indisi;
- o'yinni olib boruvchi o'qituvchining talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqarishidan talabalarning o'z xatti- harakatlarini tashkil etish va boshqarishga o'tishini ta'minlashi.

4. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. Muammoli o'qitish. Muammoli o'qitish bu takomillashgan o'qitish texnologiyasidir. Hozirgi oliy maktabdagi samarador o'qitish texnologiyasi - bu muammoli o'qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

Muammoli o'qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o'qitishniig reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o'sib boradi.

Muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil atadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli o'qitishning maqsadi- faol shaxsni tarbiyalash. Vazifasi- faol bilish jarayoniga undash, ijodiy fikrni rivojlantirish, tanqid va tahlil qilish, muanunoni yechish usulini izlashga o'rgatish, tafakkurida ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirish.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik "vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, o'qitishda muammoli vaziyat shunchaki "fikir yo'lidagi kutilmagan to'siq" bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas. U bilish maqsadlari

maxsus takozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izliri aa yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'la bermasligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashakqat muammoli bo'lmaydi. Bunday mashaqqat aqliy izlanishni kafolatlamaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilgan obyekt (tushuncha, fakt)ning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab yetadi.

Shunday qilib, muammoni xosiyatining moyiyati shundaki, u talaba tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunishi va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o'rtasidagi znddiyatdir. Ziddiyat bilimlarni ijodiy o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- talabaga notanish faktning mavjud bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun talabaga berilidigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashakkatini hal kilishda ularning shaxsiy manfaatdoliqi;

Muammoli vaziyatni yaratish metodikasi:

- Talabalar muammoning yechimini o'zlari topishga urinadilar;
- Talabalar bitta savolga har xil fikrlar bildiradilar;
- Fikrlar taqqoslanadi, umumlashadi va xulosa chiqariladi.

Muammoli o'qitishning shakllari:

- Ma'ruza yoki seminar darslarida o'quv materialini muammoli bayon etish;

- Laboratoriya ishlari yoki tajriba qilishda qisman izlanuvchi faoliyat;
- Bitiruv ishlarini bajarishda mustaqil tadqiqot faoliyati.

Muammoli vaziyatdan chiqa olish hamma vaqt muammoni, ya'ni noma'lum ekanligini, uning nutqiy ifodasi va yechimini anglash bilan bog'langan.

Muammoli vaziyatning fikriy taxlil qiladigan bo'lsak, mustaqil aqliy faoliyatidir. U talabani intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablarni tushunishga, unga kirish, muammoni so'z bilan ifodalash. ya'ni faol fikr yuritishni belgilashga olib ksladi. Bu urinda izchillik yorqin ko'rinadi avvalo

muammoli vaziyat yuzaga keladi, so'ng o'quv muammosi shakllanadi. O'qitish amaliyotida boshqa variant - o'sha muammo tashqi ko'riinishda muammoli vaziyat yuzaga kelishsha munofiq kelganday bo'ladigan varnant ham uchraydi. Fikrlar, luqmalar nazaray qoidalar ziddiyatlar shaklidagi, savollar ko'rinishidagi muammoni ifodasi odatda "nimaga" savoliga javob bo'ladigan muammoli vaziyatning mavjudligini aks ettiradi.

Muammo uch tarkibiy qismdan iborat: ma'lum (berilgan vazifa asosida), nomalum (ularni topish yaigi bilimlarni shakllantirishga olib keladi) va avvalgi bilimlar (talabalar tajribasi). Ular noma'lumni topishga yo'nalgan qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Avvalo talabaga noma'lum bo'lgan o'quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi ham noma'lum bo'ladi, lekin talabalar o'zlaridagi avval egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib turib kutilgan natija yoki yechilish yo'lini izlashga tushadi.

Shunday qilib, talabalar biladigan vazifa va uning mustakil hal qilinish usuli o'quv muammosi bo'la olmaydi, ikkinchidan, biror vazifaning yechilish usullarini va uni izlash vositalarini bilishmasa ham o'quv muammosi bo'la olmaydi.

O'quv muammosining muhim belgilari quyidagilar:

- yangi bilimlarni shakllanishiga olib keladigan noma'lumning bo'lishi;

- talabalarda noma'lumni topish yo'lida talantni amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan muayyan bilim zahirasining bo'lishi.

O'quv muammosini yechish jarayoina talabalar aqliy faoliyatining muhim bosqichi uning yechilish usulini o'ylab topish yoki gipoteza qilish hamda uni asoslashdir.

O'quv muammosi muammoli savollar bilan izchil rivojlantirib boriladi va bunda har bir savol uni hal qilinishida bir bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Muammoning tarkibiy qismlari, ma'lum va nomalumiing o'zaro munosabati xarakteri bilimga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi va faol bilishga bo'lgan izlanishga undaydi.

Ta'kidlash joizki, muammoli o'qitishning zaruriy sharti talabalarda uning natijasini izlash jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabitni vujudga keltirish hisoblanadi.

Muammoli o'qitish mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishning

muhim tomoni shundaki, bunda o'qituvchi uning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy funksiyasini yaxshi anglab olgan bo'lishi talab qilinadi. O'qituvchi hech qachon talabalarga tayyor haqiqatni (yechimini) berishi kerak emas, balki ularga bilimlarni olishga turtki berishi, mashg'ulotlarda va hayot faoliyatlarida zarur bo'lgan axborot, voqea, vaqt va hodisalarni ongida qayta ishlashlariga yordam berishi lozim bo'ladi.

Muammoli o'qitish bilimlarni ongli va mustahkam o'zlashtirish, atrof-muhitga o'zining faol munosabatini belgilab olishda talabalar bilish faoliyatini jonlantirishda katta imkoniyatlarga ega.

Muammoli o'qitishda o'qituvchi talabalarning bilish faoliyatini tashkil etadi, shundagina talabalar fanlarni tahlil qilish asosida mustaqil ravishda intellektual mashaqqatlarni hal qilish, xulosa chiqarish va umumlashtirish, qonuniyatlarni shakllantirish, qo'lga kiritilgan bilimlarni yangi vaziyatga tatbiq etishga intiladi.

Ayrim hollarda o'qituvchi talabalarda nafakat qiziqishi uyg'otishi kerak, balki o'quv muammosini o'zi hal qilib qo'ymasligi va boshqa hollarda talabalarning o'quv muammosini yechishdaga mustaqil ishlariga rahbarlik qilish lozim, natijada talabalarda bilimlarga mustaqil erishish qobiliyati shakllanadi hamda gipoteza qo'yish va uni isbotlash orqali yangi aqliy harakat usullarini topadi, bilimlarni bir muammodan boshqa ko'chirish ko'nikmasini hosil qiladi, diqqat va tasavvurlari rivojlanadi. Talabalar muammoli o'qitish jarayonida muammoli vaziyatda o'quv materiallarini idrok qilish orqali bilim va aqliy harakat usullarini o'zlashtirar ekan, o'rganilganlarni mustaqil tahlil qilar ekan, gipotezalar qo'yish va ularni isbotlash orqali o'quv muammolarini shakllantirar ekan, unda talabalarning intellektual faoliigi ta'minlanadi.

Shunday qilib, muammoli o'qitishning vazifasi talabalar tomonidan bilimlar tizimi va aqliy hamda amaliy faoliyatlari usullarini samarali o'zlashtirishga xamkorlik qilish, ularda yangi vaziyatda olingan bilimlarni ijodiy qo'llash malakasini hosil qilish, bilish, mustahkamlashga o'quv va tarbiya muammolarini hal qilishidir.

O'quv jarayonining amaliy tahliliy muammosi o'qitishning o'ziga xosligini belgilash imkoniyatini ochadi. Muammoli o'qitishning mohiyati ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgai axborotlarni o'qituvchining maxsus tashkil qilishidan iboratdir.

Mashg'ulotlarda ijodiy suhbatni qo'llash maqsadga muvofiq topiladi. Talabalar bunday suhbat jarayonida o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan bilimlari, ijodiy faoliyati tajribasiga asoslangan holda o'qituvchi rahbarligida muammoni izlaydi va mustaqil ravishda uning yechimini topadlar. Talabalar o'z tashabbuslari bilan savollarga javob beradilar yoki o'z chiqishlarida turli mulohazalarni bildiradilar, muammoning yechilishidagi o'z variantlarini ilgari suradilar, hodisalar o'rtasidagi rang-barang, aloqalar borasida bahslashadilar, boshqalarning fikriga tanqidiy munosabat bildiradilar. Bu jarayonda o'qituvchining talabalarga yordam berish darajasi ularning mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ijodiy suhbatga tayyorlashda o'qituvchining unga o'ta mas'uliyat bilan yondoshishi talab qilinadi. O'qituvchi bunday suhbatga oidindan jiddiy tayyorgarlik ko'riши lozim: avvaldan shunday savollar o'ylab topishi kerakki, ular talabaning u yoki bu hodsaning mohiyatini anglab yetish va uning yechilish yo'llarini bashorat qila olsun. O'qituvchi talabalarning umuman muammoni yechish uchun yetarli darajada tayyorgarlik ko'rib kelmasligini ham ko'zda tutishi va bunday vaqtda sodda va murakkablashtirib boruvchi qo'shimcha savollarni tayyorlab qo'yishi lozim, bunday savollar orqali talabalar ijodiy hal qilishi shart bo'lgan vazifalarni qismlarga ajratish ham zarur bo'ladi, yani muammo kichik muammolarga bo'linadi va muammoli vazifa yechiladi. O'qituvchi bunday vaziyatda vazminligini saqlashi, talabalarga tezroq yordam berish, kamchiligini tuzatish va yanglish fikr bildirganlarga tanbeh berishga shoshilmasligi, baiki qo'shimcha savollar bilan o'zlarining xatosini anglashga va to'g'ri qaror qabul qilishga erishish maqsadga muvofiqdir.

Ijodiy suhbat davomida kamroq tayyorgarlik ko'rgan, jonli fikr olishuvlarda, shuningdek, indamaslikni xush ko'radigan talabalarga alohida ahamiyat berish lozim. Bunday talabalarning hulqlarini ko'zda tutgan holda ulardan ham "nido chiqishi"ga erishish maqsadida ular uchun ham avvaldan savollar tayyorlab qo'yish ma'qul bo'ladi.

Ijodiy xarakterdagi suhbat o'quv-tadqiqot ishlarining zaruriy bosqichi hisoblanadi. Unda talabalarning o'zida tadqiqot ishlari unsurlari mavjud bo'lgai qisman-ijodiy faoliyatning bajarilishini talab qiladigan muammoli xarakterdagi mantiqiy masalalar diqqatni jalb qiladi.

Materialni muammoli bayon qilish. Bunda ijod o'qituvchi tomonidan

amalga oshiriladi va tobora faollashtirib boriladi. O'qituvchi yangi materialni bayon qilishda uning yechilishini o'zi taminlaydi. Bunda o'qituvchi ziddiyatlarni ta'kidlaydi, uni barchaga eshittirib muhokama qiladi, o'z mulohazalarini bildiradi, haqiqatni faktlar, mantiqiy isbotlar tizimi yordamida asoslaydi. O'qituvchi bu tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshira olsa, talabalar uning fikrlari borishiga diqqat bilan qo'shilib boradi, muammolarning yechilish oqimiga qo'shilib ketadi, birga fikr yuritadi, birga hayajonlanadi, shu tariqa mashg'ulotning qatnashchisiga aylanadi. Bunda o'qituvchi talabaning bilish jarayonini savollar berish, savolga savol berish yo'li bilan boshqaradi va shu orqali auditoriyadagi o'rganilayotgan materiallar bo'yicha ziddiyatlarga diqqatni jalb qiladi va talabalarni o'ylab fikr yuritishga majbur qiladi. O'qituvchi tushunilmagan savolni hal qilishidan oldinoq talabalar o'zlaricha o'z javoblarini tayyorlab qo'yadilar va uni ma'lum muddat o'tgach o'qituvchining fikri va xulosasi bilan taqqoslaydilar.

Materialni muammoli bayon qilish axborotni bayon qilishdan tubdan farq qiladi, chunki unda u yoki bu hodisaning belgilari, xossalari, tushunchalari, qoidalari shunchaki tasvirlab beriladi, tayyor xulosalar bayon qilinadi.

O'quv axborotlarining muammoli bayoni metodidan foydalanishning boshqa varianti fan taraqqiyoti tarixidagi u yoki bu qonunning olimlar tomonidan kashf etilishi yo'lini yoritib berish bo'lishi ham mumkin.

O'quv jarayomida keng tarqalgan metodlardan biri - shartli ravishda o'quv axborotlarining bayonini muammoli boshlash deb nomlanadigan metoddir. Materialni muammoli bayon qilish metodidan bu metod muammoli ham, faqat materialni bayon qilish boshidagina yaratilishi bilangina farqlanadi. Keyinchalik material axborot usulida bayon qilinadi. Albatta, bu metod yuqorida talabaning ijodiy izlanish faoliyati, ayniqsa, ijodiy metodida ko'ringan ko'nikmalarni hosil qilishga imkoniyat bermaydi, lekin talabalarining mashg'ulot ibtidosida olgan ilhomlari barcha materialni faol idrok qilishga, unga yuqori qiziqish uyg'otishga bevosita turki beradi. Yuqoridagi barcha metodlar orasida bu metod o'zining oddiyligi bilan ajralib turadi.

Muammoli vaziyatni tashkil qilishda quyidagi ehtimol ko'ringan didaktik maqsadlarni hisobga olish zarur: o'quv materialiga talabalar

diqqatini jalb qilish, ularning bilishga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, talabalarning bilish faoliyatini jonlantirish, ularni intellektual zo'riqish mashaqqatlariga olib kelish, talabalar tomonidan egallangan hozirgi bilim, malaka va ko'nikmalar kelajakda yuzaga keladigan bilishga bo'lgan talablarini qondira olmasligini ko'rsata bilish, talabalarga o'quv muammolariii tahlil qilishga, uning yechilishidagi eng ratsional yo'llarni aniqlashda yordam berish kerak.

O'quv jarayonidagi muammoli vaziyatning bir necha turlari farqlanadi:

1. Talabalar qo'yilgan vazifaning yechilish usulini bilmaydilar, muammoli savolga javob berolmaydshttr.

2. Talabalar avval olgan bilimlarini yangi sharoitda foydalanish zaruriyatiga duch keladilar.

3. Vazifaning nazariy jihatdan yechilishi mumkin bo'lgan yo'li va tanlangan usulning amaliy jihatdan qo'llash qiyinligi orasida ziddiyat yuz beradi.

4. Vazifaning bajarilishida natijaga amaliy erishish va talabalarda uni nazariy jihatdan asoslashga bilim yetishmasligi o'rtasida ziddiyat yuz beradi.

Talabalarining fikrlari tobora qiyomiga yeta borib, muammoli vaziyat ularda ma'lum hissiy hozirlikni vujudga keltiradi, mustaqil amalga oshirilgan bilish jarayonidan, kashfiyotlardan qoniqish hosil qiladi. Hayratga tushish, tushkunlik yoki shodlik hissiyotlari muammoli vaziyatni to'g'ri tashkil qilish belgilari bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, yuqori ko'tarinkilik bilimlarni samarali o'zlashtirish, haqiqatni qidirish va unga erishishning muhim omili hisoblanadi.

Muammoning murakkabiligi, talabalarning bilim saviyasi va malakasni, ularning ijodiy faolligi ko'nikmalari, didaktik maqsadga yo'nalganligiga qarab muammoli o'qitishda talaba va o'qituvchi o'zaro munosabatlarining turli variantlari bo'lishi mumkin, yani muammolilikniig turli sathlari amalda bo'lishi mumkin. Pedagogikaga oid adabiyotlarda asosan muammolilikning uch sathi haqida fikr yuritiladi:

Birinchi satxda o'qituvchi o'zi muammoni qo'yadi, uni shakllantiradi va talabalarni mustaqil ravishda uning yechilish yo'lini qidirishga yo'naltiradi.

Ikkinchi satxda o'qituvchi faqat muammoli vaziyatni vujudga keltiradi. talabalar esa muammoni mustaqil shakllantiradilar va yechadilar.

Uchinchi sath - oliy sath bo'lib, unda o'qituvchi shunday qoidani ko'zda tutadi: muayyan muammoni ko'rsatib bermaydi, balki unga talabalarni "ro'baro" qiladi hamda ularni mustaqil ijodiy faoliyagga yo'naltiradi, ularni boshqaradi va natijani baholaydi. Talabalar esa muammoni mustaqil anglaydilar, uni shakllantiradilar, uning yechilish usullarini tadqiq qiladilar. O'quv muammosinipg qo'llash jarayonini osonlashtirish uni muayyan tartibga rioya qilishi lozim bo'ladi. Muammoli vazifalarni tashkil qilishdan oldin talabalarning sabab-oqibat aloqalarini o'rnatish olish usullarini egallaganligiga ishonch hosil qilish, talabalarning muammoli vaziyatni tahlil qila olish darajasini o'rganish shartdir. Shuningdek, o'qituvchi talabalar e'tiboriga faqat ular uchun qulay bo'lgan muammolarni qo'ymasligi ham mumkindir. Shu bilan birgalikda muammoning yechilishi uni to'g'ri qo'ya bilishga ko'p jihatdan bog'liq ekanligini unutmash zarur. Shuni ta'kidlash lozimki, o'qitish jarayoni faqat "muammoli" yoki "nomuammoli" metodlar yordamidagina amalga oshmaydi, balki uning samarali borishi uchun xilma xil metodlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi mashg'ulotning maqsadi, o'quv materiallarining mazmunini to'plash, auditoriyada qatnashgan talabalarning xarakteri, ularning tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda ularni tinglash hamda birini ikkinchisi bilan bog'lashni amalga oshiradi. Shundagina o'quv jarayonining yuqori samaradorligi ta'minlanadi. Shuningdek, muammoli o'qitishning samaradorligi ko'p jihatlardan talabalarning ijodiy faoliyatga, muammoni ifodalash va yechishga bo'lgan tayyorgarligiga bog'liq bo'ladi. Ularni ijodiy faoliyatga jalb qilishda muammolilik bayonidan asta-sekin tadqiqot ishlariga o'tish, muammoli o'qitishning barcha metodlari zanjirida asta-sekin oddiydan murakkabga o'tish tavsiya etiladi. Demak, muammoli o'qitish yetarli darajada samarali bo'lishi uchun u yaxlit o'quv-tarbiya jarayonining uzviy qismi bo'lishi kerak.

Nazorat uchun savollar:

1. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari va vazifalari qanday?
2. An'anaviy ta'limning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
3. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos jihatlari ayting?
4. Pedagogik texnologiya va an'anaviy ta'limning o'xshash jihatlari sanab o'ting.

14-MAVZU: TA'LIMDA INNOVATSION METODLAR

Reja:

1. Innovatsion ta'lim.
2. Interfaol metodlar va ularning mohiyati.
3. Interfaol metodlardan namunalar.

Tayanch iboralar:

Innovatsiya, novatsiya, innovatsion ta'lim, modernizatsiya, ta'lim innovatsiyalari turlari, interfaol metolar, o'yin texnologiyalari, Blumm taksanomiyasi.

"Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan hoshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak"

- O'z R Prezidenti SH.M.Mirziyoyev

1. Innovatsion ta'lim. Zamonaviy jamiyat o'zining tez va chuqur o'zgaruvchan tavsifiga ega bo'lib, bunday o'zgarishlar jamoatchilik tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, demografik siyosat, urbanizatsiya jarayonlarida ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Ta'lim ham global umumhamjamiyat tuzilmasining alohida tarkibiy qismi sifatida jamiyatda bo'layotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olishi, ana shu asosda o'z tuzilishi va faoliyat mazmunini o'zgartirishi zarur. Bugungi kunda ta'limning jamiyat rivojlanish sur'atlaridan ortda qolayotganligi, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan texnologiyalarning zamonaviy talablarga to'liq javob bermasligi haqidagi masala dunyo hamjamiyati tomonidan tez-tez e'tirof etilmog'qda. Chunki ta'lim ham ijtimoiylashtirish vazifasini bajaruvchi sifatida jamiyatdagi o'zgarishlar ortidan borishi hamda uning rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazishi kerak. Biroq jamiyat rivojlanishi va ta'lim tizimi o'rtasidagi munosabat murakkab

ko'rinishga ega bo'lib, yuqori darajadagi jo'shqinlik bilan farqlanadi. Ta'lim barcha faol va sust o'zgarishlar ta'sirini qabul qilavermaydi, balki, jamiyatda bo'layotgan voqealarga esa o'z ta'sirini o'tkazadi. Ana shu nuqtai nazardan ta'limdagi o'zgarishlar faqatgina natija sifatida emas, balki jamiyatning kelgusidagi o'ziga xos rivojlanish shartidir.

Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu esa, bir tomondan, fan-texnikaning yangi soha va bo'limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda.

Bunday sharoitda, yuqori malakali pedagoglarga bo'lgan talablar ortib borib, barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakasiga ega ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi.

Hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda qo'llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar ko'laming ortib borishi, mamlakatda modernizatsiya jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan ayni davrda ta'lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ammo ko'plab pedagogik innovatsiyalarning yaratilayotganiga qaramay, ta'lim jarayonlariga o'qitishning yangi mazmun, shaki, metod va vositalarini tatbiq etish bo'yicha pedagogik tadqiqotlarni joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo'lmaydi.

Darhaqiqat, yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir o'qituvchining o'z faniga va barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid yangiliklarni muntazam o'rgana borib, ularni o'z mehnat faoliyatida izchil qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishi bugungi kunning muhim talabidir.

Bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlashning sifatini ko'tarishda talabalarni ilm-fan taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlaridan xabardor qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun fan va texnika sohasidagi yangiliklarni o'quv dasturlari

mazmuniga tez kiritish talab etiladi va bu orqali, zamonaviy bilimlarni shakllantirishga zamin hozirlanadi. Bundan tashqari zamonaviy o'qitish texnologiyalari, ular bilan bog'liq metodik yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarda zaruriy bilimlar, muhim qonuniyatlar, ko'plab fundamental tushunchalarni nisbatan yengil, chuqur va mustahkam shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Ma'lumki, bugun barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim. Ana shunday dolzarblikdan kelib chiqqan holda, bugungi kunda pedagogikaning mustaqil sohasi – pedagogik innovatika jadallik bilan rivojlanib bormoqda.

Novatorlik va yangilik – madaniyat, ta'lim va umumiylikda jamiyat rivojlanishining ikki jihat. An'analar va yangiliklarning xilma-xil munosabatlariga tayanib, madaniyatshunoslar jamiyatni an'anaviy va zamonaviyga ajratib ko'rsatishadi. An'anaviy jamiyatda an'ana novatorlik ustidan hukmronlik qiladi. Zamonaviy jamiyatlarda esa, novatorlik bazali qadriyat sanaladi.

Innovatsiya (ing. innovationas – kiritilgan yangilik, ixtiro) – texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarda qo'llanilishi (*O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi*).

Ta'lim innovatsiyalari - ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Maqsadi: Sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish.

Xususiyati. Boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega.

Ko'rinishi: Yangi g'oyalar; tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga

qaratilgan aniq maqsadlar; noan'anaviy yondashuvlar; ilg'or ish uslublari odatiy bo'lmagan tashabbuslar.

1979 yilda "Rim klubi" a'zolari "o'zining asosida avval ma'lum, takrorlanuvchi vaziyatlarga tuzatish kiritish uchun taqdim etilgan metod va qoidalarni ifoda etuvchi" ta'lim tizimini "qo'llab-quvvatlovchi" ta'lim deb nomlashdi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, uning muqobili sifatida "innovatsion ta'lim" tushunchasi ham qo'llanila boshlandi.

Innovatsion ta'limning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarda kelajakka mas'uliyat hissini va o'z-o'ziga ishonchni shakllantirishdir. J.Botkin boshchiligidagi olimlar guruhi "Rim klubi" ma'ruzasida innovatsion ta'limni an'anaviy, ya'ni "normativ" ta'limga muqobil sifatida bilimlarni egallashni asosiy turi sifatida tavsifladi. Normativli ta'lim "takrorlanuvchi vaziyatlarda faoliyat xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan" bo'lsa, innovatsion ta'lim yangi vaziyatlarda birgalikda harakatlanish qobiliyatini rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Ilmi-fan va ishlab chiqapishning jadal rivojlanishi jamiyatni iqtisodiy tapaqqiy ettirish bilan bir qatopda ijtimoiy munosabatlar mazmunida ham tub o'zgapishlapning po'y berishiga zamin yapatmoqda. Shuningdek, iqtisodiy sohada bo'lgani singari ijtimoiy, shu jumladan, ta'lim sohasida ham texnologik yondashuvni tatbiq etishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

2. Interfaol metodlar va ularning mohiyati. Interfaol ta'lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi.

Interfaol metodlar – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda pedagog o'rtasida hamkorlikku qaror toptirish, faollikni oshurish ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Shunga ko'ra interfaol metodlar XXI asr ta'limida o'qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini ta'minlashning muhim vositalaridan biri sanaladi. Manbalarni o'rganish ta'lim tizimida interfaol metodlar ilk bor XX asrning 20-yillarida qo'llanilganligidan dalolat beradi. V.A.Suxomlinskiy tomonidan o'tgan asrning 60-yillarida yaratilgan ilmiy ishlarda ham ta'lim tizimiga interfaol metodlarni tatbiq etish tajribasini uchratish mumkin. XX

asrning 70-80-yillarida esa Rossiyada Sh.A.Amonashvili, V.F.Shatalov, YE.N.Ilina va boshqalar tomonidan ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarda o'qitishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish yo'llarini topish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham interfaol metodlarning amaliy ahamiyati, ularni samarali qo'llash shartlari to'g'risida so'z yuritilgan.

Shu sababli uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan pedagog va kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlanayotgan bo'lajak pedagoglar interfaol metodlar, ularning mohiyati, amaliy qiymati, pedagog va talaba uchun ahamiyatidan xabardor bo'lishlari, ularni amaliy faoliyatda samarali qo'llash ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlari kerak. Binobarin, interfaol metodlarni qo'llash ko'nikma, malakalariga ega bo'lish o'quv mashg'ulotlarining noan'anaviy shaklda, ijodkorlik, tashabbuskorlik, munozaraga boy, ko'tarinki kayfiyatda tashkil etilishini ta'minlaydi.

Interfaol metodlar quyidagi muammolarni hal qilishga yordam beradi:

- talabarlarda fanga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi;
- talabarlardan tomonidan o'quv materialini puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi;
- talabarlarda intellektual mustaqillikni rivojlantiradi;
- talabarlarni jamoa (komanda)da ishlash, boshqalarning fikrlarini tinglashga o'rgatadi;
- talabarlarda boshqalar tomonidan bildirilgan shaxsiy fikri, uning shaxsiga hurmat ko'rsatish ko'nikmasini shakllantiradi;
- talabarlardan o'rtasida o'zaro ta'sirni qaror toptiradi;
- talabarlarda shaxsiy fikr, munosabat, kasbiy va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar interfaol metod o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

- dialogli muloqot;
- qaytar aloqaning mavjudligi;
- tafakkur faolligi;
- hissiy ko'tarinkilik;
- refleksiya;
- ta'limning yuqori samaradorligi

Odatda interfaol metodlarga asoslangan ta'limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi: *individual; guruh; jufilik; jamoa bilan ishlash.*

Interfaol ta'limning asosiy tamoyil, shakl va omillari. Zamonaviy sharoitda interfaol ta'lim tobora ommalashmoqda. O'quv qo'llanmasida berilgan "Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari" mavzusi doirasida interfaol ta'lim mohiyati xususida to'xtalib o'tilgan. Biroq, interfaol metodlar, ularning mazmuni, g'oyasi, turlari, amaliy qiymati, didaktik ahamiyatini yetarli darajada tushunish uchun "interfaol ta'lim" mazmunini yodga solish maqsadga muvofiqligi sababli ayni o'rinda shu haqida so'z yuritiladi.

Interfaol ta'lim (lot "internus" – ichki, o'zaro) – o'quvchi (talaba)larning bilim, ko'nikma, malaka, muayyan axloqiy sifatlarini o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim.

Interfaol metodlarning mohiyatidan xabardor bo'lishda, eng avvalo, tayanch tushuncha – "interfaol" atamasining lug'aviy ma'nosi bilan tanishish maqsadga muvofiqdir.

Lug'aviy jihatdan "**interfaol**" (ing. "interact"; r "interaktiv", "inter" – o'zaro, birgalikda. "act" – harakat qilmoq, ish ko'rmoq) tushunchasi "o'zaro, birgalikda harakat qilmoq" ma'nosini anglatadi

Interfaollik – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka, muayyan axloqiy sifatlarini o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaligi

O'qitishning interfaol ta'limga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda va hatto "bolalar o'yini" kabi taassurot uyg'otadi. Biroq, ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llashga nisbatan bunday yondashish to'g'ri emas. Zero, ta'lim amaliyotida interfaol metodlarni qo'llash muayyan shartlarga muvofiq amalga oshiriladi. Interfaol metodlarni qo'llashning muayyan shartlarini asoslash ularning didaktik qiymatini oshiradi. Ta'limni tashkil etishda interfaol yondashuvni qaror toptirish (interfaol ta'limni tashkil etish) uchun pedagoglar quyidagi shartlarga rioya eta olishi zarur:

- ta'lim jarayoniga jamoadagi barcha o'quvchilarning to'la qamrab olinishi;

- o'quvchi (talaba)larning mashg'ulotlarga ruhan tayyorliklarini inobatga olish;

- o'quvchilar sonining ko'p bo'lmisligi (25-30 nafar o'quvchi bilan kichik guruhlarda ishlash samarali);

- o'quv xonasining jihozlanishi (stullar doira, archa, "jonli liniya" kabi shakllarda joylashtiriladi);

- topshiriqni bajarish, materiallarni taqdim etish, guruhlarning ishlanmalarini muhokama qilish uchun vaqtning aniq belgilanishi;

- o'quvchilarning kichik guruhlariga mohirona birlashtirilishi (har bir guruhda faol va nafaol o'quvchilarning teng miqdorda bo'lishi).

Interfaol ta'lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Mashg'ulot – ma'ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi.

2. Guruhning tajribasi o'quvchi (pedagog)ning tajribasidan ko'p.


3. O'quvchilar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko'ra o'zaro teng.

4. Har bir o'quvchi o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrini aytish huquqiga ega.

5. Mashg'ulotda o'quvchi shaxsi tanqid qilinmaydi(fikr tanqid qilinishi mumkin).


6. Bildirilgan g'oyalar o'quvchilarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma'lumot) bo'lib xizmat qiladi.

Interfaol ta'lim samaradorligini ta'minlashda bir qator omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:




Interfaol ta'lim samaradorligini ta'minlovchi omillar

Asosiy omillar sirasiga quyidagilar kiradi:



Interfaol ta'lim samarasini ta'minlovchi asosiy omillar

Interfaol ta'limning asosiy belgilari quyidagilardir:



Interfaol ta'limning asosiy belgilari


Izoh: Refleksiya (lot. "reflexio" – ortga qaytish, aks etish): kishining o'z xatti-harakatlari, ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida faoliyati; shaxsiy kechinmalari, his-tuyg'ulari va o'y-xayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash).

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida interfaol o'qitishning quyidagi shakllarda amalga oshirilayotganligi barchaga ma'lum:



Interfaol ta'lim shakllari

Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi:




An'anaviy ta'limdagi suhbat ishtirokchilari

An'anaviy ta'limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai pedagogning tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzida talaba(o'quvchi)larga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko'rsatish pedagoggagina xos bo'lib, talaba(o'quvchi)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi pedagogni tinglash, zarur o'rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so'zlashdan iboratdir.

Bu tur ta'limdagi bir tomonlamalik oliy ta'lim tizimidagi faqat ma'ruza

mas'ulotlarida emas, seminar darslarida ham ustuvorlik qiladi. Unga ko'ra, "yetkazib beruvchi" rovida endi pedagog emas, balki talaba namoyon bo'ladi. Talaba, asosan, o'zi o'zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi. pedagog esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladi. Talabalar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo'lib qoladi. Bir qarashda talaba yoki pedagog tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg'otadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma'lumot)lar juda tez unutiladi. Xususan, amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o'rganishlariga ko'ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o'zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. YA'ni shaxs: manbani o'zi o'qiganida 10 %; ma'lumotni eshitganida 20 %; sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rganida 30 %; sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitganida 50 %; ma'lumot (axborot)larni o'zi uzatganida (so'zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 %; o'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot)larni o'z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega.

Zamonaviy ta'lim, shu jumladan, uning tobora ommalashib borayotgan shakli – interfaol ta'limda esa shaxslar o'rtasidagi suhbat (dialog) quyidagi shaxslar o'rtasida tashkil etiladi:



Interfaol ta'limdagi suhbat ishtirokchilari

Interfaol o'qitish "ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – pedagog, talaba va talabalar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in

bahs-munozaralar, o'zaro fikr almashish inkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkiltanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda magistrnlarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "pedagog – talaba – talabalar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi".

Interfaol ta'lim jarayonida talabalar quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi:

- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;
 - tengdoshlari orasida o'z g'oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to'siqlarsiz namoyish etish;
 - muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
 - guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;
 - o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olish;
 - fikrlash, fikrlarni umumlashtirish. eng muhim fikrlarni saralash;
 - o'z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;
 - o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;
- turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqa olish ko'nikmalarini o'zlashtirish.

Pedagog ta'lim jarayonida interfaol ta'lim yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash. ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish. o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish. murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol metodlarni qo'llash orqali pedagog talabalarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish. nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Interfaol ta'limni tashkil etish orqali quyidagi yutuqlarga erishiladi:

- ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba)larda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi;
- ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag'batlantiradi;

- har bir o'quvchi (talaba)ning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- o'quv materialining samarali o'zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi;
- o'quvchi (talaba)larga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi;
- o'quvchi (talaba)larda o'rganilayotgan mavzular bo'yicha fikr va munosabatni uyg'otadi;
- o'quvchi (talaba)larda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarni shakllantiradi;
- o'quvchi (talaba)larning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirilishini ta'minlaydi.

3. Interfaol metodlardan namunalar. "Aqliy hujum" strategiyasi. Strategiya talaba(o'quvchi)larni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o'z tasavvurlari, g'oyalariidan ijobiy foydalanishga doir ko'nikma, malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. U yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original (o'ziga xos) yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. Strategiya mavzu doirasida ma'lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

1. Aqliy hujum metodining asosiy qoidalari:

- ilgari surilgan fikr va g'oyalarni tanqid ostiga olinmaydi va baholanmaydi;
- taklif qilinayotgan fikr va g'oyalar qanchalik fantastik va antiqa bo'lsa ham, uni baholashdan o'zingizni tiying;
- tanqid qilmang! Hamma bildirilgan fikrlar bir xilda bebahodir;
- fikr bildirilayotganda gapni bo'lmang;
- maqsad-fikr va g'oyalar sonini ko'paytirish;
- qancha ko'p g'oya va fikr bildirilsa, shunchalik yaxshi. Yangi, bebaho fikr va g'oyaning tug'ilish ehtimoli paydo bo'ladi;
- agar fikrlar qaytarilsa, rad etmang;
- fikrlar hujumini o'tkazish vaqtiga qat'iy rioya qiling;
- berilgan savollarga qisqacha javob bering.

"Aqliy hujum" metodining afzalliklari:

- ✓ natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr - g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ✓ ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;

- ✓ fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ✓ ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;

✓ ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.

"Aqliy hujum" metodining kamchiliklari:

- ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- ta'lim beruvchidan yuqori darajaga eshitish qobiliyatining talab etilishi.

Demak, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bu jarayonda o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etish orqali malakali va erkin fikrlovchi kadrlarni tayyorlashga erishiladi.

2. "T-jadval" texnologiyasi o'rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini yoritish maqsadida bir necha asosiy belgi, tayanch tushunchalarning mazmuni ularni bir-biri bilan o'zaro solishtirish, qiyoslash asosida ochib beriladi. Ko'p hollarda mazkur texnologiya mavzu asosini tashkil etuvchi bir necha holatlarning afzalliklari yoki kamchiliklarini, samaradorlik va samarasizlik darajasini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo'llaniladi. Ushbu texnologiyani qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) talabalar e'tiboriga o'rganiladigan mavzu, masala yoki topshiriq havola etiladi;

2) talabalar "T-jadval" metodini qo'llash shartlari bilan tanishtiriladilar;

3) talabalar guruhlar yoki juftliklarga birlashtiriladilar;

4) ajratilgan vaqt oralig'ida guruh (juft)liklar jadval shaklida berilgan topshiriq mohiyatiga ko'ra qiyosiy taqqoslashni amalga oshiradi, ya'ni jadvalning chap va o'ng tomonlariga masalaning bir-biriga zid holatlarni bayon etadilar;

5) guruhlar (juftliklar) tomonidan to'ldirilgan jadvallar o'zaro solishtiriladi;

6) masalaning yechimi yuzasidan yakuniy xulosaga kelinadi yoki yagona "T-jadval" shakllantiriladi.

“T-jadval” metodidan foydalanish uchun quyidagi sxema taqdim etiladi:

t –investitsiyalarni jalb etishning afzalliklari va kamchiliklari	
Afzalliklari	Kamchiliklari
Mahsulot va tovarlarning soni, turi oshishiga erishiladi	Resurslar tez va ko'p miqdorda ishlatiladi
Chet el tajribalaridan voqif bo'linadi	Milliy tajribalar bir muddat eskiradi
Investor o'zi bilan birgalikda texnika-texnologiyasi bilan birga kirib keladi va ishlab chiqarish jarayonida yoki ular o'z maqsadiga erishganlaridan so'ng bu texnikalar o'zimizga xizmat qiladi. Ular o'zlarini bilan olib kelgan texnikani qaytarib olib ketmaydilar	Ayni vaqtda shu texnikadan foydalangan ishchi boshqa ishga o'tishi yoki ta'mirlash, dasturlash, ish samaradorligiga ma'nan eskirish ta'sirining mavjud bo'lishi. Oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy narxi oshadi. Aholi soni oshadi
Kadrlarni matakasi oshadi, ish bilan ta'minlanadi, bo'sh yotgan yerlardan oqilona foydalanish amalga oshadi.	Aholi zichligi ortadi. Oliy ma'lumotli kadrlar boshqa davlatga bilim va ko'nikma hosil qilish uchun o'z Vatanidan, oilasidan yiroqlashadi. Keyinchalik o'sha yerda qo'nim topishi mumkin. Yer narxi oshishi kuzatiladi

4. “FSMU” texnologiyasi talabalarda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Mashg'ulotlarda ushbu metodni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 1) o'qituvchi texnologiyaning mohiyatini yoritadi va talabalarni texnologiyadan foydalanish shartlari bilan tanishtiradi; 2) har bir talabaga “FSMU” texnologiyasining sxemasi tushirilgan qog'ozlarni taqdim etadi; 3) o'qituvchi talabalarga ushbu sxema asosida mavzu mohiyatini yoritishga oid topshiriqni beradi; 4) talabalar kichik guruhlarda topshiriqni bajaradilar; 5) guruhlar o'z yechimlarini jamoaga ma'lum qiladi; 6) jamoa guruhlarining yechimlarini muhokama qiladi; 7) o'qituvchi talabalarning mashg'ulot samaradorligi borasidagi fikrlarini tinglaydi va mashg'ulotga yakun yasaydi.

5. “Jadval” metodi talabalarda o'rganilayotgan mavzu, muhokama etilayotgan masala yoki muammoning nazariy mohiyatini jadval yordamida aks ettirish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodni qo'llashda talabalar mavzu (masala, muammo) mohiyatini og'zaki bayon yoki yozma matn ko'rinishida emas, balki asosiy g'oya, tayanch tushuncha va muhim

jihatlarni jadvalda aniq, qisqa ifodalash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.

Metodni qo'llashda quyidagi namunani taqdim etish mumkin:


Mohiyati	Ijtimoiy tarbiya turlari				
	Ma'naviy-axloqiy tarbiya	Aqliy tarbiya	Jismoniy tarbiya	Estetik tarbiya	Mehnat tarbiyasi
Maqsadi					
Vazifalari					
O'ziga xos jihatlari					

Venn Diagrammasi: 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi.

Tizinli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

- ✓ Diagramma Venna tuzish qoidasi bilan tanishadilar.
- ✓ Alohida/kichik gurhlarda diagramma Vennani tuzadilar va kesishmaydigan joylarni (x) to'ldiradilar
- ✓ Juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar
- ✓ Doiralarni kesishuvchi joyida, ikki/uch doiralar uchun umumiy bo'lgan, ma'lumotlar ro'yxatini tuzadi

“Keys-stadi” (yoki “O'quv keyslari”) metodi. “Keys-stadi” (ing. “case” – metod, “study” – muammoli vaziyat; muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) metodi magistrlarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish, eng maqbul variantni topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U magistrnlarni har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish, tahlil qilishga o'rgatadi. Metod negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Ular: ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, pedagog va magistr o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari. Metodning sxemasi quyidagicha:



“Keey-study metodining sxemasi (yoki “O’quv keyslari”)

Ta’limiy xarakterga ega muammoli vaziyat (o’quv keysi)ni tashkil etish maqsadi mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda jamoa o’rtasida muammoli vaziyatni yaratish, uni hal qilish yechimlari to’g’risidagi fikrlarni jamlash, muhokama qilish orqali to’g’ri qarorlar qabul qilish muhitini yaratishdan iborat.

Demak, ta’lim sifati, samaradorligini oshirishga bo’lgan zamonaviy ehtiyoj interfaol ta’limni tobora keng qo’llashni taqozo etmoqda. O’qitishning interfaol ta’limga asoslanishi oddiy, sodda ko’rinsada, uni qo’llashda ma’lum shartlarini asoslanish didaktik qiymatini oshiradi. Zamonaviy pedagogikada bu ta’limni qo’llash pedagog, magistr, magistrlar guruhi) o’rtasida hamkorlik, qizg’in bahs-munozara, o’zaro fikr almashish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Zamonaviy sharoitda ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo’li garchi ular ma’ruza mashg’uloti o’rnini bosa olmasa ham mashg’ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish sanaladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo’llash bo’yicha joylarda amaliyotchilar, ya’ni tarbiyachilar ishlarini takomillashtirishlari, ijodkor, izlanuvchan tarbiyachilar bilan munozaralar, uchrashuvlar, fikr almashuvlar o’tkazib turishlari lozim. Chunki fikrlardan g’oyalar paydo bo’ladi. Bu esa yangi ishlarni amalga oshirishda, yangiliklar yaratishda yanada qo’l keladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Innovatsiya so’zining lug’aviy ma’nosi nimadan iborat?
2. O’qitishning interfaol shakl va uslublari qanday?
3. Ta’lim berish jarayonida samarali ta’sir etuvchi metodlarni keltiring.

15-MAVZU: PEDAGOGIK MAHORAT VA UNING O'QITUVCHI FAOLIYATIDAGI O'RNI. PEDAGOGIK TEXNIKA VA O'QITUVCHI MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH

Reja:

1. Pedagogik mahoratning mazmuni
2. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari
3. Pedagogik mahoratni egallash vositalari

Tayanch iboralar:

Pedagogik mahorat, pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari, pedagogik qobiliyatlar, pedagogik texnika, pedagogik takt, O'qituvchi faoliyati, pedagogik muloqot.

1. **Pedagogik mahoratning mazmuni.** Jamiyatimiz talab etayotgan har tomontlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda o'qituvchining o'rni beqiyosdir. O'qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasb. Mohir o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g'oyalar bayon etiladi. Maktab hayoti amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma – xildir, pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham barkamol shaxs tarbiyasiga asosiy e'tibor qaratilgan. Chunki, o'z bilimi, salohiyati, imkoniyatlarini jamiyat taraqqiyotiga to'liq sarflab, mustaqil fikrlay oladigan ijodkor shaxslarni shakllantirish, jamiyatda tub o'zgarishlar bo'lishiga zamin yaratadi.

Pedagogik mahorat- bu pedagogik jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir.

Uzluksiz ta'limni amalga oshirishda pedagog, o'qituvchi va tarbiyachilar kadrlar bilan ishlash mahoratiga ega bo'lmog'i lozim. Shu

sababli pedagogika fanining qonuniyatlari va mazmunini har tomonlama o'rganish, uni yosh avlod tarbiyasida qo'llash har bir ustoz, o'qituvchidan mahorat talab etadi.

Mahorat - shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati, biror sohasidagi moslashuvchan ko'nikma va ijodkorlik asosida hosil bo'lgan kasbiy ko'nikmalarning nazariy darajasidir.

Mahorat – yoshlarni tanlagan kasbiga hurmat uyg'otish jarayonidagi kasbiy g'ururni shakllantirishda xizmat qiladi.

O'qituvchining ko'p qirrali faoliyati va uning qobiliyati, zo'r san'atkor va fidoiy bo'lishi hamda shogirdlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biridir. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratni egallashlari lozim.

Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm-farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradi, ular tarbiyaga kam kuch sarflab, ko'proq natijalarga erishish imkonini beradi.

Pedagogik mahorat pedagogdan odatdan tashqari kuch - g'ayratni, qat'iyatni, tirishqoqlikni, tadqiqotlarni olib borishga intilishni, yangi vaziyatga, yangi jamoaga kirish qobiliyatini, samimiyatni, to'g'rilik va halollikni, o'tkir aql- idrokni, bir vositani boshqasi bilan tekshirib ko'rish malakasini talab qiladi.

O'qituvchi faoliyatiga oid bunday malakalarga quyidagilar kiradi:

a) amaliy konstruktiv malakalar:

- amaliy tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish faoliyatining eng muhim qoidalarini tanlay bilish.

- har bir o'quvchiga nisbatan uni jamoa sharoitida tarbiyalashning individual rejasini amalga oshira bilish.

- o'quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga nisbatan individual munosabatni amalga oshira bilish.

b) tashkilotchilik malakalari:

- o'quvchilar orasidagi faol bolalarni aniqlash, tanlay bilish, ularni idora qilish.

- o'quvchilarning turli xildagi jamoa individual holatini uyushtira bilish, ularni ijtimoiy faolliklarini bilish.

- o'quvchilarga berilgan jamoa ijtimoiy topshiriqlarni berilishi yuzasidan nazorat o'rnatish va ularga zarur vaqtda amaliy yordam berish.

- o'zi rahbarlik qilgan sinfda amaliy ishlarni boshqarish.

- ota-onalar va keng jamoatchilik o'rtasida tarbiyaviy ishlar tashkil etishini; maktabdagi pedagogik tizim tuzilishi bolaning yaxshi o'qishi, samarali xizmat qilishi, yaxshi dam olishi, hamma vaqt foydali va qiziqarli mashg'ulot bilan band bo'lishini nazarda tutadi.

O'qituvchining faoliyati quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- o'z-o'zini rivojlantirish;

- o'quv faoliyatini ilg'or texnologiyalar asosida qurish;

- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikning qaror topishiga zamin yaratish;

- o'quv faoliyatining o'quvchilar ichki motivga asoslangan izlanuvchanlik yo'nalishining kasb etishini ta'minlash va boshqalar.

Pedagogik faoliyat davomida pedagogik vazifa (pedagogik maqsad)larni qo'yish va uni o'zgartirish, pedagogik vaziyatlarni taqqoslash va klassifikatsiyalash, qaror qabul qilish, pedagogik tafakkur va pedagogik intuitsiya, tahlil etish, baholash, o'zini o'zi tuzatish (pedagogik refleksiya) va boshqalar kabi muhim kasbiy sifatlar mujassamlanadi.

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, harakteri, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda bularning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Lekin, tajribali pedagog o'zining xatti-harakati o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillastirib boradi. Demak, pedagogik mahorat tushunchasi bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bir necha qismlardan tashkil topar ekan. Bunday holda pedagogik mahorat «pedagogik tizim» sifatida tasavvur qilinadi va u quyidagicha ta'riflanadi: «Pedagogik mahorat - o'qituvchi tomonidan o'z kasbiy-pedagogik faoliyatini mustaqil ravishda yuqori saviyada tashkil etishi, rivojlanayotgan bola shaxsiga insonparvarlik pedagogikasi asosida yondashish hislatlarining mavjudligi, yuqori darajadagi ma'naviy-axloqiy sifatlarga egaligi bilan tavsiflanadi va pedagogning o'z faoliyati mohirligining eng baland cho'qqisiga erishganligini bildiradi ». Bundan ko'rinib turibdiki, pedagogik mahorat- pedagogik faoliyatning barcha turlarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti va har tomonlama rivojlantirish maqsadlariga yo'naltirish, o'quvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda ijtimoiy zarur mehnatga

moyillik uyg'otishdir.

Pedagogik qobiliyatlar, pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil qilishga zamin yaratadi. Quyidagi pedagogik qobiliyatlar ta'lim-tarbiya jarayonida samarali natijalarni qo'lga kiritish imkonini yaratadi:

- kommunikativlik (muloqotga moyillik);
- empatiya (o'zgalar o'rniga o'zini qo'ya bilish, odamlarga nisbatan ko'ngilchan bo'lish, mehribonlik);

- aql bilan sezish- kasbiy ziyoratlik, boshqalarga hamdard bo'lish, ichki (hissiy) sezgirlik;

- shaxsning harakatchanligi, irodaviy ta'sir ko'rsatish va mantiqiy ishontirish qobiliyatlari;

- hissiy barqarorlik - o'zini boshqara olishi;

- kelajakni eng maqbul holda bashorat qilish;

- kasbiy mustaqillik - ijod qilish qobiliyati.

Mahoratli o'qituvchi quyidagi bilim, ko'nikma, malakalarni egallagan bo'lishi zarur:

1) o'qituvchi dunyoqarashi keng, har qanday voqea va hodisa ustida erkin fikr yurita olishi zarurdir;

2) o'qituvchi birinchi galda o'zi o'qitadigan fanni chuqur bilimdoni bo'lgandagina o'quvchilarda umumiy va kasbiy ta'lim sifatini oshira oladi hamda ularda fan-texnika hamda amaliy faoliyatga qiziqish va istak hosil qila oladi;

3) o'qituvchi zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda darsni tashkil qilishi va uning har bir daqiqasidan unumli foydalanishi zarur;

4) O'qituvchining mohirligi pedagogika va psixologiyani hamda o'zi o'qitadigan fanning metodikasini chuqur egallaganligida namoyon bo'ladi;

5) Pedagogning umumiy madaniyati yuqori bo'lishi lozim. Bu esa undan adabiyot va san'at sohasidagi bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi;

6) O'qituvchi pedagoglik odobi va nazokatiga rioya qilishi kerak. Pedagoglik odobi va nazokati o'qituvchilik kasbiga xos fazilatlardan bo'lib, uning mahoratini oshiradi;

7) O'qituvchi pedagogik mahoratga va har tomonlama bilimga ega bo'lishi lozim, chunki unga o'quvchilar har sohada murojaat qilishlari mumkin.

Demak o'qituvchi pedagogik mahoratga psixologiya va pedagogika

turkumidagi fanlarni chuqur o'rganish; mutaxassislik fanlari, ularni o'qitish metodikasidan puxta bilimga ega bo'lish; pedagogik amaliyotda faol ishtirok etish va uni samarali o'tkazish; o'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish, boshqalar tajribasini o'rganish; o'z ustida mustaqil ishlash, malaka oshirish kurslarida o'qib borish kabilar orqali erishishi mumkin.

2. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari. Ma'lumki, XX asrning so'nggi Sammiti hisoblangan BMT Bosh Assambleyasining 2000 yilgi sessiyasida yangi mingyillikning Deklaratsiyasi qabul qilinib, unda insoniyat oldida turgan eng asosiy muammosir sirasida fuqarolarning ta'lim olishlarini kafolatlash vazifasi ham ko'rib chiqildi. Jahon miqyosida savodsizlar soni 1 milliarddan oshayotgan bugungi kunda O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining ijrosi amalda nihoyasiga yetdi. Yoshlarga umumiy ta'lim bilan birga, zamonaviy kasb-hunarlariga ega bo'lish, oliy ta'lim olish imkoniyatlari kengaydi. Shu jihatdan olganda mamlakatimizda ta'lim olayotgan har bir yoshning qobiliyati, iqtidori va iste'dodini ruyobga chiqarish vazifasi belgilab olingan.

Qobiliyat – shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishga bo'lgan layoqat darajasini ifodalaydigan, turmush jarayonida hosil qilingan individual xususiyatlari yig'indisidir. Qobiliyatning shakllanishi va rivojlanishida shaxsning tug'ma iste'dod nishonalari, yashash sharoiti, ta'lim-tarbiya, ayniqsa, uning faolligi muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik faoliyatning samarali kechishi hamda o'qituvchining pedagogik mahoratni egallashi uchun unda qator kobiliyat turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalab yetishtirilmog'i lozim Bu pedagogik qobiliyatlar shaxsning aqliy tomonini ham, emotsional - irodaviy tomonini ham tavsiflab beradi. Bu sifatlarning hammasi bir - biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, yaxlit holda pedagogik qobiliyatni hosil qiladi.

Pedagogning bilish qobiliyati - fanning tegishli sohalariga oid bilimlarni chuqur o'zlashtirish qobiliyatidir. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqur idrok etadi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi. Faniga nihoyatda qiziqadi, tadqiqot ishlarini ham bajaradi.

Pedagogning o'quv materialini bayon etish qobiliyati - o'qituvchining

o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, material yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berish, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol qiziqish uyg'otish qobiliyatidir.

O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi darkor.

O'qituvchi o'quvchining mustaqil fikrlashini doimo rag'batlantirib, ular ruhiyatini hisobga oladi. Qobiliyatli pedagog o'quvchilarning bilim va kamolot darajasini hisobga oladi, ularning nimani bilishlari va hali nimani o'rganishlari lozimligini tasavvur etadi. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi empatiyaga moyil (o'zini o'quvchining o'miga qo'ya oladigan) bo'lib, taqdim qilinayotgan o'quv materialini idrok qilishda tahsil oluvchining yoshini ham inobatga olishni biladi, chunki katta yoshdagilarga aniq va ravshan bo'lgan narsa kichik yoshdagilarga tushunarsiz va mavhum bo'lishi mumkinligini inobatga oladi. Qobiliyatli o'qituvchi o'quv materialini bayon etish jarayonida o'quvchilar tomonidan bilim o'zlashtirish qanday kechayotganligini qator belgilar asosida aniqlaydi va zarurat tug'ilganda bayon qilish usulini o'zgartiradi.

O'qituvchining kuzatuvchanlik qobiliyati - o'qituvchining tahsil oluvchilar ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Qobiliyatli o'qituvchi uncha katta bo'lmagan tashqi ko'rinishlar asosida o'quvchining ichki holatidagi juda arzimagan o'zgarishlarni ham fahmlab oladi. O'quvchilarning kayfiyati, ularning darsga tayyorgarlik darajasini aniqlay oladi.

O'qituvchining nutq qobiliyati - nutq yordamida, shuningdek imo - ishoralar vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyatidir. O'qituvchi nutqidagi ravonlik, o'z fikrini aniq ifoda etish o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. Darsda o'qituvchi nutqi hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. Fikrlar ifodasi o'quvchilar uchun aniq, sodda, ravon, tushunarli bo'lishi shart. O'qituvchining bayoni o'quvchilar fikri va diqqatini maksimal darajada faollashtirishga qaratiladi. O'qituvchi o'quvchilarni faollashtirish va diqqatini jamlash maqsadida muayyan so'z va iboralar qo'llaydi. O'qituvchi uzundan uzoq jumlarlar, murakkab so'z birikmalari, qiyin, tumtoq iboralarni qo'llashdan qochishi lozim. O'rinni

yumor, hazil-mutoyiba, yengilgina istehzo nutqni jonlantiradi, bu nutqni o'quvchilar yaxshi qabul qiladilar.

O'qituvchining nutqi aniq, jonli, emotsional - obrazli, talaffuzi jihatidan erkin ifodali, his - hayajonli bo'lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim. Bir maromdagi cho'ziq, zeriktiradigan nutq o'quvchilarni tez charchatadi, ularni lanj, loqayd qilib, fanga bo'lgan qiziqishi so'nadi. O'quvchi o'zatilayotgan axborotni yaxshi qabul qilishi uchun o'rtacha, jonli nutq samarali natija beradi. Haddan tashqari keskin va baland tovushdagi nutq o'quvchilar asabiga tegadi, ularni toliqtiradi.

O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirayotgan, o'quvchilar javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qoralayotgan paytda ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turishi lozim.

O'qituvchining tashkilotchilik qobiliyati - o'quvchilar jamoasini jipslashtirish, ular ishiga rahbarlik qilish, muhim vazifalarni bajarishda ruhlantirish, ta'lim-tarbiyani oqilona tashkil etishni nazarda tutadi.

O'qituvchi reja asosida ta'lim-tarbiyani tashkil etib, belgilangan vazifalar qay darajada bajarilganini nazorat qilishi, vaqtdan unumli foydalanib, uni oqilona taqsimlay olishi, o'quvchilar tomonidan bilimlarning o'zlashtirilishini monitoring qilishi pedagogik jarayonning samarali kechishiga zamin yaratadi.

Pedagogik vaziyatdan kelib chiqib, dars davomida ortiqcha vaqt sarflash holati sodir bo'lishi mumkin, ammo tajribali o'qituvchi bunday hollarda darsning rejasini samarali o'zgartira oladi.

O'qituvchining obro' orttira olish qobiliyati - o'z fanining chuqur bilimdoni, dunyoqarashi keng, mohir pedagog sifatida o'quvchilarga bevosita ruhiy, emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsata olish mahoratidir. O'qituvchi o'z obro'sini qat'iyatligi, jonkuyarligi, o'z ishining fidoiysi, mehribonligi, pedagogik nazokati, yuqori ma'naviy-axloqiy sifatlarga egaligi bilan ham qozonadi. Avtoritar qobiliyatlar o'qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir irodaviy sifatleri (yeruditsiya, dadillik, chidamlilik, odillik, qat'iylik, talabchanlik, empatiyaga moyillik va boshqalar)ga ham bog'liq.

O'qituvchining kommunikativ qobiliyati - tevarak-atrofdagilar bilan muloqatga kirishuvchanlik, shirinso'xanlik, to'g'ri muomala qila bilish, bolalar qalbiga yo'l topib, ularga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik

nuqtai nazardan juda samarali o'zaro munosabat o'rnatishdir. Pedagogik nazorat va kommunikativ qobiliyatga ega bo'lmagan o'qituvchi bolalar qalbiga yo'l topishi o'ta mushkuldir.

O'qituvchining bashoratchilik (istiqbolni ko'ra bilish) qobiliyati – rejalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonidan kutiladigan natijani oldindan bilish, tarbiyalanuvchining kelajakda qanday odam bo'lishi haqidagi tasavvur bilan bog'liq bo'lgan shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, o'quvchi shaxsining qanday fazilatlarini taraqqiy etishini bashorat eta olishda ifodalanadigan mahoratdir. Bu qobiliyat pedagogik optimizm (kelajakka ishonch), tarbiya qudrati, insonga inonish bilan bog'liq bo'ladi.

O'qituvchining diqqatni taqsimlash qobiliyati – ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan diqqatning barcha tarkibiy tuzilmalari: hajmi, uzoq va yaqin muddatligi, kuchi, kuchuvchanligining idora qilish va pedagogik faoliyatning bir qancha turlari o'rtasida taqsimlash mahoratidir. Tajribali o'qituvchi o'quv materialini taqdim qilish ekan, dars maqsadi, mazmuni, shakli, vaqt taqsimlanishi, o'quvchilarning bilim o'zlashtirish darajasini e'tibordan chetda qoldirmaydi va ayni paytda ularning mashg'ulot mobaynidagi ruhiy holati (toliqish, loqaydlik, e'tiborsizlik, tushkunlik alomatlarini)ni hushyorlik bilan kuzatib boradi. Tajribasiz o'qituvchi ayrim hollarda o'quv materialini bayon qilishga berilib, o'quvchilarning darsdagi holati (intizomi, ruhiyati)ni diqqat- e'tibordan chetda qoldiradi.

Pedagogning eruditsiyasi (irodasi, sabr-toqat, o'quvchilarga ibrat, namuna bo'la olish qobiliyati). O'qituvchi o'quvchilarni o'z shaxsiy namunasini, xulq-atvori bilan ham tarbiyalaydi. Bolalar uchun o'qituvchining har bir xatti- harakati namunadir. Bu holat o'qituvchidan o'quvchilarga nisbatan juda ziyarak munosabatda bo'lishni talab etadi. O'qituvchi o'zi o'qitadigan fanni mukammal bilishi, sabr - toqatli, irodali bo'lishi, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega, insoniy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan, nazokatli, qat'iyatli, jonkuyar, mehnatsevar va kamtar bo'lishi lozim.

O'qituvchi pedagogik jarayonda uchraydigan turli qiyinchiliklarni bartaraf etishga, belgilangan maqsadga erishishda iroda kuchini ko'rsata olishi shart. Belgilangan pedagogik vazifalarni oxiriga yetkazish, uning nazorati, izchilligini kuzatib borish va ta'lim-tarbiya jarayonining samarali kechishini ta'minlashda barcha kuch-g'ayratini safarbar etish o'qituvchining

irodaviy harakatlarini tavsiflaydi. O'qituvchida qat'iyatlilik, talabchanlik, har qanday vaziyatda o'zini tuta bilish, dadillik kabi irodaviy sifatlar mujassam bo'lishi lozim.

O'qituvchi o'z faoliyatini tashkil etishda tasodifiy taassurotlarga berilmasdan, ortiqcha ikkilanishlarsiz, dadil harakat qilishi, qat'iy qarorga kela o'lishi muhim. Dadillik bilan bir qatorda qat'iylik ham ishni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlovchi muhim sifattir. O'qituvchining irodaviy sifatlaridan biri - har qanday pedagogik sharoitda o'zini tuta bilishidir. Har qanday vaziyatda o'zini tuta oladigan, har narsaga asabiylashmaydigan va o'quvchilar asabini ham buzmaydigan o'qituvchini yoshlar afzal ko'rishadi.

O'qituvchi bukilmas irodaviy xususiyatga ega bo'lishi, hayot va faoliyatda aslo og'ishmasdan oldiga quyilgan maqsadga intilishi lozim.

O'qituvchining andishalilik, bag'rikenglik, samimiylilik va boshqa sifatlari. O'qituvchi faoliyatida andishalilik muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi ota-onalar, sinf jamoasi, o'quvchi shaxsi bilan yakka tartibda ishlaganda pedagogik takalluf va nazokatga alohida e'tibor berishi lozim.

Ayrim hollarda muayyan axborot faqat ota-ona va o'qituvchi yoki o'qituvchi va o'quvchi orasidagina tahlil qilinishi mumkin. Zinhor o'qituvchi konfidensial (maxfiy) axborotni jamoaga chiqarmasligi lozim.

O'qituvchining bag'rikenglik xususiyati uning kechirimli, chidamli bo'lishida namoyon bo'ladi. Bag'rikeng o'qituvchi sodir etilgan noxush voqealarni xotirasidan chiqarib tashlashga harakat qiladi. o'quvchilarining xulq-atvoridagi noxo'sh ko'rinishlarni ular yuziga solmaydi, aksincha ularni bartaraf etishga yordam beradi.

Samimiylilik o'qituvchining o'quv muassasasida yuzaga kelayotgan ijobiy taraqqiyparvar voqealarga va hodisalarga nisbatan ilk munosabatini, undagi samimiylikni ifodalaydi. O'qituvchining samimiyligini o'quvchilar darrov sezishadi. Bu uning bolalar bilan samimiy munosabatlarida, hamkasabalari faoliyatidagi yutuqlariga bildirilgan hayrihohlikda, shogirdlar muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligiga munosabatining tabiiyligida, o'quvchilar xulqi, qobiliyatlarini xolisona baholashda, el-yurt, jamoa zafarlariga, jahondagi sodir bo'layotgan ijobiy voqelikka odilona munosabatda bo'lishda namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga zamonaviy o'qituvchi buyuk ma'naviy fazilatlarga ega,

insoniy fazilatlarini o'zida mo'jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritishi talab etiladi. Hozirgi davrning bu talabi - o'qituvchilarni yuksak pedagogik mahorat va texnika ko'nikmalariga ega, pedagoglik kompetensiya sirlaridan voqif bo'lgan, umummadaniy fazilatlarga boy shaxs sifatida ta'lim-tarbiya jarayonining ijodkori bo'lishi lozimligini isbotlamoqda.

Ma'lumki, bo'lajak o'qituvchilar nazariy bilimlarni egallash bilan birga amaliy malaka va ko'nikmalarni ham egallashlari zarur. Demak, pedagogik, psixologik bilimlar asosida o'quvchilarning ilmiy bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishini ta'minlash, darsni loyihalashtirish, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, o'quvchilarning individual, jamoa, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarini tashkil qila olish. sport bilan shug'ullanish, sayohat uyushtirish va ularga rahbarlik qilish, ota-onalar, jamoatchilik o'rtasida olib boriladigan tadbirlarga rahbarlik qilish, va boshqa tarbiyaviy malaka hamda ko'nikmalarni olib borishlaridan iboratdir.

Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish pedagoglik kasbiga tayyorgarlik ko'ra boshlagan davrdan boshlanadi.

3. Pedagogik mahoratni egallash vositalari. O'quvchilarning yangi o'quv materialini tushunib va o'zlashtirib olishlari uchun o'qituvchi nutqining takomillashganlik darajasi muhim ahamiyatga egadir. Bolalar pedagogning nutqiy ma'lumotlariga sezgir bo'ladir. Nutq insonning ongida paydo bo'lgan fikrning nutq tovushlariga til yordamida ko'chishi ekan, u ta'sirli yoki ta'sirsiz, grammatik jihatdan to'g'ri yoki noto'g'ri tuzilgan bo'lishi mumkin.

Pedagog bitta so'zning o'zini o'quvchiga goho buyruq, goho iltimos, goho nasihat va boshqa ma'no baxsh etgan xilda, turli ohangda talaffuz eta bilishi kerak. Kommunikatsiya jarayonida teskari aloqalar shakllanadi, ya'ni bola hamsuhbatining yuzlaridagi ifodani o'qishga, uning ohangida ma'qullash yoki ma'qullamaslik alomatini payqashga, katta yoshdagi kishining so'zlariga ilova bo'ladigan va kuchaytiradigan qo'l - barmoqlari va yuz - harakatining ma'nosini tushunishga o'rganadi.

Ishontirish va ma'qul qilish. Pedagogning o'zaro ta'sir etishdagi barcha vaziyatlar, asosan to'rtta o'zaro bog'liq munosabatlar orqali amalga oshiriladi: ishontirish, o'ziga rom qila olish, taqlid qilish, uqtirish(chizma).

Ishontirish – muayyan mavzu yuzasidan biror fikr yoki xulosani

mantiqiy asoslash, ijtimoiy fikr tug'dirishdir. Ishontirish asosida pedagog o'quvchilar, sinf, guruh jamoasi, ota-onalar ongiga ta'sir qiladi va ularni shu asosda faoliyat ko'rsatishga undaydi.

So'z bilan ishontirish eng qiyin tarbiyaviy vositalardan biridir. Buning uchun pedagog yetarli darajadagi salohiyatga, boy tajriba va chuqur dunyoviy, ilmiy, kerak bo'lsa, diniy bilimlarga ega bo'lishi lozim. Bunda tinglovchilar fikrini o'zgartira oladigan mantiq yoki suhbat ohangini tanlash juda muhimdir. O'qituvchining nutqi o'zining mazmundorligi, ta'sirchanligi, o'ziga jalb etish quvvatini mujassam etganligi, go'zal va ta'sirchan nutq matnini tuza bilish, til boyliklari va badiiy tasvir vositalaridan o'rinni foydalanish xususiyatlari bilan tavsiflanishi shart.

O'qituvchining kommunikativ ko'nikmasi: yuz mimikasiga qarab o'zgalar holatini tushuna olish, o'zini namoyish qila bilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonlarning xursandligini uning yuzidagi ko'rinib turgan tetikiik. xushchaqchaqlikdan anglashimiz yoki xafalikni esa yuzlarning mayus tortganligi, ko'zlarning toliqib ko'rinishidan bilishimiz mumkin.

O'zgalar holatini tushuna olish o'qituvchi uchun muhimdir. Sababi u qanday holat, sharoitda o'sgan o'quvchilarga dars berayotganligini bilishi lozimdir. O'quvchilarning yurishi, o'tirishi, harakatidan ularning qay holatda yurganliklarini bilish mumkin.

O'zini namoyon qila olish- bu bilim, malaka, ko'nikma, odob-axloq, muomala, nutq, munosabat orqali o'zini namoyon qila olishdir.

Pedagogik ta'sir etishning metodi bo'lgan ishontirish bilan birga uqtirish ham o'quv-tarbiyaviy jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uqtirish-kishilarning muloqot va faoliyati jarayonida o'zaro ta'sir etish vositalaridan biridir. Inson ruhiyatiga uning o'ziga sezdirmasdan ta'sir etish, shaxs psixikasi tarkibiy tuzilishiga beixtiyor kirib borish va kundalik hayotdagi qiliqlar, intilishlar, motivlar va yo'l-yo'riqlarda uqtirish namoyon bo'ladi.

Uqtirishning mohiyati shundan iboratki, tinglovchi so'zlayotgan shaxsga to'la ishonch bildiradi. Bu holda so'zlovchi tinglovchida aynan o'zidagi tasavvur, qiyofa va sezgilarni gavdalantiradi va unda to'liq ishonch hosil qiladi.

Shunday qilib, o'qituvchining bolaga ta'sir etishida turli kommunikativ

ko'nikmalardan foydalanish zarur. Mohir pedagog muayyan vaziyatda oqilona ta'sir etish vositalaridan foydalana oladi.

Nazorat uchun savollari:

1. O'qituvchi faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
2. O'qituvchining pedagogik qobiliyatlari nimalardan iborat?
3. Zamonaviy o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar qanday?
4. Pedagogik texnika degamda nimani tushunasiz?
5. Yosh o'qituvchi taxnikasida uchraydigan kamchiliklar nimalar?
6. Pedagogik muloqotning tarkibiy qismlari nimadan iborat?

16-MAVZU: KORREKSION PEDAGOGIKA ASOSLARI

Reja:

1. Korreksion pedagogikaning predmeti va mazmuni.
2. Korreksion pedagogikaning asosiy vazifa va kategoriyalari.
3. Anomal bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar yo'nalishlari.

Tayanch iboralar:


Korreksion pedagogika, predmeti, vazifalari, kategoriyalari, Anomal bolalar, korreksiya, difektologiya, inklyuziv ta'lim, oligofreno, tiflo, surdo, logopediya, uyda o'qitish,

1. Korreksion pedagogikaning predmeti va mazmuni. Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lar bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish va tarbiyalash bilan korreksion pedagogika shug'ullanadi.

Korreksion pedagogika rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bola shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sanaladi

Ilmiy tushuncha sifatida **korreksion pedagogika** pedagogika fanida rasman e'tirof etilganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Uzoq vaqt davomida pedagogikada "defektologiya" tushunchasi qo'llanib kelingan.

Korreksion pedagogika tarkibiga quyidagi sohalari kiradi:



Коррекцион педагогика соҳалари

Pedagogika lug'atida "korreksiya" (yunoncha "correctio" – "tuzatish") tushunchasi pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizini yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi

Korreksion pedagogikaming asosiy maqsadi belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o'rtasidagi nonuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirishdan iborat

Korreksion-pedagogik faoliyat: 1) yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oladigan, murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amaiga oshirilishini nazarda tutadigan pedagogik tizim; 2) maxsus ta'lim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon

Ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti tarixi anomal bolalarga bo'lgan insonparvarlik munosabatining uzoq vaqt davomida evolyutsion tarzda shakllanib kelganligini ko'rsatadi.

Qadimgi Spartada rivojlanishi va hulqida nuqsone bo'lgan bolalar qatl qilingan. Qabilalarning boshliqlari bola tug'ilganda uni sinchiklab ko'rib, uning birorta nuqsonga ega yoki ega emasligini aniqlashardi. Nuqsone bola Tayget jarligiga tashlab yuborilgan (er.av. IV-V asrlar).

O'rta asrlarda Yevropada bola rivojlanishidagi har qanday nuqsone yovuz kuchlarning "namoyon bo'lishi" sifatida qabul qilingan, ruhiy kasalliklarga ega kishilar inkvizitsiya gulxanida yondirilgan.

Uyg'onish davridan XIX asrning o'rtalarigacha Yevropada defektologiya fani va amaliyoti aqliy rivojlanishida nuqsone bo'lgan bolalarga ijobiy ijtimoiy munosabat shakllandi. Ularga nisbatan **insonparvarlik yondashuvi** ilk bor fransuz shifokori, ruhiy kasalliklar turlarining asoschisi Filipp Pinel (1745-1826 yillar) tomonidan ilgari surilgan. Aqli zaif bolalarni maxsus usullar yordamida o'qitish va tarbiyalash g'oyasini Iogan Genrix Pestalotssi (1746-1827 yillar) tomonidan asoslandi.

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifa va kategoriyalari. Turli toifali anomal (yunoncha "anomalos" – "noto'g'ri", jismoniy yoki ruhiy nuqsone'larga ega) bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash maxsus pedagogikaning umumiy maqsadi bo'lib, unga erishish yo'lida muayyan vazifalar hal qilinadi. Ular quyidagilardir:

Asosiy vazifalar

Anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish; rivojlanish anomaliyasini barvaqt tashxislash metodlarini ishlab chiqish, bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish, anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish; bola rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish yoki tuzatish imkoniyatlarini aniqlash; anomal bolalarni tabaqalashtirilgan holda o'qitish va tarbiyalash; anomal bolani rivojlantirish va ijtimoiylashtirish jarayoni samaradorligini oshirish

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifa va kategoriyalari.

Korreksion pedagogika quyidagi pedagogik kategoriyalarga ega:

1. Anomal bolalarni o'qitish va rivojlantirish ularni ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli jarayondir. Anomal bolalar uchun ta'lim tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqishi vaqti hisobga olinadi. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatini yo'qotish vaqti alohida ahamiyatga ega. Maxsus maktablarda mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda o'quvchilarni ijtimoiy hayotga, imkoniyat darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlash buzilgan funksiyalarini tiklash, aqliy va jismoniy rivojlanish nuqsonlarini pasaytirishga yordam beradi.

2. Anomal bolalarni tarbiyalash rivojlanishdagi nuqson darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod, vositalarni taulash asosida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik, o'zaro qe'llab-quvvatlash, o'zaro yordam ko'rsatish, talabchanlik va mehribonlik asosida amalga oshiriladi. Anomal bolada optimizm va ishonchni tarbiyalash, qobiliyatini shakllantirish yoki uning o'rnini bosuvchi imkoniyatni rivojlantirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalash hamda harakatlari va xulqini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim.

3. Korreksiyalash (tuzatish) bolaning psixik va jismoniy

rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishdan iborat.

4. Korreksion-tarbiyaviy ishlar shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimi bo'lib, ular anomal bolalarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi va mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Tizim doirasida anomal bolalar uchun davolash-korreksion tadbirlar (davolovchi jismoniy mashqlari, artikulyar va nafas olish gimnastikasi, dori-darmonlar qabul qilish va b.sh.) ham tashkil etiladi.


5. Kompensatsiya (yunoncha "compensatio" – "o'rnini to'ldirish") organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o'rnini to'ldirish, qayta qurishdir. Bu jarayoni oliy asab tizimning zahira imkoniyatlariga tayanadi.

6. Ijtimoiy rehabilitatsiya (yunoncha "rehabilitas" – "qobiliyatini tiklash") anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlariga ko'ra ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayoti va mehnatiga jalb etishni anglatadi. Rehabilitatsiya nuqsonlarini yo'qotish va kamaytirishga yordam beradigan maxsus tibbiy vositalar, maxsus ta'lim, tarbiya va kasbiy tayyorlash yordamida amalga oshiriladi. Rehabilitatsiya vazifalari anomal bolalarning turli toifalari uchun maxsus o'quv muassasalarida hal etiladi. Ularda o'quv jarayoni bolalarning anomal rivojlanishi xususiyatlariga tayangan holda tashkil etiladi.

7. Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha "adapto" – "moslashish") anomal bolalarning individual, guruhli xulqlarini ijtimoiy qoidalar, qadriyatlarga mos kelishini ta'minlash. Anomal bolalar uchun ijtimoiy munosabatlarga kirishish qiyin, ular ijtimoiy o'zgarishlarga qiyin mosilar, murakkab talablarni bajara olmaydilar. Ijtimoiy adaptatsiya anomal bolalarga ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi.

8. Oila tarbiyasi ijtimoiy rehabilitatsiyani samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Oila va maxsus ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik anomal bolani ijtimoiy faoliyatga jalb etish, mehnat qobiliyatlarini aniqlash va imkon qadar kasb ko'nikmalarini shakllantiradi.

Anomal o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlar yo'nalishlari. Psixofiziologik rivojlanishi, xulqida nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiylashtirish murakkab jarayon hisoblanadi. Bu boradagi korreksion-pedagogik quyidagi yo'nalishlarda tashkil etiladi:



Korreksion-pedagogik tizimda amalga oshiriladigan vazifalari

Korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim va korreksion-tarbiyaviy ishlar pedagog, ijtimoiy-pedagog, psixolog, logoped, tibbiyot xodimlari, jumladan, ortoped va boshqalar tomonidan tashkil etiladi. Ularning bu harakatlari korreksion-pedagogik faoliyat deb yuritiladi.

Korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim anomal bolalarga o'z vaqtida malakali pedagogik yordam ko'rsatilishini ta'minlovchi tabaqalashirilgan ta'lim tizimi bo'lib, bola rivojlanishini ta'minlaydigan bilimlarni tizimlashurish, rivojlanishi va o'qitishdagi kamchiliklarni yo'qotish, yetarlicha shakllanmagan ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bolaning idrok etishdagi kamchiliklarni tuzatishga xizmat qiladi


Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni yo'qotish, kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimi bo'lib, faqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan bo'lmay, balki ularni umumiy rivojlantirishga ham xizmat qiladi

Korreksion-tarbiyaviy faoliyat bolaning idrok etish imkoniyatlarini o'zgartirish, hissiy-irodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini takomillashtirish, qiziqishi, layoqati, mehnat, badiiy, estetik va b.sh. qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakatdir

Bola rivojlanishidagi nuqsonlarning turlari. Tadqiqotlarning natijalari rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar sonining oshib borayotganligini ko'rsatmoqda. Ayni vaqtda ham bola rivojlanishidagi nuqsonlarni turlarga ajratish bo'yicha yagona qarash mavjud bo'lmasa-da, ko'p hollarda ularni quyidagi turlarga ajratish to'g'ri deb topilmoqda:

Mualliflar	Nuqsonlarning turlari
M.A. Vlasova, M.S. Pevzner	1. Sensor xislati yetishmaydigan bolalar (eshitish, ko'rish, nutq qobiliyati, tayanch-harakat apparati, sensomotorik funksiyasi buzilgan) 2. Ruhiiy rivojlanishi ortda qolgan bolalar. 3. Astenik yoki reaktiv holatli, tashvishlanishga moyil bolalar. 4. Psixopatik (xulquing hissiy buzilishi) xulqli bolalar. 5. Aqli zaif bolalar (debillik, imbetsillik, idiotiya darajasidagi oligofrenlar) 6. Psixik kasallikning boshlang'ich ko'rinishi (shizofreniya, epilepsiya, isteriya va b.sh.) namoyon bo'ladigan bolalar
O.N. Usanova g'oyasiga ko'ra	1. Organik buzilishlar sababli rivojlanishida chetlanish bo'lgan bolalar 2. Funksional yetuk emasligi sababli rivojlanishida kamchilik bo'lgan bolalar. Psixik deprivatsiyalar asosida rivojlanishida kamchiliklar bo'lgan bolalar
V. Raxmanova	1. Intellektual buzilishga ega bolalar (aqli zaif va ruhiy rivojlanishidan ortda qolgan bolalar) 2. Nutqi buzilgan bolalar 3. Sensorli (ko'rish va eshitish qobiliyatlari buzilgan) nuqsonlarga ega bolalar. 4. Tayanch-harakatli apparati buzilgan bolalar. 5. Rivojlanishida kompleks buzilish bo'lgan bolalar

Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni tashxislash tamoyillari va metodlari. Anomal bolalarni maxsus muassasalarda o'qitish va tarbiyalashda quyidagi **tamoyillarga** amal qilinadi:



Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni tashxislash tamoyillari

1. **Insonparvarlik tamoyili** har bir bola uchun o'z qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantira oladigan zarur sharoitlarni o'z vaqtida yaratib berishdan iborat bo'lib, u bolani izchil va batafsil o'rganish, uning yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llari va vositalarini izlashni talab etadi.

2. **Bolalarni majmuaviy (kompleks) o'rganish tamoyili** bolaga tashhis qo'yishda zarur mutaxassisliklar (tibbiy, defektologik, psixologik va pedagogik) bo'yicha olingan ma'lumotlarga tanishni nazarda tutadi. Agar shifokor, defektolog, psixolog va pedagoglarning fikrlari turlicha bo'lsa, bola qayta tekshiruvdan o'tkaziladi.

3. **Bolani har tomonlama va yaxlit o'rganish tamoyili** bolaning idrok etish, emotsional-irodaviy sifatleri va xulqini tekshirishni ko'zda tutadi. Unga ko'ra bolaning rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jismoniy holati ham hisobga olinadi. Bolani har tomonlama va yaxlit o'rganish uning o'quv, mehnat va o'yin kabi faoliyati jarayonidagi harakatlarini kuzatishga asoslanadi.

4. **Bolani dinamik o'rganish tamoyilga** binoan tekshirish davomida ular biladigan va bajara oladigan ishlarni emas, balki ularning o'qitishdagi imkoniyatlarini ham hisobga olish muhim ekanligini nazarda tutadi.

L.S.Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” – bolalarning o‘qishdagi mavjud imkoniyatlari haqidagi ta’limoti mazkur tamoyilning asosini tashkil qiladi.


5. Sifatii-miqdoriy yondashuv tamoyili bola bajargan topshiriqni baholashda yakuniy natijanigina emas, balki usuli, masalani yechish uchun tanlangan yo‘lning ratsionalligi, harakatlarning mantiqiy ketma-ketligi, maqsadga erishishdagi qa’tiylik va tirishqoqlikni ham hisobga olish zarurligini asoslaydi.

6. Ma’lum turdagi patologiyali bolalarni boshqa bolalar guruhlaridan ajratish tamoyili har bir maxsus ta’lim muassasasi o‘zi qoidalariga egaligini tavsiflaydi.

7. Rivojlanishdagi nuqsonlar darajasiga ko‘ra tabaqalashtirilgan ta’limni tashkil etish tamoyili rivojlanishida bir xil, lekin darajasiga ko‘ra turli chetlanishga ega bolalarni ajratgan holda o‘qishlarini nazarda tutadi, binobarin, ularni o‘qitish metodikasida sezilarli farqlar mavjud (masalan, ko‘zi ojiz bolalar taktik asosda (Brayn tizimi bo‘yicha), yomon ko‘ruvchilar esa ko‘rish asosida o‘qitiladi).

8. Anomal bolalar yoshini inobatga olish tamoyili muayyan guruh yoki sinfga ma’lum yoshdagi bolalar qabul qilinishini ifodalaydi. Turii yoshdagi rivojlanishida nuqsonlar bo‘lgan bolalarni tekshirish va maxsus yordam ko‘rsatish malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Anomal bolalarning yoshi, nuqsonlarining turlari, darajasi **psixologik-pedagogik tekshirish** asosida aniqlanadi. Bunday tekshirishlar quyidagi metodlar yordamida tashkil etiladi:



Psixologik-pedagogik tekshirish metodlari

1. Suhbat metodi. Suhbat shaxs bilan aloqa o'rnatish vositasi bo'lib, anomal bola shaxsi, hissiy-irodaviy sifatleri, xulqi, rivojlanishidagi nuqsonlarning sabablariga oid ma'lumotlarni to'plashga imkon beradi. Agarda bolaning nutqida, eshitishida nuqsoni bo'lsa yoki ijtimoiy munosabatga qiyin kirishsa suhbat uyushtirish tavsiya etilmaydi. Bunday holatda bola qiziqadigan ko'rgazmali materialdan foydalanish to'g'ridir.

2. Kuzatish metodi. Kuzatish bolaning maslahatga kelishidan avval boshlanib, yaxlit tekshirishlarni o'tkazish jarayonida davom ettiriladi. Kuzatish har doim aniq maqsad asosida o'tkaziladi. Bolani o'yin faoliyatini tashkil etish jarayonida kuzatish alohida ahamiyatga ega. Ba'zi hollarda o'yinchoqlar yordamida maxsus tekshirishlar o'tkaziladi.

3. Rasmlarini o'rganish metodi. Rasmlar bolani o'rganishda muhim vosita hisoblanadi. Bolada pedagog tomonidan tavsiya etilgan rasmlar xavotir uyg'otsa, unga erkin rasm chizish taklif etiladi. Bolaning mavzu tanlay olishi, tasvirlash xususiyatlari, rasm chizish jarayoni yakuniy tashhis uchun muhim ma'lumot hisoblanadi. Aqli zaif bolalar odatda mavzuni tanlashga qiynaladilar, ular syujetlar yaratmay, predmetlarni alohida tasvirlashga harakat qiladilar.

4. Psixologik tadqiqotlar metodi maxsus o'rganilishi talab etilayotgan ruhiy jarayonning sodir etadigan vaziyatlarni yaratishga yordam beradi. Tajriba metodikalari yordamida u yoki bu holat sabablari, mexanizmlari to'g'risida ma'lumot olish mumkin.

5. Test metodi bolalarni psixodiagnostik tekshirishda qo'llaniladi. D.Veksler tomonidan asoslangan moslashtirilgan test ommaviylashgan bo'lib, undan foydalanish individual-psixologik tekshirishlarni o'tkazishda bola haqida qo'shimcha ma'lumotlarni olishga imkon beradi.

2. Anomal bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar yo'nalishlari. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish. Ruhiy rivojlanishi ortda qolgan bolalar predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarning taxminan 50 foizini tashkil etadi. Ruhiy rivojlanishda ortda qolish bolalar rivojlanishining anomal ko'rsatgichi sifatida XIX asrning 50-yillardan o'rganila boshlandi.

Ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular maktabda ta'lim olishga to'la tayyor bo'lmaydilar. mustaqil

ravishda hisoblashni, o'qishni, yozishni va maktab tartib-qoidalariga amal qilishni o'rgana olmaydilar. Bunday bolalarda ruhiy toliqish kuzatilib, tez charchash, ish bajarish qobiliyatining pasayishi, boshlagan ishini oxiriga yetkazmaslik holatlari kuzatiladi. Ko'pincha boshlari og'riydi.

Ruhiy rivojlanishi ortda qolgan bolalarning xulqi ham o'ziga xos. O'zlarini maktabgacha yoshdagi bolalar kabi tutishadi. Ularda o'qishga nisbatan qiziqish yo'q yoki juda past. O'yin ular uchun asosiy faoliyat turi sanaladi.

Ba'zan ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar "aqli zaif" sifatida qabul qilinadilar. Bu to'g'ri emas. Chunki ular oddiy bilimlarni o'zlashtirish, hisoblash ko'nikmalarini egallashda qiyinchiliklarga duch kelish bilan birga she'r, ertaklarni eslab qoladilar. Bunday xususiyat aqli zaif bolalarda kuzatilmaydi.

Ko'pchilik hollarda ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladilar. Ular bilan individual korreksion ishlar olib borilmaydi. Natijada ular predmetlarni o'zlashtira olmaydilar.

O'zbekistonda XX asrning 60-yillarida ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan maxsus pedagogik ishlar amalga oshirila boshlandi. Hozirgi kunda bunday bolalar uchun maktab internatlar va maxsus ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Shu bilan birga ularni ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarda tashkil etilgan korreksion-rivojlantiruvchi sinflarda o'qitish yo'lga qo'yilgan.

Bolalarni maxsus ta'lim muassasalariga qabul qilish psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalarning xulosasi bo'yicha ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning roziligiga ko'ra amalga oshiriladi. Sinflar 12 nafar o'quvchidan iborat bo'ladi.

Ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, ijtimoiy moslashtirish va o'rganish muammolari korreksion (maxsus) pedagogikaning muhim sohasi – oligofrenopedagogika (yunoncha "olygos" – kam, "phren" – aql) tomonidan o'rganiladi.

Ruhiy rivojlanishda nuqsonning kelib chiqishi bosh miya faoliyatini ishdan chiqaradigan ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar bilan bog'liq.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (BSST) tomonidan aqli

zaiflikning to'rt darajasi ko'rsatilgan. **YA'ni: sezilmas (kam), o'rtacha, og'ir va chuqur darajalar.**

Aqli zaif bolalar oila yoki sog'liqni saqlash tizimiga qarashli maxsus yashilarda tarbiyalanadilar. Ularda o'qitish maxsus bolalar bog'chasidagi kabi maxsus dastur bo'yicha olib boriladi. Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar maxsus maktablarda o'qitiladilar, bu yerda o'qitish DTSga muvofiq maxsus dastur bo'yicha tashkil etiladi. Bunday maktablarda umumiy o'rta ta'lim fanlari (ona tili, o'qish, matematika, geografiya, tarix, tabiat, fizkultura, rasm, musiqa, chizmachilik) bilan birga maxsus korreksion fanlarni ham o'qitiladi. Maxsus maktablarda mehnat ta'limi muhim o'rin egallab, IV sinfdayoq kasbiy xususiyatni namoyon qiladi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga ham katta e'tibor qaratiladi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash. Nutqdagi nuqsonlarni o'rganish, oldini olish va korreksiyalash masalalari **logopediya (yunoncha "logos" – so'z, "paideia" – tarbiyalash)** shug'ullanadi. Patogen omil ta'sirida yuzaga kelgan nutqiy buzilishlar o'z-o'zidan yo'qolmaydi, shuningdek, maxsus tashkil etilgan korreksion-logopedik choralarsiz bartaraf etilmaydi.


Nutqiy buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablar orasida ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar asosiy rol o'ynaydi. Bundan tashqari (anatomik-fiziologik, morfologik), funksional (psixogen), ijtimoiy-psixologik (atrof-muhitning salbiy ta'siri), psixonevrologik (psixik funksiyalarining buzilishi (aqli zaiflik, xotira yoki diqqatning buzilishi va boshqalar) sabablarning ham ta'siri sezilarli bo'ladi.

Logopediyada nutqiy buzilishlarni ikki turi ajratiladi: **1) tibbiy-psixologik nutqiy buzilish; 2) psixologik-pedagogik nutqiy buzilish.** Shu bilan birga nutqdagi nuqsonlar: og'zaki yoki yozma nutqqa xos bo'ladi.

Nutqida nuqsonlar bo'lgan bolalarning markaziy asab tizimida funksional yoki organik chetlanishlar ko'zga tashlanadi. Miyaning organik zararlanishi sababli issiqda, transportda yurish, arg'imchoqda ko'p vaqt tebranish bolaga yomon ta'sir ko'rsatadi, boshi og'riydi. Tez charchab qoladi, qattiq ta'sirlanadi, jahli chiqadi. Kayfiyatlari tez o'zgaradi, sejjahl, agressiv, bezovta bo'ladi. Ularda sustlik va lanjlik kuzatiladi. Bunday bola tinch o'tira olmaydi, butun dars davomida ishchanlik va diqqatini saqlab turish qiyin bo'ladi. Juda tez xafa bo'ladi, atrofda qilarga quloq solmaydi. Tanaffusdan keyin diqqatini jamlashi qiyin bo'ladi. Odatda bunday bolalarda

diqqat va xotira, nutqiy xotiraning zaifligi kuzatiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari qoshida **logopedik punkt** faoliyat yuritadi. **Logopedik punkt** vazifalari quyidagilardan iborat:



Logopedik punkt tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar

Logopedik punkt faoliyati o'quv yili davomida individual va guruhli shaklda yo'lga qo'yiladi. Nutqdagi nuqson jiddiy bo'lsa, bola o'qitish maxsus ta'lim muassasalarida olib boriladi. Logopedik yordam ko'rsatish sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy ta'minlash tizimlarida ham amalga oshiriladi. Poliklinikalarda va psixonevrologik dispanserlarda **logopedik kabinetlari** mavjud bo'lib, ularda nutqda nuqsoni bo'lgan bolalarga logopedik yordami ko'rsatiladi.

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish. Anomal bolalar orasida eshitish qobiliyati turli darajada nuqsonli bo'lgan bolalar ko'pchilikni tashkil etadilar. Eshitish qobiliyatining buzilishiga yuqumli kasalliklar bilan og'rish, zaharlanish, akustik yoki kontuziyali jarohatlar ham sabab bo'lishi mumkin. Qulog'i og'irlik yoki kariik kelib chiqish sabablariga ko'ra: nasliy, tug'ma va kelib chiqqan tarzda turlanadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari **surdopedagogika (yunoncha "surdus" – kar)** tomonidan o'rganiladi.

Eshitish analizatorining mo'tadil ishlashi bolaning umumiy rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning buzilishi natijasida bolaning nutqi, psixologik rivojlanishi yomonlashadi, umumiy rivojlanishi ortda qoladi.

Ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabida eshitishda nuqsoni bo'lgan

bolalarni o'qitish mumkin. O'qituvchi bolaning eshita olishiga e'tibor berishi lozim. Bolani birinchi yoki ikkinchi partaga, iloji bo'lsa o'rta qatorga o'tkazish kerak. Shu bilan birga o'qituvchi bola darsni tushuna olganligi, topshiriqni to'g'ri bajarayotganligini nazorat qilib turishi kerak. Ba'zida eshitmaydigan yoki yomon eshitadigan bolalar ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida eshitadigan tengdoshlari bilan birga muvaffaqiyatli o'qiydilar.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalarini **tiflopedagogika** (yunoncha "typhlos" – ko'r) o'rganadi.

Ko'rish qobiliyatining buzilishi **tug'ma yoki orttirilgan** bo'ladi.

Ommaviy maktablarda ta'lim olganda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. Idrok etishning aniq emasligi, sekinligi, torligi predmetlarni tanib olish, shaklini ajratish, o'ziga xos belgilari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishda ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bolalar satrlar, harflar va raqamlarni adashtiradilar. Bular o'qish texnikasini egallash, o'qilganlarning mazmunini tushunishga halaqit beradi. Ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola qarab bajariladigan ishni tashkil etishda tez charchaydi, natijada ish qobiliyati pasayadi. U tuzatuvchi ko'zoynak taqishi kerak. Lekin ko'zoynak taqishda bola pedagogning unga diqqat bilan munosabatda bo'lishiga ehtiyoj sezadi. Maktabda va uyda o'quv ishlarini bajarishda sanitar-gigiyenik talablarga amal qilishi lozim.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ish olib borayotgan o'qituvchi korreksion ishlarning o'ziga xos jihatlarini bilishi zarur. O'qituvchi o'quvchining doska, jadval va xaritada o'quv materiallarini qabul qilishi va tushunishini nazorat qilib borishi kerak. Kurishida nuqsoni bo'lgan bolada ko'zi charchashi ko'p kuzatiladi. Shuning uchun dars paytida unga ko'rish ishlarini boshqa turdagi ishlar bilan almashtirib turishga imkon beriladi. Bola 10-15 minut davonida intensiv ko'rish ishlarini bajargandan keyin bir necha minut uzoqqa (doska yoki derazaga) qarashi kerak. Bu ko'rish charchog'ining bartaraf etilishiga yordam beradi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola uchun ish o'rni to'g'ri va yetarlicha yoritilgan bo'lishi kerak. Bunday bola deraza yonidagi birinchi yoki ikkinchi qatorga o'tkaziladi. Yaqinni ko'radigan bola ham doskaga yaqinroq birinchi

yoki ikkinchi partaga o'tkazilishi zarur. Uzoqni ko'radigan bola esa, aksincha, doskadan uzoqroqqa oxirgi partaga o'tkazilishi talab etiladi.

O'z sinflarida og'ir ko'rish qobiliyati buzilgan bola bo'lgan o'qituvchilar bolaga tabaqalashgan yondashuv asosida munosabatda bo'lishlari zarur. Bunday holatda o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi, sinf xonasi yaxshi yoritilgan, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaning ish o'rni esa ko'shimcha yoritilgan bo'lishi kerak. O'quv-tarbiyaviy ishlar jarayonida o'qituvchining nutqi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Uning nutqi aniq, tushunarli, ifodali bo'lishi zarur. O'qituvchi o'zining har bir harakati mohiyatini so'z yordamida sharhlab borishi,

Sinfida ko'r yoki yomon ko'radigan bola bo'lgan o'qituvchi ularning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini bilishi, ular normal ko'radigan tengdoshlaridan farq qilishlarini yaxshi anglashi maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchilar ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolani o'z vaqtida aniqlash, unga maxsus ta'lim va tarbiya berish masalasini hal etish uchun psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaga yuborishdan iborat. Yomon ko'radigan bolalarni o'qitish va tarbiyalash asosan maxsus (korreksion) maktablarda amalga oshiriladi.

Ko'rishdagi nuqsoni ancha og'ir bo'lgan -- ko'r va yomon ko'radigan bolalarni o'qitish maxsus ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Ba'zan ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablariga qabul qilinadilar. Bunday vaziyatda anomal bolalar uchun maxsus sharoitlarni yaratish zaruriyati yuzaga keladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Korreksion pedagogika qanday masalalarni o'rganadi?
2. Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish qanday tartibda amalga oshiriladi?
4. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda nimalarga e'tibor qaratish lozim?
5. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish qanday o'ziga xosliklarga ega?
6. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish samaradorligini qanday ta'minlash mumkin?

17-MAVZU: TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISHNING MOHIYATI

Reja:

1. Ta'lim muassasasini boshqarish vazifalari va prinsiplari.
2. Ta'lim muassasasi boshqaruv organlari va rahbarlarining vazifalari.
3. Pedagogik kadrlar malakasini oshirish va attestatsiyasi

Tayanch iboralar:

Ta'lim muassasasini boshqarish, ta'lim menejmenti, boshqaruv organlari, ra'bar vazifalari, pedagogik kadrlar malakasini oshirish, attestatsiya, akkreditatsiya.

1. Ta'lim muassasasini boshqarish vazifalari va prinsiplari. Boshqarish faqat ishlab chiqarishgagina xos bo'lgan jarayon emas. Baiki ijtimoiy sohalar, shuningdek, ta'lim tizimida ham boshqarishni to'g'ri tashkil etilishi juda muhim. **Boshqarish** ma'lum bir obyektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko'rsatishdir.

Ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish ta'lim muassasasining faoliyat xususiyatiga ko'ra pedagogik jarayonni rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilish maqsudida amalga oshiriluvchi boshqaruv faoliyati.

Ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta'lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitilib, "ta'lim muassasasini boshqarish" tushunchasi "ta'lim menejmenti" atamasi sifatida qo'llanilmoqda.

Menejment (yoki boshqarish) mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayoni.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ta'lim muassasasi menejmentini yo'lga qo'yishda quyidagi **vazifalarning** hal qilinishi ko'rsatiladi:

Vazifalar

Ta'lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish, ularni izchil rivojlantirish, davlat tomonidan boshqarish, ta'lim muassasalarini turli darajada boshqaradigan organlar faoliyatini O'zRning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq tashkil etish, ta'limning nonnativ-huquqiy bazasini rivojlantirish: mohiya-xo'jalik faoliyatini olib borish, ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv yurtlarining huquqlarini kengaytirish, mustaqilligini ta'minlash, ta'lim muassasalarini belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiyalash (akkreditatsiya yakunlari muassasaga ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatish huquqini beradi), muassis tashkilotlar, mahalliy hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari, fondlar hamda homiy vakillarni o'z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatish kengashlari tomonidan ta'lim muassasalarini samarali boshqarish

Ta'lim muassasasi menejmenti vazifalari

Ta'lim menejmetida o'ziga xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Ya'ni: ta'lim menejmenti "maqsadga muvofiqlik" so'zi bilan aniqlanadigan ma'naviy o'Ichovga ega; ta'lim menejmenti – bu fan va san'at (chunki bunda insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar katta rol o'ynaydi); menejment mazmunida o'z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o'zaro dialektik birligi; ta'limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi.

O'zRda ta'lim tizimi davlat-jamoatchilik boshqaruviga asoslanadi. Bu holat ta'lim muassasalarida o'qitish va tarbiyaga bog'liq masalalar davlat va jamoatchilik hamkorligida hal qilinadi, ta'lim dasturlari o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar tomonidan o'zaro hamkorlikda tanlandi, o'quvchi hamda ota-onalar ta'lim turi va muassasalarini erkin tanlaydilar.

Uzluksiz ta'lim tizimi yuqori davlat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirliklari ta'lim tizimini boshqaradigan yuqori davlat organlari hisoblanadi.

Xalq ta'limi bo'limlari, shuningdek, mahalliy hokimlik organlari tasarrufiga kiradi va unga bo'ysunadi.

Ta'lim muassasasini boshqarishda vazirliklar tasarrufidagi nazorat organlari yordam ko'rsatadi. Nazorat organlari ta'lim muassasasi faoliyatini o'rganadi, ta'lim-tarbiya jarayoni natijalarini tahlil qiladi, ilg'or tajribalarini aniqlaydi, ommalashtirish chora-tadbirlarini belgilaydi, kamchiliklarni

aniqlab, bartaraf etish yo'llarini izlaydi. maktab direktori va o'qituvchilarga metodik va moddiy yordam ko'rsatadi.

AL va KHKga tashkiliy, o'quv-uslubiy va ilmiy rahbarlik qilish, DTSni ishiab chiqish, o'quv va kasb-hunar dasturlarini birlashtirish, muassasani pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ularni qayta tayyorlash va tayyorlash Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi (O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi Markazi), uning hududiy boshqarmalari tomonidan tarmoq vazirliklari, idoralar va korxonalar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Ta'lim tizimini jamoatchilik asosida boshqarish o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik vakillaridan iborat pedagogik Kengashning ta'lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyati

Bir yilda bir marta o'tkaziladigan ta'lim muassasasi konferensiyasi ham jamoatchilik boshqaruviga kiradi. Konferensiyada ta'lim muassasasi Kengashi, uning raisi saylanadi, Ustavi qabul qilinadi.

Ta'lim muassasalarining Nizom va Ustavlari. O'zRning "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi Nizomi 1998 yil 13 mayda qabul qilingan. Nizomda umumiy o'rta ta'limning maqsadi, vazifalari, umumiy o'rta ta'limni tashkil etish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish, umumiy o'rta ta'limni boshqarish, mablag' bilan ta'minlash, muassasaning moddiy-texnika ta'minoti va xalqaro hamkorlik yoritilgan.

Nizomda umumiy o'rta ta'lim mazmuni **majburiy va qo'shimcha komponentlar** tarzida ochib berilgan. **Majburiy komponent** DTS bilan belgilanib, unga ko'ra o'quvchilar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olish uchun zarur bilimlarni egallashlari lozim.

Qo'shimcha komponent o'quvchining ehtiyojlari va qobiliyati, maktabning moddiy-texnika va kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasidan kelib chiqib belgilanadi. Qo'shimcha o'quv yuklanmalarining hajmi O'zR Xalq ta'limi va Sog'liqni saqlash vazirliklari kelishuviga muvofiq belgilanadi. O'quvchilarning bilimlari darajasi va ta'lim natijasi DTS talablariga muvofiq nazorat qilinadi. Nazorat joriy, oraliq, yakuniy hamda bosqichli nazorat tarzida amalga oshiriladi.

Bosqichli nazorat o'quv yili tamom bo'lgandan keyin imtihonlar, test sinovlari, sinovlar shaklida amalga oshiriladi; unga ko'ra reyting asigandi va o'quvchini navbatdagi sinfga o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilinadi

Maktabga **bevosita rahbarlik** boshqarishning yuqori organlar tomonidan tayinlanadigan direktor, davlatga qarashli bo'lmagan ta'lim muassasalarida esa muassis tomonidan amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta ta'limni tashkil etishda xalqaro hamkorlikka ham tayaniladi. Bu boradagi xalqaro hamkorlik pedagogik axborot, tajriba almashish, pedagog-xodimlarning tajriba o'rganish va malaka oshirishlarini ta'minlashga oid davlatlar, hukumatlar va idoralararo shartnomalar asosida yo'lga qo'yiladi.

Ta'lim muassasasining Ustavida ta'lim jarayonining quyidagi ikki muhim tarkibiy jihati ajratib ko'rsatiladi: 1) DTSda belgilangan bilimlar zahirasini egallash yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish tartibi; 2) BKMni hosil qilishni tashkil etish (savodxonlik, mustaqil fikrlash hamda masalalarni yecha olishga o'rgatish).

Amaldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasasi (maktabi)ning muvaffaq namunaviy Ustavi" 1998 yilning 17 dekabrda, "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining Ustavi" esa 1998 yilning 5 yanvarida tasdiqlangan.

Ta'lim muassasalarining Ustavlarida muassasaning joylashgan o'ri, turi, ta'lim tili, ta'lim muassasasining boshqarish mazmuni, tartibi, boshqaruv organlarining faoliyati, rahbar hodimlar zimmasidagi vazifalar, pedagog-xodimlar, o'quvchi va ota-onalarning huquq-burchlari, o'quv-tarbiya va ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish mohiyati, ta'lim muassasasining iqtisodiy ta'minoti, xo'jalik faoliyati hamda muassasani boshqarish tartibi ochib berilgan.

Ta'lim muassasasini boshqarishning prinsiplari va vazifalari. Har qanday faoliyat singari boshqarish faoliyati ham muayyan tamoyillar asosida tashkil etiladi. Ta'lim muassasasini boshqarishda quyidagi tamoyillar ustavo: xususiyat kasb etadi:

Ustuvor prinsiplar

- 1) pedagogik tizimni boshqarishni demokratiyalash va insonparvarlashtirish,
- 2) boshqarishning tizimlilik va yagonaligi,
- 3) boshqarishning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan holatlarining ratsional uyg'unligi,
- 4) yakka hokimlik bilan jamoatchilik boshqaruvining birligi,
- 5) ta'lim tizimini boshqarishda axborotlarning obektivligi va to'liqligi

Ta'lim muassasasini boshqarish prinsiplari

Pedagogik tizimni boshqarishni demokratiyalash va insonparvarlashtirish. Pedagogik kadrlarni tanlov va shartnoma asosida ishga qabul qilish, qabul qilinayotgan qarorlarni ochiq muhokama qilish, axborotlarning barcha uchun ochiq va tushunarli bo'lishi, ma'muriyatning ta'lim muassasasi jamoatsi oldida muntazam hisobot berishi, o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim muassasasi hayotiga oid fikr bildirish imkoniga egaliklari, muassasada demokratik g'oyalar yetakchi o'rin tutishini anglatadi.

Ta'lim tizimini boshqarishda shaxsga alohida hurmat bilan munosabatda bo'lish, unga ishonish, pedagogik faoliyatda subyektning subyektga munosabati darajasiga erishish, o'quvchi va o'qituvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish, o'z iste'dodlari va kasbiy mahoratlarini erkin namoyon etish uchun sharoit yaratish insonparvarlik tamoyiliga asoslangan boshqaruv mohiyatini anglatadi.

Boshqarishning tizimliliigi va yagonaligi. Ta'lim muassasasini boshqarishda uning faoliyatida ko'zga tashlanadigan elementlar tizimli (bir-birini to'ldiruvchi) bo'lish bilan birga yaxlit holda namoyon bo'ladi. Rahbar ta'lim muassasasini boshqarishda ana shu alohidalik va umumiylikni inobatga olishi lozim. Boshqaruvdagi tizimlilik va yagonalik rahbar bilan pedagogik jamoa o'rtasidagi o'zaro harakat va aloqani ta'minlaydi, bir yoqlama boshqaruvning oidini oladi.


Boshqarishning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan holatlarining ratsional uyg'unligi. Boshqaruvni markazlashtirish keragidan ortiq bo'lganda, albatta, ma'muriy boshqaruv kuchayadi. Markazlashtirilmaslik esa pedagogik tizim faoliyatining sustlashtiradi. Ta'lim muassasasini boshqarishda markazlashtirish va markazlashtirmaslik o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash qabul qilinayotgan qarorlarning obyektiv bo'lishini ta'minlaydi.

Yakka hokimlik bilan jamoatchilik boshqaruvining birligi pedagogik jarayonni boshqarishda yakka hokimlikka yo'l qo'ymaslikka qaratilgan. Boshqarish faoliyatida o'quvchilarning tajribasi, bilimiga tayanib, oqilona xulosalar chiqarish o'ta muhimdir. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda kollegial (jamoatchilik asosida) yondashuv, uning ijrosini ta'minlashda esa yakkahokimlikka bo'ysunish kutilgan natijani beradi.

Ta'lim tizimini boshqarishda axborotlarning obyektivligi va to'liqligi. Tizimni boshqarishning samaradorligi axborotlarning qanchalik

aniq va to'liqligiga ham bog'liq. Agar axborotlar to'liq, ammo haddan ziyod ko'p bo'lsa, qaror qabul qilishda chalkashlikka yo'l qo'yiladi. Boshqaruv jarayonida axborotdan samarali foydalanish ta'lim muassasasi faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beradi.

Ta'lim muassasini boshqarishda muayyan vazifalarning ijobiy hal qilinishi ko'zda tutiladi. Ular quyidagilardir:



Ta'lim muassasini boshqarish vazifalari

Ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etilishi va rivojlanishini tahlil qilmasdan, erishilgan natijalarni avvalgilari bilan taqqoslamay turib, uni boshqarib bo'lmaydi. Pedagogik tahlilning quyidagi uch turi mavjud: **kundalik tahlil; tizimli tahlil; yakuniy tahlil.**

Kundalik tahlil o'quv jarayonining borishi va natijasi haqida har kuni ma'lumot yig'ib, kamchiliklar sababini aniqlashga qaratiladi. Kundalik tahlil natijasida pedagogik jarayonga o'zgartirish va tuzatishlar kiritiladi. Kundalik tahlilda o'quvchilarning har kungi o'zlashtirish va intizomlari darajasi, ta'lim muassasasi rahbarining darsga hamda sinfdan tashqari darslarga qatnashishi, maktabning tozalik holati, shuningdek, dars jadvaliga rioya qilish kabi holatlari inobatga olinadi.

Tizimli tahlil darslar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar tizimini o'rganishga qaratiladi. Bunda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash, o'quvchilar tomonidan bilimlarni puxta o'zlashtirishiga erishish, tarbiyaviy ishlarni samarali olib borilishi va ta'lim muassasasida innovatsion muhitni yaratishda pedagogik jamoa hissasini ta'minlash masalalari o'rganiladi.

Yakuniy tahlil o'quv choragi, yarim yillik va o'quv yili yakunida amalga oshiriladi, asosiy natijalarga erishish yo'llarini o'rganishga qaratiladi.

Tahlil uchun ma'lumotlar kundalik va tizimli tahlillar, joriy va oraliq nazorat yakunlari, sinf rahbarlarining hisobotlaridan olinadi.


Har qanday pedagogik jarayonni boshqarishning asosi **maqsad qo'yish va rejalashtirishdan iborat.**

Boshqaruv faoliyatining maqsadi ishning umumiy yo'nalishi, mazmuni, shakli va metodlarini aniqlash. Ta'lim muassasasini boshqarishni **rejalashtirish** pedagogik tahlil asosida belgilangan dasturiy maqsadga muvofiq qaror qabul qilishdir. Ta'lim muassasasini boshqarish amaliyotida rejalashtirishning quyidagi uchta asosiy shakli qo'llaniladi: **muddatli (perspektiv); yillik; yakuniy.**

Qabul qilingan rejalarni amalga oshirish uchun pedagogik faoliyat tarkibiy qismlarini bir-biri bilan aloqada bo'lishini tashkil etishga e'tibor qaratish lozim. "**Tashkil etish**" tushunchasi ta'lim muassasasining rahbarlari, o'qituvchilar, shuningdek, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyatiga nisbatan qo'llaniladi.

Ichki nazorat ham ta'lim muassasasini boshqarishda alohida o'rin tutadi. Nazoratni tashkil quyidagi tamoyillarga rioya qilish lozim: **tizimlilik, obyektivlik, harakatlilik, to'ldiruvchilik.**

Ichki nazoratning turlari, shakllari va metodlarini turkumlashtirish muammoli masala bo'lib qolmoqda. Shunday bo'lsa-da, ichki nazoratning quyidagi turlarini ajratilib ko'rsatish mumkin:



Ta'lim muassasasi ichki nazoratining asosiy turlari

Ta'lim muassasasi boshqaruv organlari va rahbarlarining vazifalari. Ta'lim muassasasining boshqaruv organlari. Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish, muassasa faoliyati bilan bog'liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish, o'qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy mahorati va ijodkorliklarini o'stirish maqsadida pedagogik xodimlarni birlashtiruvchi **Pedagogik kengash** faoliyat ko'rsatadi.

Pedagogik kengash ta'lim muassasasi jamoasining yuqori boshqaruv organi hisoblanadi

Pedagogik kengash ta'lim muassasasi hayotiga doir masalalarni hal qilishda muhim o'rin tutadi. Uning vazifalari quyidagilardir:


Asosiy vazifalar

Ta'lim muassasasi (umumiy o'rta ta'lim maktabi, AL, KHK) hujjatlarini muhokamadan o'tkazish, tasdiqlash va bajariishini nazorat qilish; muassasaning maqsad, vazifalaridan kelib chiqib, uni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash, muassasada o'quv, tarbiya jarayonini tashkil etish, ta'lim samaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlar yaratishga doir qarorlarni qabul qilish; muassasa boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqish, pedagogik jamoa faoliyatini tahlil qilish, yakuniy xulosa chiqarish; pedagogik jamoa tomonidan o'z vakolati doirasida meyoriy talablarni ishlab chiqish, tasdiqlash va bajariishini nazorat qilish

Pedagogik kengash vazifalari

Pedagogik Kengash yig'ilishlarining qarorlari, hujjatlari ta'lim muassasasi ish yuritish hujjatlari bilan birga saqlanadi. Pedagogik Kengash faoliyati bir qator hujjatlarda o'z aksini topadi:

Pedagogik kengash



Pedagogik Kengash hujjatlari

Ta'lim muassasasi hujjatlari besh yil davomida muassasada saqlanadi.

Ta'lim muassasasida metodik kengash, metodik birlashmalar ish yuritadi.

Metodik kengash ta'lim muassasasida ta'lim jarayonining sifatini ta'minlash, o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariy yetukligi, pedagogik va metodik mahoratlarini takomillashtirishga nazariy-metodik jihatdan rahbarlik qiluvchi organ

Metodik kengashning faoliyat doirasi keng bo'lib, u tomonidan amalga oshiriladigan **vazifalar** quyidagilardir:

Asosiy vazifalar

Metodik ta'minot holatini o'rganish; metodik ishlarini tashkil etish va istiqbolini aniqlash; metobirlashmalar faoliyatiga rahbarlik qilish; meyoriy va metodik hujjatlarni o'rganish. o'quv jarayoniga oid tavsiyalar berish, o'qituvchilar bilim darajasini oshirish, metodik ishlanmalar bilan ta'minlash; o'qituvchilarga ish rejalarini tuzish bo'yicha tavsiyalar berish; ilg'or PTni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; o'quvchilar bilimini nazorat qilish, mustaqil ishlarini tashkil qilishga oid ko'rsatmalar berish; ilg'or o'qituvchilarni rag'batlantirishga tavsiya qilish; pedagoglarni attestatsiyadan o'tkazish materiallarini tayyorlash; fan oyligi, haftaligi, fakultativ, to'garak, fan olimpiadalarning I-bosqichi. ko'rik-tanlovlarni o'tkazish. ularning samarasini nazorat qilib borish

Metodik kengash vazifalari

Ta'lim muassasasida fanlar yoki bir-biriga yaqin bo'lgan fanlar turkumlari bo'yicha **Metodika birlashmalar** faoliyat ko'rsatadi.

Metodika birlashmalar **maqsadi** o'qituvchilar metodik, kasbiy mahoratlarini takomillashtirish, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy talablari bajarilishini ta'minlashda ko'maklashish, ijodiy tashabbuslarni uyg'unlashtirish va ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy usullarini ishlab chiqishdan iborat

Metodika birlashmalari o'zida metodika kengashining vazifalarini aks ettiradi. Shu bilan birga quyidagi **vazifalarni** amalga oshiradi:

Asosiy vazifalar

Fanlar bo'yicha taqvimiy-mavzuiy rejalarni tasdiqlashga tavsiya etish, oraliq va yakuniy nazoratlar uchun tayyorlangan sinov materiallarini tasdiqlash, ilg'or ish tajribalarini o'rganishni tashkil qilish, ommalashtirish, metodik ta'minotga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, o'zaro dars kuzatishlarni tashkil qilish, tahlil etish; ochiq darslarni tashkil etish, yosh mutaxassislariga metodik yordam berish; ko'rgazma va ko'rsatma vositalardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalarni berish; fan xonalarining meyoriy hujjatlar talablari asosida jhozlanishini tashkil etish

Metodik birlashmalarining vazifalari

Metodika birlashmasiga Pedagogik kengash qaroriga ko'ra ijodkor va tajribali o'qituvchilardan ta'lim muassasasi direktorining buyrug'i bilan rahbar tayinlanadi.

Ta'lim muassasalari rahbarlarining vazifalari. Ta'lim muassasasida o'quv-tarbiya jarayoni, kundalik faoliyatga rahbarlik bevosita ta'lim muassasasi direktori tomonidan olib boriladi.

Ta'lim muassasasi direktorining vazifasi quyidagilardan iborat: davlat va jamoat tashkilotlari oldida ta'lim muassasasining manfaatlarini ifodalash; o'quv-tarbiya jarayoni muvaffaqiyatini ta'min etish; o'quv dasturlarining bajarilishini nazorat qilish, ta'lim-tarbiya ishlarining sifati va samaradorligi, bolalik va mehnatni muhofaza qilish talablarining rioya qilinishi, shuningdek, ta'lim muassasasidan tashqarida ma'naviyat ishlarini tashkil qilinishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; pedagogik va rahbar kadrlarni tanlab joy-joyiga qo'yish, ularning vazifalarini belgilash, pedagogik kadrlar, kabinet va ustoxona mudirlarini belgilash, sinf va guruh rahbarlarini tanlash, pedagog va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni ishga qabul qilish hamda bo'shatish; ta'lim muassasasi pedagogik xodimlarini attestatsiyadan o'tkazuvchi komissiyaga rahbarlik qilish; ta'lim muassasasi pedagogik xodimlarining ijodiy ishlari, ta'lim-tarbiyaning ilg'or shakl va usullarini qo'llashlari uchun shart-sharoitlarni yaratish; ta'lim muassasasiga ajratilgan moliyaviy mablag'lar, sarf-xarajat hisobini yuritish; ta'lim muassasasi meyoriy hujjatlarining to'g'ri yuritilishini ta'miniyash; ta'lim muassasasi Pedagogik kengashi, mahalliy hokimlik organlari oldida o'z faoliyati to'g'risida hisob berib turish.

O'quv-tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari: o'quv haftasi va o'quv mashg'ulotlarining davomiyligini ta'minlash; dars


jadvalini tuzib chiqish va shu jadvalga binoan darslarning o'z vaqtida samarali o'tkazilishini ta'minlash; har bir chorak oxirida, semestr davomida direktor va ta'lim muassasasi Pedagogik kengashi a'zolariga o'quv jarayonining borishi xususidagi axborot va ma'lumotlarni berib borish; yosh mutaxassislariga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish; sinf va guruh jurnallarini to'g'ri yuritish va saqlanishiga javob berish; o'quvchilarning bilim darajasini reja asosida tahlil qilib borish; o'quvchilar tomonidan davlat dasturlarining bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari: ta'lim muassasasida o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish, jamoat tashkilotlari va mahalla, ota-onalar bilan aloqani ta'minlash; ta'lim muassasasi va undan yuqori miqyosda o'tkaziladigan darsdan tashqari tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish; ta'lim muassasasi o'quvchilarining sinf, guruh yoki ta'lim muassasasidan tashqari olib borayotgan mashg'ulotlarini kuzatib borish, ularga amaliy va metodik yordam uyushtirish; ta'lim muassasasidagi "Yosh yetakchi"ning ishini nazorat qilish va unga yo'l-yo'riq ko'rsatish.

Pedagog kadrlar malakasini oshirish. Zamonaviy o'qituvchining g'oyaviy-siyosiy, ilmiy-metodik va kasbiy saviyaga ega bo'lishi, fidokorlik ko'rsatishi ko'p jihatdan pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni samarali tashkillashtirish, nazorat qilinishiga bog'liq.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishdan maqsad o'qituvchilarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, kasbiy bilimlarini takomillashtirish asosida ta'lim-tarbiya sifatini keskin oshirishdan iborat

Malaka oshirish tizimida pedagoglarni ijodiy izlanishga odatlantirish va ijodkorligini rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik kadrlar malakasini oshirishning bir qancha shakllari ishlab chiqilgan bo'lib, ularni quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:



Pedagoglarning malakasini oshirish shakllari

Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish. Attestatsiya pedagoglarda kasbiy mahorat o'sishini rag'batlantirish, ta'lim-tarbiyada ilg'or PTni yaratish va qo'llash, ma'naviy-ma'rifiy ishlar natijalarni xolis baholash, egallab turgan yoki da'vogarlik qilinayotgan toifa, lavozimlarga munosiblikni aniqlash, ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish maqsadida o'tkaziladi.

Pedagog kadrlar attestatsiyasi 5 yilda bir marta O'zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test Markazi tarkibidagi "Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari attestatsiyasi boshqarmasi" va Xalq ta'limi Vazirligi bilan birgalikda ishlab chiqilgan jadvallar asosida tashkil etiladi. Xalq ta'limi tizimi pedagog kadrlar tarkibiga

professor-o'qituvchi, o'qituvchi, metodist, tarbiyachi, psixolog, defektolog, logoped, sport instruktori, musiqa va to'g'arak rahbarlari kiradi.

Pedagog kadrlar attestatsiyasini tashkil etish jarayonida quyidagi ishlar amalga oshiriladi: pedagog kadrlar o'z mutaxassisligi hamda meyoriy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlar bo'yicha test sinovidan, suhbatdan o'tkaziladilar; pedagog o'qitayotgan fan bo'yicha o'quvchilarning bilim va o'zlashtirish darajasi o'rganiladi; o'quvchilar o'rtasida sotsiologik so'rovlar o'tkaziladi.

Pedagogning umumiy bali test, suhbat natijalari, o'quvchilarning bilim darajasi, ilmiy, o'quv-metodik ishlari va ixtirolari, ijodiy ishlari, ish staji, pedagogning komissiya tomonidan o'rganilgan kasbiy mahorati, rahbariyat tomonidan berilgan baho yig'indisidan iborat bo'ladi.

Maxsus maktablar, maktabgacha va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, madaniyat, sport, san'at sohalari pedagog kadrlari, muhandis-pedagog kadrlar va ishlab chiqarish ustalari o'z mutaxassisliklari bo'yicha suhbatdan o'tadilar.

Pedagoglar uchun meyoriy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlar bo'yicha **test savollari to'plami** O'zRning Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", DTS, milliy istiqolol g'oyasi, ma'naviyat asoslari, yangi PTga oid masalalardan tarkib topadi.

Bordi-yu, pedagog attestatsiyadan o'ta oimasa, shuningdek, tayanch ma'lumoti dars berayotgan faniga mos kelmasa yoki qayta tayyorlash kurslaridan o'tmagan bo'lsa u holda o'z mutaxassisligiga ko'ra attestatsiyadan o'tish, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish kursida ta'lim olish taklif etiladi. Bunday takliflarga rozi bo'lmagan o'qituvchilarning mehnat shartnomasi bekor qilinadi. "Attestatsiyadan o'tmad!" deb topilgan, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish kursiga yuborilgan pedagoglar bir yildan so'ng qayta attestatsiyadan o'tkaziladilar.

Nazorat uchun savollar:

1. Ta'lim muassasasini boshqarishda nimalarga e'tibor beriladi?
2. Ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etishda jamoatchilik boshqaruviga asoslanish qanday ahamiyatga ega?
3. Ta'lim muassasalarining Nizomlarida qanday g'oyalar yoritiladi?
4. Ta'lim muassasasini boshqarish tamoyillari nimalardan iborat?

5. Ta'lim muassasalari rahbari (direktor, o'quv ishlari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari)ning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

6. Ta'lim muassasasida metodik ishlar qay tarzda yo'lga qo'yiladi?

7. Pedagog kadrlar malakasini oshirish va ularni attestatsiyadan o'tkazishdan qanday maqsad ko'zlanadi?

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMA

I. Talaba mustaqil ishining maqsad va vazifalari:

1.1. Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi- o'qituvchining raxbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishiarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

1.2. Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Fan bo'yicha yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- Fan bo'yicha kerakli ma'lumotlarni izlab topish, qulay usullari va vositalarini aniqlash;

- Mavzuga tegishli axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;

- Fan bo'yicha an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, meyoriy xujjatlar bilan ishlashga o'rgatish;

- Fan bo'yicha elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlashga o'rgatish;

- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;

- Mavzu bo'yicha berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash;

- mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish.

II. Talaba mustaqil ishining tashkiliy shakllari

2.1. Talaba mustaqil ishini tashkil etish fanning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;

- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;

- rejaviy material qismini mustaqil o'rganish bo'yicha qanday ma'ruza mashg'ulotlari chegarasida bo'lsa, amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlikda axborotni elektron o'quv adabiyotlari, Internet va boshqalarni qo'llash;

- fanning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash;

- epidemiologik tekshirish olib borish vaqtida mutaxassislar rahbarligida

yangi texnika va asboblarni, ilmiy texnologiya va jarayonlarni o'rganish;

- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash.

2.2. O'quv fanlari bo'yicha namunaviy va ishchi dasturlarda talaba mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi.

2.3. Talaba mustaqil ishi uchun ajratilgan vaqt budjetga mos ravishda fan bo'yicha kafedrada taqdim etilgan mustaqil ishning tashkiliy shakllari, topshiriqlar variantlari ishlab chiqilgan va fakultet ilmiy-uslubiy kengashida tasdiqlangan.

2.4. Mustaqil ishni bajarish uchun fan bo'yicha talabalarga zaruriy metodik qo'llanma, ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

III. Talaba mustaqil ishning axborot ta'minoti

3.1. Talaba uchun fan bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari kafedra Fan yo'nalishi professori va dotsenti tomonidan o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchilar bilan birgalikda tuzilgan, hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan. Talabaga berilgan topshiriqda mustaqil ishni bajarish bo'yicha dastlabki ko'rsatma va tavsiyalar qayd etilgan.

3.2. Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanma va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, Internet tarmog'idagi tegishli ma'lumotlar, berilgan mavzu buyicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.

3.3. Kafedra mudiri va fakultet dekani taqdimnomasi asosida Akademiya rahbariyati talabalarga mustaqil ishlarni bajarish uchun Akademiyaning o'quv zallarida va talabalar turar joyida zamonaviy kompyuterlar va Internet tarmog'i, zamonaviy darsliklar, elektron darsliklar, ma'ruza matnlari, turli ilmiy-ommabop jurnal manbalarini ta'minlab bergan va foydalanishga sharoit yaratgan.

MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI:

1. Rivojlantiruvchi va tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan texnologiyalar.
2. Muammoli ta'lim texnologiyasining mohiyati va mazmuni.
3. Ta'limda keys texnologiyasi.
4. O'quv -loyihaviy ta'limning asosiy tamoyillari.
5. Ta'lim muassasalarida tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv va uni loyihalash.
6. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari va ilg'or xorijiy tajribalar.
7. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida nazorat qilish va baholashning zamonaviy ko'rinishlari.
8. O'yin - maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati sifatida.
9. Shaxs faoliyatining turlari va uning ta'lim olishga ta'sir kuchi.
10. O'zbekistonda mustaqillik yillarida ta'lim sohasida amalga oshirilgan innovatsiyalar va ularning natijalari.
11. Innovatsion jarayonlarni boshqarishning pedagogik xususiyatlari
12. Pedagogik mahoratni shakllanishida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining roli.
13. Elektron pedagogika va uning o'ziga xos xususiyatlari.
14. O'zbekistonda mustaqillik yillarida pedagogik diagnostika sohasida amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari.
15. O'qituvchining muloqotga kirishishida uchraydigan pedagogik nizolar, kamchiliklar, ularni oldini olish yo'llari.
16. O'qituvchi xarakteri va uning individual xususiyatiga qarab toifaga bo'linishi.
17. Eng qadimgi davrlardan XX asrning boshigacha bo'lgan davrda o'qituvchi-ustoz, shogird va ularning jamiyatdagi o'rni, mahorati haqidagi pedagogik fikrlar.
18. Qobiliyatlarning pedagogik-psixologik tasnifi. Pedagogik qobiliyatlarning asosiy turlari. Empatiya va peritseptiv qobiliyatlari. Tashkilotchilik, bilish, anglash qobiliyatlariga tasnif.
19. Pedagogik qobiliyatlar haqida sharq mutafakkirlarining fikrlari. O'qituvchining kommunikativ qobiliyati.

20. An'anaviy texnologiyaning o'ziga xosliklari.
21. Ta'limning fanni o'zlashtirishga yo'naltirilgan texnologiyasi.
22. Ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasi.
23. Pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari.
24. Pedagogik texnologiya pedagogikaning mustaqil sohasi sifatida.
25. O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi.
26. Pedagogik qobiliyatlar haqida sharq mutafakkirlarining fikrlari.
27. O'qituvchining kommunikativ qobiliyati.
28. Sugestopeyedia metldi va uning afzalliklari

GLOSSARIY

Axborot — manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

Interaktivlik - texnik vositalar, kompyuter, ularning dasturlari hamda foydalanuvchilar orasidagi o'rnatilgan muloqat (muloqat tizimi) ni tashkil etish, ya'ni maqsadga ko'ra tizim elementlari orasidagi axborot va ma'lumotlar almashinuvi tushuniladi.

Tarbiya nazariyasi - pedagogika fanining tarkibiy qismi bo'lib, yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashning mazmuni, metod va usullari hamda tashkil etish masalalarini o'rganadi.

Tarbiya – aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida tashkil etilib, shaxsni mehnat va ijtimoiy faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Aqliy tarbiya - barkamol inson tarbiyalashning yetakchi tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarni tabiat va jamiyat, kishi tafakkuri haqidagi bilimlarni o'zlashtirib olishlari, ularda ilmiy dunyoqarash, yuqori ongliklik xislatlarini tarbiyalash, fan asoslaridan xabardor qilish, tafakkur va nutq qobiliyatlarini o'stirishni maqsad qilib qo'yadi.

Jismoniy tarbiya - ijtimoiy tarbiya tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Axloq - ijtimoiy ong shakllarida bo'lib, insonlarning o'zi, do'st-birodarlari, jamoa a'zolari va tabiatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi xulq-odob qonun-qoidalarining majmuidir.

Axloqiy tarbiya – jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy meyorlar va xulq-odob qoidalarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish maqsadida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat jarayoni. ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Mehnat tarbiyasi - o'quvchilarga mehnatning mohiyati, mazmunini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat. shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni. ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Estetik tarbiya - o'quvchilarni tabiat va jamiyatdagi go'zallikni idrok qilish, uni to'g'ri tushunish va fahmlash, qadriga yetish, shu asnoda o'z

shaxsiy hayotining go'zal jihatini ko'ra bilishga, go'zal bo'lish uchun kurashishga o'rgatuvchi pedagogik faoliyat jarayoni, ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Tarbiya jarayoni - o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik.

Shaxs - konkret kishi, ya'ni, muayyan jamiyatning a'zosi bo'lib, u psixologik jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadi.

Individ (lotincha "individuum") - bo'linmas, alohida shaxs, yagona ma'nolarini anglatadi.

Individuallik - tarbiya jarayonini amalga oshirishda bolaning shaxsiy xususiyatlari va yashash sharoitlarini chuqur bilish hamda hisobga olish.

Rivojlanish - shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'layotgan miqdor va sifat o'zgarishlarning mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Faoliyat - inson tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq o'zgartirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-tarixiy turmushning o'ziga xos shakli.

Yosh xususiyatlari - muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Tarbiya nazariyasi - pedagogika fanining tarkibiy qismi bo'lib, yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashning mazmuni, metod va usullari hamda tashkil etish masalalarini o'rganadi.

Тарбия - aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida tashkil etilib, shaxsni mehnat va ijtimoiy faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Aqliy tarbiya - barkamol inson tarbiyalashning yetakchi tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarni tabiat va jamiyat, kishi tafakkuri haqidagi bilimlarni o'zlashtirib olishlari, ularda ilmiy dunyoqarash, yuqori onglilik xislatlarini tarbiyalash, fan asoslaridan xabardor qilish, tafakkur va nutq qobiliyatlarini o'stirishni maqsad qilib qo'yadi.

Jismoniy tarbiya - ijtimoiy tarbiya tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Axloh - ijtimoiy ong shakllarida bo'lib, insonlarning o'zi, do'st-birodarlari, jamoa a'zolari va tabiatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib

turuvchi xulq-odob qonun-qoidalarining majmuidir.

Axloqiy tarbiya – jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy meyorlar va xulq-odob qoidalarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish maqsadida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat jarayoni, ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Mehnat tarbiyasi - o'quvchilarga mehnatning mohiyati, mazmunini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni, ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Estetik tarbiya - o'quvchilarni tabiat va jamiyatdagi go'zallikni idrok qilish, uni to'g'ri tushunish va fahmlash, qadriga yetish, shu asnoda o'z shaxsiy hayotining go'zal jihatini ko'ra bilishga, go'zal bo'lish uchun kurashishga o'rgatuvchi pedagogik faoliyat jarayoni, ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Tarbiya jarayoni - o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik.

Shaxs - konkret kishi, ya'ni, muayyan jamiyatning a'zosi bo'lib, u psixologik jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadi.

Individ (lotincha "individium") - bo'linmas, alohida shaxs, yagona ma'nolarini anglatadi.

Individuallik - tarbiya jarayonini amalga oshirishda bolaning shaxsiy xususiyatlari va yashash sharoitlarini chuqur bilish hamda hisobga olish.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'layotgan miqdor va sifat o'zgarishlarning mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Faoliyat - inson tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq o'zgartirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-tarixiy turmushning o'ziga xos shakli.

Yosh xususiyatlari - muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Davlat ta'lim standarti – 1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar

bitiruvchilar erishishlari zarur bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; 2) o'quv fani bo'yicha ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; 3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi. o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablar.

Dars - bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli.

Darslik - muayyan fan bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba.

Didaktika (ta'lim nazariyasi) - (yunoncha «didaktikos» "o'rgatuvchi", «didasko» - "o'rganuvchi") - ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi. ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolari)ni o'rganuvchi fan.

Didaktika tamoyillari (lotin tilidan «principium» - har qanday nazariyaning asosiy, boshlang'ich, dastlabki holati) - ta'limni tashkil etishga qo'yilgan meyoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta'lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari.

Didaktik tashhis maqsadi - o'quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.

Didaktik tizim (yunoncha «systema» - yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) - ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayonining yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish.

Didaktik o'yin - o'rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi.

Ko'nikma - olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi.

Malaka - ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

Ma'lumot - ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Oligofreniya (yunoncha «olygos» - kam, «phren» - aql) - bu natal (tug'ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan

aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

Pedagogika (yunoncha «paidagogike» bo'lib, «paidagogos» - bola, yetaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.

Pedagogika tarixi – ta'lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda yetakchi o'rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o'rganadi.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari – shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

Pedagogik paradigma (yunoncha «paradeigma» - misol, namuna) – pedagogika fani rivojining ma'lum bosqichida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko'rsatmalar to'plami; ta'limning konseptual modeli.

Prinsip (yunoncha «principium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Surdopedagogika (yunoncha «surdus» – kar) - eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganuvchi fan; korreksion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi.

Ta'lim – o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.

Ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta'lim konsepsiyalari (lotin tilidan «conceptio» – tizim) – ta'lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida ta'lim muassasalari faoliyati yo'nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.

Ta'lim mazmuni – davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan

hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya.

Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) – ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Tiflopedagogika - (yunoncha typhlos – ko'r) – ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish muammolarini o'rganuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Test - aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Umumiy pedagogika – maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi.

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning nimaga intilayotgani, uning urinishlari yo'naltirilgan.

Mazmun (ta'lim, bilim olishning mazmuni) – ta'lim jarayonida o'quvchi egallab olishi zarur bo'lgan ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat hamda fikrlash usullarining tizimi.

Ta'lim – 1) shaxs shakllanishi, u tomonidan bilimlarning anglanishini boshqarish, ijtimoiy-tarixiy tajribalarni o'zlashtirish, o'quvchilarning u yoki bu faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini egallashlari, o'zlashtirish jarayonidagi muloqot; 2) bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, duayoqarashni shakllantirish, mavjud aqliy imkoniyatlarni rivojlantirish, qo'yilgan maqsadlarga muvofiq mustaqil ta'lim malakalarini ishlab chiqish va mustahkamlashga yo'naltirilgan o'qituvchilar hamda o'quvchilarni o'zaro hamkorlik jarayonlarini boshqaruvchi maxsus tashkil etilgan jarayon; 3) ikki tomonlama (teskari, qaytar) aloqa asosida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiladigan pedagogik munosabat jarayoni.

Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) – ta'lim nimaga erishishini qayd etuvchi tushuncha, o'quv jarayonining oqibati, belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Pedagogik paradigma – (yunoncha paradeigma - misol, namuna) – pedagogika fani rivojining har bir bosqichida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko'rsatmalar to'plami bo'lib, u ta'limning konseptual modeli sifatida

qo'laniladi.

Ta'lim konsepsiyalari (lotin tilidan conceptio – tushunish, anglash, tizim) – tayanch o'quv fanlarni o'rganish mazmuni va davomiyligi borasidagi qarashlar tizimi, shuningdek, turli o'quv yurtlarining ta'limiy dasturlar maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.

O'qishning sinf-dars tizimi - o'qish doimiy tartibdagi o'quvchilar ishtirokida o'quv rejasi asosida tuzilgan aniq jadval bo'yicha sinfda olib boriladigan o'quv jarayoni. Ta'limning asosiy shakli dars hisoblanadi. Har bir sinfda o'qish mazmuni o'quv rejalari va dasturlari asosida belgilanadi. Dars o'tkazish joyi bo'lib sinf xonalari, o'quv kabinetlari, ustaxonalar va shu kabilar xizmat qiladi.

Litsey (kollejda) leksiya – o'quv materialini o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini faollashtirish uslublari bilan birgalikda davomli og'zaki bayon etish (80-90 minut), (asosiy fikrni yozib borish, konspekt yozish) berilayotgan materialning sxematik modelini tuzish va boshqalar.

Didaktik tashhisning maqsadi – o'quv jarayonini uning samaradorligi bilan bog'liq holda aniqlash, baholash va tahlil qilish.

Nazorat – ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, o'lchash va baholash.

Hisobga olish – ta'limning muayyan davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirish asosida xulosalash.

Joriy nazorat – muayyan mavzularning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilish darajasini ta'lim jarayonida muntazam ravishda nazorat qilish.

Oraliq nazorat – ma'lum o'quv fani yuzasidan muayyan mavzular bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini aniqlash (yozma, og'zaki va test shaklida o'tkaziladi).

Yakuniy nazorat – chorak yoki yarim yillik uchun belgilangan mavzular to'liq o'tib bo'lingach, o'tilgan mavzular bo'yicha yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi.

Reyting - baholash, tatibga keltirish, klassifikatsiyalash, bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash.

Shkalalash - aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Test - aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Standart - inglizcha so'z bo'lib, namuna etalon, andoza ma'nolarini bildiradi, ta'limning mazmuniga, bitiruvchilarning tayyorgarligiga

qo'yiladigan talab va meyorlarni belgilaydi.

Litsey - yunoncha so'z bo'lib, Afina yaqinida Appollon Likey ibodatxonasi atrofidagi daraxtzor nomi, bir qator davlatlarda o'rta maxsus ta'lim muassasasi.

Kollej - fransuzcha so'z bo'lib, Fransiya, Belgiya, Shveysariya va b. davlatlarda o'rta maxsus ma'lumot beradigan va kasb-hunarga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi.

Institut - lotincha so'z bo'lib, "mahkama", "idora" ma'nosini bildiradi, oliy ma'lumot beruvchi muassasa.

Universitet - lotincha so'z bo'lib, "to'plan", "umumiylik" ma'nosini bildiradi. Keng sohalar bo'yicha oliy ma'lumot beruvchi o'quv-ilmii ta'lim muassasasi.

Akademiya - afsonaviy qaxramon Akadem nomi bilan bog'liq, ilmiy, o'quv va badiiy xususiyatga ega bo'lgan oliy ta'lim muassasasi.

Pedagogik vaziyat - pedagogik jarayonda zquuvchi tomonidan maxsus tashkil etiladigan yoki o'z-o'zidan paydo bo'ladigan vaziyat va holatlar yig'indisidir.

Pedagogik improvizatsiya - Fransuzcha so'z bo'lib, kutilmagan degan ma'noni bildiradi. O'qituvchining pedagogik jarayonda kutilmagan holatlarda vaqt. vaziyatga mos keladigan xarakatlashuvidir.

Pedagogik intuitsiya - lotincha so'z bo'lib, sinchkovlik, e'tibor ma'nosini bildiradi. O'qituvchining pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan hodisalarni mohiyatini nozik his etish, tushunish qobiliyatidir.

Perseptiv qobiliyat - "Lotincha so'z bo'lib", zehn, uvuv ma'nosini bildiradi, o'quvchining ichki dunyosiga kira olish, psixik holatlarini yaxshi tushunishi.

O'quv sayohat - tabiiy sharoitdagi jarayonlar, hodisalar, narsalarni o'rganish va kuzatish uchun o'tkaziladigan o'qitish shakli.

Fan to'garaklari - o'quvchilarni qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishga, ta'lim sifatini ijobiy ta'sir ko'rsatadigan o'qitish shakli

Uy vazifasi- darsda o'rganilgan bilimlarni chuqurlashtirishga, yangi dars tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan o'qitishning asosiy va doimiy shakli.

Amaliyot- nazariy bilimlarni kengaytirishi, chuqurlashtirish, kasbga yo'nalganligini rivojlantirishga, tajriba orttirishga qaratilgan o'qitish shakli.

Avtoritar pedagogika (avtoritar pedagogik texnologiya) — ta'lim-tarbiya jarayoniga rahbarlikda o'qituvchining obro'siga asoslanish, unga o'quvchilarning ko'r-ko'rona, so'zsiz itoat etishlari. Bunda o'quvchilarning

erkin va mustaqil fikrlashlari, shunday harakatlar qilishlari cheklangan bo'radi.

Avtorit — shaxsning boshqalar e'tirof qilgan obro'si, fazilati, boshqalarga nisbatan ta'siri va ular tomonidan qadrlanishi. Avtoritet chin yoki soxta bo'radi.

Bilim — borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi. Obyektiv reallikning inson ongida adekvat aks ettirilishi (tasavvur, tushuncha, mulohaza, nazariyalar). U kundalik, ilmiy, empirik, nazariy bilimlarga ajraladi. Kundalik bilim sog'lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga asoslanadi. Insonning atrof-muhitga moslashuvi, uning xatti-harakatlari va oldindan ko'ra bilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy bilim — tizimli, asosli va narsa, hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bo'radi. U empirik va nazariy darajada bo'radi

Vertikal pedagogika — yuqori sinf o'quvchilarining quyi sinf o'quvchilariga yordam ko'rsatishini tashkil qilish sharh. Bunda har bir o'quvchining ayrim fan bo'yicha o'zidan bir sinf yuqorida o'qiydigan o'quvchilardan ilmiy rahbari va bir sinf quyida o'qiydigan o'quvchilardan otaliqdagi o'quvchisi bo'radi. Uquvchilarga o'zlari quyi sinf mavzusini takrorlash keyin quyi sinf o'quvchisidan sinov olish varaqasini (savollar, misol yoki topshiriqni) tayyorlash topshiriladi. Sinov haftada bir marta o'tkaziladi. Sinov jarayonida kuyi sinf o'quvchisi mavzuni to'liq o'zlashtirgunicha o'zaro muloqot davom etadi. Natijada yomon baholar bo'lmaydi.

Guruhli ta'lim — bir o'qituvchi bir necha o'quvchini o'qitadigan ta'lim shakli. Guruhlar o'quvchilar soniga qarab: kichik (3-6 o'quvchi), o'rta (7-15 o'quvchi), katta (15 dan ortiq o'quvchi) guruhlarga ajratiladi. Shuningdek, har bir guruhdagi ta'lim ta'lim oluvchilarning yoshiga, ta'lim yo'nalishiga va shu kabilarga qarab ham guruhlarga ajratiladi: Bu shaklni qo'llash jarayonida yakka ta'lim shakllari ham amalga oshiriladi.

Diagnostika — pedagogikaning bo'limi, ta'lim-tarbiya jarayonlarining maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari, natijalarining sifati va samaradorligini, pedagogik xodimlarning kasbiy tayyorliklari, bilim, ko'nikma, malaka va mahoratlarini, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlari va tarbiyalanganlik darajalarini har tomonlama o'rganish, tahlil qilish asosida xulosalar chiqarish, baholash va yanada takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish bilan shug'ullanadi.

Interfaol mashg'ulot — o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirok

etadigan mashg'ulot; jarayon hamkorlikda kechadi.

Ko'nikma — ongli faoliyat (harakat)ni tez, tejamli, to'g'ri, kam jismoniy va asabiy kuch sarflagan holda, bajarish. Shaxsning bilimlarni asosida tarkib topadi. Dastlabki shakllanish bosqichlarida bunday harakatlar jiddiy diqqat bilan bajariladi, keyingi bosqichlarda diqqat bilan nazorat qilish kamayib boradigan va natijada avtomatlashgan harakatga aylanadi. Harakat turlari bo'yicha uch turga: harakat ko'nikmalari, sensor ko'nikmalar, aqliy ko'nikmalarga bo'linadi. Ko'nikmalar muntazam mashq qilish takrorlash orqali zarur darajada saqlanadi. Ma'um vaqt takrorlamaslik ko'nikma darajasining pasayishiga olib keladi. Uni qayta mashqlar bajarish, malaka oshirish orqali tiklanadi.

Malaka — shaxsning ma'lum kasbga yaroqlilik, tayyorlik darajasi, shu kasbda ishlay olishi uchun zarur bilim, ko'nikmalari yig'indisi. Kasbiy axborotlarning tez ko'payib borayotgani ilgari o'zlashtirilgan malakaning yetishmasligini keltirib chiqaradi. Bu yetishmaslikni qayta tayyorlash va malaka oshirish orqali to'ldiriladi. Bu jarayon uzluksiz davom etgandagina malaka ortib borishi orqali kasbiy faoliyatni hozirgi talablar darajasida davom ettirish imkoniyati hosil bo'ladi.

Malaka oshirish - mutaxassislar va rahbar xodimlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash hamda rivojlantirish jarayoni

Mahorat — shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati. Biror sohadagi moslashuvchan ko'nikma va ijodkorlik asosida hosil bo'lgan kasbiy ko'nikmalarning yuqori darajasi, kasbiy mohirlik. Biror faoliyat sohasidagi yuqori darajada egallangan bilim, ko'nikma, malakalarni amaliyotda yuqori sifat va samaradorlik bilan qo'llash

Monitoring — korxonada, tashkilot, muassasa holatini har tomonlama baholash va uning faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida maxsus tashkil qilingan tizimli kuzatuv. Meyoriy hujjatlar, yuqori tashkilotlarning buyruq va qarorlari ijrosi o'z muddatida hamda kanday sifat va darajada amalga oshirilayotganligini kuzatuv tizimi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonun. O'zRQ-637-son. 23.09.2020. <https://lex.uz/docs/5013007>
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. Toshkent, "Ma'naviyat", 2008.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70 modda.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston NMIU, 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston NMIU, 2017.
7. Abdullayeva Sh., Askarov A. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma. -T.: 2019.
8. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010 .
9. Sayidahmedov N.S, Indianinov N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya Toshkent-"Fan va texnologiya"-2014.
10. Ishmuhamedov R, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. -T.: 2013.
11. Aleks Muur. Ta'lim berish va ta'lim olish: pedagogika, ta'lim dasturi va tarbiya. -Rutledj. Ikkinchi nashr. 2012. 202.
12. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Istoriya pedagogiki i obrazovaniya. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2008.
13. Ziyomuhamedov B. Pedagogik mahorat asoslari.-T.: TIB-KITOB. 2009
14. Atayeva N. Va boshqalar. Umumiy pedagogika.-T.: 2015 y.
15. Toxtaxodjayeva M. umumiy tahriri ostida. Pedagogika.-T.: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati. 2010 .
16. Soiqov U., Mavlonov M. Pedagogika. O'quv-uslubiy qo'llanma. -T.: 2015.
17. Djuraev R.H. Ta'limda interfaol texnologiyalar. -T.: Sano-standart, 2010.
18. Содиқов У.Ж. Инновационное образование как фундамент для развития государства // Высшая школа, №21 (ноябрь), 2020.
19. Zebuniso Akhrorova. Problems of womens education in the 19 th

century. International journal of Advanced Science and Technology Australia SIR. Vol. 29, No. 11s, (2020), pp. 1615-1618

20. Худойкулов Х.Ж. Современные информационные технологии как ресурсы развития образования // «Global science and innovations 2020:central asia» халқаро конференция материаллари. Нур-Султан. 25 июнь 2020 йил. –Б.37-40.

21. Hudoyqulov H. Ijtimoiylashuvda axborot kommunikatsion texnologiyalarning o'quvchilar ongiga ta'siri // «Global Science and Innovations 2020: Central Asia» xalqaro konferensiya materiallari. -Nur-Sultan, 2020. –b.37-40.

22. Hudoyqulov H. Globallashuv davrida axborot kommunikatsion texnologiyalarning ta'lim oluvchilar ongiga ta'siri // Xalq ta'limi, №3, 2020. –b.47-52.

23. Allayarova S. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari – oliy ta'lim sifati va samaradorligini oshirish omili // Zamoniy ta'lim, 2020. №4 (89). –b.10-19.

24. Hudoyqulov H., Allayarova S. Oliy ta'limda modulli o'qitish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Monografiya. –T.: Mumtoz so'z, 2019. -130 b.

25. Sodiqova Sh. Universitet talabalarini pedagogic faoliyatga tayyorlash – pedagogik muammo sifatida // O'zMU xabarlari. 2020, №1/1 (Ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumi).

26. Джураев Р. Формирование умений исследовательской деятельности у будущих магистров // Гармонично развитое поколение – условие стабильного развития Республики Узбекистан/ Сборник научно-методических статей. УзНИИПН. 2017. Часть 17. –Б.8-14.

27. Caena, F. (2011). Literature review Teachers' core competences: requirements and development. Education and Training 2020 Thematic Working Group 'Professional Development of Teachers'. Retrieved from: http://ec.europa.eu/education/policy/strategicframework/doc/teacher-competences_en.pdf

28. Shodmonov Sh. Mechanisms for Development of Students' Worldview: Social Networks and Education, Development of Educational Process in Schools through Use of Social Networks, its Significance and Analysis // International Journal for Research & Development in Technology. Volume-12, issue-6(dec-19) issn (o): - 2349-3585, 314-317p.

O'quv-uslubiy nashr

**AXRAROVA ZEBUNISA BAXROMOVNA,
SADIKOVA SHOIRA ODELJANOVNA,
SODIKOV ULUGBEK JURAYEVICH,
ALLAYROVA SOLIXA NARZULLOEVNA,
SHODMONOV SHOHRUH ADXAMZODA**

UMUMIY PEDAGOGIKA

O'QUV QO'LLANMA

Nashriyot muharriri: Ilhom Yo'ldashev
Musahhiha: Sarvinoz Musaxo'jayeva
Texnik muharrir: Behzod Boltaboyev

«MUMTOZ SO'Z»
oilaviy korxonasi
nashriyoti

Manzil: Toshkent, Navoiy ko'chasi, 69.
Tel.: 71 241-60-33

Bosishga ruxsat etildi 29.12.2020 Qog'oz bichimi 60x84 1/16.
Ofset qog'oz. Times New Roman garnituras.
Hisob-nashriyot tabog'i 20,0. Shartli bosma tabog'i 20,05.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 202.
Bahosi kelishilgan narxda.

Mirzo Ulu'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
bosmaxonasida chop etildi. Toshkent, Talabalar shaharchasi, O'zMU.